



O'Imas
Umarbekov

Odam bo'lish qiyin




YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2015

UO‘K: 821.512.133-3

KBK: 84(50‘)6

O‘ – 47

Umarbekov, O‘lmas

Odam bo‘lish qiyin: roman va hikoyalar. / O‘lmas Umarbekov – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – 352 b.

ISBN 978-9943-27-508-9

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidagi o‘zbek nasri rivojida yozuvchi O‘lmas Umarbekovning o‘ziga xos o‘rni bor. Uning yoshlar hayoti, ma’naviy-axloqiy muammolar, insonlarning murakkab munosabatlari haqida yaratilgan roman, qissa va hikoyalari bugungi kunda ham sevib o‘qiladigan asarlardir. Adib bolalarning bepoyon orzular olami, yoshlarning goh lazzatli, goh iztirobli muhabbati, sidq-u vafo, xiyonat, otalar va bolalar, umuman, turfa toifadagi insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni g‘oyat chuqur va samimiy tasvirlaydi. Shuning uchun ham adibning asarlari hamon kitobxonlar qalbini rom etib kelmoqda.

UO‘K: 821.512.133-3

KBK: 84(50‘)6

ISBN 978-9943-27-508-9

© O‘lmas Umarbekov, «Odam bo‘lish qiyin». «Yangi asr avlodi», 2015.

ODAM BO'LISH QIYIN

(Roman)

MUQADDIMA

*Osmondagi bo'zto'rg'ay,
Bo'zlamasang na bo'lg'ay?
Gulchehraning holini
So'zlamasang na bo'lg'ay?*

(Alyor)

Shoh Muslim dunyodagi eng dono, eng odil podsholardan edi. Uning mamlakati go'zal, shaharlari obod, xalqi tinch, farovon turmush kechirardi. Ammo podshoning farzandi yo'q edi. Bu faqatgina uning o'zini emas, butun xalqni tashvishga solib qo'ygan edi. Oradan ko'p yillar o'tdi. Podsho qarib, bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda turgan paytda farzand ko'rdi. Sevinchi ichiga sig'may qirq kecha-yu qirq kunduz xalqqa osh berdi. Qirq birinchi kuni esa yetti iqlimdagi barcha dong'i ketgan odamlar, fozil-u fuzalo, olim-u ulamolarni yig'ib o'g'lini ko'rsatdi va o'z xalqining odaticha uning kelajagini aytib berishni so'radi. Hamma jim. Hammaning boshi quyi solingan... Podsho hayron bo'ldi.

– Bu jimlikning boisi nima?

Yana hech kimdan sado chiqmadi. Oradan ancha vaqt o'tdi. Og'ir sukunatni Suqrotdek keksa bir olim buzdi.

– Shohim, ro‘parangizda bosh egib turganlar mendan yosh. Men esa dunyoga qachon kelganimni unutganman, dunyoning barcha achchiq-chuchugini totgan odamman. Shularning qonidan kechsangiz, men aytay?

– Ayt!

Shunda keksa olim dedi:

– O‘g‘lingizning dunyoda tengi bo‘lmaydi. Na kuchda, na aqlda. Ikki oyligida ikki yoshlik bolaning ishini qiladi, ikki yoshida esa yigirma yoshlik yigitday bo‘ladi. O‘n yoshida o‘zini fir‘avn e‘lon qiladi. Uning dastidan vayron bo‘lmagan uy, mamlakat qolmaydi. Shuning uchun ham umri-ning ikkinchi yarmi pushaymonda, azobda o‘tadi.

– Jallod! – qichqirdi shunda shoh va tizzasida o‘ynab o‘tirgan o‘g‘lini bag‘riga bosdi. Qirq kunlik bola birdan otasining soqoliga chang solib, yarmini yulib oldi.

– Gapimning birinchi isboti bu! – dedi keksa olim.

Shoh quloq solmadi. Olimni olib chiqib ketishdi. Oradan ko‘p yillar o‘tdi. Shoh Muslim keksa olimning gaplarini ham, o‘zini ham unutdi. Shahzoda olim karomat qilgandek kun sayin, soat sayin o‘sib, o‘n yoshga to‘lganda ajoyib yigit bo‘ldi. Shoh ham, xalq ham uning husniga qarab, gaplarini eshitib to‘yishmasdi. Ammo shahzoda hech kimga parvo qilmas, o‘z aqliga, o‘z kuchiga mahliyo edi, ko‘p vaqtni otasining taxtida o‘tkazardi. Bir kuni osmoni falakni qora bulut qop-ladi. Qattiq shamol turdi. Bo‘ron boshlandi. Sel na odamni ayadi, na dov-daraxtni! Birpasda gul-lab turgan mamlakat vayron bo‘ldi. Shaharlar,

dalalar, tog'lar suv ostida qoldi. Bo'ron tingach, shoh va shahzoda o'zlarini suvda qalqib turgan yog'och ustida ko'rdilar. Yog'och shunday ingichka ediki, kimdir ozgina qimirlasa, ikkalovi ham ag'darilib halok bo'lardi. Shahzoda otasiga dedi:

– Ota, bu yog'och ustida ikkalamiz jon saqlolmaymiz. Sen mening tug'ilishimni istagan eding. Endi qo'yib ber, men yashashim kerak.

Shunday deb shahzoda otasini suvga itarib yubordi. Shoh g'arq bo'ldi. Shahzoda o'zga bir mamlakatga suzib kelib, o'zini fir'avn e'lon qildi. Uning zulmidan, uning qahridan yarim xalq qochib qutuldi, yarim xalq o'ldi. Mamlakatda fir'avnning o'zidan boshqa hech kim qolmadi. U uzoq yashadi, ammo na tushida, na o'ngida hayot lazzatini surdi. Butun umri yolg'izlikda, azob-uqubatda o'tdi. Aytishlaricha, bunday odamlar yuz yilda bir tug'ilar emish...

I

196... -yilning jazirama yoz kunlaridan birida Mingbuloqqa kiraverishdagi oq tunuka tomli uyning eshigini yosh bir yigit taqillatdi. O'lis yo'l yurganidanmi, yo issiq qattiq ta'sir qilganidanmi, uning oq batis ko'ylagi kuraklariga yopishib qolgan, yoqasi ichidan bo'yniga tashlab olgan ro'molchasi jiqqa ho'l edi. Dam o'tmay u kaftlari bilan yassi peshanasini, baroq qoshlari aralash yuz-ko'zlarini artardi.

Ichkaridan hadeganda hech kim chiqavermadi, yigit beso'naqay karton jomadonini qo'lga olib, eshikni oyog'i bilan itardi. Yangi bo'yalgan jimjimador zangori eshik «g'iyq» etib ochildi. Yigit

ichkariga kirdi. Uy tomoni baland soʻridan iborat boʻlgan chorsi hovlida hech kim koʻrinmasdi. Hovlining oʻng biqinidan oʻtgan gʻisht yoʻlka yonidagi gulzorga jildirab suv oqib turardi, yigit shu tomonga qarab, tok tagiga keldi. Shunda u rovonda xontaxtaga tirsaklarini tirab tasbeh oʻgʻirib oʻtirgan kampirga koʻzi tushdi. Kampirning koʻzlari yumuq, ajin tortib ketgan ingichka lablari nimalarnidir shivirlardi.

– Buvi, – dedi sekin yigit uni choʻchitib yubor-maslik uchun.

Kampir koʻzlarini ochdi va roʻparasida jilma-yib turgan yigitga tikildi. Keyin birdan oʻzini orqaga tashladi-da, dedi:

– Voy, oʻla qolay! Abdullamisan?

– Men...

Abdulla jomadonini yerga qoʻyib, rovonga koʻtarildi.

– Voy, boʻyingga qoqay! Voy, sadagʻang ketay! Sen keladigan kun ham bor ekan-ku! – Kampir yoshiga munosib kelmagan epchillik bilan oʻrni-dan turib, Abdullani quchoqlay ketdi. – Voy, men oʻlay seni tanimay! Indamay termilib oʻtirib-man-a. Esonmisan, omonmisan? Nechuk, bo-lam, nechuk? Oʻzing keldingmi? Oying, dadang eson-omonmi?

Kampir yangi koʻrpacha solib, Abdullani oʻtqa-zar ekan, sevinchi ichiga sigʻmay, shangʻillab gapirar, Abdulla esa javob berishga ulgurolmay jil-mayardi. U Mingbuloqqa bu gal oʻzi kelgan edi. Maktabni oltin medal bilan bitirib, ozod qushdek boʻlgani uchun onasi yolgʻiz oʻzini yuborishga qarshilik qilmadi. Bir jomadon sovgʻa-salom qilib berib, joʻnatdi. Abdulla buvisinikiga, umuman, shu qishloqqa kelishni yaxshi koʻrardi.

Qachonlardir Mingbuloq Qo'qonning, qolaversa, butun Farg'onaning eng go'zal sayilgohlaridan biri bo'lgan. Mingbuloqning markazidayoq tolzor takya vodiyning mashhur qiziqchilari, shoir va polvonlarini to'plagan, qulochga sig'maydigan tollar tagidagi supalarda oshxo'rlar kunni kech qilishgan, shuhrati butun respublikaga tarqalgan ashulachi, cholg'uvchilarning ashula, mashqlarini eshitishgan. Olis yo'lga otlangan sayyohlar ham Mingbuloqda to'xtab, devziradan bir siqim osh qilib yeb ketishmasa, ko'ngillari joyiga tushmasdi. Mashhur Yusufjon qiziqning o'z shogirdi Oxunjon qiziqqa yutqazgan joyi ham shu Mingbuloq bo'lgan. Tumonat odam o'shanda taraf- taraf bo'lib askiyani to'polonga aylantirgan ekan.

Bularni Abdulla ko'rmagan, dadasidan eshitgan. Urush sabab bo'lib Mingbuloqning fayzi ketib qoldi. Buzilgan o'choqlar, chirib, namdan mog'or tortgan so'rilar sershovqin tolzor takyaning o'limini eslatadi. Lekin hali ham bu joylarning ko'rki, hisobsiz katta-kichik buloqlar, shoxlari bir-biriga chirmashib ketgan bahaybat tollarning shovur-shuvuri, muzdek havo dilni ravshan qiladi.

Abdulla deyarli har yoz ikki-uch hafta oyisi bilan kelib turardi. Ammo ikki yildan beri, otasi kasalga chalinib yotib qolganidan beri kelmagan va buvisini juda sog'ingan edi. Qarib munkillab qolgan, qop-qora bu kampirni u yaxshi ko'radi, soatlab uning gaplarini eshitardi, zerikmasdi va ko'pincha uning yonida yotib, hikoyalarini tinglab, tong ottirardi. Hojar buvi ham nevarasini yaxshi ko'radi. U kelganda o'tqazgani joy topolmay qolardi, agar ko'cha-ko'yda bolalar bilan

o'ynab, u yer bu yeri chaqa bo'lib qaytsa, jig'ibiyroni chiqardi.

Abdulla uning yakka-yu yagona nevarasi edi. U o'zi ikkita farzand ko'rgan edi. Bittasi, Abdullaning onasi Shahodat, ikkinchisi, kenjasi Obid bo'lib, u shu o'g'li bilan turardi. Shaharga, qizini kiga borganda, ikki kundan ortiq turolmas, shahar shovqini boshini og'ritardi, siqilardi. Buning ustiga u anchagina qari bo'lsa ham, mustaqil hayot kechirishni istardi. O'g'li bilan turishiga qaramay, o'z ro'zg'orini o'zi tebratardi va ko'pincha o'g'li unga yordam berishi o'rniga, o'g'lining kam-ko'stlarini u to'g'rilab yurardi. Shundan bo'lsa kerak, kim bilan gaplashmasin, o'zini mag'rur tutar va dasturxon atrofidagi eng yaxshi duosi: «Xudo birovni birovga zor qilmasin!» edi.

Qishloqdagilar uni «Otinbibi» yo bo'lmasa «Zavod aya» deb atashardi. Abdulla otinbibi deyishlarining sababini bilardi. Hojar buvi anchagina o'qimishli ayol bo'lib, bir qancha kitoblarni, dostonlarni yod bilardi, yoshligida Anbarotinga ergashib, bir qancha g'azallar ham bitgan edi. Lekin u nima uchun «Zavod aya» deyishlariga tushunolmasdi. Qachonlardir paxta tozalash zavodiga yangi kelganlardan biri uni «Zavod aya!» deb chaqirgan, shu-shu «Zavod aya» bo'lib ketgan.

...Fotihadan so'ng, Hojar buvi darrov dasturxon yozdi, birpasda choy damlab keldi-da, nevarasining yoniga o'tirdi.

– Voy, Abdulla-ey, voy, bolam-ey! Shunday qilib, o'zim keldim degin? Katta yigit bo'lib qolibsan, katta yigit! Dadang qalay?

– Rahmat, tuzuklar, – dedi Abdulla. – Qon bosiqlari ancha tushgan. Salom deb yubordilar.

– Salomat bo'lsin. Bu kasal unga qayoqdan yuqa qoldi ekan? Xudo shifo bersa, tuzalib ketar. O'qishing bittimi endi?

– Ha. Oltin medal bilan tamomladim.

– Bo'yingga qoqiy!

Ular anchagina gaplashib o'tirishdi. Abdulla sovg'alarni topshirdi. Hojar buvi ko'ziga yosh olib duo qildi.

– Tog'amgilar qani?

– Tog'ang balnisaga ketgan, – dedi Hojar buvi qandaydir tashvish bilan. – Kelin oyingning ko'zi yoriydigan. Bilmadim bu gal nima bo'lar ekan, – kampir og'ir xo'rsindi. – Har bandaning boshida bir tashvish bor ekan-da, bolam. To'rtta tug'di, to'rttovi ham uyga kelmay qazo qildi. Bunisi endi nima bo'lar ekan? Mayli, ishqilib, tog'angning baxtiga o'zi omon bo'lsin.

Oraga jimlik cho'kdi. Hojar buvi o'z xayollariga berilib, nevarasini bir daqiqa unutdi. Keyin seskanib, o'rnidan turdi.

– Esim qursin, ovqatga unnamay o'tirishimni qara.

– Ovora bo'lmang, buvi, qornim to'q.

– Ovorasi bor ekanmi? Hozir tog'ang ham kelib qoladi. Sen birpas cho'zilgin. Men darrov osh qilib kelaman. Bor, mening uyimga kir.

Hojar buvi pildirab o'choq boshi tomonga ketdi. Abdulla qishloqqa kelganidan xursand bo'lib, o'rnidan turdi. Ancha vaqt hovlining o'rtasidagi nashvati shoxida kukulab turgan musichani, o'choq boshida g'imirlab yurgan buvisi, mo'ridan g'o'zapoyaning achchiq hidini keltirib, burqsib chiqayotgan ko'kimtir tutunni tomosha qildi, keyin esnab ichkarigi xonaga, buvisining uyiga kirdi.

Bu uyni u juda yaxshi bilar va yaxshi ko'rardi. Uy keng va chorsi bo'lib, hamma devori tokchalardan iborat edi. Tokchalarga har xil tUSDagi katta-kichik qutichalar, hisobsiz kosa, choynak-piyolalar terib qo'yilgan edi. Tokchalar o'rtasidagi ustunlarning g'altak o'tqazilgan qoziqlarida har doim dazmollangan va atir sepilgan sochiqlar osig'liq turardi. Odam kam kirgani uchunmi, yo hovlining oftob tushmaydigan joyida bo'lgani uchunmi, uy yoz bo'yi salqin turardi.

Abdulla muzdek beqasam ko'rpacha ustiga cho'zildi. Yumshoq par yostiqlarning rayhon hidini eslatuvchi yengil, yoqimli hidi gup etib dimog'iga urildi. Qo'llarini yoyib, ko'zlarini yumdi. Hovlida esa musicha hamon kukular, chars-chars yonayotgan g'o'zapoya ovozi unga qo'shilib g'alati, orombaxsh ohang kasb etardi.

Imtihon tashvishlaridan qutulgan, yuragi ming xil orzular, noma'lum, ammo porloq kelajak lazzatlari bilan to'lgan Abdulla o'zini nihoyatda baxtli his qilardi va mudrar ekan, yuzlarida tabassum o'ynardi. Shu ahvolda u qancha yotdi, uxladimi, yo faqat mudradimi, bilmaydi, bir mahal quvnoq, yo'g'on erkak ovozini eshitib, turib ketdi. Deraza yoniga borib, hovliga qaradi. O'choq boshi oldida tog'asi onasini quchoqlab, baqirardi:

– O'g'il, oyi! O'g'il! Tirik! Tirik!..

Abdulla otilib hovliga tushdi.

– Assalomu alaykum, tog'a.

Obid aka uni ko'rib, onasini qo'yib yubordi va qarshisiga yurdi.

– O jiyani-e! Bormisan?! Juda yaxshi keldingda. Mana sen ham endi jiyalik bo'lib qolding!

– Tabriklayman! – Abdulla tog‘asining qo‘lini siqdi.

– Hoy, menga qara, o‘zini ko‘rdingmi? – qichqirdi oshga sabzi bosayotgan Hojar buvi.

– Ko‘rdim. Qop-qora bir jish, – dedi Obid aka kulib.

– Nafasingni sovuq qilma! Qora bo‘lsa, o‘zimizga o‘xshar ekan-da.

– Kimga o‘xshasa ham boshi omon bo‘lsin, oyi!

– Xudoyo aytganing kelsin. Hoy, Obid, samovarni yangila, hali zamon oshim tayyor bo‘ladi.

Obid aka sevinchidan nimanidir xirgoyi qilib, samovar qo‘ya boshladi. Birdan u qaddini rostladi va o‘choq boshiga qarab baqirdi:

– Oyi! Otini nima qo‘yamiz?

– Qaydam? O‘zlaring bilasanlar.

Hojar buvining shunday deyishida jon bor edi. Bu uyda hamma narsa uning izmida bo‘lib, uning aytgani – aytgan, degani – degan edi. Oldingi nevaralarining hammasiga ham tug‘ilmasdan ism qo‘ygan, uydagilar rozi bo‘lishgan edi. Lekin ularning bittasi ham turmadi. Kampir ko‘nglida bunisiga o‘g‘il bo‘lsa To‘xtasin, yo Tursun, qiz bo‘lsa Umrinisa qo‘yishni niyat qilib qo‘ygan edi. Ammo hozir ko‘nglini ochgisi kelmadi. Chaqaloqlarning turmasligiga o‘zini aybdor his qilganidan o‘zini bu gal chetga tortdi.

– Qaydam? O‘zlaring bilasanlar, – dedi u yana ancha jiddiy tusda.

– Bo‘lmasa... – dedi Obid aka Abdullaga ko‘z qisib qo‘yib. – Tursun bo‘lsin.

Hojar buvi o‘choq boshidan chiqdi. Uning ko‘zlari jiqqa yosh edi.

– Aytganing bo‘lsin... – dedi o‘pkasi to‘lib. – Omin! Nevaramning umri uzoq bo‘lsin. Boshi toshdan bo‘lsin!..

Hojar buvi yog'liq qo'llarini yuziga surtdi-da, yengining uchi bilan nam ko'zlarini artdi. Abdulla ko'z oldida yuz bergan bu voqeadan sevinishini ham, sevinmasligini ham bilmay, qaqqayib turib qolgan edi. Obid aka buni sezdi shekilli, yelkasini bir-ikki qoqib qo'yib:

– Mana, jiyanlik ham bo'lib qolding, – dedi.

Abdulla jilmaydi. Ko'p o'tmay hovli qo'ni-qo'sh-niga to'lib ketdi. Hamma shang'illab yangi mehmon bilan tabriklar, hazillashar, biri olib, biri qo'yib, qandaydir maslahatlar berardi.

– Zavod aya! Endi po'lat sandiqni shamollatadigan bo'ldingiz-da? Beshik to'yi o'zi bo'lmaydi.

– Nima deyapsiz o'zi! Zavod ayaning po'lat sandiqlaridagi bisot o'nta beshik to'yiga yetadi.

– Bahona bilan sarpolik bo'lib qolarkanmiz-da, Otinoyi...

– Senlarga gap bo'lsa! – dedi o'choq boshidan kapgir ko'tarib chiqqan Hojar buvi. – Mening po'lat sandig'im bilan nima ishlaring bor?

– O'zingiz bilan olib ketmang deyaptilar-da, – dedi yosh bir juvon.

– Tiling kesilsin, Buvinisa! – dedi jahli chiqqan bo'lib Hojar buvi. – Senga kimxob kamzulimni atab qo'yuvdim. Endi berib bo'pman! Nevaramni uylantiraman deb yuribman-u hali!

– Ishqilib, aytganingiz kelsin, Zavod aya! Nevarangizning boshi toshdan bo'lsin.

Yana ancha shang'illab gaplashib, tarqalishdi. Gap bilan bo'lib osh tagiga olib ketganini hech kim sezmabdi.

– Mayli, ertaga boshqa qilib berarsiz, – dedi Obid aka. – Biz jiyan bilan bedana otib kelamiz. Nima deysan, jiyan?

– Zo‘r bo‘lardi, – dedi Abdulla sevinib. – Hech bedana oviga bormaganman.

– Bo‘pti. Azonda uyg‘otaman bo‘lmasa.

Shu tun Abdulla allamahalgacha xayol surib yotdi. U Mingbuloqqa kelganidan xursand, shuning uchun xayollari ham Mingbuloqdek toza, sho‘x va tiniq edi.

II

Obid aka va‘dasiga muvofiq, g‘ira-shirada Abdullani uyg‘otdi.

– Borasanmi?

– Bo‘lmasam-chi! – dedi Abdulla ko‘zlarini ish-qalab.

Shunday dedi-yu, lekin erinchoqlik bilan o‘rnidan turdi. Hovliga tushganda, Obid aka eski shim-ko‘ylak, rezinka etik kiyib olib, beliga o‘qdon bog‘lab turardi.

– Anovilar senga, – dedi u rovonga ishora qilib. – Bedazor hozir nam, kiyimingni rasvo qilasan.

Abdulla apil-tapil yuvinib, tog‘asi tayyorlab qo‘ygan eski bir kombinezonni kiydi. Kombinezon katta kelib, pochalari osilib tursa ham unga yarashdi. Bir poyining tagi ko‘chgan etikni kiyganda esa, tog‘asi kulib dedi:

– Traktorchi bo‘lding qo‘yding.

– Tuzukmi?

– Tuzuk bo‘lganda qandoq!..

Hojar buvi kechagi oshning go‘shklarini ikkita nonga bosib, to‘rvaga solib berdi.

– Shu yerda yeb ola qolaylik? – so‘radi Abdulla qorni ochligini sezib.

– U yoqda yeymiz. Buning ham o'ziga yarasha gashti bo'ladi, – dedi Obid aka. – Nima deding?

– Mayli.

– Hayallab qolmanglar, Obid, – dedi Hojar buvi.

– Zahroga ovqat olib borasan-a. Shirguruch qilib qo'yaman.

– Xo'p.

Ular yo'lga tushishdi. Eshikka yetganda Obid aka:

– Teshavoy! – deb chaqirdi.

Qayerdandir kichkina olachipor, shalpangqu-loq it paydo bo'lib, ularning oldiga tushdi.

– Qayerdan oldingiz buni, tog'a? – so'radi Abdulla itga odamning ismi berilganiga hayron bo'lib.

– Bir ovchi o'rtog'imdan oldim. Uning ham oti Teshavoy. It desa, ov desa o'zini tomdan tashlaydi. Zo'rg'a oldim. Bir oy yalinib yurdim. Oxiri berdi. – Obid aka, o'sha yalinib yurgan kunlari esiga tushdi shekilli, kulib qo'ydi. – Bir kuni uyiga borsam, hovlida o'ynatib o'tiribdi. O'zida bir emas – to'rtta. Tag'in shundog' itlarki, sher-ni tutib kel desang, tutib keladi. Ko'p bo'lsa ko'z to'ymas ekan-da. Buni poylab yurib, yangi tug'il-ganda oshnasinikidan o'g'irlab kelgan. Ko'rdim-u mahkam yopishib oldim. O'sha kuni endi ko'zi-ni ochgan ekan. Men ham unga ko'p yaxshilik qilganman-da, oxiri yo'q deymadi. Qo'lga olib, tumshug'idan o'pdi. It g'ingshib qo'llarini yalay boshladi. Yana aynib qolmasin, deb sekin gap boshladim. «Teshavoy...» deganimni bilaman, it tumshug'ini menga o'girdi. Ikkalamiz kulib yubordik. «Mayli, ola qol», dedi itni menga uzatib.

«Otini nima qo'yding?» deb so'radim, shoshib itni olar ekanman. «Hozir o'zing qo'yding-ku, Teshavoy-da», dedi. Shu-shu Teshavoy bo'lib ketdi.

It o'zining nomini eshitib, to'xtadi-da, buyruq kutgandek Obid akaga ingichka qora tumshug'ini cho'zdi.

– Bor, bor, seni chaqirganim yo'q, – dedi Obid aka qo'li bilan yo'lga ishora qilib. Teshavoy kichkina oppoq dumini likillatib, oldinga chopib ketdi. – Yaxshi it chiqdi, haromi, – dedi Obid aka havas bilan unga qarab. – Hali yana o'zing ko'rasan.

Ular olmazor etagidagi so'qmoq yo'lga buri-lishganda, quyosh tog' ortidan endigina mo'ralay boshlagan edi. Olma shoxlaridagi sarg'aya boshlagan yaproqlar oltin tangalardek yaraqlardi. Ular ikki kilometrcha yurib, kanal bo'yiga chiqishdi. Shu yerda qishloq tugab, keng ekinzor boshlanardi. Popuklari qizarib, yetilib turgan jo'xorizor, uning orqasi ketgancha paxtazor edi. Obid aka jo'xorizorni aylanib o'tishganda:

– Keldik, – dedi va miltig'ini yelkasidan oldi. Abdulla oldida bedasi o'rilgan yaxlit maydon yastanib turardi. – Qani, birpas o'tiraylik-chi, hozir boshlanadi, – dedi Obid aka sirli ohangda.

Ular ariq labiga omonatgina o'tirishdi. Abdulla tog'asi nimani boshlanadi, dedi, tushunmadi. So'rashga esa uyalib, bedazorga tikildi. Jimjit. Hech qanday qushning ovozi eshitilmasdi. Yengil shabada bedaning chuchmal hidini dimoqqa urib esardi. Ular ancha o'tirishdi. Obid aka oyoqlari orasida tilini osiltirib yotgan Teshavoyning boshini silab, xuddi Abdulladek bedazorga tikilardi. Ammo bedazor hamon tinch, unda biron jonivor

borligidan asar yo'q edi. Bir-ikki marta chumchuq galasi «gur» etib ko'tarilib, jo'xorizor ichida g'oyib bo'ldi, xolos. Abdulla zerikdi va tog'asiga o'girilib:

– Hech narsa yo'q-ku! – dedi.

– Tiss! – dedi Obid aka nimagadir quloq solib.

Shu top qishloq tomonda sigir ma'radi, keyin qayerdadir yaqin bir joyda nimadir «tiq» etdi. Yana nimadir taqilladi. Baqami, allanarsa bir-ikki marta «g'uvak-g'uvak» degan tovush chiqardi. Obid aka Abdullani turtib, «eshit», dedi. Abdulla shu so'zni eshitishi bilan bir bedananing «pid-pildiq»lab ketganini payqadi. Ovoz juda baland va tiniq edi. Ko'p o'tmay bedazorning har chekkasida bedanalar sayray boshladi. Abdulla qaysi biriga quloq solishini bilmay qoldi. U yosh boladek sevinib, ariq bo'ylab u yoqdan bu yoqqa yugurar, qayoqda bedana balandroq sayrasa shu yoqqa o'zini otardi.

– Boshlaymizmi? – so'radi Obid aka.

– Birpas turing.

Abdulla, o'lim xavfini sezmay, o'z ovozidan zavqlanib sayrayotgan bedanalarga quloq solish bilan band edi, u bu daqiqaning iloji boricha cho'zilishini istardi.

– Kech bo'lib ketadi. Orqadan odam o'tib qolishi mumkin, – dedi Obid aka, lekin joyidan qo'zg'almadi. Bedanalarning xori tinganday bo'ldi. U yer bu yerdagina siyrak eshitilib qolardi. – Endi boshlaymiz!

Obid aka o'rnidan turdi. It bir sakrab ariq ichidan chiqdi-da, tizzasigacha botib, bedazor ichiga sho'ng'idi. Besh metrcha doira chizib aylangach, egasining oldiga kelib, tumshug'ini cho'zdi.

– Ol, – dedi Obid aka qo'lini oldinga bigiz qilib.

It yugurib ketdi. Obid aka belidagi ancha-muncha ilgak osilgan kamarini tuzatar ekan, Abdullani ogohlantirdi:

– Faqat orqamdan yurasan. Yonimga ham, oldimga ham o'tma.

– Xo'p, – dedi Abdulla ho'l bedazorga qadam qo'yib. – Ancha otamizmi?

– Qancha kerak?

– Besh-oltita otolarsiz?

Obid aka kuldi.

– Besh-oltita otish mumkin. Juda bo'lmasa...

U gapini tugatmadi, «paq» etgan o'q tovushi eshitildi. Abdulla nima bo'lganini anglab yetguncha, Teshavoyning og'zida bir qanotini silkitib turgan bedanani ko'rdi. It qoyil ish qilgandek, o'zidan mamnun bo'lib, dumini likillatgancha Obid akaga tikilib turardi.

– Opkel! – dedi Obid aka tizzasiga urib.

It yugurib egasining oldiga keldi. Bedana hamon tirik edi. Qanotini silkitib, qon tumshug'i bilan itning yuziga urilardi. Obid aka uni itning og'zidan oldi-da, kamaridagi ilgaklardan biriga bo'ynidan ildi. Osilib qolgan bedana bir-ikki silkinib, tinchidi.

– Semiz ekan, – dedi Obid aka miltiqni o'qlar ekan. – Bu ham sening omading.

Abdulla indamadi. Birinchi marta ovga chiqqani uchunmi, ovning bunday bo'lishini xayoliga keltirmagan, otilgan narsa o'sha zahoti o'lar, deb o'ylagan edi. U ko'zini tog'asining belida likillab turgan bedanadan uzolmas, o'q teshib majaq bo'lgan tumshug'i ko'nglini aynatardi. «Hozirgi-

na sayrab turuvdi, – o‘yladi u bir-ikki tupurib...
– Endi sayramaydi. Endi pati yulinadi, yuvilib, tozalanib oshga bosiladi. Kim yer ekan? Men yemayman...»

– Qayoqda qolding? Yurmaysanmi? – qichqirdi Obid aka.

Abdulla o‘ziga kelib, tog‘asining ancha ilgari lab ketganini, uning oldida it dumini cho‘zib, nimanidir iskab turganini ko‘rdi. Ovning zavqi baland kelib, Abdulla hozirgina ezilib xayolidan o‘tkazgan gaplarni unutdi-da, itga tikildi, Teshavoy birpas tumshug‘ini cho‘zib turdi, keyin sakradi. Nimadir uning oldida pir etib ko‘tarildi. Shu zahoti o‘q uzildi. Qush bir-ikki qanot qoqib yiqildi. It u tushgan joyga qarab yugurdi.

– Opkel! – dedi Obid aka yana tizzasiga urib.

Teshavoy nimanidir tishlab, egasining qarshisiga yugurdi. Bu ham bedana edi. Lekin buni o‘q tegishi bilan o‘lgan, shuning uchunmi, yo ikkinchi marta ko‘rib ko‘nikdimi, Abdulla jirkanmadi. Quyosh toshloq ustida odam bo‘yi ko‘tarilib, cho‘g‘dek qizg‘ish nurlarini socha boshladi. Kimningdir qichqirgani, keyin motor gurillagani eshitildi. Oddiy, har damgidek mehnat va zavq bilan to‘la yangi kun o‘z hayotini boshladi. Allaqayerda qo‘shiq yangray boshladi. Radiodanmi, yo qishloqning o‘zidanmi – Abdulla ajrata olmadi. Qo‘shiq bedanalarining sayrashiga qo‘shilib, g‘alati, shu paytgacha u eshitmagan, go‘zal ohang kasb etdi. Ovni unutib, u shu atrofini to‘ldirib turgan ohanglarga zavq bilan quloq sola boshladi. Ko‘p o‘tmay qo‘shiq tindi, ammo bedazor esa hamon qandaydir sirli, ammo sho‘x,

o'ynoqi ohanglar bilan to'la edi. Yana o'q uzildi. Abdulla cho'chib ketdi.

– Sanayapsanmi, nechta bo'ldi? – qichqirdi Obid aka.

Abdulla uning yoniga keldi. Obid aka Teshavoyning og'zidan yangi o'ljani olar ekan, jiyaniga g'urur bilan qarab qo'ydi.

– Besh-oltita devdingmi, boya?

– Ha, – dedi Abdulla ilgaklardagi bir tekisda osilib turgan bedanalarga tikilib. – Lekin ko'p otganga o'xshaysiz...

– Ma, sana.

Obid aka kamarini yechib, kichkina bir tasmani oldi-da, ilgaklarni shunga o'tkazdi va tugun qilib, jiyaniga uzatdi.

– Bugun bedana ko'p. Yana shuncha otsak bo'ladi. Qani, ol, Teshavoy!

U shunday deb oldinga yugurgan itning ketidan yo'lga tushdi. Abdulla o'ljalarni sanadi. O'n bitta bo'libdi! «Birpasda-ya!» – hayron bo'ldi u va faxr bilan tog'asiga tikildi. Bedazorni ikkinchi marta aylanib chiqishganda, o'ljaning soni o'n beshtaga yetdi. Obid akaning kayfi chog' edi.

– Qalay, ov tuzukmi? – dedi nonushta qilgani o'tirishganda.

– Zo'r, – jilmaydi Abdulla.

– Aslida ishimni tashlab ovchilikka o'tib qo'ya qolsam ham bo'lar ekan.

– Hali ham traktor haydaysizmi?

– Sal balandroqdan kel. Hamma traktorchilarning boshlig'iman hozir.

– O'sibsiz-da, – dedi Abdulla ishtaha bilan go'sht yer ekan.

– O‘sganda qandoq! O‘n yilda brigadir bo‘ldim, yana yigirma yildan keyin rais bo‘lsam ajab emas. – Ikkovi kulishdi. – Ishim yaxshi, – dedi Obid aka bir ozdan so‘ng Teshavoyga suyak tashlar ekan, jiddiy ohangda: – Jamoada o‘ttizta traktor bor. Qishin-yozin tinmaydi. Topish ham shunga qarab. Yaqinda mashina olaman. Kelinoying tug‘sa, bola o‘lmasa, mashinada butun respublikani aylanib chiqaman, deb niyat qilib qo‘ygan edim. Bir yog‘i Arslonbob, bir yog‘i Chimyon... Niyatimizga yetadiganga o‘xshaymiz. Ishim yaxshi-yu, o‘qimadim-da, jiyan, – Obid aka xo‘rsinib qo‘ydi. – Urushdan qaytib kelganimda o‘qimoqchi edim. Lekin bu fikrdan qaytdim. Qimmatchilik, jamoa xarob, qishloqda deyarli erkak qolmabdi. O‘shanda rahmatlik Mannop ota rais edi. Sen uni ko‘rganmiding?

Abdulla «yo‘q» deya boshini qimirlatdi.

– Ajoyib odam edi. Yoshligida otdan yiqilib, oyog‘i singan va umrbod cho‘loq bo‘lib qolgan. Shu ham qo‘ymadi. «O‘qish qochib ketmaydi. O‘qirsan ham, olim ham bo‘larsan. Lekin, uka, qishloqqa qara, bitta ham butun uy yo‘q. Jamoa bundan beshbattar. Dehqon odam buni tushunadi. Qol uka», dedi, qoldim. Keyin ishga berilib ketib o‘qish xayolimdan ko‘tarildi. Endi kech. Endi o‘qib qayoqqa borardim? Sen nima qilmoqchisan? Ishlaysanmi, o‘qiysanmi?

– O‘qiyman, – dedi Abdulla negadir uyalib. – ToshDUning fizmatiga kirmoqchiman.

– Durust, – dedi Obid aka. – Matematikani yaxshi ko‘rasanmi?

– Ha.

– Durust. O‘qi, jiyan, o‘qi. Oyingning sendan umidi katta. Bor ishongani sen. Dadang mana yotib qoldi. Hozir qalay, durustmi?

– Tuzukday.

– Ishqilib tuzalib ketsin. Yomon kasalga chalinib qoldi. Giper... gim... Nima edi nomi?

– Gipertoniya.

– Gipertoniya, – qaytardi Obid aka. – Oti qursin. Uzoq yili kelganda ancha yaxshi edi. Bir hafta turdi chamamda o‘shanda, a?

– Ha.

– U bilan ham ovga chiqqan edik. Hu anavi yoqqa. – Obid aka paxtazorning etak tomoniga ishora qildi. – Dadang, Teshavoy mergan, men. Dadang yaxshi otadi. Adashmasam, o‘ttiz-qirqta bedana otuvdik o‘shanda. Kechqurun Buloqboshida osh qildik. Yarmini oshga bosdik. Yarmini kabob qildik. Ancha tuzuk edi dadang o‘shanda.

Obid aka o‘ylanib qoldi. Keyin cho‘ntagidan g‘ijimlanib ketgan papiros olib, shoshmasdan tekisladi-da, tutatdi.

– Dadangni yaxshi ko‘raman. U menga juda ko‘p yaxshilik qilgan, uylantirgan, to‘yga o‘zi bosh bo‘lib turgan.

– Bormaysizmi? – so‘radi Abdulla.

– Boraman. Kennoying qaytsin. Bir o‘ttiz-qirqta bedana otib olib boraman.

– Mumkin emas.

– Mayli, yemasa ham ko‘ngli ko‘tariladi. Qani, turdikmi?

– Mayli, – dedi Abdulla qo‘zg‘alib.

– Yana ikki marta aylanib chiqamiz. Shu bilan bo‘ldi. Teshavoy, yur!

It xuddi shu gapni kutib turgandek, bedazorga tashlandi. Endi Abdulla ovga ko'nikkan, hatto unga qiziqib ham qolgandi. U zavq bilan Teshavoyning harakatlarini kuzatar, har o'q otilganda «Ura!» deb qichqirardi. Bedazorning orqasidagi arava yo'lda tarvuz ortilgan avtokachka ko'ringanda Obid aka ovni to'xtatdi. Abdulla qarshilik ko'rsatmadi. Aravadagi yigit Obid akani tanidi shekilli, salom berib:

– Qalay, ov tuzukmi? – deb so'radi.

Obid akaning o'rniga Abdulla javob berdi:

– Yigirma beshta otdik, mana. – U g'urur bilan qo'lidagi tasmaga tizilgan bedanalarni ko'rsatdi. Aravakash kallasini liqillatib:

– Qoyil! – deb qo'ydi. Keyin uni chaqirib bitta tarvuz uzatdi. – Aytgandek, Obid aka, – qichqirdi yigit, – o'g'il muborak bo'lsin!

– Rahmat!

– Buloqboshida bitta osh qilib berasizda endi, devziradan! Bedana bosib!

– Osh sendan aylansin, Homid. Qilib beraman.

Aravakash yo'lga tushdi. Abdulla tarvuzni ko'tarib, tog'asining orqasidan yurdi. Ariq labiga yetishganda:

– Cho'lladik-ku, tarvuzni shu yerda yeb qo'ya qolaylik, – dedi Obid aka. – Ko'tarib yurasanmi?

Ular eski joyga chordona qurishdi. Obid aka buklama pichog'ini tarvuzning dumiga shunday tekkizishi bilan yorilib ketdi. Qip-qizil chinni tarvuz buloq suvidek muzdek va shirin edi. Obid aka bitta tilimni itning oldiga qo'ydi. Abdulla itning tarvuz yeyishini shunda ko'rdi. Teshavoy dumini likillatib yer ekan, xuddi odamga o'xshab danagini ajratib tashlardi.

– Zo‘r-ku, – dedi Abdulla hayron bo‘lib.

– Nima deyapsan! Uyda biz nima yesak, bu ham shuni yeydi...

Obid aka yana nimalarnidir deb, itni maqtamoqchi edi, jo‘xorizor etagidan bitta bedananing juda baland sayragan ovozi eshitilib qoldi. Abdulla haligacha bunchalik o‘tkir va tiniq ovozni eshitmagan edi. U-ku mayli, Obid aka ham yeb turgan tarvuzi og‘zida qolib, quloq sola boshladi. Bedana bir ohangda «tak-tarak, tak-tarak» qilib, ozgina dam olar, keyin bir yo‘la sakkiz-to‘qqiz marta taraklardi. Bir necha marta shu qaytarilgach, Obid aka o‘rnidan turdi.

– Qayoqqa? – so‘radi Abdulla tog‘asining nima qilmoqchi ekanligini sezgan bo‘lsa ham. U shu bedananing otilishini istamas edi. Lekin Obid aka unga javob bermadi. Egasining harakatlarini tushungan it jo‘xorizor tomon yugurib ketdi.

– Tog‘a, shuni otmang! – dedi Abdulla uning orqasidan bo‘g‘ilib.

Obid aka eshitmadi. Abdulla ularga birpas qarab turdi-da, keyin o‘sha yoqqa yugurdi. Lekin u kech qolgan edi. Teshavoy qiyinchiliksiz bedanani topgan, tumshug‘i bilan pishillab uni cho‘chitgan edi. Abdulla bedananing sakrab ko‘tarilganini ko‘rdi. O‘q ovozi jarangladi. Bedana patirlab havoda bir-ikki aylandi-da, jo‘xori ichiga sho‘ng‘idi. It uning orqasidan yugurdi. Shu payt Abdulla jon holatda qichqirdi:

– Tog‘a, itni chaqiring! O‘zim tutaman, Teshavoy!

Obid aka uni tushundi va tizzasiga urib, itni chaqirdi. Teshavoy istar-istamas to‘xtab, orqasi-ga qaytganda, Abdulla ularga yetib keldi.

– Shuni otmasangiz boʻlardi, – dedi u zarda bilan.

– Ha, chakki boʻldi, – achinib gapirdi Obid aka. – Qanotiga tekkanga oʻxshaydi oʻq, balki tutatarmiz.

Abdulla joʻxorizor ichiga kirib, bedanani qidira boshladi. U ariqdan bu ariqqa oʻtdi, lekin bedana koʻrinmasdi. Joʻxorizorning oʻrtasiga kelib, poyalarni qayirdi-da, oldinga tikilib qayoqqa borishini bilmay turib qoldi. Oldinda bir odam koʻringanday boʻldi. Abdulla bir-ikki ariqdan oʻtib, yaxshilab qaradi. Undan oʻn ariqcha narida oq koʻylakli, oq durra tangʻib olgan bir ayol choʻkka tushib hovuchidagi yaralangan bedanaga tikilib turardi. Abdulla uning yuzini koʻrmadi. Bedana tutilganidan va uning tirikligidan xursand boʻlib, ayolning yoniga bordi.

– Oʻlmabdimi?

– Oʻlsa sizga ogʻirligi tusharmidi?

Ayol jahl bilan shunday dedi-da, Abdullaga qaramay hansirayotgan bedanani ogʻziga olib borib tili bilan hoʻlladi. Abdulla qoʻngʻiroq ovozidan ayolning yosh qiz ekanligini sezdi. Ammo uning qoʻpol javobidan ranjigan boʻldi.

– Shuncha otganlaring yetmasmidi? – dedi qiz yana boshini koʻtarmay.

– Men ham shunday devdim, – Abdulla qizning yoniga engashdi. Engashdi-yu, unga bir qarashi bilan oʻtirib qoldi. – Gulchehra?

– Voy, sizmidingiz? – qiz ham uni tanib, beixtiyor boʻsh qoʻli bilan etagini pastroq tortib qoʻydi.

Ikkalovi bir daqiqa jim qolishdi. Qiz negadir uyalib boshini eggan, Abdulla esa ogʻzi ochilib,

unga tikilib qolgan edi. Qizning bir-biriga tutash qalin qoshlarigacha tushgan, jo'xori popuklari jamalak bo'lib yopishib qolgan oppoq durrasi, qiyiq ko'zi va kichkina burni ustida osilib turgan bir tutam jingalak sochi, bir qanoti singan bedanaga achinganidanmi, yo kutilmagan uchrashuvdan uyalganidanmi, titrab turgan dumaloq lablari uni lol qilib qo'ygan edi. Ikkalovining nazarida shu sukut ichida o'tgan bir daqiqa uzoq bir soatdek ko'rina boshlagan bo'lsa ham, nima deyishlarini bilmay, jim o'tirishardi. Nihoyat, Abdulla biron narsa deyishga qaror qilib, yo'taldi. Keyin:

– Tuzalib ketarmikin? – dedi.

Qiz birdan yuziga qizillik yugurib, Abdullaga ko'z qirini tashladi.

– Tuzaladi, bir qanoti sinibdi, xolos. Ko'ring.

Qiz shunday deb, kaftida yonboshlab yotgan bedanani unga uzatdi. Bedana halloslar va kichkina ko'zlarini pirpiratib, ularga yalinganomuz tikilardi.

– Yaxshi sayrayotgandi, – dedi Abdulla.

– Ha, – qiz jonlanib ketdi. – Men ham ishimni tashlab quloq solib o'tiruvdim. Yaxshi sayrayotuvdi.

– Nima qilayotgan edingiz?

– Jo'xori qayirayotgandim, – qiz yonidagi jo'xori solingan savatni ko'rsatdi. – Dadamlarga. Yaxshi ko'rasizmi? – Qiz uyalinqirab boshini egdi va yana yuziga qizillik yugurdi. – Dadamlar yaxshi ko'radilar.

– Men ham yaxshi ko'raman. Jo'xori kavob shirin bo'ladi.

– Abdulla! Abdulla, hoy! – chaqirdi Obid aka kanal tomondan.

Abdulla javob bermadi, u jilmayganicha Gulchehraga tikilib, «yana nima desam ekan?» deb o'tirar, bu yerdan ketishni istamasdi.

– Tog'angiz chaqiryaptilar, – dedi Gulchehra qo'zg'alib va bedanani uzatdi. – Oling.

– Sizniki bu endi.

– Nega? – sevingandek bo'lib so'radi qiz.

– Siz topdingiz, sizniki bu.

– Bo'lmasa tuzalganida qaytarib beraman.

Abdulla kuldi.

– Ketdikmi? – so'radi qiz.

– Mayli.

Abdulla savatni ko'tarib, qizning orqasidan yurdi. U nihoyatda shod edi. Jo'xorizordan chiqishganda, Obid aka kanal bo'yida miltig'iga yuzini tirab o'tirardi. Ularni ko'rib, boshini ko'tardi.

– Muncha hayallading?

– Tutish qiyin bo'ldi, – dedi Abdulla Gulchehraga ko'z qirini tashlab.

– Tirikmi ishqilib? – xavotirlanib so'radi Obid aka.

– Bir qanoti sinibdi, – dedi Gulchehra.

– Tuzatmoqchi, – dedi Abdulla unga ishora qilib.

– Ha, durust.

Ular yo'lga tushishdi. Obid aka oldinda, Abdulla bilan Gulchehra orqada. Anchagacha jim borishdi. Qishloqqa yaqinlashganda Gulchehra sirli ohangda dedi:

– Aytganday, tabriklayman.

– Nima bilan? – hayron bo'lib so'radi Abdulla.

– Medal bilan.

Abdulla jilmaydi.

– Rahmat. Qayerdan bildingiz?

– Butun qishloq biladi, – dedi qiz ham jilmayib. U juda chiroyli jilmayardi. Abdulla o'zi sezmay, beixtiyor unga tikilib qoldi.

– Men keldim, – dedi Gulchehra ko‘prikka yetishganda.

Abdulla qo‘lidagi savatni unga uzatdi.

– Sizni qachon tabriklayman?

– Tabriklashingiz mumkin. Men ham bitirdim.

– Nahotki? – Abdulla uyalib ketdi. – Kechirasiz, esimdan chiqibdi. Ancha bo‘ldi ko‘rishmaganimizga.

– Ikki yil, – dedi Gulchehra unga g‘alati qarab.

– Unutishingiz tabiiy.

– Kechirasiz.

– Hechqisi yo‘q. Ertaga ziyofatimiz bor. Keling.

– Rahmat.

Gulchehra ko‘prik yonidagi darvoza tomon yo‘l oldi. U bir qo‘lida ingichka beliga tiralgan savat, bir qo‘lida bedana ko‘targanicha yengil chuvagini shapillatib ketar ekan, Abdulla uzoq vaqt ketidan qarab qoldi.

III

«O‘zgarib ketibdi, – o‘ylardi Abdulla uyga qaytar ekan. – Juda o‘zgarib ketibdi. Nahotki ikki yil ichida shunday o‘zgarish mumkin bo‘lsa? Ilgari qop-qora qiltiriq bir qiz edi. Endi-chi?» Abdulla shunday o‘ylar ekan, Gulchehra bilan, chiroyli, kelishgan qiz bilan tanishligidan mamnun bo‘lib qo‘ydi. «Nima dedi? Ha, «Ikki yil, unutishingiz tabiiy», dedi. Demak, u Abdullani unutmabdi. Bo‘lmasa ko‘rishmaganini hisoblab yurarmidi?!»

Abdulla jilmaydi. Bolaligi, Gulchehra bilan bo‘lgan damlari ko‘z oldidan o‘ta boshladi. U bu qizni anchadan beri tanir edi. Qishloqda ular

yurmagan so'qmoq, ular qilmagan sho'xlik qolmagan. Gulchehraning otasi Obid akaning qalin o'rtog'i bo'lib, yoshlikdan birga o'sishgan, hatto-ki ikki yilcha urush davrida bir qismda xizmat qilishgan edi. Abdullaning bilishicha, Yusuf aka yigitlik chog'lari anchagina sho'x bo'lib, u bor joyda janjal chiqishi tabiiy ekan. Lekin urushdan keyin qishlog'iga qaytgach, o'zgarib ketdi. Front uni shunday qilib qo'ydimi, yo bola-chaqa tashvishi ko'payib, quyilib qoldimi, har holda, u juda mo'min-qobil bo'lib qoldi. Yaxshi ishladi. Bundan besh-olti yil muqaddam uning brigadasi paxtachilikdan yuksak ko'rsatkichlarga erishgani uchun unga Qahramon unvoni berildi.

Gulchehra Yusuf akaning to'ng'ich farzandi bo'lib, bolaligida xuddi otasiga o'xshagan sho'x edi. Deyarli har kuni uyiga u yer bu yeri chaqa bo'lib qaytardi. Onasi urishar, Yusuf aka esa faxrlanardi. Otasining urishmasligini yaxshi bilgan Gulchehra battar sho'xlik qilar, ko'pincha o'yin-qaroqlikda o'g'il bolalarni orqada qoldirib ketardi.

Abdullaning hali-hali esida, qishloqda urush yillari Dadavoy amaki degan bir odam yashardi. Qayoqdan kelib qoldi bu yerga, nima ish qiladi, hech kim bilmasdi. Erta saharda uyidan chiqib ketib, yarim kechada qaytardi. Doim bir xil kiynardi, to'g'rirog'i, tizzalari yamoq kalta shimi va jazirama yoz kunlari ham boshidan tushmaydigan uchi nayza soldatcha qalpog'idan boshqa uning hech narsasi yo'q edi. U qishloq hayotiga aralashmas, odamlarga qo'shilmas, lekin negadir uning nomini hurmat bilan tilga olishardi.

Nima uchun shunday – bolalar buni bilishmasdi. Uning kamgapligidanmi, yo salomga alik olmasligidanmi, bolalar uni xushlashmasdi, hatto undan cho'chishardi.

Bir kuni uning loy tomida bir burgut paydo bo'lib qoldi. Abdulla o'shanda yozgi ta'tilga kelgan edi. Gulchehra uni yetaklab, Dadavoy amakining uyiga olib bordi.

– Ko'ryapsanmi? – dedi loy tomga ishora qilib.

Abdulla avval hech narsani payqamadi. Keyin mo'riining yonida bukchayib turgan bir narsaga ko'zi tushdi.

– Nima?

– Burgut! – dedi Gulchehra ovozini pasaytirib. – Kecha ko'rib qoldim. Bilmadim, amaki qayoqdan olib keldiykin? Hozir yaxshilab ko'rsataman.

Gulchehra ko'chaning narigi betiga o'tib, burgutga kesak otdi. Burgut seskanib tumshug'ini cho'zdi. Keyin alanglab atrofga qaradi-da, bitta-bitta qadam tashlab mo'riining orqasiga o'tdi. Uning bir oyog'iga zanjir bog'langan edi.

– Amaki buni nima qilar ekan?

– Qaydam? – dedi Gulchehra. – Balki uyiga poyloqchi qilib qo'ygandir.

– Burgut uy poylaydimi? – hayron bo'ldi Abdulla.

– Nega poylamas ekan? It poylaydi-ku!

– It boshqa gap.

– Bilsang, burgut itdan ham zo'r.

Ular anchagacha ko'chaning chetida tomga tikilib o'tirishdi. Ammo burgut joyidan qimirlamadi.

– Bilasanmi, – dedi Gulchehra bir mahal. – Bechoraga rahmim kelib ketyapti.

– Nega?

– Och bo'lsa kerak. Amaki kun bo'yi uyida bo'lmaydi.

– Kel, ul-bul beramiz, – taklif qildi Abdulla.

– Nima beramiz? – Gulchehra xo'rsindi. – Burgut xom go'sht yeydi-ku!

– Nima qilibdi? Biz ham xom go'sht beramiz.

– Qayerdan olamiz? Bizda bo'lganda oyim al-laqachon ovqat qilardilar.

Ikkalovi o'ylanib qolishdi. Lekin qancha o'ylashmasin, go'sht topishning evini qilisholmadi.

– Non yemasmin? – so'radi bir mahal Gulchehra umid bilan. – Bizda zog'ora non bor, bir xalta!

– Bilmadim. Kel, berib ko'ramiz.

Ko'p o'tmay ikkalovi Gulchehra uyidan o'g'irlab kelgan bitta zog'ora nonni Dadavoy amaki-ning tomiga otishdi. Ammo burgut ularning mehribonchiligiga parvo qilmadi, hatto joyidan ham qimirlamadi.

– Zog'ora yemas ekan, – dedi Abdulla.

Gulchehra indamadi. Uning ikkala ko'zi jiqqa yosh edi.

– Nega yig'laysan? – so'radi Abdulla.

– Nega yemaydi! Och qolsa maylimi? – Gulchehra o'zini tutolmay yig'lab yubordi.

– To'xta, – dedi Abdulla. – Yig'lamagin. Bir ish qilamiz...

– Qanaqa ish? – ko'zlarini ishqalab so'radi Gulchehra.

– Amaki kelishini poylaymiz. Qani u nima berarkin?

– Bo'pti! – dedi Gulchehra sevinib.

Ular o'sha kuni allamahalgacha Dadavoy amaki-ning yo'lini poylab o'tirishdi. Nihoyat, u kel-

di. Bolalar uning qo'lida katta sumka ko'rishdi. Ichkariga kirganda esa, ko'cha eshikdan uni kuzatishdi. Dadavoy amaki jinchiroq yoqib, tomga ko'tarildi. Nimalardir deb gapirdi, bolalar anglashmadi. Keyin burgutni oyog'idan tortib, qo'ltiq-ladi-da, pastga tushdi. Jinchiroqni hovlining o'rtasiga qo'yib, sumkasini yerga ag'dardi va burgutni qo'yib yubordi. Burgut yerda to'kilib yotgan qora narsalar atrofida bir-ikki aylanib, cho'qilay boshladi. Dadavoy amaki zanjirni uzun qo'yib yuborgancha uning harakatlariga tikilib o'tirdi-da, shivirlab:

– Javr bo'ldi senga, jonivor, javr bo'ldi, – dedi.

– Go'sht beryapti, – dedi sekin Abdulla Gulcheh-raning qulog'iga.

Gulchehra boshini qimirlatdi. Dadavoy amaki burgutni tomga olib chiqib qo'yganda ular ketishdi. Lekin ikkalasi ham tun bo'yi burgutni o'ylab chiqishdi. Ertalab yana shu yerga kelishdi. Burgut kechagidek mo'ring yonida bukchayib turardi.

– Nega javr bo'ldi, dedi? Bildingmi? – so'radi Gulchehra.

– Yo'q.

– Unda ham go'sht yo'q. Shuning uchun javr bo'ldi dedi, – tushuntirdi Gulchehra.

– Bilmadim.

– Bilmadim emas, aniq, – dedi Gulchehra, keyin Abdullani turtdi. – Qo'yib yubormaymizmi uni?

Abdulla bu gapdan cho'chib tushdi.

– Amaki dod deb yuboradi.

– Bilib o'tiribdimi? – dedi Gulchehra. – Becho-ra bunaqada o'lib qoladi. Bo'shatib yuboramiz.

– Hozirmi? – ikkilanib so'radi Abdulla.

– Qorongʻi tushganda.

– Mayli.

Kechqurun ular devordan oshib, Dadavoy amakining hovlisiga tushishdi. Ayvonning burchagidagi ustun qozigʻida uzun zanjir osilib turardi. Uning yarmi qoziqqa oʻralgan boʻlib, yarmi tomida burgutning oyogʻiga bogʻlangan edi. Abdulla zanjirni yechdi va bir-ikki siltab tortdi. Burgut tomning zihiga yaqinlashdi, lekin uchishni xayoliga ham keltirmadi.

– Oyogʻidan boʻshatish kerak, – dedi Gulchehra.

– Qanday qilib? Choʻqib olsa-chi?

– Ustiga qop tashlaymiz.

Ular tomga chiqishdi. Zanjir burgutning oyogʻiga omonatgina ilib qoʻyilgan ekan, yechish qiyin boʻlmadi. Yechib boʻlib, zanjirni hovliga tashlashganda esa, kutilmagan voqea yuz berdi. Burgut uchmadi. Aksincha, tomдан tushishayotganda ularning ketidan yurib, narvonga yaqinlashganda toʻxtadi-da, yana hurpayib, boshini qanotlari orasiga yashirdi.

– Uchmayapti-ku! – hayron boʻldi Abdulla.

– Haydash kerak, – dedi Gulchehra.

U shunday deb devor orqali tomga koʻtarildi va uzun bir tayoq bilan burgutni hayday boshladi. Ammo burgut joyidan qimirlamasdi. Bir gal Gulchehra uni qattiq itarib yubordi shekilli, burgut gandaraklab qanotlarini yoydi va oʻzini tutolmay hovliga sekin uchib tushdi. Shunda bolalar uning qanotlari qirqilganini koʻrishdi va qilgan ishlaridan qoʻrqib ketishdi. Burgut esa ayvon oldida savlat bilan bir-ikki aylanib, kecha ovqat yegan joyiga bordi-da, yana bukchayib tumshugʻini qanoti ichiga yashirdi.

– Nima qilamiz endi? – so‘radi Gulchehra.

Abdulla birinchi marta uning cho‘chiganini sezdi. Lekin nima deb javob berishi mumkin? U ham Gulchehradek nima qilishini bilmasdi. Shuning uchun yelkalarini qisdi. Bolalar ancha vaqt burgutga termilib, o‘ylashdi. Lekin ikkalovining xayoliga hech qanday fikr kelmadi. Nihoyat bo‘shashib ostonaga o‘tirishdi.

– Yaxshi ham boshqa bolalar bilishmadi, – dedi Gulchehra xo‘rsinib. – Bilishganda, bittasi emas, bittasi aytib qo‘yardi.

– Ha, rosa to‘polon bo‘lardi.

– Men amakidan qo‘rqaman. Ko‘zi yomon.

Gulchehra Dadavoy amakining ko‘zlarini ko‘rsatmoqchi bo‘lib, olaydi, o‘xshata olmadi. Abdulla kulib yubordi.

– Nega kulasan?

– Amaki ko‘zlarini hech shunaqa olaytirmaydi, – dedi Abdulla. – Uning ko‘zlari doim bir xil – sovuq.

– Olayadi! – dedi Gulchehra o‘zinikini ma‘qullab.

– Olaymaydi.

– Olayadi!

– Xo‘p, seniki ma‘qul. Menga qara, – dedi Abdulla u bilan tortishish foydasizligini tushunib, – yaxshisi, ketaylik. Amaki kelib qolsa ikkalamizni ham sog‘ qo‘ymaydi. Nima deding?

Bu gap Gulchehraga ma‘qul tushdi. Ular o‘rinlaridan turib eshik tomon yo‘l olishdi. Lekin hali besh qadam ham yurmagan edilarki, burgut ularning ketidan yurdi. Abdulla eshikni ochish o‘rniga hovlining orqa tomoniga qochdi. Gulchehra ham uning ketidan yugurdi. Burgut ulardan bir qadam orqada qolmasdi, ular to‘xtasa to‘xtar,

chopsa chopardi. Yana ayvonga qaytib kelishganda Gulchehra o'zini tutolmay yig'lab yubordi.

– Endi nima qilamiz?

Abdulla indamadi. Uni ham qo'rquv bosgan edi. Shu alfozda ular qancha turishdi, bilishmaydi, bir mahal ko'cha eshik g'irchillab ochilib, Dadavoy amaki kirib keldi. Qo'lida har doimgidek katta sumka, boshida uchi nayza qalpog'i. U ayvonga yaqinlashganda bolalarni ko'rib qoldi.

– Kimsanlar?

Bolalar indashmadi. Ikkalovi ham sovuq yegan odamdek qalt-qalt qilardi. Ulardan sado chiqmagach, Dadavoy amaki ayvonga ko'tarilib jinchiroqni yoqdi.

– Ha, – dedi u Gulchehraga chiroqni tutib. – Yusufning qizimisan? Bu bola kim?

Gulchehra javob berish o'rniga yig'lay boshladi.

– Nega yig'laysan? Qanday kirib qoldilaring bu yerga?

Yana ikkalovidan sado chiqmadi.

– Mayli, gapirmasalaring gapirmalaring, – dedi Dadavoy amaki sumkasini ko'tarib. – Men ham yoshligimda sho'x edim. Qo'shnilarning na devori, na tomi qolgan mendan.

U shunday deb, hovliga tushdi-yu, shumshayib turgan burgutni ko'rib qoldi.

– Mana bu ishlaring chakki bo'пти, – dedi u hamma narsaga tushunib. – Ko'r odam hassasiz yurolmaydi. Bu burgut ham ko'r, ham qari. Na ucha oladi, na ko'ra oladi. Bir cho'pon o'rtog'im urushga ketayotganda menga topshirdi: senda tursin, menga ko'p yaxshilik qildi, qariganida xor bo'lmasin, dedi. Ikki yildan beri men boqib yuribman. Bu ishlaring chakki bo'libdi.

– Endi tegmaymiz, amaki, – dedi yig'i aralash Gulchehra.

– Ishonaman, qizim, ishonaman, – dedi amaki.

Bizni urishadi deb qo'rqqan bolalar, o'sha kuni juda ezilib uylariga qaytishdi. «Yaxshi odam ekan-ku, amaki» o'ylardi ichida Abdulla. Lekin bir hafta o'tar-o'tmas u yo'q bo'lib qoldi. U ham, burgut ham. Uning qayoqqa ketganligini uzoq vaqtgacha hech kim bilmadi. Urush tugagandan so'ng esa uning Ukrainada qahramonlarcha halok bo'lgani haqida xabar keldi. O'shanda ham yoz bo'lib, Abdulla ta'tilga kelgan edi. Bu xabarni eshitib, Gulchehra ikkalovi ancha qayg'urishdi. Mana shu voqea, kim biladi, nima uchundir Abdullaning xayolidan sira ko'tarilmasdi.

Hozir ham u sekin kanal bo'ylab uy tomon borar ekan, shu voqea barcha ikir-chikirlari bilan uning ko'z oldida namoyon bo'lgan edi. O'sha paytlari Gulchehra o'g'il bolalardan farq qilmasdi. Endi-chi? Endi u butunlay boshqacha bo'lib ketibdi. Ilgarigi sho'xliklari, yugurib-yelishlari qani? Shunday o'ylar ekan, Abdulla qaysi bir yili (o'shanda yettinchi sinfda bo'lishsa kerak) jamoa rejani bajarib, to'y qilib berganda, birga ot minishganini esladi. Ha, Gulchehra o'shandayoq boshqacha bo'lib qolgan edi.

Ular kanal bo'ylab borishar ekan, Abdulla uning yelkasiga qo'llarini qo'yganda o'zini tortgan va shu bilan katta bo'lib qolishganini bildirgan edi. Ancha sayr qilishdi. Keyin qaysi bir brigadaning hovuz bo'yiga qurilgan shiyponida xayol surishdi. Shiyponda ulardan boshqa hech kim yo'q, hamma xo'jalik bog'idagi to'yda, dala jimjit edi.

Gulchehra tirsaklarini shiypon panjarasiga tirab, hovuzga termilgancha o'tirardi.

– O'ylayapsanmi? – so'radi Abdulla.

– Ha, – dedi sekingina Gulchehra. – Kim bo'lishimizni o'ylayapman.

Abdulla kuldi.

– Kim bo'lar ekanmiz?

– Sen olim bo'lasan.

– Olim? – hayron bo'ldi Abdulla.

– Ha, sen olim bo'lasan. Katta papka tutib, ko'zoynak taqib yurasan.

– Qo'ysang-chi! – ichida sevinisa ham, zarda qildi Abdulla.

– Yo'q, rost, ko'rib turibman.

– O'zing-chi? O'zing kim bo'lasan?

– Menmi? – Gulchehra o'ylanib qoldi. – Men... men me'mor bo'laman.

– O'h-ho', – dedi Abdulla, – juda baland ketding-kul!

– Nimasi baland? Sen olim bo'lganingda, men me'mor bo'lolmaymanmi? Har holda, shunga o'qiyman. Chiroyli uylar quraman, shahar quraman. Balki Mingbuloq me'mori bo'larman...

– Qishloqning ham me'mori bo'lar ekanmi?

– Nega bo'lmas ekan? Hozir bo'lmasa, keyin bo'lar. O'shanda baland-baland, chiroyli uylar quraman. Keyinchi... Keyin...

Gulchehra keyin nima qilishini aytolmadi.

– Men kim bo'lishimni hali bilmayman, – dedi Abdulla. – Dadam, hozir o'qishdan boshqa narsani o'ylama, deydilar.

– Men bo'lsam, ko'p o'ylayman. Bir – shifokor bo'lgim keladi, bir – muhandis. Hozir endi me'mor

bo'lgim kelyapti. Nima deysan, qaysi biri yaxshi ekan-a?

– Hammasi ham yaxshi bo'lsa kerak, – dedi Abdulla ikkilanib. – Yaxshi bo'lmasa odamlarning hammasi yo shifokor, yo muhandis bo'lardi, boshqa ishni tanlamasdi. – Bu fikr o'ziga ma'qul keldi shekilli, qat'iy qilib qo'shib qo'ydi: – Hammasi ham yaxshi.

Gulchehra indamadi, yoki yana o'z xayollari-ga berilib, uni eshitmadi. «Hozir u kim bo'lmoqchi ekan?» – o'yladi Abdulla. Shu payt kimdir uni turti.

– Salom!

Abdulla boshini ko'tardi. Ro'parasida o'zi tengi ikkita yigit turardi. Abdulla ularni tanidi. Biri – Qosimjon, ikkinchisi – Samad edi.

– Xayol surib qolibsana? – dedi Qosimjon qo'lini uzatib.

– Ovga chiquvdik, – dedi Abdulla yigitlar bilan ko'rishar ekan. – Yaxshimisizlar?

– Rahmat, – Qosimjon qo'lidagi tanburga ishora qilib, dedi: – Maktabni tugatdik. Kechqurun ziyofat. Repetitsiyaga ketyapmiz.

– Senam bitirding shekilli? – so'radi ikkinchi yigit.

– Ha, – dedi Abdulla.

– Yaxshi bitirdingmi?

– Yomon emas, – Abdulla oltin medal olganini aytishga uyaldi. – O'zlaring-chi?

– Biz ham shu, – dedi Qosimjon. – Qachon kelding?

– Kecha.

– Hali shu yerdamisan?

– Ha.

– Bo'lmasa kechqurun maktabga kel. Bir yay-raymiz, xo'pmi?

– Mayli, – dedi Abdulla Gulchehraning ham taklif qilganini eslab.

– Ziyofat zo‘r bo‘ladi, – gapga aralashdi ikkinchi yigit. – Raisning o‘zi qilib beryapti.

– Zo‘r-ku, – dedi jilmayib Abdulla.

– Zo‘r bo‘lganda qandoq! Xo‘jalikka kadrlar kerak. Biz tayyor kadr. Ziyofat shunga qarab-da. Uchalovi kulishdi.

– Kelgin-a, albatta! – dedi Qosimjon o‘rtog‘ini qo‘ltiqlab. – Xayrlashmaymiz.

Yigitlar ketishdi. Abdulla uyga kirganda Hojar buvi vodoprovod tagida chordona qurib, bedana tozalab o‘tirardi.

– Qayoqda qolib ketding, bolam! – dedi u nevarasini ko‘rib.

– O‘rtoqlarimni ko‘rib qoldim.

– Tog‘ang kelinoyingning oldiga ketdi. Tushlikka keladi. Yaxshilab osh qilib beraman. Bolam-ey, bolam-ey, qadami qutlug‘ bolam-ey! Qorning ham ochgandir?

Kampir yana nimalardir deb, o‘choq boshiga ketdi, Abdulla u olib kelgan shirguruchni ezmalanib yer ekan, ko‘z oldidan savat ko‘targan Gulchehra ketmas edi. «Yaxshi qiz bo‘libdi, – o‘ylardi u, – judayam yaxshi qiz. Besh-olti kun qolaman qishloqda». U shu fikrga kelib jilmaydi-da, yumshoq par yostiqqa yonboshladi. Shu payt u bir bolaning «Buvi!» deb chaqirganini eshitdi.

– Kela qol, nima deysan? – dedi kampir.

Bola nimadir dedi.

– Ana, ayvonga bora qol, ayvonda o‘tiribdi, – dedi.

«Kim ekan?» – o‘yladi Abdulla va hovliga qaradi. Yuziga jo‘xori donalari yopishgan besh-olti yashar qop-qora bola sochiqqa o‘ralgan bir narsa

ko'tarib kelardi. Narsa issiq bo'lsa kerak, hu-hu-lab dam u qo'liga, dam bu qo'liga olardi. Ostona-ga yetganda, dedi:

- Abdulla aka sizmisiz?
- Ha, nima edi? - so'radi Abdulla.
- Mavini opay berdila.
- Nima bu?
- Jo'xoyi. Issiq.

Bola shunday deb sochiqni yozib yubordi. Uch-to'rtta qip-qizil qilib pishirilgan jo'xori kigiz ustiga dumalab ketdi. Abdulla «rahmat» deb ul-gurmay, bola xuddi birov quvgandek, qochib ket-di. «Gulchehral!» - o'yladi Abdulla yuziga tabassum yugurib va qo'lini kuydiradigan darajada issiq jo'xoridan olib tishladi. Unga shu paytgacha qo'rda pishgan jo'xori bunchalik shirin tuyulmagan edi.

IV

Kechqurun u maktabga kelganda, kechaning tantanali qismi tugab, o'yin-kulgi avjiga chiqqan edi. Qosimjon hovlining o'rtasida turib olib, va'z-xonlik qilar, lekin hech kim unga quloq solmas edi. Hammaning ko'zi uzun stolning burchagida dutorga jo'r bo'lib qo'shiq aytayotgan qizda edi.

Abdulla ham beixtiyor to'xtab, quloq sola bosh-ladi. Qiz har to'rtlikni aytib bo'lganda sho'x kulgi ko'tarilar, lekin Abdulla uning nima aytayotgani-ni anglay olmadi. Qiz besh-oltita to'rtlikni aytib bo'lgach, gulduros qarsak ko'tarildi. Qosimjon, menga chalishyapti, deb o'yladi shekilli, tanta-nali vaziyatda qo'llarini ko'ksiga qo'yib, minnat-dorchilik bildirdi va shu top Abdullani ko'rib qoldi.

– E, kelardingiz-da, o‘rtoq medalist? – dedi u baland ovoz bilan.

U hazillashdimi, yo kinoya qildimi, Abdulla anglamadi, uning ikki ko‘zi hovliga gir aylantirib qo‘yilgan stol atrofidagi odamlarda edi. U Gulchehrani axtarardi.

– O‘rtoqlar! Bir daqiqa diqqat! – qichqirdi Qosimjon. – Bizning kechamizga Parijdan, e, kechirasizlar, Toshkentdan o‘rtoq Abdulla Sharipov tashrif buyurdilar.

Besh-olti joydan qarsak ko‘tarildi. Qosimjon gapida davom etdi:

– O‘rtoq Sharipov siz-bizga o‘xshagan oddiy odam emas. U kishi maktabni oltin medal bilan tamomladilar. Ura, o‘rtoqlar!

Abdulla bu gapdan ensasi qotib, o‘zini chetga olmoqchi bo‘ldi, lekin Qosimjon uni qo‘lidan mahkam ushlaganicha, dasturxonning to‘riga tortdi. Abdulla uning kayfi borligini payqab, qarshilik qilmadi va u ko‘rsatgan joyga borib o‘tirdi. Negadir hech qayerda Gulchehra ko‘rinmasdi. «Kelmadimikan? – o‘yladi xavotirlanib Abdulla. – Agar kelmagan bo‘lsa, birpas o‘tirib, ketaman».

– Xafa bo‘lma, – dedi qayoqdandir uning yonida paydo bo‘lib qolgan Samad. – Birinchi ichishi...

– Zarari yo‘q, – dedi jilmayishga harakat qilib Abdulla.

– Kechani o‘zimizga qo‘yib berishdi. Attestat topshirilgandan keyin hamma kattalar ketdi, – dedi Samad. – Direktorimiz yaxshi odam, shuni talab qildi.

– Kosagull! – qichqirdi shu tob yana Qosimjon uch marta qars urib. – May!

Kimdir Abdullaning oldiga ochilmagan Shampan vinosi keltirib qo'ydi.

– Ozgina ich, – dedi Samad. – Har holda, mustaqil bo'ldik endi.

– Mayli. Och.

– Paqillatamizmi?

Abdulla yelkalarini qisdi.

– Ixtiyoring.

Samad shisha qopqog'ini yarmiga ko'targan edi, sharob otilib, dasturxonga to'kilib ketdi.

– Mayli, – dedi Samad. – Hayotimiz shunday toshqin bo'lsin. Kel, shunga ichamiz.

Finjonlar jarangladi. Abdulla bir qultum yutib, stolga qo'ydi.

– Nega ichmading? – Bu Qosimjon edi. – Yo biz bilan ichmaysanmi?

– Nega? Faqat hozir ichgim kelmayapti.

– Bo'lmasa men ichaman.

Qosim piyolani to'latdi. Endi og'ziga olib borgan edi, Samad uning qo'lini tutdi.

– Bo'ldi. Ko'p ichib yubording.

– Qo'yib yubor! – Qosimjon siltanib qo'lini bo'shatgan edi, vino ko'ylagiga to'kilib ketdi. Lekin u parvo qilmay, qolganini qalqib-qalqib ichdi. Keyin gandraklab stolga yaqinlashdi-da, piyolani qo'ydi va birdan yig'lab yubordi.

– Abdulla, do'stim! Men sevinchimdan emas, alamimdan ichaman, alamimdan. G'alamislar meni yo'ldan urdi. Bu yerda qolishni istamayman! Tushunasanmi, Abdulla? Shaharga ketishni istayman, shaharda o'qigim keladi. Bu yerda nima bor? Paxta, paxta va yana paxta!..

– Aljirama, Qosim! – dedi Samad.

– Aljirayotganim yo‘q. Rostmi gapim, yo yolg‘onmi?

– Yolg‘on!

– O‘zingni aldama! Bilaman, sen ham qishloqni yomon ko‘rasan. Xuddi menga o‘xshab yomon ko‘rasan. Lekin qo‘rqasan aytishga! Men qo‘rqmayman! Men rostini aytaman. Qishloq mana bu yerimga keldi, mana bu yerimga!..

Qosimjon hiqildog‘iga qo‘lining zihi bilan urib yig‘lardi.

– Olib ketsalaring-chi! – dedi qizlardan kimdir.

– Aynib qoldi-ku!

Ikki yigit Qosimjonni qo‘ltiqlab olib, nimadir deyishdi. Qosimjon yig‘i aralash qiqirlab kuldi-da, qarshilik ko‘rsatmay, ular bilan ketdi.

– Nima bo‘ldi? – so‘radi Abdulla.

– Hech narsa, – dedi Samad kulib. – Jinnilik qilyapti, xolos. Ikki kun burun hammamiz qishloqda qolishga qaror qildik.

– Qishloqda qolishga? – hayron bo‘ldi Abdulla.

– Ha, Qosimjon ham rozi bo‘lgan edi. Bilasan, qishloqda doim odam yetishmaydi. Shuning uchunmi, xo‘jaligimiz ancha qoloq, kambag‘al. Bizning foydamiz tegishi mumkin. Kattalar juda xursand bo‘lishdi qarorimizni eshitib. Ziyofat shuning uchun ham quyuq.

– O‘qimaysizlarmi?

– Nega o‘qimas ekanmiz? – dedi Samad xafa bo‘lganday. – O‘qiymiz. Hammamiz o‘qiymiz. Faqat sirtidan o‘qiymiz. Men, masalan, qishloq xo‘jalik institutiga kiranman. Qosimjon pedagogika institutining til va adabiyot fakultetiga kiradi. Sezgandirsiz, uning kim bo‘lishini gaplari ham aytib turibdi. Ana shunaqa, ham ishlaymiz, ham

o'qiymiz. Bilmadim, nega Qosim birdan aynib qoldi?..

– Endi nima bo'ladi?

– Nima bo'lardi, – dedi Samad o'ylanib. – Nima istasa shu. Ketmoqchi bo'lsa qarshilik qiladigan odam yo'q. Qishloqda qolish majburiy emas. Bu har kimning ko'ngil ishi.

– Sening hammi?

– Mening ham.

– Nega bo'lmasa Qosimjon senga, qishloqni yomon ko'rasan, dedi? – so'radi jilmayib Abdulla.

– U to'g'ri aytdi, – dedi Samad vazminlik bilan. – Lekin qishloqni emas, qishlog'imizni yomon ko'raman. Qanday tushuntirsam ekan? Bilasanmi, Mingbuloq o'zi yaxshi, suv serob. Lekin u qarovsiz. Ko'chalari tor, qing'ir-qiyshiq. Buning ustiga yozda chang bo'ladi, qishda doim loy. Uylarni ayt-maysanmi? O'n-o'n besh uyni hisobga olmagan-da, o'zimizning eski qamish tomli uylar. Yana ko'p narsa yoqmaydi. Foydasi yo'q hozir gapirishni. Biz bu haqda Gulchehra bilan ko'p o'ylaymiz...

– Gulchehra bilan?

– Ha, unga ham qishlog'imiz yoqmaydi. Ana shunaqa, Abdulla. Lekin besh-o'n yil o'tsin, Mingbuloq juda boshqacha bo'lib ketadi. Tanimay qolasan.

– Aytganing kelsin, – dedi Abdulla atrofga alanglab. U Gulchehraning nomini eshitishi bilan qulog'iga gap kirmay qolgan, lekin uning qayerdaligini so'rashga negadir botinolmay o'tirardi. Gulchehra ko'rinmadi, u sekin o'rnidan turdi.

– Qayoqqa? – so'radi Samad.

– Boray, kech bo'lib qoldi, – dedi iymanib Abdulla.

– To‘xta, hozir osh keladi. Gulchehra qozon boshida. Kechaning boshlig‘i u. Uning ruxsatisiz ketmaysan.

Abdulla sevinib ketdi. Ammo buni sezdirmaslikka harakat qilib:

– Ancha o‘tirib qoldim, – dedi.

– Hech nima qilmaydi. Bu kecha hech kim bizni urishmaydi.

Abdulla «ilojim qancha» degandek, sekin joyiga o‘tirdi. Kimdir radioni qo‘yib yubordi. Vals yangray boshladi.

– Tur, – dedi Samad. – Har holda, shaharlik-san, boshlab ber.

– Ikkalamiz.

Ular o‘rtaga tushishdi. Abdulla Samadni qo‘ltiqhladi. Hovlini bir aylanib chiqishgach, ikkita qizni o‘rtaga tortishdi. Boshqalar ham birin-ketin o‘rinlaridan turishdi. Abdulla olib yurgan sariqqina, nimjon qiz uning ko‘kragiga qo‘llarini omonatgina qo‘yib aylanar ekan, uyalganidanmi, yomon tushishidanmi, boshini yerdan ko‘tarmasdi. Abdulla bunga parvo qilmas, har aylanganida: «Qani endi shu qizning o‘rnida hozir Gulchehra bo‘lsa? – deya o‘ylardi. – Tonggacha u bilan tushardim, zerikmasdim».

Vals yarmiga yetganda o‘rtada uch-to‘rt juft odam qoldi. Hamma to‘xtab, Abdullaga tikilardi. Abdulla chindan ham valsga yaxshi tushardi. Maktabda undan o‘tadigani yo‘q edi. Kechalarda qizlar ko‘pincha u bilan raqs tushishni, uning olib yurishini orzu qilishar edi. Hozir ham Abdulla hammani o‘ziga mahliyo qilib qo‘ygan edi. Nihoyat, vals tindi. Qarsak ko‘tarildi. Shundagi-

na Abdulla hamma o'ziga qarab turganini sezdi. Uyalib jilmaydi-da, qizni joyiga o'tqazib, to'rga yo'l oldi. Endi o'tirayotgan edi, tanish qo'ng'iroq ovoz quloqlari tagida jarangladi.

– Yaxshi tushar ekansiz!..

Abdulla o'girildi. Ro'parasida oppoq guruch tishlari marvariddek yarqirab Gulchehra turardi. Abdulla lol bo'lib qoldi. U Gulchehraning bunchalik chiroyli ekanligini xayoliga keltirmagan edi. Egnida keng qizil atlas ko'ylak, baland poshna oq tuflisi kichkina oyoqlariga chippa yopishgan, ikkita qilib o'rilgan sochlarining bir o'rimi ko'kragi ustidan tushib, jingalak uchi zulukdek titrab turardi. Shodligidanmi, olov tepasida turganidanmi, ikki yuzi anordek qip-qizargan, chimirilgan qoshlari ostida yirik, sho'x ko'zlari cho'g'dek yonardi. Abdulla bu ko'zlarning taftiga chidash berolmay, yerga qaradi.

– Ko'rinmaysiz?

Gulchehra kuldi.

– Bugun men ham izzatdaman, ham xizmatda. Lekin kelganingizni ko'rdim. Faqat oldingizga kelolmadim. Kechiring.

– Hechqisi yo'q. Samad bilan gaplashib o'tirdik. Lokin shu yerdaligingizni u aytmaganda, ketib qoldim.

– Nahotki?

– Rost.

– Unday bo'lsa, ketmaganingiz yaxshi bo'libdi. Endi bo'shadim.

– Bo'lmasa o'tiring, – Abdulla yonidan joy ko'rsatdi.

Ammo Gulchehra o'tirishga ulgurmedi. Radioladan yana vals jaranglay boshladi.

– Tushasizmi? – so‘radi Abdulla.

– Siz bilan tushishga uyalaman, – dedi Gulchehra boshini quyi solib.

– Nega?

– Yaxshi bilmayman. Keyin mendan kulishingiz mumkin.

– Hammadan kulsam ham, sizdan kulmayman.

Gulchehra yalt etib unga qaradi. Abdulla uni issiq qo‘lidan ushlab o‘rtaga olib chiqdi va ehtiyotlik bilan belidan quchoqladi. Musiqaning yangi pardasi boshlanishi bilan, kutilmaganda, Gulchehra boshini ko‘tardi, ikkala qo‘lini Abdulaning yelkalariga tashladi-da, tovusdek suzib ketdi. Birinchi aylanishdayoq Abdulla uni olib yurish juda oson va juda yoqimli ekanini tushungan va ichida, boyagina xayolidan o‘tkazgan orzusiga yetishganidan cheksiz shod edi.

– Aldoqchi ekansiz? – dedi kulib Abdulla.

– Nega? – Gulchehra qoshlarini chimirdi.

– Juda yaxshi bilar ekansiz-ku!

– Unchalik emas, – dedi Gulchehra va xo‘rsindi... – Mingbuloqda tansa tushishmaydi. Mingbuloq shahar emas. Vaqt ham yo‘q, imkoniyat ham yo‘q.

– Nega? – hayron bo‘ldi Abdulla. – Axir bugun...

– Bugun boshqa gap. Bugunni biz ko‘pdan beri kutgan edik.

Abdulla Gulchehraning nima demoqchi ekanligiga tushunmadi. U hozir bu haqda o‘ylashni, surishtirishni istamasdi ham. U Gulchehraning chehrasiga mahliyo edi. «Yo‘q, – o‘ylardi u, – bunaqa qizni shaharda uchratmaganman. Yo‘q. Ochiq, kibor emas. Innaykeyin, juda chiroyli. Ikki yil ichida u butunlay o‘zgarib ketibdi. Qani endi u

bilan shahar ko'chalarida yursang! Hammaning havasi kelardi, havasi kelishi turgan gap!»

U shunday o'ylardi va Gulchehraning jiddiy gaplarini eshitishni istamasdi. Vals tugamasa, tonggacha davom etsa! U shuni istardi. Lekin Gulchehra o'zining so'nggi gapi bilan paydo qilib qo'yan kayfiyatdan uning qutulishi oson bo'lmadi. Harakatlaridagi ilgarigi hayajon susaydi, qizning birdaniga jiddiylashgani u bilan barobar oyoq tashlasa ham, musiqani boyagidek his qilmayotgan, uning yengil gaplarga bo'lgan jur'atini to'xtatgan, boyagina butun vujudida jo'sh urib turgan erkini qisib qo'yan edi. Biroq nimadir deyishi kerak.

Bir vals ikkinchisiga ulanib ketdi. Ular bo'lsa jim. Gulchehraning ko'zlari chetda, xayoli parishon. Nega shunday bo'lib qoldi? Nega birdan o'zgardi?

– Boshingiz og'riyaptimi? – so'radi nihoyat Abdulla.

Gulchehra jilmayishga harakat qildi.

– Yo'q, xayol surib ketdim. Kechiring.

– Hechqisi yo'q. Men xafa qilib qo'ydimmi, deb qo'rqdim. Xafa qilmadimmi?

Gulchehra unga jilmayib boqdi-da, boshini qimirlatib qo'ydi. Shu boqishi Abdullaning yana chehrasini ochib yubordi. «Ko'zlari muncha yaxshi? – xayolidan o'tkazdi u. – Yo'q, bunaqa qiz shaharda yo'q».

– Gulchehra, – dedi u sevinchi jo'sh urib. – Yuring, bir aylanib kelamiz. – Abdulla bu fikr miyasiga qanday kelib qolganini o'zi sezmedi. – Yuring, kanal bo'yiga boramiz. Hozir juda chiroyli bo'lsa kerak. Boramizmi? – Abdulla to'xtab,

Gulchehraning tirsaklaridan ushladi. – Yo‘q demang. Yuring.

Gulchehra javob bermadi. Uning ko‘zlari o‘rtoqlarida edi. Lekin hech kim ularga parvo qilmasdi, hamma o‘zi bilan o‘zi ovora edi.

– Yuring!

Abdulla sevinganidan sakrab yuboray dedi. Maktab tomondan eshitilayotgan musiqa, kulgi sadolarini hisobga olmaganda, o‘sha kuni Mingbuloq osuda tun qo‘ynida orom olardi. Osmon to‘la yulduz. Yangi yetilgan kungaboqardek sarg‘ayib turgan oyning nimrang shu‘lalaridan olmozor hisobsiz kumush isirg‘a taqqan edi.

Abdulla katta ko‘chaga chiqquncha Gulchehraning soyasiga qarab bordi. Uning soyasi ham o‘ziga o‘xshagan chiroyli edi. Har qadam qo‘ygani-da beliga tushib turgan soch o‘rimlari uning soyasiga tegar va yana shunday tezlik bilan g‘oyib bo‘lardi. Abdulla soyani, xuddi joni bordek, bosib olmaslik uchun ehtiyotlik bilan oyoq qo‘yar edi. Muiyilishga kelganda iloji bo‘lmadi, shunday sochining ustiga chap oyog‘ini qo‘ydi va xuddi tok urgandek cho‘chib o‘zini chetga oldi-da, Gulchehraga qaradi. Gulchehra ham soyalarga qarab ke layotgan ekan, qoshlarini chimirib unga tikildi.

– Baribir bosib oldingiz!

– Og‘ridimi? – qizning gapiga mos ohangda so‘radi Abdulla.

– Juda ham, – dedi Gulchehra lablarini cho‘chchaytirib va birdan xaxolab kulib yubordi. Abdulla ham unga qo‘shildi. Kulgi sabab bo‘lib, maktabdan chiqishlari bilan o‘rtaga tushgan uyatchanlik, yotsirash yo‘qoldi. Abdulla qizning qo‘lini ushladi.

– Yaxshi-a?

– Juda ham! – dedi Gulchehra. – Kechasi men bu yoqqa hech kelmagan edim. Juda yaxshi. Suvni qarang, xuddi zar qog‘ozga o‘xshaydi. Yaxshi bo‘ldi kelganimiz. Siz-chi, siz xursandmisiz?

U Abdullaga o‘girildi. Uning ko‘zlari yonardi.

– Ha, – dedi Abdulla va uning qo‘lini qisib qo‘ydi. Gulchehra indamadi. U birinchi marta oydin kechada sayr qilishidan chuqur hayajonda, har kuni, har soat ko‘rib turadigan narsalari – kanal ustidagi bir yoq panjarasi singan ko‘prik ham, yaproqlari kumush isirg‘alardek yaraqlab turgan olmazor ham, qo‘ying-chi, ko‘zga ko‘rinib turgan hamma narsa unga hozir boshqacha tus olgandek sirli va qandaydir yoqimli tuyulardi. Jimirlab oqayotgan suvga tikilar ekan, suv tagida oy bir qalqidi-yu, jilmayib uni imlaganday bo‘ldi. Gulchehra beixtiyor:

– Yuring, nariroq boramiz, – dedi.

Abdulla uning yonida yo‘lga tushdi. Tunning sehrli manzarasi Gulchehrani elitgan, uni qandaydir ilgari xayolida ham paydo bo‘lmagan o‘zga bir dunyoga olib kirgan bo‘lsa, Abdulla ham o‘zini haligacha bilmagan g‘alati shirin bir kayfiyatda his etardi.

– Sezyapsizmi? – dedi bir mahal Gulchehra.

– Nimani? – so‘radi Abdulla unga tikilib.

Ammo Gulchehra unga qaramasdi. Uning ko‘zlari pastda, kanal bo‘yida edi.

– Yalpiz...

– Yalpiz?

– Ha, bechora shu paytda ham chiqibdi. Sezyapsizmi hidini?

Abdulla to'yib havo simirdi.

– Ha, yalpiz. Uzib beraymi?

– Qorong'i-ku, – dedi Gulchehra.

Lekin Abdulla unga quloq solmadi, qirg'oqqa yaqinlashib, o'tlarni titkilay ketdi. Gulchehra haq edi. Oydin kecha bo'lsa ham, oy shu'lasida ming xil o'tlar orasidan kichkina yalpiz shoxini topib bo'larmidi? Abdulla buni o'ylamasdi. Uning uchun hozir Gulchehraning chehrasini ochgan shu o'tni topishdan katta baxt yo'q edi. Bir qo'li bilan chimga yopishib, bir qo'li bilan kanalning shunday labini timirskilar ekan, «topaman, albat-ta topaman», derdi ichida. Uning bu shashtidan shu tob hech kim, hech narsa qaytara olmasdi.

Gulchehra buni sezdi, indamadi. Aksincha, tepadan turib, u bilan birgalikda dimog'ini qitqlagan yalpizni axtara boshladi. U nihoyatda shod edi. Shu paytgacha hech kim uning istagini anglab, ko'nglini olmagan edi. Bugun ikki marta u orzusiga yetdi. Bu orzular kichkina bo'lsa ham, uni baxtiyor qilgan edi. Ikkala orzusiga ham u bolalik o'rtog'i, g'oyibdan bugun tongda paydo bo'lib qolib, uning shodligiga shodlik qo'shgan Abdulla orqali yetishdi. «Qanday ajoyib yigit bo'libdi u! – o'yladi u. – Qanday odobli, istarasi issiq. Nahotki odam ikki yilda shunchalik o'zgarib ketsa? Yurarmikin?»

Shu savol xayolidan o'tishi bilan u seskanib ketdi. «Uning nima ishi bor? Rashk qilyaptimi? Shaharlik bo'lsa, keyin ittifoqo uchrashib qolishgan bo'lsa? Yursa yuraversin. Uning nima ishi bor?» Gulchehra shunday deb yuragini tirnab o'tgan xavfni qaytarishga harakat qildi. «Yursa

yuraversin». Lekin u hozir Abdulladan minnatdor. Valsga tushmoqchi edi, Abdulla sezib taklif qildi. Yalpizni topmoqchi edi. Ana, qidiryapti. Topmasa ham mayli, uning istagini anglab, qidirganining o'zi katta gap. Har qanday yigit ham shunday qilavermaydi. Gulchehra cho'kkalab yurgan Abdullaga tikildi va birdan mehri jo'shib, dedi:

– Abdulla, qo'ying, shimingizni iflos qildingiz.

– Zarari yo'q. Shu atrofda, hozir topamiz.

Abdulla shunday dedi-da, yana engashdi.

– Sizni ovora qildim. Abdulla, keling, qo'ying!

Gulchehra cho'zilib, uning yoqasidan tortmoqchi edi, qo'li boshiga tegib, dag'al sochlarini silab o'tdi. Abdulla bunga parvo qilmadi. Lekin Gulchehra negadir o'zining olov bo'lib ketganini payqadi. Payqadi-yu, beixtiyor qo'lini tortib oldi.

– Qayoqqa qochib qutulardi? – dedi Abdulla. – Mana shu yerdaga o'xshaydi.

Bu gapni u o'ziga aytdimi, Gulchehragami – bilib bo'lmadi. Shunday bo'lsa ham, Gulchehraning javob bergisi keldi.

– Ha. Isi shu yerdan o'tkirroq kelyapti.

– Men ham shuni sezib turibman. Lekin qayerda ekan? Manavi tikanning tagidamikan?

– Ehtiyot bo'ling. Qo'lingizga kirmasin tag'in...

– Gulchehra tizzalariga qo'llarini tirab, engashdi.

– Kirmaydi. Kirganda ham nima qilardi?

Abdulla shunday dedi-yu, siltanib qo'lini tortgan edi, kanalga bir oyog'i sirg'anib tushdi.

– Voy! Ushlang! – qichqirib yubordi Gulchehra.

– Hech nima qilmaydi, – dedi o'zini beparvo tutishga intilib Abdulla, lekin Gulchehraning qo'lini ushladi. O'zini o'nglab olganda, Gulchehra mehribonlik bilan so'radi:

– Tikan kirmadimi?

Tikan kirgan barmog'i zirqirab turgan bo'lsa ham Gulchehraning bu savolidan, to'g'rirog'i, gapi ohangidan Abdulla og'riqni unutdi va yana tikan tagini tita boshladi.

– Kirgani yo'q. Sirg'anib ketdim, xolos! Mana! Topdim!

– Urra! – qichqirib yubordi Gulchehra va Abdulla tikan tagidan ildizi bilan sug'urib olgan yalpizni ko'tarib qirg'oqqa chiqqanda beixtiyor uni quchoqlab oldi. – Hidini qarang! Hidini! Biram o'tkir!

– Ha, – dedi Abdulla sevinch bilan qizga qararkan.

– Rahmat, – dedi Gulchehra yalpizni yuziga bosar ekan... – Yaxshi ko'raman, juda ham yaxshi ko'raman. Esingizdami, bir marta ikkalamiz yalpiz tergan edik?

– Qachon? – so'radi Abdulla.

– Ancha bo'ldi. Oltinchi sinfda o'qirmidik o'shanda. Siz bahorgi ta'til payti kelgan edingiz.

Abdulla qancha o'ylamasin, eslolmadi.

– Bahorda, deysizmi?

– Ha. Kechqurun edi. Men sizlarnikida edim. Zavod ayam, yalpiz yulib kelinglar, moshxo'rda qilyapman, dedilar. Keyin, ikkalamiz ketdik. Ho', to'g'on boshiga bordik. Chaman bo'lib yotuvdi o'shanda yalpiz. Endi teramiz deganimizda bir yomg'ir quydi, keyin do'l yog'di. – Gulchehra kulib yubordi.

– Nega kulyapsiz?

Gulchehra kulgidan o'zini to'xtata olmay, zo'rg'a gapida davom etdi:

– Bitta do'l... bitta yong'oqdek do'l... – Gulchehra gapirolmadi.

– Ha, nima bo‘ldi? – so‘radi negadir uyalib Abdulla.

– Bitta yong‘oqdek... do‘l, – dedi Gulchehra, – boshingizga tushdi. Birpasda boshingiz g‘urra bo‘ldi. – Gulchehra yana kulib yubordi. – Ikkalamiz g‘urrani ushlab, rosa yig‘ladik.

– Esimda yo‘q, – dedi beixtiyor boshini ushlab Abdulla. – Yig‘loqi emasdim shekilli?..

– O‘shanda rosa yig‘lagansiz!

Gulchehra yana nimanidir eslab, «piq» etdi-yu, Abdullaning uyalganini ko‘rib, o‘zini tutib qoldi.

– Lekin, yalpiz terganmiz. Bir etak yalpiz terganmiz.

– Uning hidi ham shunaqa edimi?

– Yo‘q, – dedi Gulchehra birdan jiddiylashib. – Buning hidi yaxshi.

U shunday deb boshini egdi.

– Gulchehra...

– Hm...

– Nega qishloqda qolmoqchisiz?

Gulchehra javob bermadi. Ular anchagacha jim borishdi. Oldinda to‘g‘on boshidagi fonar ko‘rindi. Ko‘rshapalakmi, allaqanday katta bir narsa atrofida gir aylanib uchardi.

– Nahotki Mingbuloq Toshkentdan yaxshi bo‘lsa?

– Mingbuloqni yaxshi ko‘raman, – dedi nihoyat Gulchehra. – Uni Toshkentga solishtirib bo‘lmaydi. Lekin bir kunmas bir kun Mingbuloq ham chiroyli qishloq bo‘ladi. Gap bunda emas.

– Nimada bo‘lmasa?

– Men ketolmayman, – Gulchehra xo‘rsindi. – Ayam kasal, dadamga kim qaraydi?

– Ikkalamizning ahvolimiz bir ekan, – dedi Abdulla. – Mening dadam kasal. Lekin bu sabab bo‘lolmaydi. Siz o‘qishingiz kerak.

– O‘qiyman.

– Sirtidanmi?

– Ha.

– Sirtidan o‘qish og‘ir. Agar borganingizda... birga bo‘lardik.

– Borolmayman. Innaykeyin, butun sinf kelishganmiz.

– Buning ahamiyati yo‘q. Mana, Qosimjon voz kechdi shekilli.

– Kim biladi, bu hali noma‘lum.

– Toshkentga borishingizni juda istardim.

– Rahmat, Abdulla. Lekin qishloqdan ketolmayman.

Bu gaplar ikkalovini ham o‘ylantirib qo‘ydi. Abdulla shunday yaxshi qizning qishloqda qolayotganini, uni endi buvisinikiga kelgandagina ko‘rishni mumkinligini o‘ylab, achinardi. O‘shanda ham ko‘ra olarmikan? Gulchehra endi katta qiz. Qishloqda esa yigitlar ko‘p. Samad boya nima dedi? «Biz qishloqning kelajagini ko‘p o‘ylaymiz Gulchehra bilan», dedi. Demak, Gulchehraga uning mayli bor. Tag‘in kim biladi?.. Lekin Gulchehra Toshkentda o‘qisa qanday yaxshi bo‘lardi. Har kuni u bilan uchrashardi. Har kuni sayr qilishardi. Balki ularning aloqasi o‘shanda bundan ham jiddiyroq bo‘larmidi?!

Abdulla shunday o‘ylar ekan, fonarga so‘lg‘in ko‘zlarini tikib xayol surib qolgan Gulchehradan nazarini ololmasdi. O‘sha paytda Gulchehraning xayollari g‘amgin, kelajagi qorong‘i xayollar edi.

U avval shuncha yildan beri ko'rishmagan tengdoshi bilan uchrashuv bunchalik jiddiy tus olishini kutmagan edi. Nima bo'libdi? Samad, Qosimjonlar qatori bir yigit. Ertalab ko'rdi. So'rashdi. Keyin, kechaga taklif qildi. Lekin shu birinchi uchrashuv uning yuragiga g'ulg'ula solib qo'ygandi. Abdullaning nimasidir birinchi ko'rishidayoq uni o'ziga tortgan va kun bo'yi tezroq kech kirishini orziqib kutgan edi.

Kechaga ham u o'zining eng sevimli ko'ylagini ni kiydi. Avval ham shu ko'ylakni kiyishni o'ylab qo'ygan edi. Lekin Abdullani ko'rganidan keyin bu fikr qat'iylashdi, ko'ylakni qandaydir yoqimli hayajon bilan kiyib, ancha vaqt o'zini oynaga soldi. Buning ustiga u hech qachon bunchalik diqqat va quvonch bilan pardozi qilmagan edi. Abdulla shularni sezdimikan? Aftidan, sezdi. Kechada ko'rishganda mahliyo bo'lib qoldi. Mana hozir ham ko'zlarini uzolmay turibdi. Chindan ham u bilan bir joyda o'qish, bir joyda bo'lish yaxshi emasmi? Lekin nega borolmayman, sirtidan o'qiyman, dedi? Ko'ngil uchun bo'lsa ham o'ylab ko'raman, hali bir yarim oy vaqt bor, desa bo'lmasmidi? Nahotki ayasining betoblighi katta shaharga borib o'qishga yo'l qo'ymas! Abdulla ham bu sabab emas, deyapti-ku! Shunday emasmi? Yo'q, yo'q, borolmaydi. Axir qishloqda qolishni taklif qilgan o'zi edi-ku!

– Hali kech emas, Gulchehra, – dedi Abdulla jimlikni buzib.

Gulchehraning xayollari bo'lindi.

– Ha, – dedi negadir u va g'amgin jilmaydi. Abdulla xuddi shu javobni kutib turgandek, sevinib ketdi.

– Albatta kech emas, – dedi u qizishib. – Har kim o‘z ixtiyori bilan ish qilishi mumkin. Innaykeyin, bu masalada birovning maslahati bilan ish tutib bo‘ladimi?

– Yuring, qaytamiz, – dedi Gulchehra gapni bo‘lib. Uning hozir bir narsa degisi kelmadi. – Kech bo‘lib qoldi, tarqalishayotgandir.

Abdulla qarshilik qilmadi. U hozir o‘zini katta g‘alabaga erishgan odamdek his qilardi. Gulchehraning «ha» deyishi unga rozi bo‘lgandek tuyulgan edi va ichida qaytishni istamasa ham, shu bittagina «ha» tufayli Gulchehra nima desa, shunga tayyor edi.

– Bedana qalay? – so‘radi u Gulchehrani ko‘p o‘ylatmaslikka intilib.

Gulchehra ham bu savoldan xursand bo‘ldi. Uning shu ajoyib kechani g‘amgin, murakkab xayollar bilan buzgisi kelmasdi.

– Yaxshi! – dedi chehrasi ochilib. – Qanotini taxtakachlab qo‘ydim. Ayam, tuzalib ketadi, deyaptilar. Tuzalganda qaytarib beraman. Lekin bitta sharti bilan...

– Qanday shart?

– Toshkentga olib ketasiz. Obid akamni yaxshi ko‘raman, lekin qahrlari qattiq. O‘ldirib qo‘yishlari mumkin. Olib ketasizmi?

– Xo‘p. Lekin men ham o‘ldirib qo‘yishim mumkin.

Abdulla sinovchan nazar bilan Gulchehraga tikildi.

– Yo‘q, siz o‘ldirmaysiz. Jo‘xorizordayoq buni bilgan edim.

– Aytganday, jo‘xori juda shirin ekan, rahmat. Hali ham og‘zimda mazasi turibdi. Hozir bo‘lganda – yo‘q demasdim.

Gulchehra jilmaydi.

– Bugun endi kech, ertaga pishirib beraman, maylimi?

– Bo‘lmasa-chi!

Ular ko‘prikka yetib kelishdi. Gulchehra to‘xtadi. Maktab tomondan hali ham musiqa ohanglari eshitidib turardi.

– Ketishmabdi...

– Birpas aylanamizmi? – so‘radi Abdulla.

– Yo‘q. Ayam xavotir oladilar.

– Gulchehra!

– Labbay?

– Ertaga bo‘shmisiz?

– Nimaydi?

– Agar... bo‘sh bo‘lsangiz, kechqurun jo‘xorini o‘zingiz olib chiqing, men shu yerda kutib tura-man. Xo‘pmi?

Gulchehra indamadi.

– Iltimos qilaman.

– Qaydam?

Gulchehra qo‘lini cho‘zdi. Abdulla uning issiq kaftiga kaftini bosdi. Gulchehra «yaxshi emas» deganday boshini qimirlatdi va sekin qo‘lini tortib bo‘shatdi.

– Kelasiz-a?

Ammo Abdulla qizning javobini eshitmadi. Gulchehra «xayr!» dedi-da, o‘qdek otilib uyiga kirib ketdi.

V

Gulchehra ham, Abdulla ham tunni bo‘lajak uchrashuv orzusida o‘tkazishdi. Ikkalovi ham qu-

vonchli tasodifdan cheksiz shod edi. Gulchehra tong otishini sabrsizlik bilan kutar ekan, ikki o't orasiga tushib qolayotganini bilardi. Lekin bari-bir shirin daqiqalarni tabassum va xursandlik bilan eslashdan o'zini tiyolmasdi, u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilib, so'lib qolgan yalpizni yuziga bosardi.

Abdulla ertasiga ertalabdan boshlab Gulchehra bilan uchrashish yo'llarini axtara boshladi. Ular kechqurun uchrashishadi, Gulchehra jo'xori olib chiqadi, lekin ungacha yana bir marta bo'lsa-da ko'rish kerak. Abdulla xilma-xil rejalar tuzib ko'rdi. Bolalardan bittasini kiritmoqchi bo'ldi, lekin darrov bu fikridan qaytdi. Kim chaqiryapti deb ayasi so'rab qolsa, aytib qo'yishi mumkin. Gulchehralarnikida hech kim uning chaqirayotganini bilmasligi kerak. Bir marta bo'lsa mayli, boshqa kunlari nima qiladi? Keyin gumonsiray boshlashadi, balki Gulchehrani butunlay uydan chiqarmay qo'yishadi. Yusuf aka badjahl, in-naykeyin, eski toifadagi kishilardan.

Bola kiritish to'g'ri kelmaganidan so'ng, Abdulla, bog' tomondan ularning tashqarisiga o'tib poylamoqchi bo'ldi. Ko'rinib qolar axir hovlida? Ko'rish bilan imlab chaqiradi. Lekin bu ham ma'qul tushmadi. Gulchehra istamasa-chi? Unda rosa uyatga qoladi-ku. Shu xayollar bilan bo'lib, Hojar buvining dasturxon yozganini, oldiga bir tovoq qaymoq qo'yib, non sindirganini payqamadi ham. Kampir uni parishon ko'rib, xavotirlandi.

– Yosh bola, nimalarni o'ylab qolding? Choyingni ichsang-chil!

– Hozir! – dedi Abdulla va o'g'ridek boqqa tushmoqchi bo'lganini eslab, kuldi.

– Ha, kecha o‘tirishinglar yaxshi bo‘ldimi? Ancha kech qolding?

– Juda ham yaxshi bo‘ldi, buvi.

– Tog‘angni bir-ikki ko‘chaga chiqardim xavotir bo‘lib.

Abdulla tog‘asining nomini eshitishi bilan kelinoyisining ahvolini surishtirmaganini o‘ylab, uyalib ketdi. Nega bir og‘iz so‘rash xayoliga kelmadi?

– Aytganday, buvi, kelinoyim tuzukmilar?

Hojar buvi nevarasining bu savolidan xursand bo‘lib ketdi.

– Xudoga shukur, yaxshi! Ertaga tog‘ang olib keladi. Chaqaloq ham biram yaxshi, biram ko‘hlik... Qosh-ko‘zlari xuddi senga o‘xshaydi. Ishqilib, umri uzoq bo‘lsin!

– Buvi! – dedi Abdulla xatosini tuzatishni o‘ylab. – Borib kelaymi men ham?

– Balnisagami?

– Ha!

– Qanday bo‘larkin? – Hojar buvi o‘ylanib qoldi, keyin dedi: – Yaxshisi, ertaga bor tog‘ang bilan. Jiyaningni o‘zing ko‘tarib kel. Bugun nima ham deb borarding?

Abdulla yelkasidan og‘ir yuk olingandek, o‘zini yengil his qildi.

– Mayli, ertaga bo‘lsa, ertaga.

U apil-tapil qo‘lini artib, o‘rnidan turdi.

– Ish-pish bormi menga, buvi!

– Choyingni ichmaysanmi?

– Bo‘ldi.

– Voy, ovqat yeganing tushsin sening. Nima ish bo‘lardi, ish yo‘q. Beshik to‘yida xizmat qilasana. Hozir o‘yna.

Hojar buvi yana nimalarnidir dedi, lekin Abdulla eshitmadi. Uning xayoli ko'chada edi. Uchratarmikin? Kun bo'yi uyda o'tirmas-ku. Abdulla ko'chaga chiqdi. Qishloq jimjit edi. Hojar buvining ko'chaga qaragan boloxonasi tagida uch-to'rtta bola oshiq o'ynardi. Abdulla ularning tepasiga kelib, birpas qarab turdi. Xayoli boshqa yoqda bo'lgani uchun, o'yin uni qiziqtirmadi.

Ko'chani kesib o'tib, ko'prik tomon yo'l oldi. Balki jo'xorizordadir? Yalt etib kelgan bu fikrdan u sevinib, qadamini tezlatdi. Ko'prikka yetganda, beixtiyor Gulchehralarning qizil darvozasiga qaradi. Eshik ochiq edi. Lekin hovlida hech kim ko'rinmadi. O'sha yoqdamikin? Koshki edi! Abdulla kanal yoqalab yura boshladi. Negadir bu gal yo'l juda olis ko'rindi. Ancha yurdi-yu, ammo hali ham qishloq tugamasdi. Nihoyat yetib keldi. Atrofga alanglab quloq soldi. Na bironta odamning sharpasi ko'rindi, na bir shitirlagan tovush eshitildi. Hamma yoq jimjit.

Abdulla jo'xorizor ichiga kirib, barglar ostidan atrofni kuzatdi, hech kim yo'q. Shunday bo'lsa ham, poyalar orasida engashib bir oz yurdi. Gulchehra ko'rinmadi. Dimiqib, terladi, jo'xori changi yuz-ko'zini achita boshladi. Shundan keyin jo'xorizordan chiqib, orqasiga qaytdi. Nahotki kechgacha endi uni uchratmasa?! Boqqa kiradi, ana o'sha yerda ko'radi uni.

Abdulla ko'prikka yetganda, Gulchehraning eshigidan ikki kishining hovliqib chiqqanini ko'rdi: bittasi Samad, bittasi esa Gulchehra edi. Samad qo'llarini yoyib nimadir dedi, Gulchehra yuzini berkitdi. Keyin ikkalovi qishloq yuqorisi tomon tez-tez yurib ketishdi.

– Samad! – qichqirdi Abdulla ularning orqasidan.

Samad to'xtamay, orqasiga o'girildi va Abdulani ko'rib, imladi. Abdulla xuddi shuni kutib turgandek, yugurib ularga yetib oldi.

– Tinchlikmi? – so'radi u dam Samadga, dam Gulchehraga qarab.

Gulchehra uyaldimi yo xayoli boshqa yoqdamidi, indamadi.

– Qosimjonlarning uyida to'polon, – dedi Samad.

– Nega?

– Bilmadim. Ayasi bilan qattiq urishib qolibdi.

Ular Qosimjonlarning uyiga yetib kelishganda, ichkaridan ayol kishining bo'g'iq ovozi eshitilardi.

– Kiraveramizmi? – so'radi Gulchehra.

– Ha, – dedi Samad va birinchi bo'lib ichkari-ga qadam qo'ydi. Hovlining o'rtasidagi supada Qosimjonning ayasi – Zumrad xola o'tirardi. Uning ko'zlari nam, bir oyog'i shippaksiz edi. Shippak ostona tagida yotardi. Zumrad xola yoshlarning kirib kelganini yo ko'rmadi, yo o'zini ko'rmaganga soldi.

– Men seni shu niyat bilan katta qiluvdimmi?! Yurak-bag'rimni qon qilding!

– Bo'ldi-bo'ldi! Muncha cho'zilasiz... – ichkari xonadan Qosimjonning ovozi eshitildi.

– Nega bo'lar ekan? Endi boshlayman! Ha, endi boshlayman! Shoshmay tur! – Zumrad xola epchillik bilan o'rnidan turib, deraza oldiga keldi-da, mushtlarini bir-biriga ura boshladi. – Bola o'stiribman deb yuribman hali! Ha, yashshamagur! Bolamas, balo o'stiribman! Bir balo ekansan! Na otaning gapi kor qiladi senga, na onaning!

Nima qilmoqchisan o'zing, yer yutkur?! Ukalarini o'ylasang-chi!

Supaning orqasidan yuz-ko'zi qorakuya, oyoq yalang bir bola ko'tarilib, lapanglab keldi-da, ayasining etagiga yopishdi.

– Nari tur, zumrasha! – Zumrad xola shunday deb ko'ylagini tortgan edi, bola gurs etib yiqildi va big'illab yig'lay boshladi. Gulchehra yugurib borib uni ko'tardi-da, bag'riga bosdi.

– Oppoq aya, bo'ldi, qo'ying!

– Nega qo'yar ekanman? O'qishing bilan qo'shmazor bo'lgurni nega qo'yar ekanman? Ikki kundan beri uyimning to's-to'polonini chiqardi-ku, nega qo'yar ekanman?

Zumrad xola Gulchehraning qo'lidan bolani yulib olib supaning labiga borib o'tirdi-da, og'ziga emchak soldi. Samad uning bir oz tinchiganidan foydalanib, Qosimjonning oldiga kirib ketdi. Abdulla nima qilishini bilmay, eshik tagida turib qoldi.

– Tinchlikmi o'zi, oppoq aya? – so'radi Gulchehra.

– Aylanay, Gulchehra, tinchlik qayoqda?

– Zumrad xola piqillab yig'lab yubordi. – Ikki kundan beri uyda janjal, ketarmish, Toshkentda o'qirmish. O'qimay o'lgur. Ne-ne umid bilan uni katta qiluvdim. Maktabni bitirib, otasiga su-yanchiq bo'lar devdim! O'zingiz o'ylang, aylanay, oltita bolani boqish osonmi?

– Qo'ying, yig'lamang!

– Yig'lamay bo'ladimi, bolam? Yig'idan boshqa nimam qoldi? Odoyi tamom bo'ldim. Odoyi tamom!.. Hammalaring qoldilaring, bu ham qolsa – bo'yni uziladimi? Otasi yaxshi ham gapirib ko'rdi, yomon ham, qani quloq solsa?!

– U yoqda ham ishlayman. Oyligimni yuborib turaman, dedim-ku! – qichqirdi ichkaridan Qosimjon.

– Bu yerda ish yomonmi? Raisning gapini eshitding-ku, yer yutkur!

– Ketaman, baribir ketaman!

Zumrad xola bu gapni eshitib, bo'shashdi. Rangi devordek oqarib ketdi. Yupqa burushgan lablari nimanidir shivirladi. Keyin birdan o'rnidan turdi. Qo'lidagi bolani bir siltab, emchakdan oldi-da, Gulchehraga uzatib, deraza yoniga bordi.

– Ketasanmi?

– Ketaman!

– Tur, jo'na, hoziroq ket, ko'zinga ko'rinma, jo'na!

– Oppoq aya... – nimadir demoqchi bo'ldi Gulchehra, ammo gapi og'zida qoldi.

– Jo'na deyaqman! – qichqirdi Zumrad xola.

– Xo'p, hozir...

Ko'p o'tmay ichkaridan Qosimjon, uning ketidan Samad chiqdi.

– Bekorga xafa bo'lyapsiz, aya... Men...

– Yo'qol!

Qosimjon chiqib ketdi. Samad bilan Abdulla bir-birlariga tikilib qolishdi, keyin ikkovi baravar Qosimjonning ketidan yugurishdi. Zumrad xola derazaga suyanganicha bo'zarib qolgan, butun vujudi titrardi. Gulchehraning unga rahmi kelib, ko'zlaridan yosh chiqib ketdi, lekin u nima qilishini, nima deyishini bilmasdi.

O'sha kuni Qosimjon pulsiz, kiyim-boshsiz, bitta ko'ylak-shimda Qo'qonga jo'nadi.

– Boshqa ilojim yo'q, – dedi u Samad bilan Abdullaga, – Toshkentda ham sirtdan yo kechqurun o'qiyman. Kunduzi ishlayman. Qaytaga bu yerda

ishlaganimdan ko'p pul topaman. Lekin gap bunda emas. Adabiyotchi kitob ko'p, odam ko'p joyda bo'lishi kerak.

– O'zing bilasan, – dedi Samad, – ishqilib, niyatingga yet.

Abdulla unga uyining manzilini berdi va bir haftaga qolmay, borishini aytdi.

– Oyimni bir amallab tinchit, – dedi Qosimjon yo'lovchi mashinaga o'tirayotib. – Men endi biron ishning uddasidan chiqmagunimcha qaytmayman.

– Xat yoz.

– Albatta. Hammaga salom ayt!

Mashina yo'lga tushdi, ko'p o'tmay, chang ichida yo'qoldi.

– Balki u haqdir, – dedi Samad. Abdulla indamadi. Hozirgina ko'z oldida yuz bergan voqea uni qattiq hayajonga solgan, Zumrad xolaga achinsa ham, Qosimjonning irodasiga qoyil qolgan edi. Gulchehrani ham ko'ndirish kerak. Agar u Toshkentga ketsa, qanday yaxshi bo'ladi! Kecha ko'ngandek bo'ldi. Abdulla bugun yana shu haqda gapiradi. Qosimjonni misol qilib ko'rsatadi. Gulchehraning o'zi ham ko'rdi buni, o'zi janjalning guvohi bo'ldi. Aftidan, u Samad bilan Qosimjonni qolishga ko'ndirmoqchi edi, lekin bir og'iz ham gapirolmadi. Gapirganida ham u quloq solmasdi. Onasining gapiga kirmadi-ku, ularga quloq soladimi? Qosimjon uyidan chiqib ketayotganda Gulchehra juda xomush bo'lib qoldi. Balki unga havasi kelgandir. Nega ham havasi kelmasin? Mingbuloqda nima bor? Hamma yoq changtuproq... Har kuni ish. Tag'in har kuni bir xil ish – oyda bir kino, oyda bir konsert... Mingbuloqda tag'in nima bor?

Abdulla shularni o'ylar ekan, Gulchehraning ketishi aniqday ko'rindi ko'ziga va sabrsizlik bilan kech kirishini kuta boshladi. Kech esa, o'sha kuni juda kech kirdi. Buvisiga nimanidir g'o'ldirab bahona qilgan bo'ldi-da, ko'chaga chiqdi. Soat o'nga yaqinlashib qolgan edi. Qishloq har doimgidek tinch, ko'chada hech kim ko'rinmasdi.

Abdulla ko'priktan o'tib, kallaklangan tol tagiga borib o'tirdi. Tekis oqayotgan suv ichida yarim kulcha oy mo'ralab turardi. Abdulla uni poylab turib, kesak otmoqchi bo'lib qo'lini ko'tardi, ammo otmadi. Oyning ichida Gulchehraning jilmaygan ko'zlari ko'ringanday bo'lib ketdi. Abdulla tikilib qoldi. Oydan u o'tirgan joygacha uzun soya tushib turardi. Tolmikin? Shu savol xayoliga keldi-yu, shoshib orqasiga o'girildi. Shunday uning tepasida ko'zlari lovillab Gulchehra turardi.

– Cho'chib tushdingizmi? – so'radi u jilmayib.

Abdulla sakrab o'rnidan turdi.

– Ayam uxlashlari bilan chiqdim.

– Rahmat, – dedi sevinib Abdulla, – kelganing juda yaxshi bo'ldi. Ancha qo'rqqan edim.

– Men ham. Hech yolg'iz chiqmaganman kechqurun. Ko'p kutdingizmi?

– Yo'q, hozir keldim, – dedi Abdulla uni ranjitmaslik uchun.

– Juda yaxshi.

Ikki kuni jim qolishdi. Kun bo'yi ancha-muncha gapni o'ylab qo'ygan Abdulla hozir nima deyishini bilmasdi. Gulchehra ham uyalganidanmi, yo hayajonlanganidanmi, jim edi. Bu jimlik ancha cho'zildi.

– Aytganday, – dedi nihoyat Abdulla, – jo‘xori pishirdingizmi?

– Voy, esimdan chiqibdi, – dedi shoshih Gulchehra. – Mana!

U po‘stiga o‘ralgan jo‘xorini uzatdi.

«Esidan chiqmabdi», – o‘yladi sevinib Abdulla jo‘xorini olar ekan.

– Jo‘xorini juda yaxshi ko‘raman.

Abdulla yemoqchi bo‘lib og‘ziga olib bordi-yu, lekin darrov bu fikridan qaytdi, uyaldi.

– Aylanamizmi?

– Kech-ku juda ham!

– Birpasgina, maylimi?

Gulchehra jilmaydi.

– Mayli.

Abdulla sekin uning tirsagidan ushladi.

– Kerakmas, – dedi Gulchehra va qo‘lini bo‘shatib, oldinga tushdi.

Ular xuddi kechagidek kanal yoqalab ketishdi. Ikkalovi ham xursand, ikkalovining ham chehrasida tabassum o‘ynardi.

– Gulchehra!..

– Hm-m...– Gulchehra boshini ko‘tarib unga qaradi.

– Siz... siz juda chiroylisiz!..

– Qayoqda? Nahotki? – Gulchehra hayron bo‘lib qoshlarini chimirdi, keyin o‘z savolidan uyaldi shekilli, boshini egdi.

– Ha, juda chiroylisiz... Birinchi uchrashganimiz esingizdami? Ertalab? O‘shandayoq hayron qolgan edim. Siz o‘zgarib ketibsiz.

– Siz ham, – dedi sekingina Gulchehra.

Abdulla kuldi.

– Yo‘q, men o‘sha-o‘shaman.

– Men ham.

Abdulla uning bu gapini o‘zicha tushundi.

– Nega bo‘lmasa, sizsiradingiz?

– Qaydam? – Gulchehra yana boshini ko‘tar-di-da, Abdullaga jilmayib boqdi.

«O‘psam-chi?» – xayol qildi Abdulla shu top-da. «O‘psam indasmikin?» – U Gulchehraning qo‘lidan ushlab to‘xtadi.

– Bilmysizmi?

Gulchehra ham to‘xtab, unga o‘girildi.

– Yo‘q.

Uning ovozi qaltirardi.

– Bilasiz. Gulchehra, menga qarang.

– Hm...

Gulchehra unga tikildi. Shu payt Abdulla uning chap yuzidan cho‘lp etib o‘pib oldi.

– Nima qilyapsiz? – Gulchehra shunday de-di-da, bir siltanib qo‘lini bo‘shatdi va bilagi bilan ko‘zlarini yashirdi. Abdulla uning bu harakatidan qo‘rqib ketdi. «Ketib qolsa-ya?» Lekin Gulchehra ketmadi. Faqat bir-ikki qadam undan uzoqla-shib, to‘xtadi.

– Yaxshi emas... Sevmasdan turib shunday qilib bo‘ladimi?

– Bo‘ladi! – Abdulla shunday deb yana uning qo‘lini ushladi.

Gulchehra tisarildi.

– To‘xtang, Gulchehra, to‘xtang! Gaplarim yolg‘on, hazillashdim. Birinchi marta shunday qilishim. Yaxshi ko‘raman sizni. Eshityapsizmi, yaxshi ko‘raman!

Gulchehra nima deyishini bilmasdi. U bun-chalik tez shu gaplarni eshitishni kutmagan,

shunday bo'лади deb o'ylamagandi. Abdulla uning jimgina turganini ko'rib, yelkasiga qo'lini qo'ydi. Issiq, yoqimli nafasi dimog'iga urildi.

– Nega indamaysiz?

Gulchehra jim edi. U boyagidek o'zini tortmas, qimirlamasdi. Birdan u titray boshladi, keyin, qiynalib yutindi. Abdulla xavotirlanib unga qaradi. Uning ko'zlari jiqqa yosh edi.

– Nima bo'ldi, Gulchehra? Xafa bo'ldingizmi?

Gulchehra boshini tebratdi.

– Nega yig'layapsiz bo'lmasa?

– O'zim... shunday... Qachon ketasiz?

– Bilmayman, – dedi Abdulla uning savolidan hayron bo'lib, keyin so'radi:

– Nimaydi?

– Ketmang.

Abdulla sevinchi ichiga sig'may uni bag'riga bosdi.

VI

Bu uchrashuv va keyingi kunlardagi boshqa qator uchrashuvlar ikkalovining ham hayotini o'zgartirib yubordi. Ular kun bo'yi tungi sayil, shirin suhbatlar kayfi, rohati bilan yurishar va tezroq qosh qorayishini orziqib kutishardi. Endi ularni nimani gapirish, o'zini qanday tutish kabi savollar qiynamas edi. Ular qayerda uchrashishni, qachon uchrashishni ham xayollariga keltirishmasdi. Soat ham, joy ham aniq. Faqat hech kim ko'rmasa, qorong'i bo'lsa bo'ldi.

Endi ular uchun tunning ajoyib, sehrli fazilati ochilgan, u endi ikki qalbni uchrashtiruv-

chi qudratli kuch, cheksiz shodlik, shirin xayollar, orzu-umidlar bulog'i edi. Ular qishloqqa tun cho'kkanda uydan chiqardilar. Ularning uchra-shadigan joylari yo to'g'on boshi, yo unga yaqin katta-kichik buloqlar yaltillab turgan tolzor, yoki bo'lmasa olmazorning etagi edi. Shu yerlardagi har bir so'qmoq, har bir tosh endi ularga tanish va qadrdon bo'lib qolgan edi. «O'zimizning tosh», «o'zimizning buloq», bu so'zlar endi ikkalovi uchun yangi mazmun kashf etgan, har bir joy endi ikkalovi uchun unutilmas tarixdek bo'lib qolgan edi.

Biroq Abdulla ham, Gulchehra ham qanchalik shod, qanchalik baxtli bo'lishmasin, uyga qaytganlarida nimadir yuraklarini g'ash qilayotganini payqashardi. Bu g'ashlik oldingi kunlari uncha sezilmasa ham, Abdullaning jo'nashi yaqinlashganidan keyin ochiq namoyon bo'la boshladi. Bu yog'i nima bo'ladi? Nima qilishadi? Bu savollar borgan sari ko'proq ikkalovini o'ylatadigan bo'lib qoldi...

Ammo ular qancha o'ylashmasin, aniq bir fikr yiltillab ko'rinmas, kelajak go'zal bo'lsa ham, tundek qorong'i edi. «Nima qilish kerak?» – o'ylardi Gulchehra uyga kelishi bilan va ko'pincha savoliga javob topolmas, to'satdan kelgan baxt umri qisqa bir tushdek tuyulib, uni qayg'uiga solardi. Uning ahvoli Abdullaga qaraganda ancha qiyin edi. Garchand haligacha Toshkentga borish-bormasligini uzil-kesil aytmagan bo'lsa ham, qishloqda qolishini u aniq bilardi. Shuning uchun qiynalardi. Ochiq aytib, ko'ngilni bo'shatishni esa, negadir istamasdi. Uning nazarida shunday deyishi bilan Abdulla o'zgarib, aloqalari uzilib qoladigandek tuyulardi. Bundan u qo'rqardi. Ik-

ki-uch kun ichida yuragini butunlay egallab olgan Abdulla unga juda aziz va qadrdon bo'lib qolgan edi. Lekin u qishloqdan chiqib ketolmaydi. Har doim uyga kirib, to'rdagi rangi za'faron bo'lib yotgan onasini ko'rar ekan, bu fikrining qat'iyligiga ishonardi.

Saodat opaning ahvoli chindan ham og'ir edi. O'tgan yili bahorda u shamollab, besh-olti kun yotib qoldi. Keyin tuzalib ketdi. Ammo o'qtin-o'qtin boshi og'riydigan, ko'ngli ayniydigan bo'lib qoldi. Tuzalib ketar-tuzalib ketar bilan beparvo yurib, kuzga kelganda yana yotib qoldi. Yusuf aka uni Qo'qonga olib borgan edi, kasalxonada olib qolishdi.

Kuzatish-tekshirishlardan so'ng uning oshqozonida saraton borligi aniqlandi. Ne-ne shifokorlar ko'rdi, lekin Saodat opa birdek edi. Ishtahasi yo'qolgan, ozib, terisi suyaklariga yopishib qolgan edi. Yusuf aka doktorlar bilan maslahatlashib, qishda uni Toshkentga olib bordi. Bu yerda ham saraton aniqlandi. Katta-katta doktorlar Yusuf akaning mo'ltiragan ko'zlariga qarolmay, «ojizmi» degancha boshlarini quyi solishdi. Lekin Saodat opadan kasalini yashirishdi. Qishloqda ham hech kimga aytishmadi. Saodat opaning tuzalmas dardga yo'liqqanini faqat to'rt kishi – Yusuf aka, rais – Nurmat aka, Gulchehra va Obid akagina bilardi. To'rttalovi ham bechora ayolni ko'rishi bilan yuraklari ezilar, ko'pincha tashqariga chiqib, o'zlarini tutolmay yig'lashardi. Ayniqsa, Yusuf aka ko'p azob tortardi.

Urushdan yangi qaytganda Saodat opa uning kiyimlarini kiyib, traktor haydardi. Gulchehra

besh yashar bola edi o'shanda. Umuman, chapani, janjalkash odam u bilan turmush qurgandan so'ng, butunlay boshqacha bo'lib qolgan, Saodat opa uning uchun ham xotin, ham ona, ham davlat edi. Xullas, hozir nimaga ega bo'lgan bo'lsa, hammasiga Saodat opaning maslahatlari bilan erishgan edi. Buni u yaxshi bilardi va xotinini jonidan ham ortiq sevardi. Shuning uchun deyarli har kuni yarim kechagacha tepasida o'tirar, kunduz kunlari esa bir necha marta kelib xabar olib ketardi.

Ularning baxtiga Gulchehra bor ekan, ikkaloviga balogardon hozir u edi. Uyning yumushlari ham uning boshida bo'lib, kun bo'yi tinmasdi. Er-xotin ba'zan sahargacha ko'z yummay yotishar ekan, uni o'ylashar, uning borligi bilan faxrlanishar edi. Bir kuni Gulchehra uyga odatdagidan kech qaytdi. O'sha kuni Abdulla ikkalovi bolaliklarini eslab, oldi hovuz shiyponni qidirib ketib qolishgan edi, Gulchehra darrov yuzini chayib, ayasining oldiga kirdi. Deraza tagida ukasi Alisher xurrak otib uxlab yotardi.

– Kech qolib ketding? – dedi Saodat opa so'lg'in ko'zlarini unga tikib.

Gulchehra darrov bugun uydan nima bahona bilan chiqib ketganini esladi.

– Zarifa bilan o'tirib qoldik... – dedi sekin.

– Xolidalarnikiga ketuvding shekilli?

Gulchehra tutilib qoldi.

– Xolidalarnikiga? Ha... Xolidalarnikida edim. Keyin u yoqqa chiqdim.

– Ukang och yotib qoldi.

– Ketayotganimda ovqatlan tirganman.

– Unday bo'lsa, yaxshi, – Saodat opaning yo'tali tutdi, ammo bitta yo'talguncha, suv bo'lib ketdi. Gulchehra uning boshini ko'tarib, yostig'ini almashtirdi, yuz-ko'zini arttdi.

– Dadam kelmadilarmi?

– Yaqinda... yaqinda Nurmat akang bilan kelib ketishdi. Bir doktor kelganmish Toshkentdan. Shuni chaqirishmoqchi.

– Katta doktor ekanmi?

– Ha, judayam katta emish. Dadangdan o'rgilay... Ishqilib senlarning baxtingga uning umri uzoq bo'lsin.

– Siz ham tuzalib ketasiz, aya.

– Dadang ham shunday deyapti. Koshki edi tuzalsam, Guli...

– Labbay, aya?

– Zovut ayaning nabirasi...

Gulchehra bu gapni eshitishi bilan qip-qizarib ketdi. «Nahotki bilishgan bo'lsa?» – qo'rquv aralash xayolidan o'tkazdi u.

– Zovut ayaning nabirasi... oti nimaydi? Esimdan chiqibdi...

– Abdulla, – dedi sekin Gulchehra va diqqat bilan onasiga tikildi. Nima demoqchi u? Nahotki birontasi ko'rib, unga yetkazgan bo'lsa? Dadasi bilib qolsa nima bo'ladi? Yo bilarmikin?

– Nima edi, aya? – so'radi u tusmollab.

– Shu... Abdulla juda yaxshi bola bo'lganmish. Ko'rdingmi uni?

– Ha, bitirish kechasiga borgan edi, – dedi Gulchehra hamon qo'rquvdan o'zini bosolmay. – Hamma qatori, tuzuk. Nima edi?

– Olim bo‘larmish u. Rostmi?

Gulchehra ko‘ngli joyiga tushib, jilmaydi.

– Bilmadim. ToshDUGa kiraman deyatuvdi.

– Zumrad xolaning o‘g‘li ham ketib qolibdi...

Kelmabdimi?

– Yo‘q, aya. U endi kelmaydi. Kelsa ham o‘qishga kirib, keyin kelib ketadi.

– Guli..

– Labbay?..

Saodat opa charchadi shekilli, og‘ir xo‘rsinib, ko‘zlarini yumdi. Gulchehra uni faqat qoshlarigina qorayib turgan, oppoq, rangsiz yuziga tikilar ekan, nima demoqchi ekanligiga tushunmasdi.

– Nima demoqchisiz, aya?

– Hozir... Guli, dadang bilan gaplashdim. O‘sha yangi chiqqan doktor ko‘rsa, men tuzalib ketaman. Mabodo tuzalmasam, bu yog‘i... bu yog‘i oz qoldi.

– Nima deyapsiz, aya? – jerkib berdi Gulchehra.

– Eshit. Bu yog‘i oz qoldi. Tashvishdan, azobdan qutulaman. Dadang ham rozi. Sen bor. O‘qi. Qo‘qonga borasanmi, Toshkentga borasanmi – o‘zing bilasan. Toshkentga borganing ma’qul. Qosimjon bor... Innaykeyin... Zovut ayaning nabirasi... Yolg‘iz bo‘lmaysan...

– Aya!..

– Bor. Biz dadang bilan o‘qimadik. O‘qiyolmadik. Dadang urushga ketib qoldi. Men ish bilan bo‘ldim. Lekin o‘qigan qizlarni ko‘rsam, havasim kelardi. Dadang yaxshi odam. Urushdan qaytganida, sen o‘qi, dedi. Besh yil tez o‘tib ketadi, kutaman, dedi. Men, yo‘q, dedim. Uni yolg‘iz tashlab ketgani ko‘zim qiyjadi... Sen o‘qi.

Gulchehra onasidan bunday gaplarni sira kutmagan edi. U onasini yaxshi bilardi, lekin bunchalik bag'ri kengligini xayoliga keltirmagan, aksincha, ittifoqo ketmoqchi bo'lsam, yubormaydilar, deb o'ylab yurardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, hozir uning chakka suyaklari bo'rtib turgan za'faron chehrasiga tikilar ekan, xo'rliги kelib, ko'zlariga yosh quyildi.

– Muncha yaxshisiz, aya! – u o'zini onasining ko'kragiga yashirib, muzdek peshanasini, erta oqargan sochlarini silay boshladi. – Muncha yaxshisiz?! Ketmayman hech qayoqqa! Sizni kimga tashlab ketaman? O'qish bir gap bo'lar. Sirtidan o'qiyman. Yilda ikki-uch marta borib kelaman institutga. Keyin, oz qoldi, demang, aya. Odam qo'rqadi. Siz hali ko'p yashaysiz! Tuzalib ketasiz!..

– Koshki edi, Guli... – Saodat opa qurigan oppoq qo'llari bilan qizini quchoqladi, yuz-ko'zlarini siladi. – Shundoq dersan devdim o'zim ham, Guli... Lekin menga o'xshashingni istamayman. Sening boshqalardan qayering kam? Aqlli, esli-hushlisan, har qanday o'qishni eplab ketasan! Yo'q, dema, bor. Dadang ham rozi.

– Yo'q, aya. Ketmayman.

Saodat opaning ko'zlarida yosh ko'rindi.

– Yig'lamang, aya. Hamma aytganlaringiz bo'ladidi, hammasi bo'ladi. Mana ko'rasiz, yig'lamang.

– Yig'layotganim yo'q.

Saodat opa jilmayishga harakat qilib, ko'zlarini arta boshladi. Gulchehra uning ko'm-ko'k tomirlari bo'rtib turgan qo'llariga qarab, «Qanday tashlab ketaman? Shu ahvolda tashlab ketib bo'ladimi?» deb o'ylardi va yupatishga intilardi.

– Bilasizmi, aya? – dedi u bir mahal. – Bugun juda g'alati tush ko'rdim. Aytib beraymi?

– Hm, – boshini qimirlatdi Saodat opa.

– Eshiting. Ertalab ekan. Dadam hovli-da yuz-qo'llarini yuvayotgan emishlar. Alisher ko'chada, oftobda o'tirgan emish. Siz o'choq boshida nimadir pishirayotgan emishsiz. Men bo'lsam, men nima qilayotganimni bilmayman. Bir mahal dadamlar chaqiribdilar...

Gulchehra dadasining ovozigga o'xshatib, yo'g'on ovozda qichqirdi.

– Hoy! Ovqatlaringdan darak bormi?

Uning ovozi juda kulgili chiqdi shekilli, Saodat opa kulib yuborgan edi, yo'tal tutdi. Gulchehra to'xtab, uning ko'ragini bosdi.

– Gapiraver... – dedi Saodat opa ro'molchasini silkitib.

– Shunda siz, «hozir!» dedingiz-u, bir lagan shirguruch olib keldingiz. Keyin dadamlar hamma-mizni ko'chaga olib chiqdilar. Ammo ko'cha yo'q edi.

– Shu o'zimizning ko'cha-ya? – so'radi ko'zla-rini ochib Saodat opa.

– Ha, shu ko'cha yo'q. Uning o'rnida katta maydon turgan emish. Maydonning o'rtasida samolyotga o'xshagan oppoq bir narsa.

– Bu nima, – deb so'radingiz siz.

– Dirijabl, – dedilar dadamlar. – Atayin senga olib keldim. Sayohat qilamiz. Qani, o'tiringlar.

Hammamiz dirijablga chiqdik. Dadamlar rul-ga o'tirdilar. Bir mahal dirijabl lopillab osmonga ko'tarildi-da, bulutlarni yorib o'ta boshladi. Juda ko'p uchdik. Siz Alisherni mahkam ushlab olib-siz. Nuqul dadamlarni turtib:

– Hoy, bo‘ldi. Bolalar qo‘rqadi, – deysiz. Dadamlar bo‘lsa, kuladilar. – Gulchehra bu yog‘iga nima deyishini bilmay, to‘xtab qoldi.

– Keyin nima bo‘ldi? – so‘radi Saodat opa. Uning xuddi Gulchehraniki singari yirik qora ko‘zlari kulardi.

– Keyinmi? – dedi Gulchehra. – Keyin bir joyga qo‘ndik. Bunday qarasak, Moskva ekan. Biram katta, biram chiroyli!.. Birdan nimadir gumburlab ketdi. Shu payt uyg‘onib qoldim. Alisher radi-
oni burab yuborgan ekan.

– Yaxshi tush ko‘ribsan, – dedi Saodat opa. U qizi bu tushni hozir to‘qiganini sezgan bo‘lsa ham, bildirmadi. – Tuzalib ketsam, yanagi yilga Moskvaga boramiz. Hammamiz boramiz.

– Hoy! Ovqatdan darak bormi?! – qichqirdi kimdir. Ikkalovi kulib yuborishdi: Yusuf aka qaytgan edi, Gulchehra yugurib hovliga tushdi.

– Ayang qalay? – so‘radi Yusuf aka qizini to‘xtatib.

– Kulib yotibdilar... – kuldi Gulchehra.

– A?!

– Ana, kirib ko‘ring ishonmasangiz.

Yusuf aka sevinganidan cho‘lp etib qizining peshanasidan o‘pdi-da, lapanglab uy tomon yurib ketdi. «Xuddi yosh bolaga o‘xshashadi, – o‘ylardi Gulchehra o‘choq boshiga borar ekan. – Ularni tashlab ketib bo‘larmidi? Mensiz nima qila olishardi ular? Ketmayman». Shu payt ko‘z oldida Abdulla paydo bo‘ldi. Nima bo‘ldi o‘zi? Nega birdan uning hayoti o‘zgarib ketdi? U endi nima qilishi kerak? U faqat ikkita narsani aniq biladi: birinchisi – ketmaydi, ikkinchisi esa – sevib qoldi.

Lekin bu sevgi unga nima keltiradi? Uni baxtli qiladimi, yo qayg'uga soladimi – buni u bilmasdi.

Ertasi kuni u Abdullaga onasining gaplarini, o'zini qiynayotgan savollarni batafsil aytib berdi. Ular kanal yoqasida bir oz aylanishdi. Ikkalovi ham xomush, ikkalovining ham kayfi buzilgan edi. Abdulla shunday bo'lishini sira kutmagan edi. Endi nima qiladi? Nahotki bor quvonchini shu yerga tashlab ketadi?

– Balki, – dedi Gulchehra bir mahal, – kelasi yilga borarman.

– Nahotki?! – qichqirib yubordi Abdulla.

– Ayamlarga yana bir doktor topishdi. Tuzalib ketsalar, yanagi yilga boraman.

– Gulchehra, jonim...

Abdulla quvonch bilan uni quchoqladi. Lekin Gulchehra darrov o'zini bo'shatib oldi.

– Kutasizmi?

– Bo'lmasa-chi!

Ular shu qarorga kelib xayrlashishdi. Bir yil nima degan gap? Ko'z ochib-yumguncha o'tib ketadi. Bir yildan keyin esa... Abdulla shirin xayollar og'ushida uyga qaytdi. U shu paytda Gulchehraning yostiqqa yuzini burkab yig'layotganidan xabari yo'q edi. Ertasi kuni Hojar buvi qishloqning o'ttiz-qirq xotin-qizini yig'ib, beshik to'yi qilib berdi. Obid aka bilan Abdulla rosa charchashdi. Lekin ikkalovi ham shod edi. Abdulla Gulchehra bilan qat'iy ahdlashganiga sevinsa, Obid aka uyda chaqaloqning ovozi eshtilayotganidan boshi osmonda edi. Sevinganidan u, hatto osh suzib tarqatilganda, bitta yarimtalikni ochib, Abdullaga ham ichirdi.

– Jiyan! Seni yaxshi ko‘raman. Ishqilib o‘g‘lim senga o‘xshasin. Shunga ichmaysanmi?

Abdulla yo‘q deyolmadi. Bir piyolani simirdi.

– Barakalla! – dedi Obid aka. – Dadang xo‘p tortardi-da ilgari. Ichgin demayman, ichma, lekin, jiyan, manavinaqa paytda ozgina ichilsa, ziyon qilmaydi.

Birinchi marta ichgani uchunmi, Abdullaning boshi aylandi, ko‘zlari qizarib ketdi.

– Mazang yo‘q-ku! – dedi kulib Obid aka. – Hozir tuzatamiz. Qani achchiq-achchiq choy ich-chi!

Abdulla tog‘asi aytgandek qilib, ancha o‘zi-ga keldi. Xotinlar tarqalishganda esa yo‘lga tushmoqchi bo‘lib qo‘zg‘aldi. Uning uyga ketgisi yo‘q edi. Lekin uch-to‘rt kunga kelgan odam o‘n kun qolib ketdi.

– Ayam xavotir oladilar, – dedi u buvisining qistoviga qaramay. – Ketaman.

Obid aka bir nechta sur bedana tugib berdi.

– Dadangga olib bor. Yemasa ham, ko‘ngli.

– Kelib turgin, bolam. Jim bo‘lib ketmagin!

– Endi tez-tez kelib turaman.

Abdulla shunday deb, jilmaydi.

– Shunday qil, bolam, shunday qil, – Hojar buvi hech narsaga tushunmay nevarasining yelkasiga qoqdi.

Bir qo‘lida jomadon, bir qo‘lida tugun ko‘tarib, Abdulla yo‘lga chiqqanda qosh qoraya boshlagan edi. Kechki poyezdga ikki soatcha bor. Gulchehra kelganmikan? U ko‘prikdan o‘tib, olmazor tomon yurdi. Gulchehra uni shu yerda kutmoqchi edi. Olmazorning etagiga yetganda uning qorasi ko‘rindi.

– Keldingizmi? – dedi Abdulla unga yaqinlashib.

Gulchehra boshini qimirlatdi. Xuddi birinchi uchrashuvdagidek ikkalovi yana ancha vaqt jim qolishdi.

– Kelishdik-a?

– Kelishdik, – dedi qiynalib Gulchehra.

– Borishim bilan xat yozaman.

– Kelasizmi?

Gulchehraning ovozida cheksiz iltijo, muhabbat bor edi. Abdulla buni sezdi va to'qinlanib:

– Albatta! – dedi.

VII

Har bir oilaning o'ziga xos hayoti, tarixi bo'ladi. Abdullalar oilasining ham ana shunday ham yaxshi, ham yomon fazilatlarga ega bo'lgan hayoti, tarixi bor edi. Bu oila uch kishidan iborat bo'lib, Toshkentning markazida – Yangiobod mahallasida istiqomat qilardi. Hovlilari katta, ko'chaga orqa o'girib tushgan uylari baland qasrni eslatardi. Abdullaning otasi – G'afurjon aka mahallaning obro'li kishilaridan edi. Bironta to'y-ma'raka usiz o'tmas, mahallaning deyarli katta-kichigi ko'pincha uning maslahati bilan ish tutardi.

U o'zi asli parkentlik bo'lib, otasi bilan birga tunukasozlik qilgan, eski maktabda ozgina o'qigan, otasining vafotidan keyin Toshkentga kelib, Yangiobodda maktab ochgan o'rtog'i Husanxon akanikida yashay boshlagan edi. Yangi maktabda ham ozgina o'qidi, keyin shu maktabda xo'jalik ishlarini boshqara boshladi. Bu sohada u qisqa vaqt ichida faqatgina maktab direksiyasining

emas, tuman rahbarlarining ham hurmatiga sazovor bo'ldi. Qandaydir bir yig'ilishda u tuman-dagi savdo ishlari haqida juda foydali va kerakli gaplarni aytganda, uning obro'si yanada oshib ketdi. O'shandan keyin ko'p o'tmay tunukasozlik arteliga direktor qilishdi. O'n yildan ortiq ishladi shu artelda. So'ng tuman savdo boshqarmasiga mudir qilib tayinlashdi.

Shu yil u nima ish bilandir Qo'qonga borib, Zavod aya bilan tanishib qoldi. Zavod ayaga og'ir, yetti o'lchab bir kesadigan G'afurjon aka yoqib qoldi. O'g'lini unga qo'shib Farg'onani aylantirdi, uyida mehmon qildi. Shahodat xola o'shanda endigina o'n sakkizga kirgan qiz edi. Gap orasida G'afurjonning hali uylanmaganligi, ish bilan bo'lib ro'zg'or tutmaganligi ma'lum bo'ldi. Zavod aya qizining uzoqqa ketib qolishini uncha istamasa ham, yigitning yaxshiligini ko'rib, uni kuyov qilgisi kelib qoldi. Yo'lini topib aytdi ham. G'afurjon aka Shahodatni ko'rib, rozi bo'ldi. To'y qilishdi. Zavod aya o'zi Toshkentga tushib, kuyovining yor-birodarlari bilan birgalikda, yoshlarga uy-joy qilib berdi. U kuyovidan, G'afurjon aka-niing do'stlari esa kelindan, uning ko'pni ko'rgan, aqlli, tajribali onasidan xursand edi.

Shunday toifa odamlar bo'ladiki, ular mehnat bilan bo'lib o'zini o'ylamaydi. Baland bo'y, polvon qomatli G'afurjon aka shunday odam edi. Uyida Zavod aya bergan jihoz, asbob-anjomdan boshqa hech narsa bo'lmay, mehmon-izmon kelganda Shahodat opa idish-tovoqni ko'pincha qo'ni-qo'shnidan olib chiqardi. Eridagi beparvolik unga ham o'tib, onasining uni ol, buni ol, degan maslahatlariga:

– Ha, olarman, shusiz ham kun o‘tyapti-ku, – deb qo‘ya qolardi.

Er-xotin juda totuv, yaxshi yashashardi. Abdulla tug‘ilganidan so‘ng, ularning hayoti yanada lazzatli bo‘lib ketdi. Bola bahona, uy yangidan qurildi. Hatto ortiqcha ul-bul ham g‘amlandi. Shunga qaramay, G‘afurjon aka ro‘zg‘or ishlariga butunlay uquvsiz odamligicha qolaverdi. Ammo bu hech kimni – xotinini ham, qaynanasini ham, mahalladagi oshna-og‘aynilarini ham tashvishga solmadi. Chunki G‘afurjon aka uyini o‘ylamasa ham, mahalladagi deyarli har bir oilaning tashvishi, kam-ko‘stidan xabardor edi. U qiynalib qolgan odamga yonidagi bor pulini berib yuborishdan ham toymas, sovg‘a-salomni quyuq qilardi. Bundan u hech narsa tama qilmasdi. Shu qilgan ishi o‘zini xursand qilsa, bo‘ldi, shuning o‘zi unga kifoya edi.

– Siz asalariga o‘xshaysiz, – derdi uni koyigan bo‘lib ba‘zan Zavod aya. – Asal qo‘yasiz-u, o‘zingiz yemaysiz, boshqalar yeydi.

– E, aya, – derdi shunda G‘afurjon aka. – Yaxshi bisotdan yaxshi ot qolgani yaxshi. Qozon qaynab turibdimi, shuning o‘zi katta davlat.

Biroq G‘afurjon aka haqida yomon o‘ylaydigan odamlar ham yo‘q emasdi. Ular, bunday saxiylikni oshib-toshib ketgan odam qiladi, sandig‘i to‘laki, shunday qilyapti, deb o‘ylashardi. G‘afurjon aka fisqi-fasod gaplar qulog‘iga yetsa ham, parvo qilmasdi. G‘iybatlarni eshitib, xomush o‘tirgan xotinini urishardi.

– Chayon yomon chaqadi, – derdi u. – Lekin u hamma uydan chiqavermaydi. Bitta chayon deb o‘zingni koyitma. Topganimiz halol. Qo‘rqadigan joyimiz yo‘q.

Chindan ham shunday edi. G'afurjon aka xiyo-nat qilmay ishladi. Shuning uchun idorada hur-mat-e'tibori yaxshi edi. Sermehnat, hunarli odam xor bo'lmaydi, derdi u nuqul. Bu haqda uning o'zi to'qiganmi yo eshitganmi – ikkita ibratli erta-gi ham bor edi. Bittasi, taxminan, shunday: Bir fir'avnning qirqta xotini bo'lib, qirqinchisi kam-bag'al bir gilam to'quvchi hunarmandning qizi ekan. Fir'avn uning husniga maftun bo'lib, o'ziga nikohlab olgan ekan. Lekin qiz kambag'al bo'lgani uchun saroydagilar uni chiqishtirishmas, kun-doshlari esa uni juda xor qilishar ekan. Bechora qiz kuyib ketganidan fir'avndan iltimos qilibdi:

– Shohim, yo meni otamnikiga yuboring, yo shu yerga mening to'quv asboblirimni olib ke-lishni buyuring. Toki yolg'izligim bilinmasin.

Fir'avn uni ketkizmabdi. Lekin aytgan narsa-larini olib kelishni buyuribdi. Qiz gilam to'qishga tushibdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz hujrasidan chiqmabdi. Hatto fir'avnni ham yoniga kiritmab-di. Qirq birinchi kuni u fir'avnning oyog'i tagiga bir gilam tashlabdi. Fir'avn uni ko'rib, mahliyo bo'lib qolibdi. U shu paytgacha bunday nozik did va mehr bilan to'qilgan gilamni ko'rmagan ekan. Gilamning o'rtasida qip-qizil atirgul ochilib tur-gan emishki, uning husni rostdakam guldan ming marta afzal ekan.

– Seni husn bobida tanho desam, hunar bo-bida ham tanho ekansan. Hunaring siridan meni xabardor qil, – debdi shunda fir'avn.

Qiz rozi bo'libdi. Qisqa vaqt ichida fir'avnni gilam to'qishga o'rgatibdi. Fir'avn oyda bir marta fuqaro-larim nima qilayotgan ekan, deb kechasi qaland-

ar kiyimida shahar aylanar ekan. Bir kuni shunday safarga chiqqanida g'alati voqea yuz beribdi. Shaharning so'lim bir joyida kabobxona bor ekan. Shu yerdan o'tayotib, kabob hidi dimog'iga urilibdi-da, kabobxonaga ko'tarilibdi. Kabobpaz uni ikki bukilib kutib olib, to'rdagi bir xonadan joy ko'rsatibdi. Fir'avn borib o'tirishi bilan nimadir taraqlabdi. Shu zahoti fir'avn o'zini chuqur bir g'orda ko'ribdi. G'or juda katta bo'lib, devorlarida zanjirlar osig'liq turgan emish, har bir zanjirga esa odamlar bog'lab qo'yilgan emish. Fir'avn hayron bo'libdi va yonidagi bir mo'ysafiddan so'rabdi:

– Bu qanday joy?

– O'limxona bu, – debdi mo'ysafid.

– O'limxona?

– Ha, o'limxona. Har kuni bir odam so'yilib, kabob qilinadi. Ertaga mening navbatim.

Fir'avnning jahli chiqib ketibdi. O'z podsholigida shunday yaramas odamlar borligidan kuyunibdi. Lekin hozir nima qilish kerak? Bu yerdan qanday qutulib chiqish mumkin? Fir'avn uzoq o'ylab, oxiri bir qarorga kelibdi:

– Ota, – debdi, – navbatingizni menga bering.

Mo'ysafid unga hayron bo'lib tikilibdi. Ko'nglidan: «Jinnimi bu odam o'zi? Nechun o'limga shoshiladi?» degan gapni o'tkazibdi-yu, lekin yo'q demabdi. Ertasiga fir'avnni yuqoriga tortib chiqarishibdi. Endi uni bo'g'izlamoqchi bo'lishganda, u so'rabdi:

– Men sizga qancha daromad keltiraman?

Kabobxona egalari, ming dinor, deyishibdi.

– O'n ming dinor bersam, sog' qolamanmi?

– Ha, – deyishibdi kabobxona egalari. – Lekin buncha pulni qayerdan olasan?

Shunda fir'avn bir kechada gilam to'qib berishini va bu gilamning o'n ming dinor turishini aytib, jun va kerakli uskunalar keltirishni so'rabdi. Kabobxona egalari agar yolg'on gapirayotgan bo'lsa ertaga o'ldirish sharti bilan uning aytganlarini muhayyo qilishibdi. Fir'avn tuni bilan mijja qoqmay gilam to'qibdi. Tayyor bo'lganda saroyga eltishni va fir'avnning kichik xotiniga ko'rsatishni buyuribdi. Kabobxona egalari u aytganidek qilib, fir'avnning kichik xotiniga gilamni ko'rsatishibdi va o'n ming dinor so'rashibdi. Xotin gilamni ko'rib, darrov nima bo'lganiga tushunibdi. Fir'avn gilam chetiga qayerdaligini gulga o'xshatib to'qib yozgan ekan. Lekin xotin sir boy bermay, qaroqchilarni xursand qilib qaytaribdi. Keyin o'sha soatdayoq lashkar to'plab, kabobxonani bosibdi, fir'avnni va boshqa bandilarni ozod qilibdi.

– Agar, – derdi G'afurjon aka ertakni aytib bo'lib, – fir'avnning hunari bo'lmaganda, shu gilamni u bir kechada to'qimaganda sog' qolmasdi. Hunarsiz odamning hassasiz ko'rdan farqi yo'q.

Uning ikkinchi ertagi ham xuddi shu mazmunda bo'lib, unda qaroqchilar bir cho'ponni quduqqa tashlab, qo'ylarini haydab ketishgani hikoya qilinardi. Cho'pon quduqda ajdahoning panjasiga tushadi. Shunda u nay chalib, uni uxlatmoqchi, keyin qochib qutulmoqchi bo'ladi. Ajdaho uning ajoyib kuyini eshitib, chindan ham uxlab qoladi, cho'pon eson-omon uyiga qaytadi.

Abdulla shu va shunga o'xshash ertaklar ta'sirida o'sdi. Unga hammaning havasi keldi. Ozoda kiyinar, sho'xlik qilmas, kattalarning so'zini qaytarmasdi. Maktabda ham u hamma

o'qituvchilarga yoqib qoldi. A'lo o'qidi, intizom saqladi. Albatta bola bo'lgandan keyin sho'xlik ham qiladi. Lekin uning sho'xligini kattalardan deyarli hech kim ko'rmasdi. Chunki yuz-ko'zi, kitoblari iflos bo'lib qaytsa, ayasiga yoqmasligini bilardi. Buni esa u istamasdi. Har doim, har qayerda u ko'zga tashlanib turishni, kattalar unga e'tibor berishlarini yaxshi ko'rardi va iloji boricha ularga yoqishga harakat qilardi. Shuning uchun uyga kirayotganda albatta yuz-qo'lini tozalab, kiyimlarini qoqib kirardi.

Yettinchi sinfgacha u har yili maqto'v qog'ozi olib o'qidi. Faqat yettinchi sinfda unga maqto'v qog'ozi berishmadi. Bu voqea uni qattiq qayg'uga soldi, lekin shu bilan bir vaqtda ko'p narsaga o'rgatdi. Gap shundaki, u yettinchiga o'tganida otasi kasalga chalinib, tuman savdosini boshqarish og'irlik qilib qoldi. U bo'shab, yana artelga ishga o'tdi. O'sha yili Abdullalarning sinfiga yangi bola keldi. U Abdulladan ikki-uch yoshga katta bo'lib, juda olifta kiyinar, charm portfel tutardi. Ko'pchilik o'qituvchilar unga alohida e'tibor bilan qarashardi. Doska yoniga chiqqanda, tutilib qolsa, urishishmas, sekingina: mayli, o'tir, kelasi safar so'rayman, deyishardi.

Bu narsa Abdullaga yoqmadi, u o'qituvchilarning o'ziga munosabatlari o'zgarib qolganini payqay boshladi. Ayniqsa, otasining qadr-don o'rto'g'i Husanxon aka o'zini g'alati tutadigan bo'lib qoldi. Ilgari u bilan so'rashib yursa, endi salomiga alik ham olmasdi. Ammo yangi bolaga esa juda mehribon edi. Sinfga kirishi bilan go'yo undan boshqa bola yo'qday, uning oldida to'xtab, qo'l berib ko'rishardi.

– Ha, In’omjon, yaxshimisan? – derdi iljayib.
– Uyingdagilar tinchmi? Dadang salomatmilar?
Kecha Ergash akamlarni ko’rgan edim, shoshib mashinalariga o’tirayotgan edilar. Majlis-pajlis bo’lsa kerak-da yuqorida.

– Shunday bo’lsa kerak, – derdi gerdayib In’om va ko’ryapsanlarmi, degandek, hammaga ko’zini o’ynatib qarab chiqardi.

– Qiyin, qiyin, – derdi Husanxon aka. – O’zi sog’liqlari durustmi?

– Yomon emas. Doktorlari, yana kurortga boring, deyapti.

– Qayoqqa bormoqchilar?

– Kislovodskka.

– Ha, yaxshi. Borishlari kerak. Odamga eng zarur narsa – sog’liq. O’tir, o’tir, nega turibsan?

Husanxon aka shunday derdi-da, senlar ham o’tirlaring, degandek boshqa bolalarga qo’lini erinibgina silkitib qo’yardi. Abdullaning jahli chiqqanidan tishlari g’ijirlab ketardi. Deyarli har doim ona tili darsida shunga o’xshagan savol-javob bo’laverganidan u qattiq azoblanar, ona tili soati uning uchun katta qiynoq soatidek tuyulardi. Hatto ona tili ham uning ko’nglini aynitadigan bo’lib qoldi. Yo’qlamada borgan sari baholari pasaya boshladi. Bir diktantdan ikki ham oldi.

Nega bunday bo’ldi? Nega ilgari uni doim yaxshi ko’radigan o’qituvchilar endi payqamaydigan bo’lib qolishdi? Buning sababini u tushunmasdi. Bir kuni shu haqda o’ylab, yog’och ruchkasining uchini og’ziga solib o’tirgan edi, arifmetika o’qituvchisi kirib, dars boshlaganini sezmay qol-

di. Yonidagi bola uni turttdi. Boshini ko'targanda o'qituvchi unga qarab, iljayib turardi. U Abdullani urishmadi, sinfdan chiqarib yubormadi ham, lekin bir umrga Abdullaning yuragiga sanchilib qolgan gapni aytdi.

– Uyda, – dedi u Abdullaga tikilib, – mening bir yashar o'g'lim bor. Beshikda yotadi. Qarovsiz qolganda sumagini chiqarib so'radi. Sumakda maza bor, sening bu ruchkangda maza yo'q.

Qizlardan kimdir piq etib kulib yubordi. Abdulla uyalganidan lavlagi bo'lib, boshini egdi-da, kaftini yuziga tutdi. Dars tugagach, maktabning orqasiga o'tib achchiq-achchiq yig'ladi. Nega bunday qilishadi? Axir Siddiq aka ham, Husanxon aka ham otasining yaxshi o'rtoqlari edi-ku! Boshqa bolalarga qaraganda uni yaxshi bilishadi-ku! Innaykeyin, o'zi yaxshi o'qiydi-ku! Ko'p o'tmay hamma narsa ravshan bo'ldi. Bir kuni u o'qishga ketayotganida, supada yonboshlab yotgan dadasi chaqirib:

– O'g'lim, – dedi. – Husanxon akang anchadan beri kelmayapti. Juda sog'indim. Ko'rsang aytgin, bir kelib ketsin.

– Xo'p, – dedi Abdulla va maktabga kelishi bilan Husanxon akani qidirdi, lekin topolmadi. O'sha kuni oxirgi dars ona tili edi. «Darsdan oldin eshikda poylab turib aytaman», deb qaror qildi Abdulla. Oxirgi dars boshlanishiga qo'ng'iroq chalinganda, Husanxon aka yetib keldi-da, o'qituvchilar xonasiga ham kirmay, sinfga yo'l oldi. Eshik tagida Abdulla u bilan ko'rishdi.

– Nima deysan? – so'radi Husanxon aka chimirilib.

Abdulla uni bu ahvolda ko'rib, g'alati bo'lib ketdi. Lekin o'zini tutib olib, dedi:

– Dadam sizni ko'rmoqchi ekanlar. Borarmish-siz...

– Mayli, mayli, – dedi Husanxon aka uni itarib sinfga kiritar ekan. – Borarman, hozir vaqtim yo'q. – Lekin In'omning oldidan o'tayotib, odatdagidek, to'xtadi va iljayib qo'lini uzatdi. – Yaxshimisan? Ergash akam qalaylar?

– Bugun uydalar, dam olyaptilar, – dedi In'om.

– Shunday degin? Bir borib ko'rmoqchidim-da... Anchadan beri hech vaqtlarini topib sog'liqlarini so'rolmayman...

– Boring bugun, – dedi In'om.

– Qanday bo'lar ekan? Hozir dam olayotgan bo'lsa-chi, kechqurun borsam bo'larmikan?

– Vaqtli borsangiz ham bo'laveradi.

– Shunday deysanmi? Bo'lmasam, darsdan chiqib boraman.

– Mayli.

– Aytib qo'lasan-da, Husanxon akam sizni ko'rmoqchilar, deb? Shunday ko'raman-u, qaytaman. Uzoq o'tirmayman.

– Uzoq o'tirsangiz ham mayli... – dedi In'om kulib.

– Shundoq deysanmi? Yaxshisi, shunday qilamiz, In'omjon, sen bilan birga boraman. Maylimi?

– Mayli.

– Rahmat. Darsdan keyin ikkalamiz ketamiz.

– Husanxon aka shunday deb, o'tirlaring, degandek erinibgina qo'lini silkitdi. Bu suhbat Abdulaning u yoq bu yog'idan o'tib ketdi. U o'zini ham, uyda yotgan kasal otasini ham bebro' qilishgan,

xo'rlangan his qildi. Shu daqiqadan boshlab, uni tizzalarida olib o'tirgan, erkalab yuz-ko'zini silangan Husanxon akani o'zining eng ashaddiy dushmanidek yomon ko'rib qoldi. Dars tugagach, bir o'rtog'idan so'radi:

– In'omning otasi kim?

– Bilmaysanmi? – dedi o'rtog'i. – Tuman ijroqo'mi raisi-da.

Abdullaga hamma narsa oydinlashdi. In'omning otasi amaldor, uning otasi esa kichik bir artelda ishlaydi! Mana, masala qayerda. Uning xo'rliigi kelib ketdi. Lekin yig'lamadi. Yuragida ko'tarilgan nafrat yig'idan kuchlilik qildi. Uyda dadasi, aytdingmi, deb so'raganda, bir zum ikkilanib turdi, keyin dedi:

– Salom deb yubordilar. Ishlari ko'p ekan, ertaga yo indinga boraman, dedilar. Albatta boraman, dedilar.

– Rahmat, rahmat, – dedi G'afurjon aka sevinib. – Husanxon akang tilla odam, tilla. Ko'rdingmi, o'g'lim, yaxshilik qilsang yaxshilik qaytadi. Hech kim seni unutmaydi.

Shu joyda Abdulla o'zini to'xtatolmadi, ho'ng-rab yig'lab yubordi-da, uyga otildi.

– Nima qildi, o'g'lim? Nima qildi? – dedi orqadan G'afurjon aka.

Ammo Abdulla javob bermadi, papkasini tokchaga ulotqirib, o'zini karavotga tashladi. G'afurjon aka ham, Shahodat opa ham qancha urinishmasin, u yig'isining sababini aytmadi. Oradan bir oy o'tdi. Husanxon aka kelmadi. Kechqurun doktor buyurgan tuzsiz kaptar sho'rva ichib o'tirar ekan, G'afurjon aka xotiniga dedi:

– Esingdami, o‘g‘ling Husanxonni aytib kelib, yig‘ladi?! Nega yig‘laganini endi bildingmi? Husanxon o‘shanda, borolmayman, degan. Shunga yig‘ladi o‘g‘ling. Agar shunday demaganida haligacha kelardi.

– Endi, aytib kel, demang, – dedi Shahodat opa. – Yana qiynaladi.

– Aytmayman. Men hech qachon Husanxon shunday qiladi, deb o‘ylamagan edim. O‘ttiz yillik o‘rtog‘-a...

– Qo‘ying, o‘ylamang, – yupatdi erini Shahodat opa. – Sog‘ayib ketganingizda o‘zi uyalib qoladi. Baxtimizga o‘g‘lingizning umri uzoq bo‘lsin.

– O‘shanda bekor qildim aytib kel deb, – xo‘rsindi G‘afurjon aka.

O‘shandan beri xomush, serfikir bo‘lib qoldi. Chindan ham shu voqea Abdullani o‘zgartirib yuborgan edi. U endi faqat o‘ziga ishonishga, dunyoda yomon odamlar yo‘q emasligiga, yaxshi o‘qib, katta obro‘li odam bo‘lib yetishishga astoydil qaror qilgan edi. Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam – o‘qish, o‘qiganda ham a‘lo o‘qish edi. Lekin o‘sha yili u qancha tirishmasin, yaxshi o‘qiy olmadi. To‘satdan boshiga tushgan tashvishdan qutulolmagan, Husanxon aka-ga bo‘lgan nafrati kuchliligidan ona tilini yaxshi o‘zlashtirolmagan edi.

Lekin sakkizinchi sinfdan boshlab hamma narsa o‘zgardi. Birinchidan, Husanxon aka, Siddiq akaning o‘rniga boshqa o‘qituvchilar kirdi. Buning ustiga uning o‘zi ham vaqtni bekor o‘tkazmay o‘qishga jon-jahdi bilan berildi. Natija

yaxshi bo'ldi. Sakkizinchi sinfni ham, to'qqizinchi sinfni ham a'lo bitirdi. In'om zo'rg'a uch-to'rtga ilindi. Bundan Abdullaning boshi osmonga yetdi. U niyat qilsa, boshqa yutuqlarga ham yetishishi mumkinligini angladi. Faqat mehnat qilish kerak, hamma narsaning asosi mehnat. Otasi haq. Mehnat qilsa bir kunmas, bir kun Husanxon akalar uning oyog'iga bosh qo'yishadi. Qachon o'sha kun kelarkin? Qachon? O'qishning to'rtinchi choragi tugay deb qolganda, Abdullani direktor huzuriga chaqirishdi.

– Seni medalga mo'ljallayapmiz. Bu yog'ini bo'shashtirma, – dedi direktor.

Abdulla sevinchi ichiga sig'may direktordan minnatdor bo'lib chiqdi va yana mutolaaga berildi. Uning ko'ziga o'qishdan boshqa hech narsa ko'rinmay qoldi. U o'qidi, mukkasidan tushib o'qidi va orzusiga yetdi. Maktabni oltin medal bilan tamomladi. In'om esa yiqildi. Hamma achinsa ham, unga faqat Abdulla achinmadi.

VIII

Poyezd bir ohangda taq-tuq, taq-tuq qilib borardi. Yarim kecha bo'lishiga qaramay, Abdullaning negadir uyqusi kelmasdi. Kupeda undan boshqa hech kim yo'q. Abdullaga bu ma'qul edi. U o'z fikrlari, orzulari bilan band, hozir hech kimni ko'rgisi, hech kim bilan gaplashgisi kelmasdi. Vagon derazasi ortida lipillab o'tayotgan baland-past daraxtlar, u bilan birga suzib borayotgan son-sanoqsiz yulduzlarga tikilar ekan, ko'nglida qandaydir xotirjamlik, sokinlik his qil-

di. Hozir uning fikrlari Mingbuloqdagidan ancha tiniq edi. Lekin Gulchehrani eslar ekan, vujudini qandaydir shirin iztirob qoplar, yuzlarida qizning issiq yoqimli nafasini sezardi.

«Bu baxt, – o‘ylardi Abdulla. – Katta baxt. Har kimga ham bu nasib bo‘lavermaydi. Qayerdasan, In‘om? Ko‘r, dunyoda tengi yo‘q qiz uni sevib qoldi. Uning uchun hamma narsaga tayyor. Bir yil tez o‘tib ketadi. O‘shanda Abdulla u bilan birga bo‘ladi. Oppoq, nozik qo‘llaridan ushlab, shaharning eng go‘zal, eng gavjum joylaridan yuradi. Uni hammaga quvonch va faxr bilan ko‘rsatadi. Hammaning havasini keltiradi. Hali bu unday chiroyli qizni ko‘rgani yo‘q. O‘zi shunday qiz bormikin? Yo‘q, bo‘lishi mumkin emas».

U qishloqqa kelganidan xursand edi. Agar ota-onasi majbur qilmaganda, kelmasmidi? Chunki o‘rtoqlari uni Chimyonga taklif qilishgan va u borishga va‘da bergan edi. Lekin uyida onasi uni aynitdi. Keyin dadasi qo‘shildi. To‘g‘rirog‘i, ular borma deyishmadi. Chimyonning o‘rniga ular Mingbuloqni taklif qilishdi. Buvisini ko‘pdan beri ko‘rgani yo‘q. Bechora, juda sog‘ingan. Buning ustiga dala, toza havo, tog‘asi bilan ovga chiqishi mumkin. Kaklik, bedana bo‘ladi. Mingbuloqqa borgani yaxshi. Chimyonda nima bor? Hamma yoq tog‘, o‘rmon. Innaykeyin, ovqatining tayini yo‘q. O‘qishdan charchab rangini oldirib qo‘ygan odam tog‘- Toshda nima qiladi? U yaxshi dam olishi kerak. Mingbuloq xuddi shunaqa dam oladigan joy.

Oxiri Abdulla ko‘ndi. Onasi qilib bergan sovg‘a-salomni olib, yo‘lga tushdi. Bu uning bi-

rinchi marta yolg'iz yo'lga chiqishi edi. Birinchi, mustaqil safari kutilmaganda yaxshi bo'ldi. Yaxshi ham gapmi, juda soz bo'ldi. O'rtoqlari ko'pincha qizlar haqida gapirishardi. Qayerga borishgani, hatto nima qilishganini uyalmay bir-birlariga aytib o'tirishardi. O'ninchi sinfga o'tishganda deyarli hamma bolalarning yuradigan qizlari bor edi. Ba'zilar, hatto maktabda bo'ladigan kechalarga ularni olib kelishardi. Kecha tamom bo'lgach, uylarigacha kuzatib qo'yishardi. Faqat Abdullaning yuradigan qizi yo'q edi. Albatta u ko'p qizlarni tanirdi. Innaykeyin, qizlarga yoqishini ham bilardi. Ba'zi qizlar, hatto u bilan bir kecha raqs tushib, uning yo'lini poylaydigan, uyiga xat yozib kiritadigan bo'lib qolgan edilar. Lekin Abdulla parvo qilmasdi. Qizlar unga yoqmasdi, deb bo'lmaydi. Yoqardi. U taniydigan va u bilan yurishni istagan qizlar orasida kelishgan, chiroylilari ham bor edi. Abdulla ularga bir jilmayib boqishi bilan atrofida girdikapalak bo'lishardi. Ammo u bunday qilmasdi. Raqs tushardi, lekin hammadan oldin, agar kecha cho'ziladigan bo'lsa, g'oyib bo'lib qolardi.

– Hozir o'qish kerak, hozir uyda bo'lishim kerak, – derdi u qolishni istasa ham o'zini majbur qilib. – O'yin keyin...

Uning ko'z oldidan hozir osmonda charaqlab turgan yulduzlardek oltin medal ketmasdi. O'ngida ham, tushida ham shuni ko'rardi. Medal uning uchun hayot ramzi, kelajak kaliti edi. Shu kalitsiz uning yashashi ham mumkin bo'lmay qolgan edi. Kalit qo'lga tushgandan so'ng, nima qilishni u o'zi biladi. Mayli, o'rtoqlari hozir un-

dan kulishsin, qizlar uni odamovi, kekkaygan, deyishsin. Uning kimligi keyin ma'lum bo'ladi. Shunday fikrlar bilan o'zini tinchitib o'qidi, vaqtini bekorga ketkazmadi.

Endi-chi? Endi uni ko'rishsin. Endi o'rtoqlaridan o'zib ketdi. Uning hech kimda yo'q, go'zal qizi bor – Gulchehra... Uning ismi ham o'zidek go'zal. Abdulla ozg'in, ingichka oyoqli qizlarni xush ko'rmasdi. Bir kuni raqs tushishayotganda shunday ingichka oyoqli bir qizning paypog'i tushib ketdi. Abdulla uni chetga olib chiqdi. Qiz etagini sonigacha ko'tarib, rezinkasini bog'layotganda, Abdulla beixtiyor uning oyog'iga qaradi-yu, ensasi qotdi. Shu-shu o'sha qiz bilan raqs tushmaydigan bo'lib qoldi. Gulchehraning oyoqlari bunaqa emas edi. To'lacha, tizzalari kichkina, dumaloq, nima kiymasin – baland poshna tuflimi, shippakmi, chippa yopishib, o'ziga yarashardi. Shunday qiz uni yaxshi ko'radi. O'zi aytdi. «Men ham sizni yaxshi ko'raman», – dedi.

Abdulla muzdek havodan simirib osmonga tikildi. Shamol uning sochlarini to'zg'itib o'ynar, ko'zlarini yumdirmoqchi bo'lardi, lekin u parvo qilmasdi. Ko'zlarini osmonga tikkanicha xayol surardi. Uning hozir esiga buvisining qachonlardir har bir odamning o'z yulduzi bo'ladi, degan gapi keldi-da, miltillab turgan yulduzlarning har biriga alohida diqqat bilan qaray boshladi. Uning yulduzi qaysi ekan?! Yulduzlar deyarli bir-biridan farq qilmasdi: biri sal katta, biri sal kichik... Yo'q, bular ichida uning yulduzi yo'q. Uniki boshqacha bo'lishi kerak. Hammanikiga o'xshamasligi kerak. Agar yaxshilab qarasa, bu yulduzlarning

orqasida boshqa yulduzlar bo'lishi mumkin, lekin ular ancha xira va kichik. Qaysi biri uniki? Abdulla uzoq tikilib, bitta yulduzni tanladi. Bu yulduz olti qirrali bo'lib, bir chekkada ajralib turardi. Uning hajmi ham katta edi. Yog'dusi ham o'tkir edi. Shu yulduz uniki bo'ladi. Yo'qotib qo'ymasa bo'ldi, uniki bo'ladi. Oydan o'n ikki qarich narida, Zuhradan balandroqda. Gulchehraga qaysi yulduzni tanlasa ekan? Abdulla qancha axtarmasin, o'ziga yaqinroq joydan Gulchehraga atab bironta yulduz topolmadi. Zuhra yulduzini tanlashni esa, istamadi. Zuhra katta. Ular teng bo'lishi kerak.

Shu fikr miyasiga kelganda, u yana Gulchehrani o'ylab ketdi. U bir yildan so'ng uchrashishlarini, keyin doim birga bo'lishlarini bilardi. Bu haqda ko'p o'ylagan edi. Lekin ota-onasi bunga nima der ekan? Gulchehraning ota-onasi-chi? Umuman, ular bilishi kerakmi-yo'qmi? Albatta, o'yladi Abdulla, ular bilishi kerak, o'zi aytmasa ham, bir kunmas, bir kun ma'lum bo'ladi. Lekin institutni bitirishguncha bilishmagani yaxshi. Chunki o'shangacha Abdullaning uylanishi mumkin emas. U uylanmaydi. Uylanolmaydi. Bu haqda uning fikri qat'iy edi.

U otasidek yashashni istamasdi. Birovning yordami bilan uylanmaydi. Keyin, Gulchehrani bo'm-bo'sh uyga olib bormaydi. Uyaladi olib kirgani. Institutni bitiradi, ishga kiradi, ro'zg'or uchun kerakli narsalarni oladi, ana o'shanda uylanadi. Lekin u shu kunning tezroq kelishini istardi. Gulchehra bilan yaqinroq bo'lishni orzu qilardi. Qo'llarini ushlash, sekin tortinib o'pish endi uni qoniqtirmasdi. U Gulchehra bilan bir-

ga bo'lishni istardi. Bir kuni hatto tushiga kirdi. Juda g'alati bo'ldi. Ammo uyg'onib o'zidan uyalib ketdi. Shunday tush ko'rganidan ranjidi. Kun bo'yi lohas bo'lib yurdi. Gulchehra bilan uchrashganda esa, qorong'i bo'lishiga qaramay, uning ko'zlariga tik qaray olmadi.

– Xomush ko'rinasiz? – so'radi Gulchehra uning tirsagidan ushlab.

Abdullani tok urgandek bo'lib ketdi. Sekin qo'lini bo'shatib, o'zini chetga oldi.

– Boshim og'riyapti, – dedi titrab.

– Boshim og'riyapti? Hozir tuzatamiz! – dedi shoshib Gulchehra va buloqqa qo'lini tiqib uning peshanasiga tutdi. – Endi tuzukmi?

– Tuzuk, – dedi Abdulla peshanasi aralash uning qo'lini ushlab, keyin bo'sh qo'li bilan quchoqlab, lablaridan qattiq o'pa boshladi, Gulchehra nima bo'lganiga tushunmay, avval jim turdi, keyin siltanib o'zini tortdi.

– Darrov tuzalib ketdingiz-a? – dedi qoshlarini chimirib.

– Gulchehra... – dedi Abdulla o'z ovozi o'zi tanimay.

– Tiss! Eshityapsizmi? Bedanangiz sayrayapti!!!

Gulchehra shunday deb qochib ketdi. Yaxshi bo'ldi. Agar o'shanda ikkalovi o'zlariga erk berib yuborishganda nima bo'lardi? Ikkalovi ham sharmanda bo'lardi! Yo'q, Abdulla bunday qilmaydi. Qiynalsa ham mayli, bunday qilmaydi. Hamma narsa irodaga bog'liq. U o'z irodasiga ishonadi.

– Yigitcha, tushmaysizmi? – dedi kimdir orqadan.

Abdulla cho'chib, o'girildi. Eshik oldida vagon kuzatuvchisi turar edi.

– Toshkentga keldikmi? – hayron boʻlib soʻradi Abdulla.

– Ancha boʻldi.

Abdulla tashqariga qaradi. Kun yorishgan, togʻ ortidan oftob bir qarich koʻtarilib, oltin shuʼlasini sochib turardi. U nihoyatda katta va seryogʻdu edi, kechagi, oʻziga tanlagan yulduzga oʻxshamasdi. Bu hol uni jindek ranjitdi, u oʻz yulduzi quyoshdek boʻlishini istardi. Afsuski, bunday boʻlmaydi, boʻlishi ham mumkin emas. Shuni oʻylab erinibgina xoʻrsindi-da, poyezddan tushdi.

Sershovqin shahar hayoti darhol uni quchogʻiga oldi. Yashash qanday yaxshi, tagʻin shunday katta, goʻzal shaharda! Shu daqiqada hamma narsa – shu muhtasham vokzal binosi ham, bir-birini quvib oʻtayotgan turnaqator mashinalar ham, keng vokzal maydoni oʻrtasidagi bahaybat koʻsak nusxa favvora ham, hamma-hammasi uni quvontirar, uning borligʻidan va baxtiyorligidan darak berib turardi.

Tramvay qachonlardir otasi ishlagan Mirobod bozorini aylanib oʻtib, ogʻir gʻirchilladi-da, toʻxtadi. Abdulla vagon derazasidan beixtiyor tashqariga qaradi. Beshik osigʻlik turgan qamish tomli boloxonani koʻrib, jilmaydi. U uyiga kelgan edi. Tramvaydan tushib, koʻchani kesib oʻtganda, kimdir chaqirdi:

– Abdulla!

Abdulla jomadonini yerga qoʻyib, toʻxtadi. Uning qarshisiga katta sumka koʻtargan sinfdosh oʻrtogʻi Rustam yugurib kelardi. Abdulla uchrashuvdan xursand boʻldi.

– Bormading-da, – dedi Rustam u bilan soʻrashib.

– Ha?

– Chimyonning bunaqa joyligini endi bilishim. Maza qildik. Ahrorning dadasi o'sha yerda ekan. Bitta qo'y so'yib berdi. Ikki kun kabob qilib yedik. Cho'mildik, tog'ga chiqdik. Lekin-chi, men shamollab qolib, ikki kun yotib qoldim. Keyin cho'milmadim. Borsang, maza qilarding.

Abdulla jilmaydi.

– Qishloqda yaxshi bo'ldimi? – so'radi Rustam.

– Tuzuk, – dedi Abdulla, – bedana otdik, cho'mildim...

– Bedana? – havas bilan so'radi Rustam.

– Ha.

– Ancha otdingmi?

– O'ntacha.

– Obbo sen-ey! Maza qilibsana-ku!

Abdulla yana jilmaydi. Ko'p narsani gapirishga yuragi to'lib turgan bo'lsa ham, o'zini tutdi. U safaridan xursand edi, shuning o'zi kifoya. Birovlarining bilishiga hojat yo'q. Ko'rib turibdi, shuning o'zi yetarli. Shuning uchun u gapni bo'ldi.

– Qachon qaytdilaring?

– O'tgan kuni. Bilasanmi, odam juda zerikdi. Kechqurun Ahrorlar bilan bir aylanib, ko'lga bormoqchimiz. Orolchada o'tirib, qittak-qittak qilamiz. Biz bilan yur.

– Mayli.

– Bo'lmasa, kechqurun kiraman.

– Qayoqqa ketyapsan? – so'radi Abdulla sumkaga ishora qilib.

– E, oyim bozorga ketayotuvdilar, qo'llaridan yulib oldim. Odam zerikib o'ldi. Xo'p, kechqurun kiraymi?

Abdulla boshini qimirlatdi. Uyi tomon yurar ekan, u o'ylardi: uning zerikishga vaqti yo'q. U o'qiydi, ko'p o'qiydi va Gulchehrani o'ylaydi.

IX

G'afurjon aka o'g'lining qaytishini sabrsizlik bilan kutardi. Abdulla Mingbuloqqa ketgandan keyin uch-to'rt kun o'tgach, bir odam uni ko'rgani keldi. O'rta yashar, yaxshi kiyingan, boshida shlyapa. U G'afurjon aka bilan eski qadrdonlarday so'rashib, uni betob ko'rganiga qayg'urdi.

– Kecha bilib qoldim, – dedi u. – Ertalab Leningraddan qaytganimni eshitib, og'aynilar kelishdi. Shular sizni betob deyishdi. Mehmon-izlom bilan bo'lib kecha kelolmadim. Bugun, nima bo'lsa ham sizni ko'rishga ahd qilib, mana, keldim.

– Rahmat, rahmat, – dedi G'afurjon aka istarasi issiq, xushmuomala bu odamning kimligini, qayerda ko'rganligini eslolmay, lekin so'ragani uyaldi.

Ular ancha vaqt u yoqdan bu yoqdan gaplashib o'tirishdi. Shahodat opa choy qo'ydi. Mehmon gap orasida ikki yildan beri Leningradda yashayotgani, u yerda yangi bir institut ochilib, uni professor sifatida taklif qilishganini aytdi. Bir oycha bu yerda bo'laman-da, keyin qizimni olib ketaman, dedi u.

– Institutni o'zimning oldimda tamomlasin. Aytganday, Abdullajon qalay? Katta yigit bo'lib qolgandir?

– Ha, – dedi faxr bilan G'afurjon aka. – Maktabni oltin medal bilan tamomladi. Hozir Qo'qonda. O'ynab kelsin deb jo'natdik.

– Juda yaxshi, juda yaxshi. Qaysi institutga kirmoqchi?

– ToshDUga. Fizmatga kiranman, deydi.

– O, juda yaxshi. Matematikani yaxshi ko‘rar ekan-da.

– Ha, yozma matematikani yigirma daqiqada topshirib chiqdi.

– Yo‘g‘-e? – xursand bo‘lib so‘radi mehmon.

– Ha, o‘qituvchilari ham hayron.

– Yaxshi, juda yaxshi. Bizning Sayyora ham matematikaga durust. Shuning uchun ham o‘zimning institutimga olib ketmoqchiman. Kela-jagi yaxshi institut. Atom bilan, atom energiyasi bilan bog‘liq institut.

– Shunday deng?

– Ha, qiz bolaga ozgina og‘irlik qiladi-yu, ammo yaxshi.

Mehmon o‘ylanib qoldi. G‘afurjon aka ham unga, shunday ajoyib o‘qishga ketayotgan qiziga havasi kelib xayolga cho‘mgan edi. Qani endi u ham shu mehmonga o‘xshagan bo‘lsa-yu, o‘g‘lini shunday o‘qishga yuborsa! Abdulla esli, aqlli bola, katta odam bo‘lib qaytardi.

– Stipendiyasi tuzukmi? – so‘radi u nimaningdir ilinjida.

– Boshqa institutdagidan baland, yotog‘i bor. G‘afurjon aka, nima deysiz, o‘g‘ilchani yubormaysizmi? Tag‘in o‘zi matematikaga qiziqar ekan, yaxshi bo‘lardi. – Mehmon G‘afurjon akaning ikkilanib turgaiini o‘zicha tushunib, qo‘shib qo‘ydi: – Moddiy tomondan hech qiynalmaydi. Innaykeyin, men borman. Yolg‘iz tashlab qo‘ymayman.

– Qaydam, – dedi G‘afurjon aka, lekin ichida mehmonning taklifi unga ma‘qul tushdi.

– Shunday deyatganimki, – gapida davom etdi mehmon, – institut yangi. Uni bitirgan odam juda qimmatli kasb egasi bo‘ladi. Bu yog‘i menga ham yaxshi. Qiz bilan ikkalovi bir-biriga dalda bo‘lib o‘qirdi.

– Rahmat, – dedi G‘afurjon aka minnatdor ohangda. – Men rozi, oyisi bilan keyin, Abdulla kelganda o‘zi bilan gaplashib ko‘ray.

– Shunday qiling. Imtihon topshirmaydi. Hujjatlarini men olib ketaman. Gaplashib ko‘ring. Men bilan ham uchrashsin.

Mehmon shunday deb, bloknotidan bir varaq yirtib, manzilini yozdi. U ketgach, G‘afurjon aka qog‘ozni ko‘rdi-yu, uning kimligini esladi.

– Shahodat, ho Shahodat! – qichqirdi u sevinchini yashirolmay. – Bilasanmi haligi odam kim?

– Kim ekan? – dedi ayvonda ish tikib o‘tirgan Shahodat opa.

– Arteldaligimda ekspeditor yigit bor edi-ku, Tursunali Qurbonov degan, esingdami? O‘sha.

Shahodat opa eslolmadi. Lekin G‘afurjon akaning ko‘z oldidan bu odamning o‘qiyman deb O‘ratepadan qochib kelgani, turmushda qiynalib, bozorda hammolchilik qilgani va unga duch kelgani birma-bir o‘tdi. G‘afurjon aka uni o‘shanda ishga joyladi, o‘qishini bitirganda yaxshi bir ziyo-fat qilib berdi. Keyin Tursunali qayoqqadir ishga ketdi. O‘shandan beri ko‘rishmas edi.

Mana, tog‘ tog‘ bilan uchrashmas ekan, odam odam bilan uchrashar ekan. Qancha yil o‘tib ketdi, bechora uni unutmabdi, atayin ko‘rgani kelibdi. Bu ham mayli, endi yaxshiliklarini qaytarmoqchi.

Dunyoda yaxshi odamlar ko'p, o'ylardi chehrasi yorishib G'afurjon aka, nega yubormasin Abdullani? Borgani yaxshi, qiynalmaydi, qiynalib qolsa uncha-muncha pul-mul yuborib turishga qurbi yetadi. Innaykeyin, shunday katta odam, professor, yolg'izlatib qo'ymayman, deyapti.

G'afurjon aka shularning hammasini xotiniga tushuntirdi. Shahodat xola ko'nglida qarshi bo'lsa ham, erining ra'yini qaytara olmadi.

– Mayli, ixtiyoringiz, – dedi u. – O'zi nima derkin? O'zi bilan gaplashing.

Uning shunday deyishida jon bor edi. Abdulla es-hushli bola, o'ylardi u, dadasini shu ahvolda tashlab ketmas. Qachon tuzaladi, tuzala oladimi hali, noma'lum. Buni Abdulla ham biladi. Shuning mulohazasiga boradi. Innaykeyin, hamma yoqda o'qish bor, yaxshi o'qisa shu yerda ham katta odam bo'lib ketishi mumkin. Lekin G'afurjon aka tinchimadi.

– O'zi nima derdi? – dedi u. – Boraman, deydi. Unday joyda o'qish har kimga ham nasib bo'la-vermaydi. Mabodo ikkilanadigan bo'lsa, sen ham jim turma, gapir.

Shahodat opa indamadi.

– Nega indamaysan? Yo o'zing qarshimisan? – surishtira boshladi G'afurjon aka. – Menga qara, besh yil hech gap emas. Hash-pash deguncha o'tib ketadi. O'zing ham sezmay qolasan. O'g'ling yo'q hunarni egallab kelsa yomonmi?

– Men javobimni aytdim, – dedi Shahodat opa xo'rsinib. – Ixtiyor o'zingizda. Nimani lozim topsangiz, shuni qiling. Lekin, avvalo, o'zi hal qilsin. Boraman, deb turib olsa, siz ham, men

ham hech narsa deymaymiz. O'g'lingiz kichkina emas endi.

– Men ham shuni aytyapman-da, xotin, – dedi G'afurjon aka. – Endi kichkina emas. Lekin farzandga maslahat berish – ota-onaning vazifasi. Men gapirganimda indamay turmagin. Kelishdikmi?

Shahodat opa «ha» degandek boshini qimirlatdi. Abdulla bu yangilikni juda xotirjam eshitdi. G'afurjon aka buni sira kutmagan, tezroq u bilan gaplashishga shoshilgan edi. Shuning uchun o'g'li kelishi bilan qishloq yangiliklarini apil-tapil eshitib, xushxabarni aytgan edi.

– Ha, yoqmadimi? – so'radi hayron bo'lib u xomush o'tirgan o'g'lidan.

– Yo'q, nega? Yaxshi... – dedi Abdulla.

Lekin ko'nglida o'zga yurtga borishni istamadi. Qanday ketadi, bir yildan keyin Gulchehra kelsa... Uni o'zi zo'rg'a shunga ko'ndirdi-ku! Qani endi u bilan birga Gulchehra ham ketsa, juda ajoyib bo'lardi. Lekin bunday bo'lmaydi. Demak, uning borishi kerak emas. Albatta institut yaxshi. Shuning ustiga Leningradda o'qish – ko'pchilik yetisholmaydigan orzu. Lekin u bormaydi, Gulchehrasiz borolmaydi. Shahodat opa mehr bilan o'g'luga tikilib, ha deganday boshini egib qo'ydi. U xursand edi. O'g'lining ikkilanib turganini u o'zicha tushungan edi.

– Tursun amaking, o'zim yordam berib turaman, doim holidan xabar olib turaman, deyapti. O'zimiz senga bor desag-u, bormaysanmi?! Manavi Tursun amakingning manzili. Men bilan uchrashsin Abdulla, dedi. Ana, o'zi bilan ham gaplash.

– O'ylab ko'ray, – dedi Abdulla, lekin dadasi-ning qo'lidani qog'ozni oldi.

Kun bo'yi u kutilmagan taklif ta'sirida yurdi. Rustam chaqirib kelganda ham uning xayolidan shu taklif ko'tarilmagan edi. U o'rtog'i bilan maslahatlashmoqchi bo'lib, og'iz ochdi, lekin darrov bu fikridan qaytdi. Ikkilanishga o'rin yo'q, o'yladi u, qolishim kerak. Ikki o'rtoq ko'chaga chiqishdi.

– Qayoqqa boramiz?

– Kurantning tagida yig'ilmoqchi edik, – dedi Rustam. – Jindek aylanib, hali aytganim – ko'lga boramiz.

– Ketdik.

Ular kurantning tagiga yetib kelishganda, kun botgan, panjaralari zar bo'yoqqa bo'yalgan istirohat bog'idan duxovoy orkestr sadosi jaranglab turardi. Bog' ham, ko'chalar ham, devqomat chinorlar soya tashlab turgan xiyobon ham odamlar bilan to'la edi. Musiqa sadosiga yigit-qizlarning sho'x kulgilari, salmoqli g'ovur-g'uvur gaplar qo'shilib, tungi orombaxsh hayot boshlangani-dan darak berardi.

«Mingbuloqda nima bor? – xayolidan o'tkazdi Abdulla suq bilan atrofiga qarar ekan. – Mana hayot, jo'shqin, go'zal hayot. Gulchehraning rozi bo'lgani yaxshi bo'ldi. U shaharda bo'lishi kerak, chang-tuproqda nima qiladi? Mana shu ko'chalarda ikkalovi kechqurunlari aylanishadi, shu salqin bog' ichida sayr qilishadi, raqs tushishadi. Xiyobondagi gullarga ko'milib yotgan o'rindiqlarda o'tirib xayol surishadi. Bunga nima yetsin? Albatta ikkalovi birga ketganida-ku, juda yaxshi bo'lardi. Biroq bu mumkin emas, Gulchehra shu yerning o'ziga kelishga ham zo'rg'a rozi bo'ldi».

Abdulla yuragini nimadir tirnab ketganini sezdi. Bundan cho'chib, hech narsani o'ylamaslikka qaror qildi va shoshib o'rtog'idan so'radi:

– Bolalar qani?

– Hov ana, kelishyapti, – dedi Rustam xiyobonni ko'rsatib. – Yur, o'sha yoqqa. Bu yerda odam ko'p.

Ular ko'chani kesib o'tishdi. Xiyobon ichidagi yo'lkadan ular tengi yigitlar nimanidir bahslashib kelishardi.

– O', keldingmi? – dedi jingalak soch bir yigit Abdullaga qo'l cho'zib. – Biz, qishloqda qolib ketdingmi deb qo'rqdik. Chimyonda maza bo'ldi.

– Eshitdim, – dedi jilmayib Abdulla u bilan ko'rishar ekan. – Shamollab rosa yotib olibsanglar. – Kulgi ko'tarildi.

– Qayoqda! – e'tiroz bildirdi jingalak soch yigit. – Bitta Rustam shamolladi. Uni o'zing bilasan-ku, birovning yo'taliga ham shamollab qoladi. – Yana kulishdi. – Aytganday, Abdulla, tanish, – dedi sap-sariq, oriq bir yigit yonidagi sherigini ko'rsatib. – Po'lat. Leningradga ketyapti. Bu ham medal olgan.

– Salom, – Abdulla uyalib qarab turgan bu jikkak, olifta kiyingan yigitga qo'lini uzatdi. – Qaysi institutga?

– Yadrofizikaga, – dedi hozirjavoblik bilan Po'lat. Uning ovozi mayin, xuddi qizlarnikiga o'xshardi. – Ikki yil bo'ldi ochilganiga. Dadam qarshilik qilsalar ham ketyapman.

– Yaxshi, – Abdulla havas bilan unga tikildi.

– Yaxshi bo'lganda qandoq! – gapga aralashdi Rustam. – Nima deding, Ahror? Zo'r bu, zo'r!

– Ha, – dedi jingalak soch yigit. – Agar men ham medalga ilinganimda, borar edim.

– Hozir ham boraver, – dedi sariqqina yigit.

– Qoʻrqaman, imtihonlari ogʻir. Yiqilib qolishim mumkin.

– Siz-chi? – soʻradi Poʻlat Abdullaga murojaat qilib. – Siz qayerga kirmoqchisiz?

– Men... – negadir oʻylanib qoldi Abdulla, keyin dedi: – Men ham shu institutga borsam kerak.

– Yoʻgʻ-e?! – deb yubordi Rustam.

– Lekin, lekin hali aniq emas, – dedi shoshib Abdulla. Uning oʻz gapi oʻzini choʻchitib yuborgan edi. – Dadam shunday deyaptilar.

– Borsangiz yaxshi boʻlardi, – dedi Poʻlat.

– Ha, albatta, – bu muloyim yigit Abdullaga yoqib qolgan edi. – Lekin bilmadim. Oʻzim Tosh-DUni, Fizmatni moʻljallab turibman.

– Qani, yigitlar! – dedi sariqqina yigit. – Hadeb oʻqishdan gapiravermanglar. Mening hiqildogʻimga keldi oʻqish. Yuringlar.

– Yuringlar, – dedi Ahror yoʻl boshlab.

Yigitlar yoʻlkani toʻldirib, Sayilgoh koʻchasi tomon bitta-bitta yurib ketishdi. «Nega bunday dedim? – oʻylardi yoʻl-yoʻlakay Abdulla. – Maqtangim keldimi? Yoʻq, mening bunday odatim yoʻq. Yo havasim keldimi? Nahotki borishni shunchalik istasam?» Uning kayfi buzilgan edi. Koʻlda ham u deyarli gapga aralashmadi. Oʻziga yoqib qolgan Poʻlatning esa bir-ikkita savollarini javobsiz qoldirdi. Bir piyola oq vinoni zoʻrgʻa ichib, hammadan oldin turdi.

Uyiga kelib joyiga yotar ekan, «Nima boʻlibdi?! – dedi oʻzini yupatib. – Boraman, deb aniq aytganim

yo‘q-ku». Shu fikr o‘ziga ma’qul kelib, ko‘ngli ancha tinchidi-da, ko‘p o‘tmay, uxlab qoldi.

X

Professornikiga borish kerakmi, yo‘qmi? Ertalab uyg‘onganda Abdullaning miyasiga kelgan birinchi fikr shu bo‘ldi. Lekin qanday qarorga kelishni u bilmasdi. Bir tomondan Mingbuloqda Gulchehra bilan o‘tkazgan kunlari ko‘z oldidan ketmay, bir yildan so‘ng Toshkentda bundan ham yaxshi davr boshlanishini his qilib, hech qayoqqa ketishni istamas, ikkinchi tomondan otasining gaplari, kechagi jikkakkina yigitga bo‘lgan havasi uni qiynoqqa solib qo‘ygan edi. Lekin kecha u o‘zida bunday ikkilanishni sezmagani, ketishdan ko‘ra qolishga ko‘proq moyil edi. Negadir bugun uning fikri uyqudan turishi bilan o‘zgarib qoldi. Bundan u battar qiynoqqa tushdi.

Erinibgina kiyinib, ko‘chaga chiqdi. Ikki hovli naridagi ariq labida kimdir o‘zini oftobga solib o‘tirardi. Abdulla uni darrov tanidi va o‘sha tomonga yurdi.

– Ha, o‘tiribsanmi? – dedi u uning yoniga borib o‘tirarkan.

– Qariganimda ham shu odatim qolmasa kerak, – dedi Rustam esnab.

– Ertalabki oftob yaxshi.

– Abdulla... – dedi Rustam.

– Hm...

– Rostdan ketmoqchimisani?

– Qaydam?

– Sening o‘rningda bo‘lsam, uchardim.

– Hali ham kech emas, uch.

– Ahror kecha to'g'ri aytdi, imtihonlari og'ir bo'ladidi. Innaykeyin, dadam yubormaydi. Seni o'zlari bor deb turishibdi. Imtihonlarni topshirmaysan.

– Lekin...

– Nima lekin? Buning lekini bormi? Jo'nayver. Kirmasang, keyin achinasan. Umr bo'yi achinib o'tasan.

«Balki to'g'ridir, – o'yladi Abdulla. – Bu yerda qolib, ishim yurishmay qolsa, shunday bo'ladi. Keyin, Po'latni ko'rganimda, shunday bo'ladi. Mening undan nimam kam?» Bu fikr uning ko'z oldiga otasini keltirdi. Ilgari u qanday edi?! Husanxon akalar uning oldida ikki bukilib yurardi. Endi-chi? Endi ular kelib ko'rishni istamaydilar. Hammasi otasining mansabi pasayib ketganligida. U boshqacha yashaydi. Uning hayoti baland-past bo'lishi kerak emas, to'g'ri bo'lishi kerak, yil o'tgan sari pog'onama-pog'ona ko'tarilib borishi kerak. Leningradda o'qib kelsa shunday bo'lishi mumkin. U yo Po'lat bilan teng bo'lishi, yo undan baland bo'lishi kerak. Boshqachasi to'g'ri kelmaydi.

Biroq, biroq... Shu biroq, Gulchehraga bergan va'dasi uni chuqur o'ylatib qo'ygani edi. Professor bilan gaplashib kelsa-chi? Buning nimasi yomon? Gaplashadi, xolos! Bu fikr unga ma'qul tushib, dik etib Rustamning oldidan turdi.

– Ha, qayoqqa?

– Ishim bor.

Professorning uyini u qiyinchiliksiz topdi. Bu Toshkentning eng sokin, jimjit Xorazm ko'chasi-dagi yaxlit oynali bejirim uylaridan biri edi. Siri ko'chmagan zangori darvozadagi raqamga ko'zi

tushishi bilan Abdullani hayajon bosdi. Bo'shashgan qo'lini cho'zib ehtiyotlik bilan qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Hech kim chiqmadi. Abdulla ichida xursand bo'lib qo'ydi. Lekin ketmadi. Darvoza tirqishidan hovliga qaradi. Shunday darvoza orqasida kungaboqardek katta qizil kartoshka guldan boshqa narsa ko'ziga ko'rinmadi. Yana qo'lini cho'zib qo'ng'iroq tugmasini bosdi. Shu payt:

– Kto tam? – degan ayol kishining ovozi eshitildi.

Abdulla nima deyishini bilmay, eshikni bir-ikki taqillatib qo'ydi. Yengil tufli poshnalari taq-tuq qilib darvozaga yaqinlashdi-da, keyin g'irchillab eshik ochildi va Abdullaning oldida chiroyli oyoqlariga yopishib turgan ko'k shim, yengsiz sariq kofta kiygan nozik bir qiz paydo bo'ldi. Kichkina bejirim boshida tarang qilib tortilib, ingichka sariq lenta bilan bog'langan jigarrang sochlari-ning uchi chap qulog'i orqasida jo'xori popugidek osilib turardi.

Abdulla uning qirra burni, mayda tuklari bilinar-bilinmas qorayib turgan yuqorigi labi ustida ter tomchilarini va qo'lidagi ho'l lattani ko'rib, ish qilayotganligini payqadi. Qiz unga ko'rinishi bilan lattani yashirgan bo'lib, qo'lini orqasiga berkitdi.

– Salom, – dedi Abdulla uning tutash qoshlari ostidagi qo'y ko'zlariga tikilib.

– Zdravstvuyte, – qiz savol nazari bilan unga qaradi.

«Chiroyli ekan», – o'yladi Abdulla undan ko'z uzolmay, lekin ko'p tikilishga uyaldi.

– Menga Tursun amakim kerak edilar. Uydamlar?

– Ha, – dedi qiz. U bu soʻzni xuddi oʻzbek tilini yangi oʻrgangan odamdek ogʻzini toʻldirib aytdi. – Zaxodite.

– Spasibo, – deb yubordi beixtiyor Abdulla, lekin oʻsha zahotiyoq qoʻpol chiqqanini sezib, uyali ketdi. – Shu yerda... shu yerda turaman.

– Net, net, zaxodite.

Qiz eshikni kattaroq ochib, uning kirishini kutmay, toʻrdagi baland zinali dahliz tomon yoʻl oldi. Bogʻichi boylanmagan sandali yana yengil taq-tuq, taq-tuq qila boshladi.

– Papa!

Qiz dahlizga koʻtarilib, oyoqlarini silkitib sandalini zinapoyaga tashladi-da, oyoq yalang ichkari xonaga kirib ketdi. Abdulla zina yoniga borib toʻxtadi va hovliga razm soldi. Hovli juda salqin, turli-tuman gullar bilan toʻla edi. Hovlining oʻrtasida, baland olmalar tagida pastak shiypon boʻlib, pechak gullar zangori ustunlarga chirmashib, tomgacha chiqib ketgan edi.

– Chto vi tam stoite? Zaxodite, – dedi qiz chiqib.

Abdulla uning kichkina, oppoq oyoqlariga koʻz qirini tashlab, dahlizga koʻtarildi. Tuffisini yechmoqchi boʻlganda:

– Chto vi, ne nado! – dedi qiz va oyogʻi tagiga qoʻlidagi lattani tashladi. – Vitrite i vsyo.

Abdulla lattaga yaxshilab tuffisini artib, qizning ketidan ichkariga kirdi. Bu kenggina zal boʻlib, toʻrda katta dumaloq stol bor edi. Pastda esa kichkina uzunchoq stolning ikki tomonida ikkita yumshoq kreslo turardi. Qiz ulardan bittasini surib, Abdullaga ishora qildi.

– Sadites. Papa skoro viydet!

Abdulla kresloga omonatgina o'tirdi. U g'alati ahvolga tushib qolgan edi. Bunday uyni birinchi ko'rishi, bunday kresloda birinchi o'tirishi! Qanday yaxshi! Hamma professorlar shunday yasharmikin? Qizi shumi? Juda g'alati ekan. Abdulla havas va hayajon bilan xonaga bir-ikki qarab chiqib, qizni ko'rib qoldi. U shunday eshikning to'g'risida dahliz tokchasiga chiqib, deraza oynasini artardi. Abdulla beixtiyor unga tikilib qoldi. Qiz lattali qo'lini har ko'targanda, koftasi tagidan shimi tarang tortib turgan ingichka oppoq beli silkinardi. Bu hol uzoq davom etdi. Bir mahal qiz Abdullaning qarab turganini sezdi shekilli, qo'lini tushirib, koftasini shimiga qistirdi.

– Papa! Nu xvatit! Chelovek jdyot! – qichqirdi u nihoyat lablarini cho'chchaytirib.

Abdulla uyalib ko'zini chetga oldi. «Yaxshi qilmadim, – o'yladi u. – Demak, qizi shu ekan-da? Nahotki Leningradga borsa?» U xuddi o'zi ketayotgandek, bunga ishongisi kelmadi, ayni vaqtda uning borishini istardi. Ko'p o'tmay ichkari xonadan professor chiqdi. Abdulla o'rnidan turdi.

– Kuttirib qo'ydimmi? – dedi Tursunali aka unga qo'l uzatib. – Salom.

– Salom, – dedi Abdulla jilmayib.

– Ertalab jindak ishlaydigan odatim bor. Kechiring, Abdullajon. – U xushmuomalaligi bilanmi, nimasi bilandir Abdullaga birpasda yoqib qoldi.

– Hechqisi yo'q, – dedi shoshib va professor-dan so'ng kresloga o'tirdi. – Aytganday, oltin medal bilan tabriklayman, – dedi professor. – Eshitib, juda xursand bo'ldim. Yaxshi, juda yaxshi!

– Rahmat, – Abdulla jilmayib boshini egdi.

– Sayyora, – chaqirdi professor kimnidir.

Boyagi qiz kirdi. Endi u xuddi shimining rangida yumshoq chuvak kiyib olgan edi.

– Chto, papa?

– Tanish, – dedi professor, – G‘afurjon akaning o‘g‘li. Aytgan edim senga.

Abdulla o‘rnidan turib qizga qo‘lini uzatdi.

– Abdulla.

– Maktabni oltin medal bilan bitirgan! – qo‘shib qo‘ydi professor g‘urur bilan.

– Pozdravlyayu, – dedi qiz jilmayib. Uning tishlari guruchdek oppoq edi.

– O‘zbekcha gapirsang-chi! – dedi professor uni urishgan bo‘lib.

– Ti je znayesh, kakoy u menya govor! – dedi qiz lablarini cho‘chchaytirib. – Chay postavit?

– Albatta. Oying qani?

– Poshla v atelye. Gde budete pit?

Qiz shunday deb Abdullaga yer ostidan qarab qo‘ydi.

– Shu yerda, – dedi professor.

– A ya zdes xotela ubirat...

– Bo‘lmasa, hovlida.

Qiz chiqib ketdi.

– Uni kechiring, Abdulla, – dedi kulib Tursun aka. – Yoshligimda ruschaga qiynalganim uchun, uni rus maktabiga bergan edim. Ruscha o‘qigan. O‘rtoqlari ham ruslar. O‘zbekchaga endi o‘rgatyapman. Oyisi bilan endi faqat o‘zbekcha gaplashadi. Mendan uyaladi. Xo‘sh, ahvollar yaxshimi?

– Rahmat.

– Tunov kuni dadangizni ko‘rgani borgan edim. Ancha gaplashib o‘tirdik. Ko‘pdan beri ko‘rish-

magan edik. – Tursun aka xo'rsindi. – Dadangiz ancha og'ir kasalga chalilib qolibdilar. Bilmadim, vrachlar ikkita kasal davosini haligacha topolmayaptilar: bittasi – qon bosimi, bittasi – saron. Ammo tashvishlanmang, tuzalib ketarlar. U kishini men ko'pdan beri bilaman, ko'p yaxshilik qilganlar menga. – Professor o'ylanib qoldi.

Abdulla uning taram-taram peshanasiga, oq oralagan siyrak sochlariga tikilar ekan, shu topda unga o'xshagisi, katta bo'lib oila qurganda esa, farzandlari bilan xuddi uningdek yengil, sho'x, o'z tengidek gaplashgisi kelib ketdi.

– Dadam ham sizni ko'p gapiradilar, – dedi Abdulla biron narsa bilan uni xursand qilishni o'ylab.

– Rahmat. G'afurjon aka tilla odam. Hamмага u yaxshilik qilib kelgan. Xo'sh, doktorlar nima deyapti?

Abdulla nima deyishini bilmay qoldi. U qishloqdan qaytib kelganidan keyin na dadasi, na onasi bilan bu haqda gaplashgan edi. Mingbuloqqa jo'nayotganida bir professor kelib turganidan xabardor edi. Buni ayasi aytib bergan edi. Shu professorning gapi esiga tushdi.

– Qon bosimi ikki yuzdan tushmayapti. Lekin tuzalib ketasiz, deyishyapti. Go'sht yemaydilar. Tuzli hech narsa ichmaydilar. Bir-ikki kun ishga chiquvdilar, qiynalib qoldilar.

– Ishga chiqmaganlari ma'qul. Hozir o'zlariga yaxshi qaramasalar, keyin qiyin bo'ladi.

– Men ham xuddi shunday deyman nuqul, – dedi Abdulla va qizarib ketdi. U sira shunday demagan edi. Aksincha, otasi uyda yo'q bo'lsa, negadir sevinardi. «Nega shunday demaganman?» achinib

xayolidan o'tkazdi Abdulla. «Shunday odam gapirganida, men ham aytishim mumkin edi...»

– Bizda o'zi ko'pincha shunday, – dedi Tursunali aka o'ylanib. – Yaxshi odamlar tez kasalga chalinadi. Yomon odamlar, aksincha – ularga balo ham urmaydi.

– Ha, – dedi Abdulla, lekin Tursunali akaning bu gapi bilan nima demoqchi ekaniga tushunmadi.

– Papa! Vsyo gotovo! – dedi Sayyora kulib.

Abdulla uning xipcha beliga bog'langan no'xat gulli fartug'iga havas bilan qarab qo'ydi. Buni Sayyora ham sezdi shekilli, unga jilmayib tikildi-da, fartug'ining etagi bilan un yuqqan qo'llarini artidi.

– Nu, idyomte!

– Qani, yuring, – dedi Tursunali aka o'rnidan turib. – Bizning qizni choyidan ichaylik. Ja yaxshi damlaydi-da! A, qizim?

– Nu, pryam uj! – dedi Sayyora erkanib va hammadan oldin hovliga yo'l oldi.

Ular shiyponga chiqib o'tirishdi. O'rtadagi kichkina dumaloq stol usti noz-ne'matga to'lib ketgan edi. Katta guldor vazada shaftoli, uzum, oltindek anjir, alohida taqsimchada Samarqand danagi... Sariyog', qazi shunday ustalik bilan parrak qilib to'g'ralgan ediki, biron joyida pichoq tirnab ketgan g'adiri ko'rinmasdi. Abdulla nonushtaga qo'yilgan bu noz-u ne'matlarning ko'pligi, xilma-xilligidan ham ko'ra, ularning nozik did va tartib bilan qo'yilganligiga hayron bo'lib qolgan edi. Sayyora katta xitoyi choynakda choy olib kelib Abdullaning qarshisiga o'tirdi-da, non ushatdi.

– Ana, aytmadimmi? – dedi Tursunali aka jilmayib.

Abdulla Sayyora uzatgan piyolaga qarab boshini qimirlatdi. Pamil choy qip-qizil rang olib, ajoyib hid taratib turardi.

– Xvastun! – dedi Sayyora ko‘z qirini Abdullaga tashlab.

– Rosti-da, nima dedingiz, Abdulla?

– Yaxshi choy bo‘libdi. – Abdulla yer ostidan qizga qarab qo‘ydi.

– Papa! – dedi sekin Abdullaga qarab Sayyora. – On da?

Tursunali aka ko‘zini qisib qo‘ydi-da, kulib so‘radi:

– Yoqdimi?

Sayyora qip-qizarib ketdi. Keyin choy qoshiq bilan dadasining peshanasiga urdi.

– Ya prosto sprashivayu.

Tursunali aka kulgidan o‘zini tiyolmay gapirdi:

– Nega qizarib ketding bo‘lmasa?

– Prosto, jarko! I vsyo!

– Bilaman nega jarko.

– Papa!

– Bo‘pti-bo‘pti.

Hech narsaga tushunmagan Abdulla piyolasiga termilib o‘tirar ekan: «Nahotki birga o‘qisak, yaxshi qiz ekan», deb o‘ylardi.

– Dadangiz aytdilarmi? Men siz haqingizda gaplashgan edim, – dedi bir mahal jiddiy tarzda Tursunali aka unga murojaat qilib. Abdulla boshini ko‘tardi. – Men ishlayotgan institut yaqinda tashkil bo‘ldi, – gapida davom etdi Tursunali aka. – Bu qiziqarli, juda kerakli institut. Eshitgan

bo'lsangiz kerak, hozir yadro fizikasi haqida ko'p gaplar bo'lyapti. Atom reaktorlari qurilyapti. Xullas, bu fan hozir eng zarur va kelajagi porloq fanlardan bo'lib qoldi. Bir-ikki yildan so'ng O'zbekistonda ham ko'pgina atom inshootlari quriladi. Matematikaga havasingiz baland ekan, shuning uchun va dadangizni hurmat qilganimdan sizga shu taklifni qilyapman. Agar xohishingiz bo'lsa, borganingiz ma'qul. Mana, Sayyora ketyapti.

Abdulla yalt etib choy qoshiqni o'ynab o'tirgan Sayyoraga qarab qo'ydi-da:

– Rahmat, – dedi sekin. – Dadamlar aytuvdilar.

– Barakalla. Har holda, yomon bo'lmaydi. Bundan tashqari, mustaqil hayotga ham o'rganish kerak.

– A mojet on ne xochet? – dedi gapga aralashib Sayyora.

– Bilmadim, – dedi Tursunali aka. – O'ylab ko'ring. Uyingizdagilar bilan maslahatlashing. Lekin tez hal qilish kerak, talabgorlar ko'p.

– Xo'p, – dedi Abdulla boshini irg'atib.

– Qachon aytasiz? Shu bir-ikki kunda hal qiling. Men hamma boradiganlarning hujjatlarini yig'ib, jo'natishim kerak.

Abdulla yana boshini qimirlatdi. Tursunali aka, gap tamom degandek, o'rnidan turdi. Eshik tagida Sayyora jilmayib Abdullaga qo'lini uzatdi.

– Xayr.

– Xayr, – dedi shoshib Abdulla va qizning kichkina qo'lini mahkam qisib qo'ydi.

Eshik g'ichirlab orqasidan yopilganda Abdulla og'ir xo'rsindi. U shu uyga kelganidan, shunday samimiy odamlar bilan uchrashganidan xursand edi. «Nahotki endi ular bilan birga bo'lsam, birga

o'qisam?» U yuzlarida tabassum o'ynab, o'ziga bu savollarni berar ekan, ular savolmi yo aniqlashayotgan qarormi, bilolmasdi. Lekin bir narsa, shu uyga kelishi uning fikrlarini va oldingi rejalarini o'zgartib turganligi aniq edi. «Xayr!» Nega u birdan shunday dedi. Ruscha xayrlashmadi? Lekin juda shirin chiqdi: «Xayr...» Abdulla shuni o'ylar ekan, Sayyora, bu qiyiq ko'z, quvnoq qiz ko'z oldidan ketmasdi.

– O'g'lim, – dedi uyga kelganda G'afurjon aka uni chaqirib. – Tursunali akang bilan qachon uchrashasan? Borib kelsang bo'lardi.

– Uchrashdim, – dedi Abdulla dadasining yoniga o'tirib.

– Uchrashdim? – sevinib ketdi G'afurjon aka. – Qachon?

– Hozir o'sha yerdan kelyapman.

– Tushuntirdimi hammasini?

– Ha, borsangiz yaxshi bo'ladi, dedilar.

– Ana, aytmadimmi? Bu odam bizga yomon narsani ravo ko'rmaydi. Nima deding?

– Hali hech narsa deganim yo'q. O'zlari ham so'ramadilar. O'ylab keling, uyingizdagilar bilan maslahatlashing, dedilar.

– Juda yaxshi, rahmat. Shunday tanishimiz bor ekan, bilmas ekanmiz-a?! Xo'sh, nima qarorga kelding? Borasanmi?

Abdulla nima deyishini bilmay, o'ylanib qoldi. Dadasi tagidagi ko'rpacha zihini g'ijimlab birpas jim turdi-da, keyin dedi:

– Borsang yaxshi bo'lar?..

Ularning gapiga quloq solib vodoprovod tagida idish yuvib o'tirgan Shahodat opa bo'shashib

ketdi, qoʻlidagi taqsimcha shalop etib togʻoraga tushdi.

XI

Sayyora Abdullachalik hayajonga tushmagan edi. U hali maktabni tutatmasdanoq Leningradga borishini va otasi huzurida yashab, u dars berayotgan institutda oʻqishini bilardi. Onasi ham bunga rozi edi. Lekin u yolgʻiz qizining toʻrt yil olis shaharda yolgʻiz qolib ketishidan ozgina choʻchirdi. Gap shundaki, Tursunali aka bu institut bilan toʻrt yil ishlashga kelishgan, qizi birinchi kursni tamomlashi bilan u yana oʻzining eski ishiga, Toshkentga qaytishi lozim edi. U ham Sayyora-ning bironta tanishroq odam bilan birga ketishini istardi. Shuning uchun Gʻafurjon akanikidan u xursand boʻlib qaytgan edi. «Otasi yaxshi odam, oʻgʻli ham yaxshi boʻlishi kerak», oʻylardi u. Abdullani koʻrib u xotirjam boʻldi. Kamgap, ogʻir tabiatli. U Sayyoraga yaxshi oʻrtoq boʻlib qolishi mumkin. Buning ustiga yaxshi oʻqigan. Institutda ham qiziga koʻmagi tegishi turgan gap. Borsa, yaxshi boʻlardi.

Lekin u faqat qizi uchungina Abdullaning u yoqqa borishini istamasdi. Institutning kelajagi va ahamiyatini yaxshi bilgani sababli yoshligida uni qoʻllab-qoʻltiqлагan odamga jindak boʻlsa ham foydasi tegishini oʻylab, u shu taklifni qilgan edi. Qiziga yoʻldosh topish uning uchun ikkinchi darajali masala edi. Shuning uchun ham Abdulla ketishi bilan qizining: «Neujeli iz-za menya xochesh yego zastavit poyexat?» – degan savoliga:

– Yo‘q, faqat sen uchun emas, – deb javob berdi. – Faqat sen uchun emas. Kichkina emassan, bemalol yashab ketasan. Unga yaxshilik qilgim keldi. Uning otasi yaxshi odam.

– Mojet bit on ne xochet?

– Bu boshqa gap. Bormasa bormas, lekin institutning qandayligini bila turib, maslahat bermaslik yaxshi emas. Nima deding?

Sayyora yelkasini qisdi. Unga Abdulla bora-dimi-yo‘qmi, baribir edi. Uni birinchi marta ko‘rish, birinchi marta u bilan gaplashishi... Bormasa, achinmaydi. Borsa, yomon ham bo‘lmaydi. Unga Abdullaning faqat jilmayishi yoqdi. U taniydigan yigitlarning ichida hech qaysisi shunaqa jilmaymaydi. Tishlari ham yomonmas, oppoq, tekis...

Sayyora Abdullani ko‘z oldiga keltirishga harakat qildi. Lekin jilmayishi va ruschalab rahmat deganidan boshqa hech narsani eslay olmad. Ruscha yaxshi gapirmasa kerak? Bu, albatta, tushunarli, o‘zbek maktabini tamomlagan. Agar qiynalsa, Sayyora yordam berishi mumkin. Tansa tushishga ham o‘rgatadi, hozir raqs tushishni bilmaslik uyat. Ko‘pgina o‘zbek yigit-qizlari esa bilishmaydi. Nega bunday? Tansa axir yaxshi-ku!

Sayyora o‘z xonasiga kirib radiolani qo‘ydi. Mayin musiqa ohangi uyni to‘ldira boshladi. Bu Sayyoraning eng yaxshi ko‘rgan kuyi – «Dunay to‘lqinlari» edi. Sayyora bir zum tebranib uni tinglab turdi-da, keyin qachonlardir otasi sovg‘a qilgan va hali ham o‘zi bilan birga olib yotadigan katta ayiq qo‘g‘irchoqni quchoqlab, xonani aylana ketdi.

– Tansa tushasizmi? – Ertasi kuni kechqurun Abdulla kelganda uning bergan birinchi savoli shu bo‘ldi.

Abdulla qizarib ketdi.

– Oz-moz. Lekin men... men...

– Keyin, yuring. – Sayyora uni qo‘llaridan sudrab uyga olib kirib ketdi. – Hech kim yo‘q. Hammalari mehmonga ketishgan. A mne odnoy skuchno.

Sayyora shunday deb uyning o‘rtasida turgan stolni chetga torta boshladi. Lekin kuchi yetmadi va qoshlarini chimirib Abdullaga tikildi. Abdulla kutilmaganda yuz bergan bu yaqinlik va samimiylikdan o‘zini yo‘qotib qo‘ygan edi. Shuning uchun qizning nima demoqchi ekanligiga darhol tushunmay jilmaydi.

– Pomogite-je! – dedi Sayyora.

– Kechirasiz...

Abdulla otilib stolga yopishdi. Sayyora plastinka qo‘ydi-da, uning yoniga keldi.

– Tango.

Abdulla buni yaxshi bilardi. Lekin shunday bo‘lsa ham, u bilan raqs tushishga cho‘chirdi. Butun qiyofasi, o‘zini erkin tutishi, erkin gaplashishi bilan Sayyora shu paytgacha Abdulla ko‘rgan, bilgan qizlarga o‘xshamasdi. Buning ustiga hali salomlashmasdan begona yigitni raqsga taklif qilishi uning ancha bilag‘on, raqsga ustaligini ko‘rsatib turardi. Abdulla tortinib uning belidan ushladi va birinchi qadam qo‘yishi bilan Sayyora yigit quchog‘ida suzib ketdi.

– Usta ekansiz, – dedi Abdulla hayrat bilan.

– Bu juda oson. Siz ham yaxshisiz, – dedi Sayyora salmoqlab.

Uning o‘zbekcha javob berishi Abdullani hayajonga soldi.

– Yaxshi gapirar ekansiz-ku!

– Esimga solishmasa, – dedi Sayyora unga boshini ko'tarib qarar ekan. – Papam kuladilar. Shunga ular bilan gaplashgim kelmaydi.

– Oyingiz bilan yaxshi gaplashasizmi?

– Oyim bilan, qo'shnilar bilan.

– Ko'proq mashq qilsangiz, bundan ham yaxshi gapiradigan bo'lib ketasiz.

– To'g'ri, lekin o'rtoqlarim hammasi ruscha gapirishadi. Siz-chi, siz ruschani yaxshi bilasizmi?

– Yo'q, deyarli bilmayman.

– Agar men bilan birga borsangiz, sizni ruschaga o'rgataman. Borasizmi?

– Boraman. Dadangizga shuni aytgani keluvdim.

– U yerda yaxshi bo'ladi.

Sayyora bu gapni shunday xotirjamlik bilan aytdiki, Abdulla uning xursand bo'lgan-bo'lmaganligini bilolmadi, negadir avji pasayib ketdi. Hatto bir-ikki adashib, uning oyog'ini bosib oldi.

– Kechirasiz, – dedi qizarib.

– Nichego, – dedi Sayyora. – O'zbek maktablari tansani kam o'rgatishadi. Nega, bilmayman.

– Ha, – Abdulla bu qizning oldida shuncha bilgani uch pul ekaniga tushundi va shu paytgacha o'zicha faxrlanib yurganidan uyalib ketdi.

– Lekin siz yaxshisiz.

– Qayoqda? Bilsam, oyog'ingizni bosib olarmidim? Og'riyaptimi?

– Yo'q, bosilib qoldi. Fokstrotni bilasizmi?

– Yo'q, eshitganman.

– Moskvada nuqul fokstrot tushishadi. Menda bitta plastinka bor. Qo'yaymi?

Abdulla mayli degandek boshini qimirlatdi. Sayyora, uning quchog'idan chiqib, radiolani

to'xtatdi va stol ortiga o'tdi-da, betartib yotgan plastinkalarni tita boshladi.

– Qayoqda edi?

Abdulla eshikka suyanib unga tikilib qoldi. Shubhasiz, Sayyora uni qiziqtirib qo'yan edi. Uning nozikligi, shu bilan birga epchil harakatlari, ochiqligi, xuddi otasidek xushmuomalaligi uni Abdulla bilan boshqa qizlardan ajratib, har tomonlama ulardan yuqoriligini ko'rsatib turardi. Faqat Gulchehra bu solishtirmadan mustasno, butunlay boshqacha qiz. U hech kimga o'xshamaydi. Albatta, u Sayyoraga o'xshagan ochiq emas, valsni yaxshi bilmaydi. Shunga qaramay, Gulchehra boshqa olam. Qanday yaxshi u bilan tanishgani! Ketgunicha albatta u bilan uchrashadi. Mingbuloqqa boradi. Tushuntiradi, o'sha yoqda o'qisa yomonmi? Innaykeyin, ikkalovi ham institutni bitirishlari kerak. Ungacha hech qanday jiddiy o'zgarish bo'lishi mumkin emas. Buning ustiga Gulchehra bir yildan keyin keladimi Toshkentga, kelmaydimi, noma'lum. Gulchehraning o'zi ham buni bilmaydi. Kelmaganda ham Abdulla u bilan aloqasini uzmasdi. Shunday ekan, ikkaloviga ham baribir. Lekin ta'til paytida ular albat-ta uchrashib turishadi. Sayyora unga kim bo'lib-di? U yaxshi bir odam. O'zi bilan birga ketyapti. Birga o'qishadi. Tamom, boshqa hech narsa yo'q oralarida. Bo'lishi ham mumkin emas. Birinchidan, u Gulchehrani yaxshi ko'radi. Ikkinchidan, Sayyoraning yigiti bo'lishi mumkin. Bo'lmaganda ham unga Abdulla yoqmaydi. Yoqsa, uning bori-sh-bormasligiga shunday farqsiz qararmidi?

– Mana! – dedi Sayyora nihoyat bitta plastinkani ko'tarib.

Abdullaning xayoli bo'lindi.

– Juda yaxshi fokstrot. Eshiting.

Sayyora plastinkani qo'yib, xonaning o'rtasiga keldi. Yengil, sho'x kuy yangray boshladi.

– Yaxshimi?

Abdulla hamon joyidan qo'zg'almay turardi.

– Keling, tushamiz.

– Yo'q, – dedi jilmayib Abdulla. – Bilmayman.

– Valsdan oson bu. Qarang.

Sayyora shunday deb, qo'llarini ikki yoniga ko'tardi va musiqa ohangiga mos harakat qila boshladi. Uning kichkina oyoqlari juda yengil ko'char, ingichka beli yupqa shohi koftasi tagida chiroyli silkinardi. Abdulla qandaydir kechada fokstrot tushishganini ko'rgan edi. Lekin o'shanda bu raqs unga yoqmagan edi. Hozir esa u Sayyoraning epchil, yengil harakatlarini kuza-tar ekan, fokstrotning ham juda yaxshi kuyligiga ishondi va eshik tagiga stul qo'yib o'tirdi-da, beix-tiyor qarsak chala boshladi. Sayyora plastinka jim bo'lganda to'xtadi va og'zini to'ldirib uh tortdi.

– Charchadim.

Keyin u vals qo'ydi. Yana ikkalovi bir-birini quchoqlab aylana ketishdi. Valsdan keyin tango, yana vals, fokstrot... Abdulla o'zida yo'q xursand edi. Unga bu uydagi hamma narsa va hamma ma'qul tushgan, shu oila bilan, Sayyora bilan tanishib qolganidan mamnun edi.

– Meni yengiltak deb o'ylamayapsizmi? – so'ra-di bir mahal Sayyora yangi bir vals tugay deb qol-ganda.

– Yo'q, mutlaqo, – dedi Abdulla hozirjavoblik bi-lan. – Siz bilan tanishganimdan juda xursandman.

– Men ham. Tansani yaxshi ko‘raman. Biron ish qilayotganimda ham radioni qo‘yib qo‘yaman. – Sayyora Abdullaga qarab jilmaydi. – Bir vaqti men konservatoriyaga ham kirmoqchi bo‘lgan edim. Keyin aynadim. Fizika meni ko‘proq qiziqtiradi.

– Sirtidan o‘qisangiz-chi?

– Tiss! – dedi Sayyora barmog‘ini labiga qo‘yib. – Boshlandi.

Ular jim bo‘lib qolishdi. Tito Gobbi kuylardi. Abdulla tushunmasa ham, xuddi Sayyoradek berilib quloq soldi. Ariya tamom bo‘lganda esa, uning xayol surib ketganini ko‘rdi. Nimalarni o‘ylayotganini so‘ramoqchi bo‘lib, og‘iz juftlaganda, Sayyoraning o‘zi unga murojaat qildi:

– Yoqdimi?

– Ha.

– Juda yaxshi ariya bu. Keyin, bu ariyani hech kim Tito Gobbidek aytolgan emas. Bizda esa bunaqa ovoz yo‘q, bunaqa opera ham yo‘q. – Sayyora xo‘rsindi.

– Achinyapsizmi?

– Siz achinmaysizmi? Katta-katta olimlarimiz bor, vrachlarimiz bor. Yaxshi ashulachilarimiz yo‘q. Bitta Halima opa. Boshqa kim bor?

Abdulla javob bermadi, lekin u havas bilan Sayyoraga tikilib qolgan edi. Kecha uni yengiltak qiz bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan edi. Juda serfikir, aqlli qiz ekan u. Abdulla shunday o‘yladi-yu, beixtiyor o‘zini va o‘zi bilgan odamlarni u bilan solishtirdi. Bu solishtirish Sayyorani yanada balandga ko‘tarib yubordi. «Biz hech narsa bilmaymiz. Men-chi, men esa, darslikdan boshqa

hech narsani bilmayman», – alam bilan xayolidan o'tkazdi u va:

– «Gulsara»-chi? – dedi biron narsa deyish uchun, – menimcha, «Gulsara» yaxshi opera.

– Bitta shu-da. Bizda boshqa opera yo'q.

Abdulla jilmaydi. Sayyoraning gapiga emas, fikri to'g'ri chiqqaniga va qizning unga qo'shilganiga mamnun bo'lib jilmaydi. Buni Sayyora o'zi-cha tushunib, gapida davom etdi:

– Rost-da. «Gulsara»dan keyin hech narsa paydo bo'lmadi. Yangi ovoz ham kelmadi. Ba'zan odam uyalib ketadi... keyin...

«Qiziq, nimalarni o'qir ekan?» – o'ylardi shu topda Abdulla undan ko'z uzmay. «Agar adabiyotdan gap ochilib qolsa, unda nima bo'ladi? Axir men juda kam narsa o'qiganman-ku!»

– Sayyora, kutubxonangiz bormi? – so'radi u to'satdan uning gapini bo'lib.

– Bor. Nima edi?

– Ko'rsam bo'ladimi?

– Mayli.

Sayyora uni qo'shni xonaga olib kirdi. Devorlarning hammasi kitob javonlari edi. Abdulla angrayib qoldi.

– Katta ekan...

– Ko'pi ilmiy kitoblar. Badiiy asarlar kam. Faqat yaxshi ko'radiganlarim.

Abdulla bu gapni eshitib, badiiy kitoblar javoni yoniga bordi. «Ko'p o'qir ekan, – xayolidan o'tdi uning. – O'qisang, shunday o'qisang-da!». U chiroyli qilib terilgan kitoblarni birma-bir ko'zdan kechira boshladi: Tolstoy, Dostoyevskiy, Push-

kin, Zolya, Merime... Yana qanchadan-qancha u eshitmagan, bilmagan nomlar.

– Shularning hammasini o‘qiganmisiz? – so‘radi u jo‘rttaga o‘zini beparvoroq tutib.

– Ha, hozir Xemingueyni o‘qiyapman. O‘qiganmisiz?

– Oz-moz, – dedi Abdulla va gapini burdi:

– Ba’zi kitoblarni olib tursam, maylimi?

– Mayli, lekin...

Shu payt qo‘ng‘iroq chalindi.

– Kelishdi, – dedi Sayyora va yugurib tashqariga chiqib ketdi.

«Yo‘q, men ham shularni o‘qishim kerak. Nega u o‘qiydi-yu, men o‘qimayman? – o‘yladi Abdulla.

– U nima bilsa, men ham shuni bilishim kerak. Hatto undan ko‘p bilishim kerak».

– Papa! – eshitildi uning qulog‘iga Sayyoraning ovozi. – On zdes!

– Kim?

– Abdulla. On poyedet.

– Juda yaxshi, – dedi Tursunali aka.

– Choy qo‘ydingmi? – dedi ayol kishi. «Oyisi bo‘lsa kerak?» – o‘yladi Abdulla.

– Oy! Zabila!

– Esing qursin. Senga tansa bo‘lsa. Darrov qo‘yib yubor!

Abdulla dahlizga chiqdi.

– Assalomu alaykum.

– O, salom, Abdulla, salom. Keldingizmi? – Tursunali aka Abdulla bilan ko‘rishib, xotiniga o‘girildi. – Shu yigit-da, G‘afurjon akamning o‘g‘li, Sanobar.

– Yaxshimisiz, ukam? Boradigan bo'ldingizmi ishqilib?

– Ha, uydagilar ham shunday deyishdi.

– Juda yaxshi bo'libdi-da. Sayyora tushmagur sizni och olib o'tiribdi-da!

– Qornim to'q. – Abdulla jilmaydi. – Endi ketmoqchi bo'lib turuvdim.

– Qayoqqa ketasiz? – dedi Tursunali aka. – Endi biz bilan birpas o'tirasiz. Yo xavotir olishadimi?

– Yo'q, – dedi Abdulla, – aytib kelganman.

– Bo'lmasam, bo'пти. Qani, ichkariga kiring.

O'sha kuni Abdulla allamahalda qaytdi. Ular ancha vaqt gaplashib o'tirishdi. Abdulla kechagidek tortinmadi. Tursunali akalar uyidagi ochiqlik, samimiylik, hazil-mutoyiba gaplar, bir-biriga bo'lgan sodda munosabat uni o'ziga tortib olgan va u o'zini mehmon emas, shu oilaning yaqin bir kishisidek his qila boshlagan edi. Gap orasida Tursunali aka uning shahodatnomasini oldi, institutga ariza yozdirdi. Abdulla bir oydan keyin – yigirmanchi avgustlarda jo'naydi. U esa vaqtli ketadi, o'n kundan so'ng Tursunali aka institutda bo'lishi kerak. Sayyora ham ketadi u bilan birga.

– Tag'in aynab qolmaysizmi? – so'radi ko'chaga chiqishganda Sayyora.

– Yo'g'-e, – dedi kulib Abdulla. – Aynab endi qayoqqa borardim. Attestatim dadangizda!..

Sayyora ham kuldi va qo'lini uzatayotib, dedi:

– Ertaga kelasizmi?

– Kelaymi?

– Kelsangiz, kinoga borardik. Yangi film ketyapti.

– Nima ekan?

– «Lyubimiye napitki». Djinni Lolobridjida o'ynaydi.

– E!.. – dedi Abdulla. – Bo‘pti.

U shod edi, jimjit ko‘chadan uyiga qaytar ekan, bir nimalarnidir xirgoyi qilar, Toshkentni so‘nggi marta ko‘rayotgandek, hamma narsaga suq bilan qarardi. Hamma narsa unga go‘zal, hamma narsa – mashinalarning seryog‘du chiroqlari, derazalardagi xilma-xil pardalar, hatto oydan o‘n ikki qarichcha narida charaqlab turgan uning yulduzi ham kulib boqayotgandek, unga oq yo‘l tilayotgandek edi. Faqat Gulchehraning yulduzi ko‘rinmasdi. U qayerda edi? Abdullani bir daqiqa tashvish bosdi, lekin Gulchehraga hali yulduz topolmaganini eslab, ko‘ngli yorishdi. Qaysi birini tanlasam ekan? U yana osmonga tikildi. Miltillab turgan yulduzlarning hammasi juda olisda va juda kichkina edi. Qancha tikilmasin, bironta ma‘qulini topolmadi.

Uyga kelib esa kayfi buzildi. Eshik tagidagi boloxonadagi beshikka ko‘zi tushib qoldi. Beshik ham, boloxona ham unga shu topda juda yomon ko‘rinib ketdi. Uylari muncha eski? Nega hech narsa yo‘q. Mabodo Sayyora kelib qolsa, nima qiladi? Kutubxona haqida gap-so‘z bo‘lishi mumkin emas. Bor kitoblari tokchada yotibdi. Shuni esladi-yu, o‘zi bilan Sayyora o‘rtasidagi farqning nihoyatda kattaligini sezdi. Buning ustiga u ko‘p narsalarni biladi. Lolobridjida, Gobbi, Xeminguey... Abdullaning unga yetib olishiga ancha bor. Lekin yetib olishi kerak. Yetib oladi ham! Ko‘p o‘qiydi. Institutni bitirib esa, birinchi qiladigan ishi uyini tuzatadi yo yangi uy soladi. Bir xonani alohida kutubxona qiladi, bir xona, katta xona – zal, alohida oshxona... Ha, shunday qiladi.

Abdulla shu xayollar bilan bo'lib Gulcheh-
ning yulduzini unutdi. Ovqatini ham yemay yot-
di. Unga uydagi hamma narsa – u yer-bu yeri
chakka o'tib yorilgan faner shift ham, tokchada
turgan eski sariq samovar ham, xuddi boloxo-
nadagi beshigi singari, yomon ko'rinib qolgan edi.

Ertasiga Sayyora bilan u yana uchrashdi. In-
diniga ham. Kinoga borishdi. Xullas, o'n kun ko'z
ochib yumguncha o'tib ketdi. Ketishidan bir kun
oldin Tursunali aka ularnikiga keldi.

– Abdullajon endi bizniki, – dedi hazillashib
G'afurjon akaga.

– Jon-dilim bilan berdim, eskicha aytganda:
suyagi bizniki, eti sizniki.

Ikkalovi kulishdi. Abdulla ham ularga qo'shildi.

– Tursunali, uka, rahmat, – dedi shunda
G'afurjon aka ko'ziga yosh olib. – Juda min-
natdorman sizdan. Bor umidimiz shu o'g'ildan.
Qariganimizda qorong'i uyimizga chiroq bo'lsin,
deymiz. Ishqilib, sizning ko'magingizda odam
bo'lib kelsa, boshimiz osmonda... Yolg'iz tashlab
qo'ymasangiz, bo'ldi.

– Yo'q, to joylashib, u yerda oq-qorani tanish-
guncha, birga bo'laman. Keyin o'zlari nima qi-
lishni bilib qolishadi. Borib xabar olib turaman,
– dedi Tursunali aka. – Ko'ngilni xotirjam qiling.

– Rahmat, uka, rahmat.

Ertasiga ular jo'nashdi. Abdulla aeroportga
kuzatgani chiqdi.

– Vaxliroq boring, – dedi Sayyora. – Shaharni
ko'rsataman. «Raketa»da sayohat qilamiz.

Abdulla «xo'p» deya bosh irg'adi. Samolyot
shahar ustida bir aylanib, bulut ichiga sho'ng'i-

ganda, Abdullaning yuragini nimadir timdalab ketgandek bo'ldi. Lekin nimaligini u tushunmadi.

XII

Uyga qaytib kelganda, supada G'afurjon aka bilan Shahodat opa xomush o'tirishardi. Abdulla ularning yoniga kelib, supaning zihiga omonatgina o'tirdi va tinchlikmi, deganday ayasiga tikildi.

– Kuzatib keldingmi? – so'radi Shahodat opa.

– Ha.

– Saodat opang qazo qilibdi.

– Kim? – hayron bo'lib so'radi Abdulla.

– Saodat opang, tog'angning qo'shnisi, – tushuntirdi Shahodat opa.

– Iye, Gulchehraning ayasimi? – bo'shashib so'radi Abdulla.

– Ha. Bechora juda yosh ketdi... Qirqqa boruvdimi?

– Bilmadim, – dedi G'afurjon aka. – Har holda, shunga yaqin. Nima qilmoqchisan?

– Qaydam, – dedi Shahodat xola. – Telegramma berib yuboramizmi?

– Bo'lmagan gapni gapirma! – jerkib berdi G'afurjon aka. – Odam o'lsa-yu, sen telegramma bersang! Borib kel.

– Sizni tashlab-a?

– Menga nima qilibdi? Otdekman. Bir kun ming kun emas. Abdullani ol-da, kechqurungi poyezdda jo'na.

Shahodat opa o'ylanib qoldi.

– Bo'ldi, bo'ldi! Gap shu. Tur, hozirligingni ko'r.

Shahodat opa: «O'lim qursin-a, o'lim», – deb o'rnidan turdi. Abdulla karaxt bo'lib qolgan edi.

Uni Saodat opaning o'limi emas, boshqa narsa o'ylatib qo'ygani edi. Gulchehra bilan xayrlashayotganda ikkalovi bir-biriga xat yozishga va'dalashishgan, xat pochtaga kelib turishi kerak edi. U hozir shu va'dasining ustidan chiqmaganidan mulzam bo'lib o'tirardi. Gulchehra yozganmikin? Nega shu paytgacha esiga kelmadi? Abdulla shoshib o'rnidan turdi-da, ko'chaga otildi.

– Qayoqqa? – so'radi orqasidan G'afurjon aka.
– Olib ketib qolma.

– Hozir kelaman.

Haytovur pochta hali ochiq edi. Abdulla darcha oldida o'tirgan yosh bir qizga murojaat qildi:

– Menga Qo'qondan xat kelishi kerak edi...

– Pasportsiz bermaymiz, – dedi qiz.

– Iltimos, juda zarur xat edi. Hozir o'zim Qo'qonga ketaman.

– O'zingiz borar ekansiz, xatni nima qilasiz?

– To'satdan boradigan bo'lib qoldim. Bormi o'zi xat?

Qiz bir dasta xatni erinchoqlik bilan titkilay boshladi. Keyin bir xatni olib, uzoq tikildi-da, so'radi:

– Xat kimdan kelishi kerak edi?

– Saidova, Saidova Gulchehradan, – shoshib javob berdi Abdulla. – Bormi?

– Bor, kimingiz bo'ladi bu odam?

– Tanishim. Yaxshi tanishim.

– Hm... – dedi qiz. – Bilamiz qanaqa tanishligini. Yuradigan qizim deng, qo'ying.

Abdulla uyalib ketdi, ayni vaqtda jahli chiqdi.

– Buning nima ahamiyati bor?

– Sizga ahamiyati bo'lmasa ham, bizga ahamiyati bor, – dedi qiz qo'pollik bilan. – Arzimagan

oshiq-ma'shuqning xati deb butun pochta ovora bo'ladi. Oling.

Abdulla peshtaxtaga qiz uloqtirgan xatni olib, o'sha zahotiyoy ochdi. «Salom Abdulla, – deyilgan edi xatda. – Ketganingizga ikki kun bo'lmay, xat yozyapman. Ovora qilganim uchun kechiring. Yozgim keldi. Ayamlar og'irlashib qoldilar. Dadam olib kelgan doktor hech narsa qilolmadi... Tuza-lishlariga ishonch yo'q, dedi. U ketgandan keyin kun bo'yi yig'ladim. Kechqurun esa ayamlarning oldilarida dadamlarni qoldirib, ko'chaga chiqdim. Qayoqqa borishimni, nima qilishimni bilmay, bu-loq boshiga borib qolibman. Esingizdami, shu yerda biz birga o'tirgan va kelajak haqida orzu qilgan edik. Ahvolingiz qalay? Sizsiz nazarimda qishloq huvillab qoldi. Agar imkoni bo'lsa, o'qish boshlangunga qadar bir kelib ketsangiz. Ajab emas, ungacha ayamlar tuzalib qolsalar. Sizni sog'inib kutuvchi Gulchehra».

Xat tagiga qiyshiq bir jumla qo'shib qo'yilgan edi, Abdulla zo'rg'a o'qidi: «Kechiring, o'choq boshida yozdim. Xatolari ko'p».

Abdulla juda g'alati bo'lib ketdi. Qanday qilib esidan chiqardi?! Axir va'dalashgan edi-ku! Bechora qiz. Hozir nima qilayotgan ekan? Endi nima bo'ladi? Shu xayol bilan u kunni kech qildi. Oqshomda esa kechki poyezd bilan Shahodat opa ikkovi Qo'qonga jo'nashdi. Ular tongda Mingbuloqqa kirib kelishdi. Saodat opani endi chiqarmoqchi bo'lib turishgan ekan.

– Mozorboshiga borgan, – dedi Shahodat opa.

Abdulla uyda yolg'iz o'tirgan kelinoyisi bilan omonatgina so'rashib, ko'chaga chiqdi. Qishloq

xuddi joyidan ko'chgandek to'polon, Gulchehralarning uyiga esa, odam ko'pligidan kirib bo'lmasdi. Hamma yoqni ayollarning yig'isi, oh-dodi tutib ketgan edi. Ba'zi-ba'zida ichkaridan erkak kishining: «Onajonim, onajonim Saodat! Nima qilib qo'yding, Saodat», degan ovozi eshtilib qolardi. «Yusuf aka bo'lsa kerak», o'yladi Abdulla va beixtiyor o'pkasi to'lib ketdi, ko'zlari yoshlandi. Darvozaning ikki tomonida tizilib turgan erkaklarning orqasidan o'tib, pastak devor yoniga keldi-da, hovliga qaradi. Besh-olti mo'ysafid hovlining o'rtasida tobut yasatishardi. U yoqdan bu yoqqa bellarini bog'lab yugurib yurgan ayollar tobutga ko'zlari tushishi bilan piqillab yig'lashar, keyin uvvos solib, o'lik yotgan xonaga otilardilar. Shunday devor tagida yana Yusuf akaning yig'isi eshitildi:

– Saodatim, onajonim! Meni kimga tashlab ketding?! Saodat!

– Bo'ldi endi. O'zingni tut, – dedi kimdir.

Abdulla ovozidan tog'asi ekanligini bildi.

– Yig'laganing bilan qaytib kelmaydi.

Yusuf aka yig'i aralash xo'rsinib, jim bo'ldi. Lekin ko'p o'tmay, yana o'zini tutolmasdan yig'lab yubordi. Abdulla darvoza yoniga kelib, qo'l qovushtirib turgan Samadning yonida to'xtadi. Ular so'zsiz, bosh tebratib ko'rishdilar. Bir mahal «Omin!» dedi ichkarida dag'al bir ovoz.

– Olib chiqishyapti! – shivirladi Samad.

Abdulla ichkariga qaradi. Hovlini to'ldirib turgan odamlar ustida qizil duxoba paranji yopilgan tobut bir-ikki tebranib, eshik tomon suza boshladi.

– Voy-dod! Ayajon!!! – qichqirdi kimdir. – Meni tashlab ketmang, ayajon!!!

Bu Gulchehra edi. Abdulla uning ovozini eshitishi bilan titrab ketdi va yopirilib kelayotgan odamlar orasidan mo'ralab, Gulchehrani qidira boshladi. Ammo uni ko'rolmadi. Odamlar to'liqini uni surib ketdi. O'zini o'nglab olib, xuddi yelkandek serto'liqin daryoda suzib ketayotgan tobut ketidan yugurdi.

Qabriston Mingbuloqdan ancha narida edi. Unga yetib borguncha odamlarning hammasi terlab suv bo'lib ketdi. Tobut yerga qo'yilganda yengil shabada turdi. Quyoshning tafti bosilgandek bo'ldi. Abdulla dimog'iga urilayotgan chuchmal o't-o'lan hidini simirib, atrofga qaradi. Qabriston hali hosili terilmagan bog'ni eslatardi.

«Qiziq, – o'yladi u mevalarini ko'tarolmay, shoxlari egilib turgan olmalarga qarab. – Hech odam o'lganga o'xshamaydi...» Chindan ham agar qiyiq bog'lagan yigitlar, salla-choponli sokin chollar bo'lmasa, bu bog'dan farq qilmaydigan qabristonga o'lik kelganiga ishonib bo'lmasdi. Tobutdan jasadni ola boshlashganda esa, qabristonni yig'i tutib ketdi. Yana Gulchehraning ovozi eshitildi:

– Ayajon! Ayajonginam! Bizni tashlab ketmang, ayajon!

Abdulla chiday olmadi. Yuzini o'girdi-da, chet-roqqa borib cho'kkaladi. Uyga qaytishganda u qancha harakat qilmasin, Gulchehrani xoli uchrata olmadi. Bir-ikki marta ko'rdi. Bechora qiz yig'layverib qovoqlari shishib, ko'zlari qizarib ketibdi. Eg-nida qora shohi atlas, boshida qora durra...

Kechga yaqin Abdulla ko'chada o'tirgan has-sakashlarga choy olib kelmoqchi bo'lib tashqari hovliga kirganda, unga to'qnash kelib qoldi.

– Gulchehra?.. – dedi u sekin.

Gulchehra boshini ko'tardi. Bir muddat uning alamli ko'zlarida sevinch barq urgandek bo'ldi, lekin darrov so'ndi. «Ko'ryapsizmi?» degandek boshini og'ir tebratib o'tib ketdi. Abdulla shu paytgacha bunchalik ezilib, o'zini oldirgan, butun qiyofasini cheksiz alam va dard qoplab olgan odamni ko'rmagan edi. Choy eltish ham xayolidan ko'tarilib, ko'cha tomon bitta-bitta yurib ketdi. Gulchehra bilan birinchi uchrashgan joyi – jo'xorizorga bordi. Ammo jo'xori endi yo'q edi. Ildizlari qovjiragan poyalar qoziqdek qaqqayib turardi. Birpas shularga termilib orqasiga qaytdi.

Qorong'i tushdi, olisdan podachi bolaning «qurey-qurey»si eshitildi. Allaqayerda it bir-ikki vovilladi-da, jim bo'ldi. Qishloqda yana tungi osuda hayot boshlandi. Lekin o'sha kuni bu hayot, ilgari quvontirgan, shirin xayollarga cho'mdirgan sehrli qishloq tuni Abdullani cho'chitdi. Uning ko'z oldida qovoqlari shishgan, so'lg'in Gulchehra, qizil paranji yopilgan tobut qalqib turardi. «Endi nima bo'ladi? Gulchehra endi nima qiladi?» – o'ylardi u nuqul, lekin o'ylariga javob topolmasdi. U chin ko'ngildan Gulchehraning Toshkentga borishini istardi. Bu yerda nima qiladi? Endi unga bu yerda nima bor? Ketgani yaxshi. U ham birga ketsa-chi? Qanday yaxshi bo'lardi agar shunday bo'lsa! Birga o'qishardi, yana birga bo'lishardi. Boshqa institutga kirishi ham mumkin yadro-fizikani istamasa. Buning mutlaqo ahamiyati yo'q. Bir shaharda bo'lishadi, shuning o'zi kifoya. Lekin keta olarmikin?

Abdulla shu xayollar bilan qishloq chekklarini ancha aylandi. To'g'on boshiga yetganda orqasiga o'girilib, qishloqqa qaradi. Faqat bitta

joyda uch-to'rtta chiroq miltillab ko'rindi. Boshqa hamma uylar qorong'i, hamma uyquga ketgan. «Gulchehra hali uyg'oq, – o'yladi achinib Abdulla. – Mizg'ib olsa bo'lardi. Nima qilayotgan ekan hozir? Qayerda o'tirgan ekan?»

Abdulla xo'rsinib, sement zinaga o'tirdi. Shu topda Gulchehrani juda ham ko'rgisi kelib ketdi. Agar ko'rganda bisotidagi bor yaxshi gaplarni aytib yupatardi. Xafa bo'lmang, derdi. O'lim hammaning boshida bor. Albatta, ayangiz yosh ketdilar. Ular hali ko'p yashashlari mumkin edi. To'yingizga... to'yimizga bosh bo'lib turishlari mumkin edi. Lekin nachora? O'lim o'limligini qiladi. Yig'lamang, yig'i endi foydasiz. O'zingizni battar qiynab nima qilasiz?..

Qishloq tomondan kimningdir sharpasi ko'rindi. Abdulla yuragi gupillab o'rnidan turdi. Nahotki Gulchehra bo'lsa?

– Gulchehra!.. – chaqirdi u sharpa yaqinlashganda. – Gulchehra, sizmisiz?

– Men, – dedi xira ovoz. – Men...

Abdulla yugurib uning oldiga bordi.

– Gulchehra...

U gapini yo'qotib qo'ydi. Nima deyishini, nima qilishini bilmay, Gulchehraning yelkalaridan ushladi. Gulchehra boshini uning ko'kragiga qo'yib, o'zini tutolmay, yig'lab yubordi. Uning butun vujudi titrardi.

– Qo'ying, Gulchehra, qo'ying...

Ammo Gulchehra uni eshitmasdi, ho'ngrab yig'lardi. Anchadan so'ng u boshini ko'tardi.

– Yig'lamang, qo'ying, – dedi Abdulla va qo'llari bilan yuzlaridagi, ko'zlaridagi yoshini sidira boshladi. – Yig'lamang...

Gulchehra entikib-entikib o'zini zo'rg'a tutib oldi.

– Mana, – dedi u. Uning ovozi bo'g'ilib qolgan edi...

– Ayamdan ham ajralib qoldim... Yolg'iz qoldim.

– Qo'ying, xafa bo'lmang...

– Xafa bo'lmay bo'ladimi... Meni juda yaxshi ko'rardilar...

Gulchehra yana titrab, ko'zlarida yosh yiltiray boshladi.

– Qo'ying, Gulchehra...

Abdulla uning peshanasini, sochlarini silay boshladi.

– Men ham yaxshi ko'rardim. Yolg'iz tashlab ketgim kelmasdi. Endi o'zim yolg'izman, ukam yolg'iz, dadam yolg'iz... Endi men butunlay shu yerda qolib ketdim. Endi uchrasholmaymiz...

– Hechqisi yo'q, – dedi Abdulla, – hechqisi yo'q. Xat yozishib turamiz, kelib turaman.

U shunday dedi-yu, o'qish haqida gapirish noo'rinligini, hozir ketayotganligini aytsa, uni juda xafa qilib qo'yishi mumkinligini tushundi.

– Tez-tez kelib turaman. Maylimi?

U Gulchehraning boshini ko'tarib, o'ziga qaratdi.

– Hm... – dedi sekin Gulchehra.

– Yig'lamang endi, xo'pmi?

Gulchehra bosh silkidi. «Shunday qizni yaxshi ko'rmay bo'ladimi? – o'ylardi u ichida. – Hech mahal uni yolg'iz qoldirmayman. Kelaman, albatta kelaman».

XIII

Uning o'qishdan yozgan birinchi xati ham shu mazmunda bo'ldi. «Hurmatli Gulchehra,

– deb yozdi u. – Bu xatni olib hayron bo'larsiz. Bu, albatta tabiiy. So'nggi uchrashuvimizda sizga ko'p narsani aytmoqchi edim. Afsuski, bunga imkoniyat bo'lmadi. Sizning boshingizga tushgan kulfat siz qatori meni ham qattiq qayg'uga solgan va aytmoqchi bo'lgan gaplarim ichimda qolib ketgan edi. Gaplarim esa o'shanda juda ko'p edi. Siz bilan bir qancha masalalar ustida maslahatlashmoqchi edim. Lekin sizni ko'rib, hech narsa deylmadim. Tashvishingiz boshingizdan oshib yotuvdi. Endi esa, oradan ikki oy o'tganda shu xatni yozib, o'shanda aytmoqchi bo'lgan gaplarimni qisman bo'lsa ham sizga yetkazmoqchiman. Esingizdami, Gulchehra, olmazorda meni kuzatayotganingizda, bir yildan so'ng Toshkentga borishim mumkin, dedingiz. Men juda sevindim. Bir yildan so'ng birga bo'lishimizdan, birga o'qishimizdan boshim osmonga yetdi. Ammo uyga qaytganimda g'alati xabarning ustidan chiqdim. Dadamlarning yaxshi bir tanishlari – matematika fanlari doktori – biznikiga kelib, Leningradda yangi institut tashkil etilganini va agar rozi bo'lsam o'sha yerda o'qishim mumkinligini aytibdi. Men, albatta, rozi bo'lmadim. Siz Toshkentda bo'lsangiz-u, men u yoqqa ketamanmi? Keyin, o'zimcha o'ylab qoldim. Bir yildan so'ng birga bo'lsak, qayerda bo'lishimizning nima farqi bor? Shu fikr miyamga kelib, juda xursand bo'lib ketdim. Shunday bo'lsa ham siz bilan maslahatlashmoqchi bo'lib, Mingbuloqqa borishga otlanib turganimda tog'amlardan shum xabar kelib qoldi. Juda xafa bo'lib ketdim. O'sha kuniyoq ayam bilan yo'lga chiqdim. Lekin Mingbuloqda sizni ko'rib, hech

narsa aytolmadim. O'shanda yuragingizga hech narsa sig'masdi. Gulchehra, jonim, o'shanda sizga juda achindim. Rangingizda rang qolmagan, ko'zlaringiz shishib ketgan edi. Men sizni hech mahal shu ahvolda ko'rishni istamayman. Sizga yig'i yarashmaydi, siz doim xursand bo'lib yurishingiz kerak. Shunday bo'ladi ham... Bilmadim, hozir qanday ekansiz? Tinchiganmikinsiz bir oz? Ishqilib, tinchigan bo'ling. Bilasizmi, o'lim har bir kishining boshida bor. Buning ustiga ayangizning ahvoli og'irligini o'zingiz ham bilardingiz. Qo'ying, Gulchehra, endi ko'p qayg'urmang. O'zingizga azob berganingiz bilan ayangiz qaytib kelmaydilar. Men shu gaplarni to'g'on boshiga kelganingizda aytib, iloji boricha, sizni tinchitmoqchi edim. Lekin o'shanda sizdagi qayg'u menga ham o'tdi. Og'iz ocholmay qoldim. Gulchehra, o'shanda siz: – Mana, endi yolg'iz qoldim. Endi hech kimim yo'q, – dedingiz. Yo'q, unday emas. Siz yolg'iz emassiz. Men borman. Agar meni jindek bo'lsa ham yaxshi ko'rsangiz, gapimga ishoning. Men doim siz bilan birga bo'laman, sizni hech qachon yolg'iz tashlab ketmayman. Mana, bir yarim oydan beri sizdan uzoqda o'qiyapman. Yadrofizika instituti eng katta institutlardan ekan. Shu yoqqa kelib xato qilmabman. O'qishlarim yaxshi. Yotoqxonamiz shunday Neva daryosining yonida. To'rt kishi turamiz. Lekin, bilasizmi, xayolim nuqul sizda. Qachon bir yil o'tar ekan, qachon uchrashar ekanmiz? Doim shuni o'ylayman. Gulchehra, siz albatta o'z fikringizdan qaytmagan bo'lsangiz kerak? Men shuni juda istardim. Qayerda bo'lishimning sizga ahamiyati yo'q. To'g'ri

emasmi? Biz tez-tez xat yozishib turamiz. Ta'til paytlari ham albatta Mingbuloqqa boraman. Har yili boraman. Ana ko'rdingizmi? Toshkentda qolganimda ham shunday bo'lar edi. Lekin sizga aytmasdan ketib qolganim uchun o'zimni aybdor hisoblayman. Shuning uchun o'tinib so'rayman, meni kechiring, Gulchehra. Sizni ishontirib aytaman: qayerda bo'lmay, doim sizni o'ylayman. Sizni ko'rgim, siz bilan gaplashgim keladi. Sizchi? Siz ham shundaymi? Qani endi shunday bo'lsa?! Men o'zimni juda baxtiyor his qilardim. Gulchehra, azizim, shu bilan xatimni tugataman. Xatolari bo'lsa kechiring. Hayajon ichida yozdim. Javobingizni sog'inib kutuvchi Abdulla».

Oradan ikki hafta o'tar-o'tmas, u javob oldi. Xat juda qisqa bo'lsa ham, uni quvontirdi. «Salom, Abdulla, xatingizni olib juda xursand bo'ldim. Ketishingizdan xafa emasman. Nega xafa bo'lay? Albatta men ham borganimda yaxshi bo'lardi. Lekin bilasiz-ku, borolmayman. Uyning tashvishi endi butunlay mening boshimda. Shunday bo'lsa ham o'qishga kirdim. Politexnika institutining sirtqi bo'limiga hujjatlarimni topshirdim. Ham o'qib, ham ishlayman. Shunday qilganim ma'qul. Xo'p, hozircha xayr. Alangali salom bilan Gulchehra».

Birinchi kursni tugatib, qishloqqa borganida esa Gulchehra uni juda yaxshi qarshi oldi. Ammo hamon uning egnida qora kiyim, ko'zlari so'lg'in edi. Shunda ham u husnini yo'qotmagan, qaytanga avvalgidan ham go'zallashib, ochilib ketgan edi. Ular yarim kechagacha o'zlariga qadrdon bo'lib qolgan joylarini aylanishdi. Abdulla o'qish-

dan hikoya qildi. Gulchehra kutubxonada ishlayotganini, Toshkentga tushib imtihonlarni juda yaxshi topshirib qaytganini aytdi. Uning Abdulaning kelishidan nihoyatda xursandligi bilinib turardi. O'zi ham buni yashirmasdi. Olmazorning etagida o'tirishganda:

– Sizni ko'p kutdim, – dedi sekin. – Kecha ham uydagilar uxlagandan keyin, shu yerlarni bir aylanib chiqdim.

– Men ham sizni sog'indim, – dedi Abdulla. – Uyda ko'p turganim yo'q. Bir kun turdim. Keyin, buvimni sog'indim deb, yo'lga chiqdim.

Ikkalovi kulishdi.

– Bir yil o'tdi, – dedi Gulchehra. – Ayam bo'lganlarida hozir Toshkentda yurarmidik...

– Men ham ketmas edim.

Abdulla shunday dedi-yu, o'zining gapiga o'zi ishonmadi va uyalib ketdi.

– Rostdan ketmasmidingiz?

– Ha. Ishonmaysizmi?

Abdulla unga bir qaradi-da, darrov ko'zlarini chetga oldi.

– Yo'q. Ishonaman. Siz juda yaxshisiz.

Abdulla battar uyalib ketdi. Lekin darrov o'zini tutib oldi. Nima yomon ish qilibdi u? Gulchehraga aytmay, ketishga rozilik berganimi? Buning nimasi yomon? Baribir aytardi, ertami-kechmi aytardi. Axir uning o'zini ham olib ketmoqchi bo'ldi-ku. Agar ayasi o'lmaganda aytardi, balki birga o'qisharmidi? Endi esa foydasi yo'q. Shunday bo'lsa ham so'radi:

– Mendan... ketib qolganimdan xafamasmisiz?

– Nega xafa bo'lay? – Gulchehra o'ylanib qoldi, keyin dedi: – Odam, nima yaxshi bo'lsa, shuni

qilishi kerak. Toshkentga bormayman deganimda, siz mendan xafa bo'lmadingiz-ku! To'g'rimi?

– To'g'ri. – Abdulla sevinib ketdi. – Sizdan hech xafa bo'lmayman.

– Men ham.

Ular yana ko'p marta uchrashishdi, Abdulla o'qishdan qaytishi bilan bir kun-yarim kun uyda bo'lib, Qo'qonga otlanardi. Shahodat opa uning buvisiga mehribonligidan quvonsa ham, ichida bunga uncha ishonmasdi. U Abdullaning birinchi marta o'qishga ketayotganida yuz bergan voqeani hech unutilmasdi. Uni kuzatgani vokzalga G'afurjon aka ham bir amallab chiqdi. Shahodat opa, chiqmang, urinib qolasiz, desa ham bo'lmasdi, lekin Abdulla hech narsa degani yo'q. Vokzalda esa hammadan oldin vagonga chiqib oldi. Poyezd jo'naganda esa derazadan mo'ralab bir marta qo'l silkidi-yu, g'oyib bo'ldi. Shahodat opa bo'shashib ketdi. U o'zi Abdullaning ketishga qaror qilganidan xafa edi. Lekin erining ra'yiga qarab indamagan, mayli, yaxshi o'qish bo'lsa bora qolsin, degan edi. Shunday bo'lsa ham, «bolam bemehr chiqqanga o'xshaydi» deb, yuragi shig'etib ketgan edi. Vokzaldagi voqea bu fikrining to'g'riligini isbotladi.

– O'g'ling katta bo'lib qolibdi, – dedi G'afurjon aka uyga qaytishar ekan.

– Nima edi?

– Quchoqlashmoqchi bo'lsam, o'zini olib qochdi.

– Olis joyga yolg'iz ketyapti-yu, kichkina bo'ladimi! – dedi Shahodat opa, ammo ichida bir zil ketib qo'ydi.

Abdullaning uyga yozgan xatlari ham juda qisqa bo'lib, ko'proq o'zi haqida edi. Otasining sog'lig'ini

kam surishtirar, uy bilan deyarli qiziqmasdi. «O'zinga o'xshaydi, – derdi xatni o'qib G'afurjon aka. – Xat yozishni men ham yomon ko'raman». Shahodat opa xomushgina jilmayib qo'ya qolardi. Yolg'iz qolganda esa, «Yosh-da, hali yosh», – deb o'zini ovutar, navbatdagi xatni orziqib kutardi. Abdullaning ta'tilga kelishi uning uchun katta bir to'y edi. Xuddi G'afurjon aka singari u ham ikki kun avval yuvinib-taranib olar, bozorning oldi narsalaridan olib, dasturxon yasatardi. Abdulla esa ular bilan apil-tapil ko'rishib, qishloqqa oshiqardi. Bir kuni Shahodat opa chiday olmadi:

– Abdulla, qishloqda nima bor? Muncha serqatnov bo'lib qolding? – dedi zarda bilan.

Abdulla nima deyishini bilmay, jilmaydi.

– Ilgarilari bormaysan deb urishardingiz. Endi ko'p borasan deb urishasiz-a?!

– To'g'ri-da, bizni juda esdan chiqarib qo'yding. Dadang bechora, o'g'lim keladi deb o'tiradi. Sen bo'lsang kelasan-u ko'chaga otilasan. Odam degan shunaqa ham bemehr bo'ladimi?

– Unaqa demang, oyi, – dedi kulib Abdulla. – Institutni bitirib olay, ikkalovinglarni to'rt qavat ko'rpachaga o'tqazib qo'yaman. Hech qayoqqa ketmayman. Rozimisiz shunga?

– Rozi bo'lmay nima qilardim? – Shahodat opa o'g'lining bu gapiga ishonmasa ham, xursand bo'lib ketdi. – Ishqilib, bizning baxtimizga Xudo omadingni bersin.

– Omad ham gapmi! – dedi Abdulla ishonch bilan. – Bu institutni bitirgan odam yaxshi pul topadi.

– Pulini o'ylama. Pul qo'lning kiri. Ishing yaxshi bo'lsa, bo'ldi.

– Ishim ham yaxshi bo'ladi, pul ham ko'p bo'ladi. Uyni yaxshilab remont qilamiz. Yasata-

miz. Tursunali amakinikida bo'lmagansiz. Eh-he, nima yo'q ularning uyida!.. Kirsangiz, chiqqingiz kelmaydi. Aya, dadang yaxshi ishda ishlagan, deysiz nuqul. Nega endi bizda hech nima yo'q, uyimiz qup-quruq?

– Kim biladi deysan. Ish bilan bo'lib shuni o'ylamagan-da.

– Siz-chi? Siz o'ylasangiz bo'lmasmidi?

– Meni ham ro'zg'orga uquvim yo'q edi. Shu bor ro'zg'orni ham buving qilib bergan.

– Bilaman, – dedi Abdulla o'ylanib. – Men bunday qilmayman. Mening uyimda hamma narsa bo'ladi. Hamma narsa! Keyin, sizga hech ish qildirmayman.

– Aytganing kelsin. Yaxshi o'qisang, yaxshi ishlasang, aytganing bo'ladi.

Shahodat opa shunday der ekan, uning haqida yomon fikrda bo'lganini eslab, o'zidan xafa bo'lib ketdi. Dadasi to'g'ri aytadi. Abdulla katta yigit bo'libdi. Es-hushi joyida. Bunday bola bilan faxrlansa arziydi. Uyda kam bo'lsa nima qilibdi? Erkak kishi o'zi shunaqa: bir kun uyda bo'lsa, o'n kun ko'chada. G'afurjon aka o'zi qanaqa edi? Rosa uni xunob qilardi ilgari. Kechalari mijja qoqmay uning kelishini poylab o'tirardi. Kasalga chalindi-yu, uydan chiqolmay qoldi. Ko'chadan beri kelmasa ham mayli edi tuzalib! Qanday balo kasal ekan gipertoniya! Tuzalib, o'g'lining rohatini ko'rsa qanday yaxshi bo'lardi. Shahodat opa ayyonda xayol surib o'tirgan erining yoniga keldi.

– Ha, o'ylanib qolibsiz? – dedi uning xomush chehrasiga qarab.

– O'g'limni o'ylayapman.

– Ha, o'g'limga nima qilibdi?

– O‘g‘lingga hech narsa qilgani yo‘q. O‘g‘ling yaxshi...

– Nega o‘ylab qoldingiz bo‘lmasa?

– O‘ylab qolganimki, hademay o‘qishi bitadi. Uylantirish kerak. Kasal ablahdan qutulsam edi, besh-o‘n tanga yig‘ardim. Yaxshi bir to‘y qilgim keladi. Uyning ahvoli bu bo‘lsa...

– Voy, shunga o‘ylanib o‘tiribsizmi? – Shahodat opa kuldi. – Hozirgina o‘g‘lingiz shuni gapirib turgan edi.

– Ha, nima dedi?

– O‘g‘limdan aylanay. Boshi oltin chiqdi uning, boshi oltin. Ishim yaxshi bo‘ladi, deydi. Ishga kirishim bilan birinchi qiladigan ishim – uyni tutataman, yaxshilab remont qilaman, deydi.

– Yo‘g‘-e? – sevinib dedi G‘afurjon aka.

– Ha, Tursunalining uyini rosa maqtadi. Shunaqa uy qilaman, deydi. Keyin sizni ozgina urishdi.

– Nima dedi?

– Aya, dadam yaxshi-yaxshi ishlarda ishlaganlar, deysiz. Nega o‘shanda uyga qaramaganlar, deydi.

– Sen nima deding? – qiziqib so‘radi G‘afurjon aka.

– Men nima derdim? Pul topib aql topmaganmiz-da, dedim.

Er-xotin kulishdi.

– Nega endi bunaqa deysan? – dedi keyin jidiylashib G‘afurjon aka.

– Qiziqsiz, shunday dermidim? Ish bilan bo‘lib ro‘zg‘or esimizga kelmagan, dedim.

– Bu gaping durust. Lekin, Shahodat, ozgina mol-pol qilib qo‘ysak ziyon bo‘lmas edi o‘shanda.

– Siz mol qiladigan odammisiz? Sizning molingiz odamlarda. Shuning o‘zi katta davlat.

– Zap ajoyib xotinsan-da, Shahodat, – dedi zavq bilan G‘afurjon aka. – Baxtingga tuzalib ket-sam, osmondan yulduzni olib ber desang, olib beraman.

– Avval tuzaling-chi, keyin bir gap bo‘lar. Sho‘rvangizni ichasizmi? Ordona qolsin, tuzsiz sho‘rva ham sho‘rva bo‘ldimi?! – Shahodat opa o‘choq boshiga yo‘l oldi.

Shu paytda poyezd Abdullani Qo‘qonga eltardi. U har gal yo‘lga chiqar ekan, yuragini allaqanday shirin orzular qoplar, yana ta‘til kelganidan, yana bir necha kun og‘ir, erta-yu kech o‘qish bilan o‘tgan yildan so‘ng dam olishi, Gulchehra bilan uchrashish mumkinligidan cheksiz shod bo‘lar edi. U Gulchehra ham uni sabrsizlik bilan kutayotgani, uni ko‘rishi bilan ko‘zlari chaqnab, yuziga tabas-sum yugurishini bilardi. Biroq u ularning shuncha vaqtdan beri davom etayotgan aloqalarida nimadir yetishmayotganini his qilar va xayrlashayotganida nimadandir ko‘ngli to‘lmasligini sezardi. Ayniqsa, so‘nggi bir-ikki yil ichida shunday bo‘lib qolgan edi. U, albatta, bu yetishmayotgan narsa nimeligini bilardi va uning yuz berishidan cho‘chirdi. Shunday bo‘lsa ham qandaydir ichki bir tuyg‘u uni shunga undardi. Ammo Gulchehra uning bu istagini sezmas yo o‘zini sezmaslikka solar, Abdulla me‘yoridan oshiq harakat qila boshlasa, darrov o‘zini chetga tortardi.

U Abdulla bilan sayr qilishni, qo‘l ushlashib olis-olislarni aylanib kelishni istardi. O‘z ishlari-dan to‘lib-toshib gapirishni yaxshi ko‘rardi.

Uning katta bir siri bor edi. Bu sirni faqat uch kishi: Abdulla, o'zi va Samad bilardi. Bu sir ikkinchi kursni tamomlagandan so'ng paydo bo'ldi. U Mingbuloqning maketini tuza boshladi. Hech kim undan buni talab qilmagan bo'lsa ham, u bu ishga juda jiddiy kirishdi. Abdullaning, nima qilasiz, degan savoliga, u kulib:

– Raisga ko'rsataman, – dedi.

Albatta bunday emas edi. Gulchehra keyin tushuntirdi. U Samad bilan bolaligidan orzusi, yangi Mingbuloqni qurish orzusiga kirishgan edi. U bu niyatiga erishish qiyinligini bilsa ham, erta-kech shuning xayolida yurar, eski qishloq maketi esa unga ishlash uchun kerak edi. U qishloqning yaxshi, boshqa ba'zi bir yangi qurilayotgan qishloqlar singari go'zal bo'lishini orzu qilardi. Shuning uchun Samadning yordamida u qishloq arxitekturasiga oid ko'pgina kitoblarni, plakat va loyihalarini yozdirib olgan, uyi ustaxonani eslatardi. Yusuf aka yarim kechada ham uxlamay nimalarnidir chizib, tiqir-tiqir qilib o'tirgan Gulchehrani ba'zan koyirdi. U qizining me'morlikka o'qiyotganini bilardi. Shunday bo'lsa ham o'zini tiyolmasdi:

– Nima qilyapsan sen o'zi? Dam olsang bo'lmaydimi?

Ba'zan esa uning ro'parasiga o'tirib, jimjima qog'ozlarga, katta faner ustidagi qo'g'irchoq uylarga, tepaliklarga uzoq qarab qolardi.

– Nima qilyapsan o'zi, a? – derdi qizining epchil harakatlarini kuzatib.

Bir kuni Gulchehra Samad bilan u keltirgan telefon simlaridan kichkina daraxtlar yasab o'tirgandi, Yusuf aka kirib qoldi. U indamay Samad-

ning ro'parasiga keldi-da, maketga tikildi. Birpasdan so'ng hayratlanib so'radi:

– Bu bizning to'g'on-ku!

Gulchehra kulib yubordi.

– Topdingiz. Uyimizni ham toping endi, dada? Yusuf aka yana maketga tikildi. Keyin birdan:

– Yo tavba! – deb yubordi. – Buni nima qilmoqchisizlar? O'zimizning Mingbuloq-ku bu?

– Xuddi o'zi, – dedi Samad. – Qalay, tuzukmi Mingbuloq?

Yusuf aka o'pirilgan devorlar, qamish tomlar, qing'ir-qiyshiq ko'chalarga yana tikilib qoldi.

– Juda o'xshatibsanlar, – dedi oxiri o'ylanib. – O'xshatibsanlar-ku, lekin boshqa qishloqni yasasalaring bo'lmasmidi? Juda xunuk-ku!

– Shu xunukligi uchun yasayapmiz-da, dada, – dedi Gulchehra. – Idoraga olib borib qo'yamiz. Hamma ko'rsin. Shunday joyda yashab bo'ladimi? Uyat-ku!

– Jamoamiz boy, to'g'ri emasmi? – gapni davom ettirdi Samad. – Yangi qishloq qurish kerak. Odamlar yangi, chiroyli uylarda yashasin. Katta-katta ko'chalarda yursin. Hozir bitta mashina yursa, butun qishloqni chang qoplaydi. Innaykeyin, jamoaning klubi yo'q. Majlis bo'lib qolsa, yoshlarning boradigan joyi yo'q. To'g'ri emasmi?

Yusuf aka angrayib qolgan edi.

– Nima, yangi qishloqni shunaqa yasamoqchimisizlar? – so'radi keyin qiziga termilib.

– Ha, – dedi Samad. – Gulchehra yasaydi. Keyin muhokamaga qo'yamiz. Ma'qul bo'lsa, sekin qurishga tushamiz.

– Tuzuksan-ku, qizim? – dedi faxr bilan Yusuf aka. – Men buni raisga aytaman.

– Hozir kerak emas, – dedi Samad. – Avval bitsin maket, keyin.

– Obbo, qizim-ey, obbo qizim-ey, tuzuksan-ku!

Yusuf aka sevinchini yashirmay, allamahalgacha yoshlarning oldida o'tirdi. Gulchehra shu voqeani kula-kula Abdullaga aytib bergandi, uning ham maketni ko'rgisi kelib ketdi. Lekin Gulchehra ko'nmadi.

– Hali tayyor emas, – dedi u. – Innaykeyin, innaykeyin, sizga ko'rsatgani uyalaman.

– Nega? – hayron bo'ldi Abdulla.

– Bu mening birinchi mustaqil ishim. Balki juda yomondir. Avval domlalarimga ko'rsatay.

– Samad ko'rsa mayli, – dedi xafa bo'lgan bo'lib Abdulla.

– Samad ko'rmasa bo'ladimi? Bu ikkala-mizning rejamiz. Xafa bo'ldingizmi?

Gulchehra shunday deb, mehr bilan unga tikildi. Abdulla jo'rttaga yuzini o'girdi.

– Menga siz yo'qdan boshqa narsani demaysiz...

– Yolg'onchi! – dedi kulib Gulchehra. – Men siz bilan hech kim bilan qilmagan ishlarni qilyapman. Eslasam, qo'rqib ketaman.

– Nima ish?

– Bilmaysizmi?

– Bilmayman, – o'zini soddalikka soldi Abdulla.

– Yarim kechada erkak kishi bilan qanday qiz yuradi, bilasizmi?

– Yo'q.

– Yomon qiz. Ba'zan o'zimdanda o'zim uyalib ketaman. Dadam bilib qolsalar, nima bo'ladi?

– Bilmaydilar, – dedi Abdulla uni qo‘lidan tortib. – O‘zingiz aytib qo‘ymasangiz agar...

– Aytsam-chi? – Gulchehra imtihon qilganday Abdullaga tikildi.

– Ixtiyoringiz...

– Aytmayman. Qanday aytaman? Siz aytasiz, xo‘pmi? Baribir bir kun aytish kerak bo‘ladi-ku! Aytasizmi?

– Hm... – dedi Abdulla uni quchoqlab, – Gulchehra...

– Nima?

– Meni yaxshi ko‘rishingiz rostmi?

– O‘zingiz nima deysiz?

– Bilmayman. Bilganimda so‘ramas edim.

– Rost, – dedi sirli ohangda Gulchehra.

– Nega bo‘lmasa, yo‘q deysiz?

– Hali ham yo‘q deyman...

– Nega?

– Hali yosh bolamiz-ku! – Gulchehra shunday dedi-da, zulukdek buralib uning quchog‘idan chiqdi. – Yomonsiz!..

– Gulchehra...

– Qarang, birov kelyapti!

Gulchehra qo‘rqqan odamdek jo‘rttaga atrofga alanglab, Abdullani imladi-da, keyin turib ketdi. Abdulla birpas joyida qimir etmay turdi, aldanganini bilgach, ketidan yugurdi.

Har uchrashuvda deyarli shunday bo‘lardi. Biroq uni bu ranjitmas, ko‘nglini sovutmas, qaytanga Gulchehraga kuchliroq bog‘lab qo‘yardi. Bundan u xursand edi. Kichkina, ko‘rim-siz, chang bir qishloqda uni yaxshi ko‘radigan, u bilan o‘zining eng muqaddas fikrlari, sirlarini

o'rtoqlashadigan, uning ko'nglini oladigan soddadi, aqlli bir qiz bor. Bu qizning ham orzulari uni kabi baland, go'zal. Xuddi Abdulla kabi u ham orzulariga yetishish uchun astoydil intilmoqda. Bu kun yaqin, u baxtli bo'ladi. Bu baxtga Abdulla ham sherik. Shunday o'ylar ekan, Abdulla keyingi ta'tilning tezroq kelishini, Gulchehra bilan yana tezroq ko'rishishni orzu qilardi. Ko'rishganda esa yana ko'ngli to'lmayotganini his qilardi.

Nihoyat, bir gal u istagan, hayajon va qo'rquv bilan kutgan narsa yuz berdi. O'shanda u to'rtinchi kursni tamomlab, yozgi ta'tilga qaytgan edi.

XIV

Tungi poyezd bilan yo'lga chiqqan Abdulla tushga yaqin Mingbuloqqa yetib keldi. Hovlining o'rtasida tog'oraga suv solib nevarasini cho'mlirayotgan Hojar buvi uni ko'rishi bilan katta bir sovunni shalop etib tog'oraga tashladi-da, qarshisiga yo'rg'alab ketdi.

– Voy, tasaddug'ing ketay! Voy, qoqindig'ing bo'lay! Abdullajon bolam!

Abdulla jilmayganicha egilib, ko'rishgani yelkasini tutar ekan, Hojar buvi uni yuz-ko'zlari-dan o'par, og'zi tinmas edi.

– Voy, o'zim o'rgilay! Voy, bo'yingga qoqay! Odamni xavotirga qo'yib bu gal muncha hayalading? Esonmisan, omonmisan? Uydagilaring eson-omonmi? Dadang tuzukmi? Voy, o'zim aylanay!

– O'zingiz tinchmisiz? Tog'am yaxshi yurib-dilarmi? Kelinoyim qalaylar?

Abdulla gapni cho'zmaslik uchun o'zi buvisini savolga tuta boshladi.

– Otdayman, bolam, otdayman. Tog'ang ham, kelinoying ham tuzuk, ishlab yurishibdi. Meni bu jiyaning qiynab yubordi. Tursun, hoy Tursun! Tog'ang bilan ko'rishmaysanmi, tentak!

– Assalomu alaykum!

Tog'orada cho'kkalab o'tirgan Tursun shilt etib qo'llarini nam ko'kragiga urdi. Hojar buvi bilan Abdulla kulib yuborishdi.

– Katta bo'lib qolibdi-ku, a, buvi?

– Kichkina bo'ladimi, to'rt yoshga to'ldi-yu! Lekin senga o'xshagan mo'min-qobil chiqmadi bu! Uzzukun ko'chada tentiragani tentiragan. Hozir ham endi tutib olib keluvdim. Aft-angoriga qarab bo'lmaydi.

Abdulla tog'avachchasining oldiga kelib cho'kkaladi-da, yuziga suv sepd.

– Shunaqa sho'xmisan-a?

– Aldayaptila, – dedi bola ovozi pasaytirib. – Hecham to'polon qilmayman. Buvi! Shundoq o'tiraveramanmi?

– Tusha qol. Bo'ldi endi. Toza bo'lib qayoqqa borarding? – javradi ayvonga joy qilayotgan Hojar buvi.

– Ishtonim qani?

Abdulla so'riga ilig'liq chang ishtonni qoqib jiyaniga uzatdi.

– Kelaqol, Abdulla! Bolam, – qichqirdi Hojar buvi.

Abdulla jiyanini yetaklab ayvonga ko'tarildi. Fotihadan so'ng, Hojar buvi ovqatga unnay boshladi. Abdulla qarshilik qilsa ham, ko'nmadi.

– Darrov bo'ladi, bolam. Yo'lda ochiqqansan.

– Bo‘lmasa bir aylanib kelaman Tursun bilan.

– Hayallab ketma.

Tog‘a-jiyan ko‘chaga chiqishdi. Tursun uzoqda, ko‘chani boshlariga ko‘tarib koptok tepayotgan bolalarni ko‘rib, tog‘asini o‘sha yoqqa surgadi. Abdulla bir oz koptok tepib, terlab ketdi.

– Bo‘ldi, ketdik, – dedi jiyaniga.

Lekin u quloq solmadi. Abdulla yolg‘iz o‘zi uyga qaytdi. Eshik tagiga kelganda, to‘xtadi. «Balki uydadir?» – o‘yladi u va Gulchehralarning darvozasini tomon yo‘l oldi. Darvoza lang ochiq edi. Abdulla ichkariga qaradi. Hovli jimjit, hech kim ko‘rinmasdi. U kirishini ham, kirmasini ham bilmay, eshik oldida turib qoldi. Endi qaytaman deganda ikki bog‘ ho‘l beda ortib eshak mingan Alisher kelib qoldi. Abdulla u bilan so‘rashib, Gulchehrani so‘radi.

– Soyga ketganlar, – dedi Alisher. – Maketlariga qandaydir o‘t kerak ekan. Shuni yulgani ketganlar.

– Ancha bo‘ldimi?

– Ha, ertalab. Chaqirib kelaymi?

– Yo‘q, rahmat. Soy uzoqmi?

– Ancha bor. Hov anavi tolzorni ko‘ryapsizmi? O‘shaning orqasida. Kerak bo‘lsalar chaqirib kelaman.

– Rahmat. O‘zi kelib qolar. Ko‘rsang, Abdulla akam keldilar deb qo‘ygin.

– Xo‘p.

– Abdulla aka, – so‘radi Alisher eshakning boshini unga qayirib. – O‘qiyotgan shahringiz yaxshimi?

– Juda ham.

– Men ham katta bo‘lsam, o‘sha yerga borib o‘qiyman. Dadam shunday deyaptilar. Ayamlar ham rozilar.

– Ayamlar? – Abdulla hayron bo‘ldi.

– O‘zimning ayamlar emas, – dedi Alisher, birov eshitib qoladigandek, atrofga alanglab. – Yangi ayamlar...

Abdulla beixtiyor Alisherga tikilib qoldi. U o‘gay onalar bo‘lishini eshitgan va ko‘pincha ularning o‘gay bolalarga nisbatan yomon munosabatda bo‘lishlarini bilardi. Shuning uchun achinib Alisherning kiyimlariga razm solib chiqdi. Lekin hech qanday yomon bir narsani Alisherda payqamadi. Kiyimlari yaxshi, rang-boshi tuzuk.

– Bedani nima qilasan? – so‘radi u go‘yo shu bedada o‘gay onaning yomon munosabati bordek.

– Quyonlarimga. O‘nta quyonim bor. Ko‘rasizmi? Katta-katta.

– Mayli, keyin... – dedi Abdulla ko‘ngli yorishib.
– Opangga shunaqa deb qo‘y, xo‘pmi?

– Xo‘p bo‘ladi.

Abdulla orqasiga qaytdi. Ko‘prikka yetganda soyga borishga qaror qildi. Uning Alisher bilan gaplashgandan so‘ng, Gulchehrani juda ham ko‘rgisi kelib ketgan edi. Ancha yurdi. Yo‘l ta‘sir qildimi, yo kunning issig‘imi, u terlab suv bo‘lib ketgan edi. Ko‘ylagini yechib, etagiga yuzini art-di-da, yelkasiga tashlab oldi. Tolzorga yetib keldanda muzdek havo yuziga urildi. «Yaxshi joyni tanlabdi, – o‘yladi ichida. – Nega ilgari bu yerga kelmagan ekanmiz?» U shunday o‘yladi-yu, hech mahal kunduzi uchrashishmaganini eslab: «Gulchehra balki qo‘rqqan bo‘lsa kerak kechasi bu yerga kelgani», deb qo‘ydi.

Tolzor uncha katta emas edi. U darrov soy bo'yiga chiqib qoldi. Lekin Gulchehra ko'rinmadi. Ketib qoldimikan? U yuragi to'liqlanib, u yoq bu yoqqa alangladi, keyin suv labiga tushdi. Sal narida kallaklangan qari tolning orqasida kichkina ko'm-ko'k yalanglik ko'rindi. Abdulla shu tomondagi yurdi. Tolga yetay deganda, u beixtiyor to'xtab qoldi. Shunday soyning labida otquloq bargini peshanasiga yopishtirgan Gulchehra qalin sochiq ustida oyoqlarini chalmashtirib yotardi. Oq-sariq yo'l-yo'l ko'ylagi tizzalarigacha ko'tarilgan, ikki tomonida oppoq kaftlari osmonga qarab cho'zilib yotgan qo'llari yelkalarigacha ochiq edi. Dumaloq ko'kraklari turtib turgan ko'ylagi har nafas olganida ko'tarilib, belini tarang qilib tortar, tushganda esa ko'kraklari o'rtasida uzun chiziqli hosil qilardi.

Abdulla unga havas bilan tikilib turdi-da, shu yotishida uning qip-qizil yuzlaridan o'pib olgisi kelib ketdi... Sekin-sekin, o'tlarni shitirlatmasdan unga yaqinlashdi. Boshi ustiga kelganda ehtiyotkorlik bilan cho'kkalab, sekin engasha boshladi. Endi lablari otquloqqa yetay deganda, Gulchehra, «voy!» dedi-yu, sapchib o'rnidan turib ketdi. Abdulla kuldi.

- Yurakdan ham bor ekan-ku!
- Uf! Qo'rqib ketdim, Abdulla, sizmisiz?
- Xuddi o'zi!
- Qachon keldingiz? Shunaqa ham bo'ladimi odam degan?
- Yomon qo'rqdingizmi?
- Yuragim o'ynab ketdi.

Gulchehra ko'kragiga «tup-tup»lab, «uh» dedi-da, jilmaydi va Abdullaning ro'parasiga o'tirdi.

– Qachon keldingiz?
– Bir soatcha bo‘ldi. Keldim-u, sizni qidirishga tushdim.

– Bu joydaligimni qayerdan bildingiz?

– Alisher aytdi.

– Voy, bu yoqqa kelganingizni u biladimi?

– Yo‘q. Ko‘rsang kelganimni aytgin, dedim-u u ketgandan keyin bu yoqqa kelaverdim. Ha, bilsa nima qilibdi? Samad bilan yarim kechagacha birga qolib ketasizlar-ku!

– Samad boshqa gap. Samad mening yordamchim. Uydagilar buni bilishadi. Nega bu gal kechikdingiz? Doim o‘n beshinchi avgustda kelar edingiz?

– Ish chiqib qoldi.

– Qizlar bilanmi? – Gulchehra ko‘zlarini ayyorona suzib Abdullaga qaradi.

Abdulla kuldi.

– Yo‘q, bir maqola ustida ishladim. Kurs ishim. «Fan va turmush»da bosishmoqchi edi.

– Nahotki? – sevinib so‘radi Gulchehra.

– Ha. Rahbarim aytgan ekan. Shuni qayta ishlab chiqdim.

– Nima temada?

– Yuqori chastotalar haqida. Hozir bu juda kerakli tema.

– Ma‘qul bo‘ldimi?

– Ha, bosishadigan. Agar bosishsa, ancha shov-shuv bo‘ladi.

– Yaxshi shov-shuvmi?

– Shunday bo‘lishi kerak. Professor shu temani dissertatsiya ham qilsangiz bo‘ladi, deyapti.

– O‘, juda yaxshi-ku.

Abdulla uyalinqirab jilmaydi.

– O‘zingizning ishlaringiz qalay?

Gulchehra qo‘llarini yozib, xo‘rsindi.

– Maket!..

– Hali ham-a?

– Bu endi yangi maket. Yangi qishloq maketi.

– Yaxshi bo‘lyaptimi?

– Qaydam. Institutda loyihani ma‘qullashdi.

Bu yerda hali ko‘rsatganim yo‘q. Lekin eskisini ko‘rsatdim. Voy-bo‘o‘, shunaqangi to‘polon bo‘lib ketdiki!..

– Yo‘g‘-e?

– Ha. Samad maket tayyor bo‘lishi bilan kechasi Nurmat akaning kabinetiga olib borib qo‘ydi. Har kuni ertalab aktiv yig‘iladi-da u yerga. Ertalab Nurmat aka hammadan kech kelib, kabinetiga kirsa, odamlar piq-piq kulib turishgan emish. Nima gap desa, hech kim indamasmish. Keyin kimdir stol ustida turgan maketni ko‘rsatibdi. Nurmat aka hayron bo‘lib tikilib qolibdi, – Gulchehra raisning qanday hayron bo‘lganini ko‘rsatmoqchi bo‘lib aftini burushtirdi. Abdulla o‘zini tutolmay, kulib yubordi. Gulchehra davom etdi. – Bu nima? – deb so‘rabdi. Yana hech kim indamabdi. Hamma uning odatini biladi-da. Agar o‘ziga ma‘qul tushmaydigan javobni eshitib qolsa, yomon so‘kib beradi. «Bu nima? – so‘rabdi u yana. – Nima, hammang mum tishlaganmi-sanlar, nega javob bermaysanlar?». Shunda Samad: «Maket», debdi. «Ko‘rib turibman maketligini. Nimaning maketi?» «Mingbuloqning maketi, – debdi Samad. Rais boshqatdan maketni qaray boshlabdi. «Bu nima?» – debdi bir mahal bir to-

monga qiyshayib yotgan binoni ko'rsatib. «Idora». «Bu-chi?» – Nurmat aka qo'lini bigiz qilib qamish tomli bir uyni ko'rsatibdi. «Sizning uyingiz», – debdi Samad. «Hm», – Nurmat aka o'ylanib qolibdi. Keyin mo'ylovi tortila boshlabdi. Jahli chiqsa shunaqa, mo'ylovi xuddi sichqonning dumidek likillay boshlaydi. «Buni nima qilmoqchisanlar? – debdi bir mahal ko'zlari olayib. – Vistavkaga yubormoqchimisalar?». «Vistavkaga nima qilamiz yuborib? – debdi sekin Samad. – Shu yerda turadi. Yo bo'lmasa klubga qo'yib qo'yamiz. Qanday yashayotganimizni odamlar ko'rishsin». «Shundoq degin? – rais o'ylanib qolibdi, keyin so'rabdi: – Kimning ishi bu?» Samad indamabdi. Dadamlar janjal chiqishidan qo'rqib: «Shunga ham xafa bo'lasizmi, rais? – debdilar. – O'yin qilib qizim ikkalovi yasashgan. Yo'qotib tashlaymiz hozir...» «Qizim, degin? – debdi Nurmat aka va Samadga qarab. – Bor, o'sha rassomingni chaqirib kel!» – deb buyuribdi. Uyda o'tiruvdim, bir mahal hovliqib Samad kelib qoldi-kul! «Ha, – desam. – E so'rama, ish chatoq, rais xunob, seni chaqiryapti», – dedi. Yo'l-yo'lakay nima deyishimni o'ylab bordim. Bir tomondan uning jahli chiqqani yaxshi. Demak, qishlog'imizning yomonligini tushunibdi. Shuning o'zi ham katta gap. Lekin nima deyman? Har holda buni, dadam aytganlaridek, o'yinchoq deyishga qarshi edim. Samad ham hech qanday maslahat bera olmadi. Oxiri to'g'risini aytishga kelishib, idoraga kirib bordik. Hali so'rashmasimdan: «Bu sening ishingmi?» – deb so'radi Nurmat aka mo'ylovlarini titratib. «Meniki», – dedim sekin. «Nima qilmoqchisan?» «Nima

qilmoqchiman?! – soʻradim men va lop etib miyamga bir fikr kelib qoldi. – Kurs ishi qilib institutga topshiraman», – deb yubordim. «Nima?! – doʻq urdi Nurmat aka. – Hm, Toshkentga olib boraman, degin?» «Ha, – dedim, – olib boraman». Nurmat aka oʻrnidan turib ketdi. Kabinetni bir aylanib chiqib, oldimga keldi-da, yelkamga qoʻlini qoʻydi. «Qizim, nima, bizni sharmanda qilmoqchimisani?» «Nega sharmanda boʻlasiz? – dedim oʻzimni soddalikka solib. – Qaytanga maket qishloqdan chiroyli-ku!» «Shuni yana ozgina chiroyli qilsang boʻlmaydimi?» «Boʻladi, – dedim men, – lekin yolgʻon boʻladi-da. Odamlarni aldab nima qilamiz?» «Nega aldar ekansan? – dedi Nurmat aka. – Besh-olti yildan keyin qishlogʻimiz yaxshi boʻlib ketadi. Yangi, chiroyli binolar quramiz. Shuni oʻylab boshqatdan yasa, jon qizim...» «Yangi qishloqning maketini yasasam-chi? – soʻradim shunda men. – Yaxshi chiqsa, shunga qarab qurilishni boshlaymiz». «Boʻpti, – dedi Nurmat aka sevinib. – Yasa. Buningni bekit. Biz koʻrdik. Bizdan boshqa hech kim koʻrmasin. Naq sochimni bittalab yulishadi koʻrishsa!» Uch-toʻrt kundan keyin majlis chaqirib, Mingbuloqni qayta qurish rejalari haqida gapirdi. Shunday ajoyib gapirdiki, ogʻzim ochilib qoldi. Keyin meni «qishlogʻimiz meʼmori», dedi.

– Zoʻr-ku! – dedi Abdulla xursand boʻlib.

– Zoʻr ham gapmi? Bunday boʻladi deb sira kutmagan edim.

– Maket bitib qoldimi?

– Qayoqda? – dedi Gulchehra qoshlarini chimirib. – Endi boshladim. Hali ishi koʻp. Bila-

sizmi, butun qishloqning yangi loyihasini bitta o'zim ishlolmayman. Men atigi to'rtta narsani o'ylayapman. Katta ko'cha, klub, xo'jalik idorasi, mehmonxona. Uning oldi katta bog'. Mana shularning maketini ishlamoqchiman.

– Shu ham juda katta ish.

– Bilaman. Lekin qilish kerak. Diplom ishim shu bo'ladi, – Gulchehra o'ylanib qoldi.

Abdulla uning mana shunday ko'zlarini bir nuqtaga tikib xayol surishini yaxshi ko'rardi. Xayol surganda lablari tortilib, endi ochilay deb turgan g'unchaga o'xshab ketardi. Abdulla uning shu g'uncha lablariga tikilib, xayolidan o'tkazdi: «U bilan bo'lganim qanday yaxshi!» Gulchehra nimadir esiga tushib, unga o'girildi.

– Aytganday, institutimizda «Yoshlik» mehmonxonasi loyihasiga tanlov e'lon qilindi. Mehmonxona Toshkentda quriladi. Tagi restoran, kafe... Men ham qatnashyapman. Bir hafta qattiq ishladim. Yaxshimi?

– Juda ham. Tabriklayman.

– Shunday bir bino bo'lsaki, u xuddi qushga o'xshasa! Olisdan qaraganda uchishga tayyorlanib, qanotlarini yozib turgandek bo'lsa! Men shunday qildim. Bilmadim, ma'qul bo'larmikin? Toshkentda shunday katta me'morlar borki...

– Sizniki ma'qul bo'lib qolsa-chi?

– Qaydam... – Gulchehra yelkalarini qoqib qo'ydi.

– Agar shunday bo'lsa, bilasizmi, men nima qilardim!

– Nima?

– Mana bunday, mana bunday qilib sizni o‘pib olardim.

Abdulla Gulchehrani quchoqlab, yuz-ko‘zlari-dan o‘pa boshladi.

– Uyatsiz! Qo‘yib yuboring, birov kelib qoladi!..

– Sog‘inmadingizmi? – dedi Abdulla uni qo‘yib yubormay.

– Yo‘q! – dedi zarda bilan Gulchehra va sakrab o‘rnidan turdi. – Kupp-kunduzi nima qilyapsiz o‘zi?

Abdulla kuldi.

– Yaxshisi, menga yordam bering.

– Nima qilay?

– Hu, anavi o‘tlarni ko‘ryapsizmi? – Gulchehra soy labiga kelib tiniq suv tagida tebranib turgan o‘simliklarni ko‘rsatdi. – Shulardan olib chiqib bering.

– Bo‘pti. Bir chelak bo‘ladimi?

– Avval yulib ko‘ring...

Abdulla yechina boshladi. Gulchehra uyalib yuzini chetga burdi. Suv shaloplagandagina o‘girildi.

– Muncha muzdek?.. – dedi Abdulla entikib va suzib ketdi. Soy chuqur emas, odam bo‘yi kelardi va buloq suvi bo‘lgani uchunmi, tagi aniq ko‘rinib turardi.

– Cho‘milmay sizmi? – so‘radi Abdulla Gulchehraning ro‘parasiga kelib.

– Siz bo‘lmaganingizda cho‘milardim...

– Endi-chi?

– Birov kelib qolsa-chi?

– Hech kim kelmaydi. Tushing.

– Yo‘q.

– Ixtiyoringiz, lekin suv mazza!

Abdulla shunday deb sho'ng'idi va Gulchehra ko'rsatgan o'tlar oldiga suzib bordi. Lekin o'tni yulaman deganda sirg'alib ketib, chalqancha yiqildi. Gulchehra kulib yubordi.

– Bir chelakmish-a? Besh-oltitasini yulib chiqsangiz ham mayli edi.

Abdulla o'zini o'nglab, yana o'tga yopishdi. Qattiq tortgan edi, o'simlik mayda toshlarga chirmashib ketgan ildizi bilan sug'irilib chiqdi.

– Qattiq ekan, – dedi Gulchehrraga uzatayotib.

– Shuning uchun sizdan so'radim-da. Menga o'tni Samad bilan Alisher yulib berishadi.

Abdulla yana sho'ng'idi. Bu gal o'simlik oson ko'chdi.

– Bir chelak yulib bersam-chi? – dedi g'urur bilan.

– Agar sovuq yemasangiz...

– Suv yaxshi. – Abdulla besh-olti marta o't yulib, charchadi. Lekin suvdan chiqqisi kelmadi, to'g'rirog'i, Gulchehraning ham suvga tushishini istardi, Navbatdagi ildizga yopishganda u hiyla ishlatdi. Xuddi havo yetishmay cho'kkan odamdek o'simlik ustiga yiqildi. Uning harakatlarini kuzatib turgan Gulchehra avval tushunmay turdi, keyin qo'rqib ketib, «Abdulla!» – deb qichqirib yubordi. Abdulla javob bermadi. Uch daqiqacha u suv tagida tura olishini bilardi, shuning uchun «ishqilib shu paytda tushsin-da», deb o'ylardi. Gulchehra o'rnidan turdi, soy labida bir-ikki tipirchilab, u yoq bu yoqqa yurdi, yana «Abdulla!» – deb chaqirdi. Javob eshitilmagach, o'zini suvga otdi va birpasda Abdullaning oldida paydo bo'ldi.

Abdulla qimir etmadi, lekin Gulchehra uning oldiga kelganini sezdi. Nima qilarkin? Gulchehra shoshib uning belidan quchoqladi-da, boshini suvdan chiqarib, qirg'oqqa sudradi. O'yinga berilib ketib Abdulla indamadi. Gulchehra suvdan chiqishi bilan engashib uning ko'kragiga yuzini qo'ydi. Shunda Abdulla uni mahkam quchoqlab oldi. O'zini yo'qotib qo'ygan Gulchehra shilq etib uning yoniga ag'darildi.

– Qo'rqib ketdingizmi?

– Juda ham, – dedi bo'shashganicha Gulchehra.

– Kechiring, – Abdulla qizning kichkina quloqlari aralash yuzlarini siqib, muzdek labidan o'pa boshladi. Gulchehra indamadi. Aksincha, uni o'ziga tortib, ikkala qo'li bilan ko'kragiga suvi to'mib turgan bo'ynidan quchoqladi.

– Sizni yaxshi ko'raman, Gulchehra!..

Gulchehra javob o'rniga uni qattiqroq quchoqladi. Ikkalovi orziqib va qandaydir qo'rquv bilan kutgan voqea sodir bo'ldi. Abdulla o'zida yo'q shod edi. Tolning panasiga o'tib ko'ylagini siqayotgan Gulchehraga mehr bilan tikilar ekan, o'zini nihoyatda baxtiyor his qilar va ko'zlarini undan uzolmas edi. Ha, endi Gulchehra tamoman uniki! Endi ular doim birga bo'lishadi. Endi uning hayotini shu yoqimtoy, go'zal, nozik qizning hayotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bundan ham ortiq baxt, bundan ham ortiq shodlik bormi dunyoda!

Gulchehra ham shod edi. Lekin u nozik tabiatli odam bo'lganidan sodir bo'lgan voqeadan ayni vaqtda uyalardi. U bir kunmas bir kun shunday bo'lishini bilardi. Lekin o'sha to'y deb atalgan muqaddas birlashishdan so'ng buning

yuz berishini istardi. Hamma shunday qiladi. Hayot o'zi shunday. Ikki kishi muqaddas qasam bilan, muqaddas, bir umrga yoddan ko'tarilmaydigan qadah bilan qovushadi. Hamma shunday qiladi, hamma shunday bo'lishini istaydi. Lekin u nima qilib qo'ydi? Kimning yuziga oyoq qo'ydi? Beor qiz? Nima qilib qo'yding o'zi? Endi qanday qilib boshingni ko'tarib yurasan? Nima degan odam bo'lding endi? Qani u sen orzu qilgan kunlar? Qani u sen orzu qilgan hayot? Senga gard yuqtirmay katta qilgan onangning xotirasini poymol qilding! Sen uni xo'rlading! Otangning nomiga dog' tushirding.

U shunday qayg'uli xayollarga borar ekan, unga mehr va muhabbat bilan tikilib turgan Abdullaga ko'zi tushishi bilan ko'ngli yorishardi. «Albatta gunoh ish qilib qo'ydim, – o'ylardi u. – Katta gunoh qilib qo'ydim, – o'ylardi u. – Lekin kim bilan? Abdulla bilan-ku. Uni yaxshi ko'raman-ku, axir. Baribir bir kun shunday bo'lar edi-ku! U endi butunlay men bilan! Men u bilan! Bir-birimizdan endi hech ajralmaymiz. Yaqinda institutni bitirib keladi. To'y bo'ladi. Hozir nima bo'lgani kim bilib o'tiribdi? O'zim ham shuni istadim. Yo'q, demadim. Hech kim bilmaydi. Hech kimga aytmaymiz. Bu bizning muqaddas sirimiz bo'ladi. U bizning faqat yuragimizda saqlanadi. Gulchehra! Qara, u qanday yaxshi yigit! Chiroyli, aqlli! U seni yaxshi ko'radi. U sen bilan bo'ladi. Uning ko'zlariga qara! Shu ko'zlar nahotki seni aldasa? Yo'q, aldamaydi. U doim sen bilan bo'ladi. Sen ham xuddi onang kabi baxtli bo'lasan. Lekin sening umring qisqa bo'lmaydi. Sen uzoq yashay-

san, Abdulla qancha yashasa, sen ham shuncha yashaysan! U bilan birga, u bilan barobar yashaysan. Shunday bo'ladi. Hozir sodir bo'lgan narsa seni cho'chitmasin. Sen endi kichkina emassan. O'z hayotingni o'zing quradigan davr keldi. Sen endi mustaqilsan. Nima istasang shuni qilasan. Bugun sen uni istading. Nima bo'libdi? Buning nimasi yomon? U sen bilan bo'lsa, bo'ldi. Baxting, kelajaging shunda, bir-biringga bo'lgan mehr-muhabbatingda!»

Gulchehra shunday deb o'zini ovutishga intilardi, lekin baribir ko'ngli notinch edi, yuragining qayeridadir «Gunoh bo'ldi, gunoh!» degan fikr mahkam o'tirishib qolgan edi. Sochlarini to'g'rilab joyiga qaytib kelganda, Abdulla o't to'la chelakka tikilib o'tirardi... Uni ko'rishi bilan qandaydir bo'g'iq ovozda:

– Ketamizmi? – dedi sekin.

Gulchehra unga qarayolmay, boshini liqillatdi. Abdulla o'rnidan turib chelakni qo'liga oldi.

– Men o'zim, – dedi Gulchehra chelakni undan olib.

Abdulla indamadi. Tolzordan chiqishguncha ikkalovi jim borishdi.

– Siz keyin... – dedi so'qmoqqa o'tayotib Gulchehra.

Abdulla e'tiroz bildirmay, joyida qoldi. Gulchehraning butun qiyofasi xafa bo'lgan va qattiq qayg'uga tushgan odamni eslatardi. «Chiqarmikin kechqurun?» Abdullaning yuragini g'ulg'ula bosdi, hatto qo'rqib ketdi. Gulchehra o'sha kuni ham chiqdi, ertasiga ham, indiniga ham.

Ular endi uchrashishganlarida, kelajak haqida gaplashishmasdi. Kelajak ular uchun endi kaftda turgan olmadek aniq edi. Bir yil kapalak umridek o'tib ketadi. Abdulla o'qishni bitirib qaytadi. Ana o'shanda hamma narsa joyiga tushadi. Ularning birga bo'lishlariga hech kim, hech narsa to'sqin bo'lolmaydi.

Abdulla jo'nayotganda ham deyarli hech narsa haqida gaplashmadi. Gulchehra unga xuddi so'nggi marta ko'rishishayotgandek mehr bilan uzoq tikilib turdi-da, oyoq uchlariga ko'tarilib, sekin labidan o'pdi. Faqat uyda Hojar buvi nevarasidan ranjigan bo'lib koyindi.

– Bolam, Mingbuloqqa nega kelasan, bilmay qoldim. Bizlarni ko'rganimi, yo boshqa biron ishing bormi?..

Abdulla miyig'ida kulib qo'ydi.

XV

Yadro-fizika institutining yotoqxonasi shahar chetida bo'lib, beshinchi qavatdan Neva qora baxmaldek jilvalanib ko'rinardi. Sayyora otasi Toshkentga ko'chib ketganidan keyin shu yotoqxonada yashay boshladi. Avvalgi uch yil to'rt kishilik xonada turdi. To'rtinchi kursga o'tganda esa, barcha yuqori kursdagilar qatori, unga beshinchi qavatdan alohida xona ajratib berishdi. Bu yerdan shaharning deyarli yarmi yaqqol ko'rinib turardi. Sayyora ko'pincha o'qishdan qaytgach, derazani lang ochib qo'yib, daryoning narigi qirg'og'ida oltin qubbasi yaltirab turgan Petropav-

lovsk qal'asini, portga kirib-chiqib turgan bahaybat kemalarni tomosha qilishni yaxshi ko'rardi.

Bugun ham o'qishdan qaytib, apil-tapil yechindi. Xona issiq bo'lganidan xalatini kiymay, shunday ichki ko'ylakda, deraza yoniga keldi. Lekin ochmadi. Pardani surib, tokchaga suyanganicha tashqariga tikildi. Tashqari esa tuman ichiga g'arq bo'lgan, deyarli hech narsa ko'rinmas, ba'zi-ba'zida yo portga kirib kelayotgan, yo chiqib ketayotgan kemalarning bo'g'i q ovozlari eshitilib qolardi. Sayyora tuman tarqalguncha hech narsa ko'rinmasligiga ishonch hosil qilib, pardani tushirdi. Divan yonida turgan kichkina taxta yashikdan alohida-alohida qilib yumshoq qog'ozga o'ralgan sap-sariq olmadan bittasini olib, qars etib tishladi-da, divanga yonboshladi. Shunda stol ustida yarmi ichilmagan qatiq shishasi tagidagi xatga ko'zi tushdi. Bu xat uydan bo'lib, dadasi yozgan, kecha kechqurun u kinodan qaytganida o'qigan edi. Shunday bo'lsa ham xatni yana qo'lga oldi.

Tursunali aka bu xatda ham odatdagidek, uyning tinchligi, onasining uni sog'ingani haqida yozib, bir qancha o'zining va onasining maslahatlarini bayon qilgan edi. Sayyora xatga ko'z yugurtirar ekan, dadasining «sen juda serxarajat chiqib qolding, yaqinda pul yuborgan edim, yana so'rab-san», degan joyiga kelganda kulib qo'ydi. Chunki xuddi shu xat bilan ketma-ket onasidan yuz so'm ham olgan edi. Buni, albatta, Tursunali aka bilmasdi. Agar onasining unga bekitiqcha yuborgan pullarini bilib qolsa bormi, tepa sochi tikka bo'lishi turgan gap edi. Biroq Tursunali akaning o'zi ham qiziga pulni ayammasdi, ko'p yuborardi.

Balki shuning uchun Sayyora kursdosh qizlar ichida eng yaxshi va eng chiroyli kiyinadigan qiz edi. Lekin shu bilan birga ba'zi qizlarga o'xshab molparast emas edi. U narsa qidirmasdi, biron narsa kerak bo'lsa darrov yaqin o'rtadagi magazindan topib kelardi. Lekin shu qiyinchiliksiz topib kelgan narsasi o'ziga yarashar va hamma-ning havasini keltirardi. Diplom ishining rahbari, munkillab qolgan professor uni erkalab, «Mening qo'g'irchog'im, agar o'g'lim bo'lganida majbur qilib bo'lsa ham o'zim kelin qilardim, – derdi tamshanib. – Sharq go'zallari haqida ko'p o'qiganman, eshitganman, lekin ularning bunchalik husn egasi bo'lishini birinchi ko'rishim».

Sayyora bunday gaplarni ko'p eshitgani uchun, kulib qo'ya qolardi. Buning ustiga u o'zini chiroyli hisoblamasdi, deyarli pardozi ham qilmasdi. Yigitlarning uni ko'rganda angrayib qolishlari, sho'xlarining esa gap otishlariga oddiy bir hol, hamma qizlarga ham shunday qilishadi, deb qarardi, lekin uning ketiga tushganlarni yomon xafa qilardi. Kursidagi bir yigitning haddan ziyod shilqimligi uchun bir shapaloq tushirganini hamma bilardi. Qizig'i shundaki, u shu yigit bilan keyin juda apoq-chapoq bo'lib ketdi. Umuman, u odamlar bilan bo'lishni, ular qizmi, yigitmi, bari-bir, bo'sh vaqtini zavq bilan quvnoq o'tkazishni yaxshi ko'rardi. Buni bilib qolgan yigitlar uni doim o'zlari bilan olib yurishar, uni o'z singillaridek ko'rishardi. Qizlar bilan ham uning aloqasi yaxshi edi. Uning kiyimlari deyarli hammaning kiyimlari edi. Ba'zan nimasi bor-yo'qligini bilolmay qolardi, hatto o'zining kiyishiga ham hech narsa qolmagan paytlari bo'lardi.

Shuning uchun xatning «onang, endi kichkina emas, sal o'zini bosib yursin deyapti», deyilgan joyiga ko'zi tushganda, ensasi qotib, yeb turgan olmasini otib yubordi. Oyoq yalang deraza yoniga kelib pardani tortdi. Tuman orasidan qal'a qubbasini bilinar-bilinmas mo'ralay boshlagandi. «A-ha! – dedi Sayyora. – Kechqurun demak yaxshi bo'ladi».

U bugun Po'lat, Abdullalar bilan «Raketa»da Pyotr saroyiga borishmoqchi bo'lganini esladi. Esladi-yu, dadasining xatning orqasiga tirkagan jumlasini xayolidan o'tdi. Boshqatdan uni o'qib chiqdi. «Abdulla yaxshi yuribdimi? U bilan aloqalaring qalay? Mendan salom aytib qo'y, yaqinda maqolasi chiqqan jurnalni yuboraman...»

U Abdullaning maqolasidan xabardor edi. Uning ancha dadil va yaxshiligini ham bilardi. Birga o'qishgan, muhokama qilishgan. Biroq nega otasi ularning aloqalari bilan qiziqib qoldi? Aloqalari har doimdagidek yaxshi. Aksari vaqt ular birga. Qiziq.

Sayyora shunday o'ylab radioni qo'ydi. Yengil kuy yangray boshladi. Bir-ikki «pa»dan so'ng, Sayyora yolg'iz o'zi raqs tushishni istamadi, karavotga sakrab chiqdi-da, oyoqlarini quchoqlab hali tanishib chiqmagan «Matematik programmalar» jurnalining so'nggi sonini varaqlay boshladi. Hech narsa tushunmadi. Xayolidan dadasining savoli va Abdulla ko'tarilmasdi. Birdan unga nimadir oydinlashgandek bo'ldi. «Nahotki... – o'yladi u, – nahotki ular shuni istasalar? Bo'lishi mumkin. Dadam uni yaxshi ko'radilar. Oyimning ham og'zidan tushmaydi, unga ham yoqadi. Menga-chi?»

Bu savolga u javob berolmadi. Lekin yangitdan Abdulla haqida o'ylay boshladi. Ha, Abdulla yax-

shi yigit. Buning ustiga u juda o'zgarib ketdi. Yaxshi tomonga o'zgarib ketdi. Ilgarigidek uyatchan emas, og'zidan gapi tushib ketmaydi, fikrlari dadil va ishonchli. Ilgari qanday edi? Gapirishga qo'rqardi. Umuman, uning har bir harakatida qandaydir yetishmovchilik, hatto qoloqlik bor edi. Endi-chi? Endi u butunlay boshqa odam. O'tgan to'rt yil uni boshqacha qilib yubordi. Ko'p o'qiydi, aqli, tartib bilan kiyinadi.

Bolalar hazillashib uni «kelajak Eynshteyni» deyishadi. Lekin bu hazilda qandaydir haqiqat bor. Hech kim uning kurs ishi, juda yengillik bilan tayyorlagan kurs ishi bunchalik muvaffaqiyatli chiqadi, deb o'ylamagan edi. O'zi ham bunday bo'lishini kutmagan edi. Vaholanki, shunday bo'lib chiqdi. Maqola holida bosilishining o'zi katta gap. Buning ustiga dekanatda shu ishingizni diplom qiling, deb maslahat berishdi. Bu kamdan-kam bo'ladigan voqea. Innaykeyin, hamma uni hurmat qiladi. Sayyora ham. U Abdulla bilan bo'lishdan uyalmaydi. U bilan bo'lgan odam hech zerikmaydi. Qiziq gaplarni topib gapiradi, yaxshi raqs tushadi. Umuman, Abdulla u bilgan yigitlardan ancha ustun.

Lekin u hech Abdulla bilan turmush qurishni xayoliga keltirmagan edi. Birga bo'lishdi. Hatto hazillashib Abdulla uni quchoqlardi, o'pgan paytlari ham bo'lgan. Lekin bularning hammasi shunchaki hazil edi. Sayyora hech mahal u bilan yaqin bo'lishga ehtiyoj sezmagani edi. Abdulla ham balki shundaydir? U odob doirasidan chiqadigan harakatga sira yo'l qo'ymasdi. Ular yaxshi o'rtoq. Bo'rttiribroq aytganda, yaxshigina do'st edilar. Abdulla unga katta hurmat bilan qarar va

doim uni o'zidan baland qo'yardi. Buni Sayyora bilardi. Shuning uchun ham u boshqa yigitlardan ko'ra uni o'ziga yaqin tutar, hatto sirlarini unga aytardi. Ular ko'pincha birga basseynga borishardi, birga cho'milishardi, Sayyora uning kelishgan, baquvvat qomatiga havas bilan qarar, ba'zan qizishib ketganda, o'zini uning quchog'ida tasavvur qilib ko'rardi. Lekin bu bir daqiqalik xayol bo'lardi va u darrov buni unutardi.

Ba'zan o'zining nozik, xipcha qomatida Abdulaning ham nazarini sezib qolardi. Lekin bu tabiiy, yigit kishi shunday yonida yaxshigina qizni ko'radi, uning nafasini sezadi-yu, hayajonga tushmay turaveradimi? Bunday yigitlar yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Ammo bo'lganda ham, ular kimga yoqardi? Hatto qizlarning uning e'tiborsizligidan jahllari chiqishi ham mumkin. Abdulla hamma yigitlarga o'xshagan yigit. U qarashi mumkin, xayolidan g'alati fikrlarni o'tkazishi mumkin, lekin chegaradan chiqmaydi, ortiqcha harakatga yo'l qo'ymaydi.

Sayyoraning o'zi ham buni istamasdi. U hech mahal Abdulla bilan yaqinlik haqida o'ylamagan edi. To'g'ri, bir marta u tushiga kirdi. O'shanda kun bo'yi Abdullaga qarolmay yurdi. Lekin bu – tush. Tushda har narsa bo'lishi mumkin. Hayotda-chi? Sayyora shu paytgacha o'ziga bu savolni bermagan edi. Lekin hozir beixtiyor shu savol kelib qoldi, lekin unga javob berolmadi. Ikki-uch yil muqaddam javob berishi mumkin edi, hozir esa aniq javob berishga qiynalib qoldi.

U endi kichkina emas. Onasi haq. Kapalakdek u guldan bu gulga sakraydigan davri tugadi.

Endi uning uyi, ro'zg'ori, sevimli kishisi bo'lishi kerak. Lekin shunday odam bormi? Sayyora ko'p qizlarning oh-voh solib, sevib qoldim, usiz turolmayman, deganlarini eshitgan edi, bilardi ham. Dugonalarining ko'pchiligi qandaydir yigitlar bilan o'z turmushlarini bog'lab qo'yishgan edi va tezroq o'qishni tugatib to'y qilish, birga turish orzusida yurishardi. Ammo uning hech kimi yo'q edi.

To'g'ri, u hamma bilan yaqin edi, lekin mana shunday birdan bir yigitga muhabbat qo'yish yo aksincha, uning muhabbatiga sazovor bo'lish uning boshiga tushmagan edi. Bu haqda hatto o'ylamagan edi. Dadasining ilmoqli gapi, onasining ogohlantirishi uni bu haqda o'ylashga majbur qilib qo'ygani edi. Chindan ham, nega u boshqa qizlarga o'xshamaydi? Ba'zilar birinchi kursdanoq bittasining etagini ushlab olishadi. Nega u shunday qilmadi? Xunuk bo'lmasa, ahmoq ham bo'lmasa? Balki muhabbat yosh tanlamasligi rostdir? Birov erta muhabbat qo'yadi, birov kech... Sayyora shundaydir? Kimga u muhabbat qo'yishi mumkin? Bundan tashqari, nahotki muhabbat birovni nishonga olganday, tanlab qo'yilsa? U ko'p yigitlarga yoqishini bilardi. Ular-chi? Ular unga yoqadimi?

Sayyora o'zi bilgan yigitlarni birma-bir ko'z oldiga keltirib chiqdi. Yo'q, ular unga yoqmasdi. Hammasi yaxshi yigitlar, lekin hech biri yuragini jizillatmaydi. Abdulla-chi? U boshqa gap. Tanish-bilishlarning ichida eng yaxshisi shu. Lekin Sayyora uni sevadimi? Sevib qolishi mumkinmi? Agar sevmasa-chi? U sevgisiz hayotni istamaydi, bunday hayotning bo'lganidan bo'lmagani yaxshi. Balki Abdulla ham uni yaxshi ko'rar!

Bu xayollardan miyasi g'ovlab ketgan Sayyora o'rnidan turdi. Radioni o'chirmoqchi bo'lganida, ko'zi priyomnik ustidagi budilnikka tushib qoldi. «O, lya-lya!» – deb yubordi u boshini qashib. «Yetti bo'libdi-ku. Rosa xunob bo'lishayotgandir!» U shoshib kiyina boshladi. Biroq engi kalta kofta kiyib, endi shimining zanjirini tortay deganda, aynadi. Yechinib, yangitdan kiyindi. Endi egniga yaxshi ko'radigan to'q zangori ko'ylak, oyog'iga baland poshnali oq tufisini kiydi. Oynaga bir qarab, o'zidan va kiyimidan ko'ngli to'ldi. Kalta qirqilgan sochini orqasiga bir silkitib tekisladi-da, plashini qo'ltiqlab pastga tushdi. Eshik tagida vaxtyor uni to'xtatdi.

– Senga telegramma keldi.

– Qani?

– Sayyora kampirning qo'lidani telegrammani olib, shoshib ochdi. «Izbrali akademikom, tvoy papa», deyilgan edi unda. Sayyora chapak chalib yubordi.

– Tyotya Dusya! Milaya! Ura!!!

U shunday deb kampirning burushgan yuzidan cho'lp etib o'pdi-da, eshikka yugurdi. Kampir hech narsaga tushunmay hayron bo'lib uning orqasidan qarab qoldi.

Abdulla bilan Po'lat ko'chaning narigi betida xunob bo'lib turishardi. Sayyora ularni ko'rishi bilan mashinalarga ham parvo qilmay, chopib ko'chani kesib o'tdi.

– Qirolicha odatdagidek ushlanib qoldilar? – dedi kinoya bilan Po'lat. Abdulla jilmaydi.

– Bolla, kechiringlar! – dedi yalingan bo'lib Sayyora. – Ikki marta kiyinib kechga qoldim.

– O‘h-ho‘! – dedi shunda uning juda chiroyli kiyinganini payqab Po‘lat. – Qirolichamiz bugun kechirsa arziydigan kiyinibdilar.

– Yaxshimi?

– Juda ham! – dedi Abdulla.

– Bunaqasi bo‘lmaydi, – qo‘shib qo‘ydi Po‘lat.

– Qani endi shu kiyimga yarasha karmon ham bo‘lsa!

– Karmon katta, – dedi Sayyora. – Kecha oyimlar yuz so‘m yubordilar.

– Yuz so‘m?! – vahmi uchib so‘radi Po‘lat.

– Ha. Hozir borib olamiz. Boramizmi?

– Borish ham gapmi? Uchamiz!

Ular yo‘lga tushishdi. Sayyora o‘rtaga o‘tib ikkalovini qo‘ltiqlab oldi.

– Bugun sizlarga konyak ham quyishim mumkin...

– Nahotki? – so‘radi Abdulla.

– Bu himmatning boisi nedir? – dedi Po‘lat.

– Mana, – Sayyora to‘xtab plashining cho‘ntagidan telegrammani olib ularga uzatdi.

– Qiyomat-ku, Sayyora! – dedi Po‘lat.

– Tabriklayman! – Abdulla hayajon bilan Sayyoraga qo‘lini uzatdi. – Bu juda katta voqea.

– Shunga bitta konyak qo‘ymoqchimisan?

– dedi Po‘lat telegrammani qayta o‘qir ekan. – Qizg‘onchiligingni endi bilishim. Hammamizga bittadan qo‘yasan.

Sayyora kuldi.

– Men hech ishonmasdim.

– Dadang bo‘lgani uchun shunday, – dedi Po‘lat, – Tursunali aka katta olim. To‘g‘rimi, Abu!

Ular hazillashib Abdullani shunday atashardi.

– To‘g‘ri, – dedi Abdulla hamon hayajonini bo‘solmay. – Akademik... Zo‘r-a? Jaranglashini qara! Akademik...

– Abu! – dedi Sayyora unga o‘girilib. – Sen ham bo‘lasan. Men buni bilaman.

– Men ham, – dedi Po‘lat. – Bahs boylashim mumkin, o‘n yildan keyin Abu akademik bo‘ladi. Ey akademik, eshityapsanmi? O‘n yildan keyin.

– Hazilingni qo‘y, – dedi Abdulla, lekin ularning shunday deyishganiga ichida quvondi. Nega ham bo‘lmasin? Axir shunga intilyapti-ku! Lekin qiyomat, Tursunali aka akademik! Bundan ham katta baxt bo‘lishi mumkinmi? Nima qilayotgan ekan hozir? Institutdamikin? Uydamikin? Qayerda bo‘lmasin, hamma uning oldiga kelyapti, tabriklayapti... U bo‘lsa sekingina jilmayib: «Rahmat, rahmat» deyayotgandir...

Abdulla bir daqiqa o‘zini uning o‘rnida qiyos qildi. Mana, kresloda o‘tiribdi. Kreslo katta, qizil duxoba qoplangan, o‘tirsang, cho‘kib ketasan, yumshoq... Xuddi Sayyoralarnikidek... Birin-кетин odamlar kelishyapti. Hammaning yuzida tabassum, lekin olayib qarayotganlar ham yo‘q emas. Abdulla hamma bilan iliq so‘rashadi, olayganlar bilan ham. Chunki ular endi nima ham qila olardi. U umrbod akademik! Ana, Husanxon aka kelyapti. Ikki qo‘li ko‘ksida, yuzida kulgi. U oyoq uchida yurib uning oldiga kelib egiladi.

– Abdullajon, tabriklayman, chin ko‘ngildan tabriklayman. – Uning ovozi xuddi In‘om bilan gaplashgandagidek mayin, titroq. – Bir vaqtlar ozgina bo‘lsa ham sizni o‘qitganim bilan faxrlanaman. Ergash akam... E, e, G‘afurjon akam qa-

laylar? Salomatliklari durustmi? Bir ziyorat qilib kelsam, qanday bo'lar ekan? Vaqtlari bo'larmikin qabul qilgani?

Abdulla «yo'q» deganday boshini qimirlatadi.

– Bilaman, bilaman, – deydi shoshib Husanxon aka. – Endi u kishining ishlari ko'p. Mehmon-izlom deganday... Ishqilib, omon bo'lsinlar. Aytib qo'ysangiz, o'zlarini urintirmasalar...

Ha... Agar shunday bo'lsa, ajoyib bo'lardi. Akademik!.. Hayotning, orzuning cho'qqisi bu.

– Nyuton yangi formula ixtiro qilyapti! – dedi Po'lat.

Sayyora kulib yubordi.

– Nima? – anglamay so'radi Abdulla.

– Xayol surib ketganingga hazil qilyapti, – dedi Sayyora.

– A... Chindan ham xayol surib ketibman, – dedi Abdulla biron narsa deyish uchun.

– Nimani, Abu? – so'radi Sayyora. – Konyakmi, konyak-ku bor... Zakuskasi-chi?

– Bir narsa topilar, – dedi Po'lat.

– Yo'q, akademiklikni «bir narsa» bilan yuvib bo'lmaydi.

– Nima taklif qilmoqchisan?

– Nima deysanmi? – Abdulla qoshlarini chirmirdi. Uning chehrasi ochilib ketgan edi. Axir shunga intilyapti-ku, albatta shunday bo'ladi, hammaning unga havasi keladi. – Baliq! Polyakcha pishirilgan osetra. Limon bilan.

– Vuy! Zo'r! – deb yubordi Sayyora.

– Zo'r ham gapmi? – dedi Abdulla o'z xayoliga berilib. – Qiyomat!

– Qani, chopdik! – Sayyora ularni sudrab ketdi. – Kassasi yopilib qolmasin tag'in.

Uchalovi yo'lovchilarni hayron qoldirib, yugurib ketishdi.

Oradan yarim soat o'tar-o'tmas ular «Raketa»da o'tirishardi. Sayyora o'rtada. Po'lat bilan Abdulla uni qo'ltiqlab olishgan edi. Saroyda baliq topilmadi. Bor edi, lekin ular istagan baliq emas. Bog'ni aylanib shaharga qaytganda ovqatlanishga qaror qilishdi. Sayyora yigitlarni markaziy favvora tomon boshlab ketdi. Unga bu yer, ayniqsa Samson atrofida jodu ko'zlarini ko'kka tikib xayolga cho'mgan suv parilari juda yoqardi. Qachon saroyga kelmasin, albatta shu ulug'vor haykallar suv otib turgan favvorani tomosha qilmasdan ketmasdi. Haykallar uning nazarida dahshatli to'liqin bilan olishayotgan pahlavonlarga o'xshardi. Samson esa har doim unga ilohiy qudratga ega bo'lgan devqomat Geraklni eslatardi. Unga qarashi bilan negadir eti jimirlab ketar, lekin baribir unga qaragisi kelaverar, uning oldidan ketgisi kelmasdi.

Hozir ham uning ro'parasiga kelib beixtiyor tikilib qoldi. Samsonning oltin suvi yugurtirilgan qomatida favvoradan otilib tushayotgan tomchilar billur yulduzlardek yaltirardi. Sayyora ularning har biriga qaragisi, qo'liga olib tomosha qilgisi kelardi. Lekin har doim shuni xayol qilganda, Samson qaddini rostlab uning qarshisiga yurayotganday bo'lardi.

– Yaxshi-a? – dedi Abdulla Sayyoraning tirsagidan ushlab.

– Ha, juda ham. Faqat men undan qo'rqaman.

– Nega?

– Xuddi menga yurib kelayotgandek tuyuladi.

– Bu suvdan. Agar suvga ko‘zing tushmasa, shunday yurolmaydi.

– Menga u butunlay yoqmaydi, – gapga aralashdi Po‘lat. – Nazarimda, ancha qo‘pol ishlangan. Boshqa figuralar yaxshi. Faqat Samson shunday ko‘rinadi. Uning qarashida ham qandaydir soxtalik bor.

– Balki shundaydir, lekin qo‘pol emas. Katta, xolos! Shuning uchun qo‘pol tuyuladi. Sal naridan qara. Umuman, haykallarni yonida turib ko‘rib bo‘lmaydi.

«U haq», – o‘yladi ichida Sayyora Abdullaning gaplarini eshitarkan. «Ilgari bunday demasdi, deymasdi». U beixtiyor orqasiga tisarilib, Abdulla aytganidek qildi. Garchand uzoqdan ko‘rsa yaxshi tuyulishini bilsa ham, hozir shunday qilgisi kelib ketdi.

– To‘g‘rimi? – so‘radi Abdulla.

Sayyora boshini qimirlatdi.

– Bo‘pti, sen bilan tortishib bo‘ladimi? – dedi Po‘lat. – Voy, menga qaranglar, biz o‘zi nega bu yerda turibmiz? Tez-tez aylanib qaytaylik.

– Shoshilma, – dedi Abdulla, – balki bu yerga so‘nggi marta kelishimizdir, keyin qachon kelamiz, kim biladi... Sayyora, huv anavi arg‘imchoq esingdami? Yur, uchamiz!

Abdulla Sayyoraning javobini kutmay, uni surgab ketdi.

– Men-chi?

– Yur-yur!

– Sen to‘g‘ri aytding, Abu! – dedi Sayyora arg‘amchida o‘tirib atrofga tikilar ekan. – Balki so‘nggi marta kelishimizdir. Menga bu yer juda yoqib qolgan edi.

– Achinma. Bizning ishimiz shundayki... – dedi Po'lat, – har yili kelib turamiz...

– Lekin ish bilan kelamiz...

Sayyoraning bu gapi yigitlarni o'ylatib qo'ydi. Ish... chindan ham yaqinda ish boshlanadi. Sakkiz oy qoldi. Sakkiz oylik yoshlik, sakkiz oylik sho'xlik. Keyin bu davr hech qaytib kelmaydi.

– Qiziq, – dedi Po'lat. – Talabalik yaxshimikin, yo ish?

– Menga qolsa, umrbod talaba bo'lardim, – dedi Sayyora.

– Unda sendan nima foyda?

– Bitta yomon matematik kamayardi. Durust-roq ishlashimga ko'zim yetmayapti. Sen bilan Abu boshqa gap.

– Abuni gapirma, – dedi Po'lat. – U ishlash uchun yaratilgan odam. Rostini aytsam, mening ham uch-to'rt yil o'qigim bor. Afsuski, bu mumkin emas.

– Hammamiz ham yaxshi ishlaymiz, – dedi arg'imchoq tebratish bilan ovora bo'lib turgan Abdulla. – Biz hali ishlaganimiz yo'q. Shuning uchun talabalik yaxshi ko'rinyapti. Ishga tushganda, ish yaxshi ko'rinadi.

– Lekin, Sayyora, seni hech reaktor yonida tasavvur qilolmayapman. Sen ko'proq vrachga o'xshaysan.

– Medinstitutga kiraymi?

Abdulla kulib yubordi.

– Yo'q. Biz birga ishlaymiz. Shunday ishlaymizki...

– Klass bo'ladi, klass! – dedi Po'lat. – Tag'in qanday klass!..

Shaharga qaytishganda Abdullaning taklifi bilan «Astoriya»ga kirishdi. Bu qadimiy restoran va uning qimmatbaho menyusi anchadan beri uning dimog'ini qitiqlab yurardi. Podsho Nikolay II ni eslatuvchi shveysar chol ularga chest berib, epchillik bilan Sayyoraning qo'ldan plashni oldi.

– Qirol qirolichani kutib olyapti! – hazil qildi Po'lat.

Ular ikkinchi qavatga ko'tarilishdi. Derazalari og'ir duxoba darpardalar bilan to'silgan restoran-da tantanavor jimjitlik hukmron edi. Onda-sonda qo'shni zaldan qadahlarning yengil jarangi eshittilib qolardi. Yoshlar prospektga qaragan deraza tagiga o'tirishdi.

– Ha... – dedi Po'lat xo'rsinib. – O'zimizning oshxona bundan tuzuk edi.

Sayyora piq etib kulib yubordi.

– Bir kun baribir kirasan shunaqa restoranga, – dedi Abdulla. – O'rganish kerak.

Kapalak nusxa bo'yinbog' taqqan ofitsiant taomnoma uzatdi. Sayyora uni varaqlab, har xil narsalarni buyurar ekan, Po'lat uning tirsagidan tortib:

– O'zingni bos, o'zingni bos, – derdi.

Ular juda yaxshi o'tirishdi. Ikki ryumkadan so'ng Po'latga bu hashamatli restoran xuddi talabalar oshxonasidek oddiygina bo'lib ko'rina boshladi.

– Qiziq, – derdi ikki gapning birida u. – Nega ilgari hech kirmaganmiz bu yerga? Juda tinch ekan-ku!

– Qani, ko'tardik, – dedi Abdulla yangitdan ryumkalarni to'ldirib.

– Nima uchun? – so'radi qizarib ketgan Sayyora.

– Hammamizning akademik bo'lishimiz uchun!

Abdulla bu gapni chindan aytdimi, yo hazil qildimi, bilib bo'lmadi, lekin juda kulgili chiqdi. Ular turishganda, shishada hali anchagina kon-yak bor edi.

– Nima qilamiz? – so'radi Po'lat va alanglab atrofga qaradi.

Restoran deyarli bo'sh edi. Faqat burchak-burchaklarda, chet elliklar bo'lsa kerak, yarim ovozda gaplashib o'tirishardi.

– Bitta ham badavlat talaba ko'rinmaydi. Oh! – dedi Po'lat barmog'ini bigiz qilib, peshanasiga qadar ekan. – Topdim. Qirolicha! Agar shu, sizning muborak qo'lingiz tekkan sharobni qirol oliy hazratlariga hadya qilsak, nima deysiz?

– Olarmikan? Turishi juda vahima-ku! – dedi Sayyora.

– Yo'lini topamiz.

Pastga tushishganda Po'lat shishani shveysar cholg'a uzatdi.

– Bobay, agar biz qaytmasak, bizning sog'lig'imizga ichishingiz mumkin.

Shveysar e'tiborsizlik bilan shishani olib, bir chayqatdi. Ko'ngli to'ldi shekilli, prilavka ustiga qo'yib, poshnalarini zarb bilan taqillatdi-da, chest berdi.

– Tashakkur, – dedi Po'lat.

Soat o'n ikkidan oshgan, lekin tun kirganga o'xshamasdi. Shaharning sutdek oppoq kechasi o'z hayotini boshlab, bor go'zalligini ko'z-ko'z qilib turardi.

– Birpas aylanamiz-a? – dedi Sayyora yana sheriklarini qo'ltiqlab.

– Faqat mensiz, – dedi Po'lat.

– Nega? – hayron bo‘ldi Abdulla.

– Qirolichani ayab ko‘proq tortganga o‘xshayman.

– Aylansak, tarqab ketadi. Keyin uyda choy ichamiz, – dedi Sayyora.

Po‘lat rozi bo‘ldi. Ular Nevskiy ko‘chasi bo‘ylab bitta-bitta yurib ketishdi. Odam siyrakligini e‘tiborga olmaganda, shaharning tun qo‘ynidaligini bilib bo‘lmasdi. Tramvay yurardi, mashinalar «g‘iz-g‘iz» o‘tib turardi. Hech qayerda tun belgisi bo‘lgan fonar ham miltillab ko‘rinmasdi. Hamma yoq yop-yorug‘, hamma narsa uyg‘oq.

Sayyora Po‘lat bilan Abdullaning qo‘llarida osilib borar ekan, ko‘zlarini uylarning jimjimador peshtoqlaridan, ko‘ko‘par binolarni yelkalarida ko‘tarib turgan pahlavonlardan, baland arklardagi xomush nigohlarini yerga qadagan farishtalardan uzolmasdi. U shularni ko‘rganidan, to‘rt yil shular bilan birga yashaganidan mamnun edi, lekin yaqinda xayrlashadi, oz qoldi, lekin xayrlashadi. U buni istamasdi. U butunlay shu shaharda yashashni istardi, shuning uchun ko‘nglining qayeridir g‘ash edi.

– Nimang go‘zal sening, shimol go‘zali? – u esiga tushgan bir she‘rni o‘qiy boshladi: Nimang go‘zal sening, shimol go‘zali? Oydin tunlaringmi, baxmal dengizing? Abdulla uni davom ettirdi: Nimang go‘zal sening, shimol go‘zali? Sening bog‘laringmi, yoqut yulduzing? Senda ulg‘aydim men, senda angladim Inson degan nomni, hayot beshigi... Keyin nima edi?

Po‘lat «piq», etib kuldi-da, davom ettirdi:

– Senda Eynshteyn bo‘laman dedim, Senda lang ochildi ilm eshigi...

– Hazil-hazil-u, – dedi Sayyora, – mening kayfim buzilib ketdi. Biz endi yosh emasmiz... Hech miyamga sig'mayapti.

– Mening miyam yorilib ketay deyapti, – dedi Po'lat. – Uyga boraylik?..

– Yuringlar.

Ular yotoqxonaga kelishdi. Liftni chaqirishayotganda vaxtyor kampir Sayyoradan so'radi:

– Boya juda sevinib ketding?

– Otasi akademik bo'ldi, – javob berdi Po'lat.

– Ilgari kim edi?

Abdulla kulib yubordi.

– Ilgari doktor edi.

– Doktor? – hayron bo'lib so'radi kampir. – Nima, akademik doktordan yaxshimi? Men bir doktorni bilaman, juda yaxshi odam, yurakni operatsiya qiladi. Innaykeyin...

Lift ko'tarildi. Beshinchi qavatga chiqishganda Po'lat to'xtadi.

– Ha, choy ichmaysanmi? – so'radi Abdulla.

– Bu odatni ikkalovinglarga havola qilaman. Uyqu bosyapti.

U tushib ketdi. Abdulla bilan yolg'iz qolib, negadir bu safar Sayyora o'zini noqulay sezdi.

– Mazang yo'qmi? – so'radi Abdulla.

– Yo'q, yaxshi, – dedi Sayyora. Ovozi ham negadir bo'g'iq chiqdi.

– Xursandmisan?

– Nimadan? – tushunmadi Sayyora.

– Dadangdan.

– Albatta. Lekin shunday bo'ladi deb o'ylamagan edim.

– Men bilardim. To'g'rirog'i, shunday bo'lishiga ishonardim. Bu juda katta baxt. Kamdan-kam odam bunga yetishadi.

– Sen bundan mustasno.

– Nega?

– Seni yaxshi bilaman, – dedi Sayyora uning qoʻlidan ushlab. – Sen yetishasan.

– Kulma.

– Kulayotganim yoʻq. Sendan kulmayman.

– Rostdanmi?

– Nega yolgʻon boʻlar ekan?

Abdulla minnatdor qiyofada jilmaydi va unga uzoq tikilib qoldi.

– Men hozir! – dedi Sayyora,plashini divanga uloqtirib. – Achchiq boʻlsinmi?

– Oʻzing bilasan.

– Demak, achchiq.

Sayyora chinni choynak bilan choy qutini koʻtarib, chiqib ketdi. Abdulla deraza yoniga bordi. Fortochkani ochdi. Baribir uy sovimadi. Kostyumini yechib, stulga ilayotganda koʻylagining koʻkragidagi tugma shirt etib uzilib ketdi. Abdulla tugmani olib, stolga qoʻydi-da, divanga oʻtirdi. Shu payt Sayyora qaytib kirdi.

– Hozir boʻladi, – dedi u va stolning ustini yigʻishtira boshladi. Shunda koʻzi tugmaga tushib qoldi.

– Bu qayerdan paydo boʻlib qoldi? – dedi u hayron boʻlib.

– Kechirasan, meniki, – dedi Abdulla. – Uzilib ketdi.

– Aytmaisanmi? – xafa boʻldi Sayyora. – Hozir qadab qoʻyaman.

– Qoʻyaver, oʻzim...

– Nega men emas?..

Sayyora shunday deb, shkafning tortmasini titkilay boshladi.

«Yaxshi qiz, – o‘yladi Abdulla nozik qomatiga ko‘z tikib. – Chiroyli, innaykeyin, akademikning qizi. Juda baxtli bo‘lsa kerak». U Sayyora bilan birinchi marta uchrashganini esladi. O‘shanda ham u xuddi shunday chiroyli, chaqqon, xushmuomala edi. Biroq o‘shanda Abdulla undan uyalardi. Endi-chi? Endi ular deyarli teng. Tengmi? Yo‘q, teng emas. Uning hamma narsasi bor. U nima istasa shuni qilishi mumkin. Unga uylangan yigit juda baxtli bo‘ladi. Uning yana bir yaxshi odati shuki, o‘zining mavqeyi bilan g‘ururlanmaydi, esga ham solmaydi. Ha... Unga uylangan odam baxtli bo‘ladi. Oilasi ham yaxshi. Tursunali akaning undan boshqa hech kimi yo‘q. Onasi ham uni yer-u ko‘kka ishonmaydi. Qiziq, nega u hech kim bilan yurmaydi? Nahotki hech kimni yaxshi ko‘rmasa.

– Sayyora...

– Nima? Oq ipni qayerga qo‘yibman, topolmayman.

– Qo‘yaver. O‘zim tikib olaman. Sayyora...

– Eshityapman.

– Seni... seni erga tegyapti, deb eshitdim. Rostmi? Sayyora kuldi.

– Kim ekan o‘sha men tegadigan er?

– O‘zing bilsang kerak?

– O‘sha odam bunisini ham aytmabdi-da... Topdim.

Sayyora Abdullaning yoniga o‘tirib, ignaga ip o‘tkaza boshladi.

– Aytmadi, – dedi Abdulla uning ochiq tizzalariga tikilib. – To‘yga-chi, to‘yga aytasanmi?

– Agar bo‘lsa... Qayeri uzildi?

– Albatta bo‘ladi. Mana, – Abdulla unga yaqinroq surilib, ko‘kragini tutdi.

- Ishonasanmi shunga?
- Nega ishonmas ekanman? Bu har bir kishining boshida bor.
- Faqat mening emas.
- Nega?
- Mening hech kimim yo‘q, – Sayyora xomush bo‘lib qo‘llarini tushirdi. – Mening hech kimim yo‘q...
- Ishonmayman, – Abdulla shunday deb, uning tizzasiga qo‘lini qo‘ydi.
- Sen... sen chiroylisan.
- Bu quruq gap.
- Yo‘q, rostdan. Juda chiroylisan,
- Sen-chi? Senga yoqamanmi men?

Sayyora unga sekin ko‘z qirini tashladi. Abdulla nima deyishini bilmay qoldi. Yoqadimi Sayyora unga? Bu haqda u o‘ylamagan edi. Ha, yoqadi, albatta yoqadi. Shunday qiz nega yoqmasin? Nega shuni ilgari bilmagan edi?

– Ha, – dedi hayajon bilan u. – Men-chi? Men senga yoqamanmi?

Sayyora jilmaydi.

– Kel, qadab qo‘yay.

U shoshib Abdullaning yoqasini yechdi. Uning yuzi qip-qizarib ketgan, entikib-entikib nafas olardi. Abdulla ham qizarib ketgan edi. Ko‘kragini tutib qimir etmay turar ekan, Sayyoraning sochlari engagiga tegib, butun badanini jimirlatardi, yoqimli hidi dimog‘iga urilardi. Tugmani qadab bo‘lib, ipni tishlab uzish uchun Sayyora egildi. Shu tob uning issiq yuzi Abdullaning ochiq ko‘kragiga tegdi. Abdulla o‘zini tutib ololmadi. Uni quchoqlab, bo‘ynidan, qulog‘idan o‘pa boshladi. Sayyora boshini ko‘tarmadi, og‘irligini unga tashlaganicha, bir daqiqa uning quchog‘ida yotib qoldi.

Yo'lakda nimadir taraqlab ketdi.

– Voy, choynak! – dedi o'ziga kelib Sayyora va sakrab o'rnidan turib eshikka otildi. Abdulla hayajonini bosolmay, joyidan qimirlamadi. Uni yangi hayot, yangi orzular quvonchi qamrab olgan edi. U hech mahal shunday bo'lishiga ishonmagan, hatto xayoliga ham keltirmagan edi. Sayyora uning uchun shu kungacha chiqib bo'lmaydigan qoyaning ustida edi. Bugun esa, bugun u shu qoyaga chiqdi. «Ha, – dedi u ichida o'zidan mamnun bo'lib. – Men niyatimga yetaman, hamma-ning menga havasi keladi!»

Ikkgiga bo'lingan choynakni ko'tarib, Sayyora kirdi. U aybdor qiyofada jilmaydi.

– Bu yaxshi. Bu baxtdan nishona. Ruslar shunday deydi. – U o'rnidan turib Sayyoraning oldiga bordi. Choynak bo'laklarini qo'lidan olib, stolga qo'ydi-da:

– Ishonasanmi shunga? – dedi.

Sayyora boshini qimirlatdi va so'radi:

– Boshqa damlaymi?

– Yo'q, – dedi Abdulla va uni qo'llaridan ushlab o'ziga tortdi.

XVI

«Mingbuloq» jamoasining idorasida majlis ketardi. Bu odatdagi majlislardan bo'lmay, unga qishloqning barcha qiziqqan kishilari chaqirilgan edi. Chamasi ikki yuz kishi sig'adigan, «klub» deb atalmish shiftining qamishlari chiqib yotgan zal odamlarga to'lgach, Nurmat aka Samadga imo qilib, «boshla», dedi. Samad sahnaning o'rtasida turgan stolga

yaqinlashdi. Uch xil baland-past binoning maketi-ga bir qarab qo'yib, zalga murojaat qildi.

– O'rtoqlar, bugun majlisimizda bitta masala ko'riladi. U ham bo'lsa qishlog'imizning kelajagi. Mingbuloq yigirma-o'ttiz yil oldin qanday bo'lsa, hozir ham deyarli shunday turibdi. Mana o'zingiz o'tirgan xo'jalik idorasi. Urushdan avval ham shu bino idora edi. Hozir ham. Tashqaridan qaragan odamning ko'ngli ozadi. Qishloqdagi boshqa uylar, qing'ir-qiyshiq ko'chalar-chi? Endi shunday loy tomli, pastak uylarda yashash uyat. Agar pulimiz bo'lmaganda boshqa gap edi. Men yana qaytarib aytaman, pulimiz hozir yangi qishloq qurilishini boshlashga yetadi. Mana, ko'z oldinglarda yangi Mingbuloqning taxminiy maketi, – Samad maketni qiyshaytirib zaldagilarga ko'rsatib chiqdi. – Bu maketni o'zimizning yosh me'mor, Yusuf akamizning qizlari Gulchehra yasagan. Qurilishni ham uning o'zi boshqaradi. Rahbariyat shunga qaror qildi.

Zalda qarsak ko'tarildi.

– Umringdan baraka top! – degan ovozlar eshitildi.

– Hozir, – gapni davom ettirdi Samad, – so'zni Gulchehrra bersak. Yangi Mingbuloqning qanday bo'lishini yaxshilab tushuntirib bersa, keyin muhokamaga qo'ysak? Qarshilik yo'qmi?

– Yo'q.

– Eshitaylik!

– Bo'lmasa so'z Gulchehra Saidovaga!

Nurmat aka bilan otasining o'rtasida o'tirgan Gulchehra uyalib o'rnidan turdi va «gapiraveraymi?» degandek, raisga qaradi.

– Bemalol. Ko'nglingdagi borini gapir, – dedi Nurmat aka. Gulchehra maket yoniga keldi. U

uyda majlisga tayyorlanar ekan, gapni nimadan boshlashni va nima bilan tugatishini ham o'ylab qo'ygan edi. Lekin hozir unga ko'zlarini tikib turgan odamlarga qarab o'zini yo'qotib qo'ydi. Hatto ichida: «Xudo, o'zing sharmanda qilmagin-da», deb yubordi. Nimadan boshlash kerak? Kunduzi Samad bilan uchrashganda hammasini kelishib olgan, nima deyishini aniq bilardi. Hozir esa hamma gap xayolidan ko'tarilib ketdi. Zal to'liqlana boshladi. Kimdir yo'talib ham qo'ydi. Gulchehra gapini o'ylab, birma-bir zaldagilarga qarab chiqar ekan, deraza tokchasida o'tirgan Alisherga ko'zi tushib qoldi. Alisher uning qiynalib turganini ko'rib, «gapiravering, nimadan cho'chiysiz?» degandek ko'zini qisib qo'ydi. Gulchehraga bu dalda bo'ldi. Ukasidan ko'z uzmay, sekin gapini boshladi.

– Bu maket mening diplom ishim bo'ladi. O'rtoqlarim katta-katta binolarning, butun rayonlarning maketlarini chizishyapti. Men o'z qishlog'imni tanladim. Ko'pdan beri Mingbuloqning yangi qiyofasini ko'rishni, chang, tor ko'chalar, yerto'lalarni eslatuvchi uylar o'rnida keng ko'chalar, chiroyli imoratlarni orzu qilardim. Shu orzumni mana shu maketga tushirdim. Bu maket, albatta, mukammal emas, xato, kamchiliklari ko'p, buning ustiga mening birinchi mustaqil ishim...

Gulchehra to'xtab qoldi. U hayajonlana boshlaganidan gapini yo'qotib qo'ygan edi.

– Gapiraver, qizim, qulog'imiz senda, – dedi bir chol birinchi qatordan.

– Kamchiligi bo'lsa, qo'rqma. Hasharga chiqirsang, tuzatamiz! – qichqirdi orqada kimdir.

– Kamchiliksiz ish bor ekanmi! Gapiraver! – uni quvvatladi yana kimdir.

Gulchehra ukasiga qaradi. Alisher ikki ko'zini unga tikib, jilmayib turardi.

– Qani bo'la qol, qizim! – dedi Nurmat aka unga dalda berib.

– Yangi Mingbuloq qanday bo'lishi kerak? – davom etdi o'zini tutib olib Gulchehra. – Mana bu maketda uning bir qismi ko'rsatilgan. Mana bu to'rt qavatli bino xo'jalikniki. Biz Nurmat aka bilan kelishib, uni madaniyat saroyi deb atadik. Hozir hech qanday qishloqni shunday madaniyat saroyisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, yoshlar ko'p. Kechqurun ular doim dam oladigan, bilimlarini oshiradigan, kino, konsert, teatr ko'radigan bir joy bo'lishi kerak. Maketdagi bino ana shunaqa joy bo'ladi.

– Qachon? – qichqirdi kimdir.

– Uch-to'rt yil ichida, – javob berdi Gulchehra. – Madaniyat saroyi orqasiga kanal tushadi. Keyinchalik borib bu yer qishloq markaziga aylanadi. Uning oldidan katta ko'cha o'tadi. Bu ko'cha bir tomondan Qo'qon, ikkinchi tomondan Oltiariq bilan tutashib ketadi. Madaniyat saroyining o'ng tomonida, mana ko'ryapsizlar, xo'jalikning yangi idorasi. Bu ikki qavatli bino qurilishi ham shu yillar ichida ishga tushadi. Chap tomondagi tepasi ayvonlik manavi bino «Mingbuloq» mehmonxonasi. Shunday qilib, qishloq markazida mana shu uchta katta bino bo'lib, ularning o'rtasi favvorali bog' bo'ladi. Bu bog' kanalgacha cho'zilib keladi.

– Menda savol bor? – dedi zalning o'rtasidan bir mo'ysafid turib.

– To'xtang, ota! Gapini tamomlasin!

– Gapini keyin gapiraveradi. Hozir so'ramasam, esimdan chiqib qoladi.

– Mayli, so'rang, – dedi Gulchehra, – nima deysiz, ota?

– Aytayotganlaringning hammasi yaxshi, bolam. Shu imoratlarning hammasi kerak. Lekin sen menga boshqa narsani ayt. Bizning uylar nima bo'ladi? Kecha nevaram gap topib keldi. «Nima deysiz, buva, Mingbuloq buzilarmish, ko'p qavatli uyda turarmishmiz!» «To'xta, – dedim, – bu nima degan gap? Tuppa-tuzuk uyimiz bo'lsin-da, hamma bir-birining ustiga mingashib yashasin? Bu bo'lmagan gap. Qaysi bir yili Toshkentga tushganimda, meni bir joyga janazaga olib borishdi. Uyga odam sig'madi, janazani ko'chada o'qidik. Bu ham mayli. Tovutni arqon bilan dera-zadan tushirilganini aytmaysanmi? Men Mingbuloqda ham shunday bo'lishini istamayman. O'zbekka bir parcha yer kerak. O'zbekka bitta bo'lsa ham daraxt ko'karib turgan joy kerak. Ho-jatxonaga chiqsa ham hovliga chiqsin-da, o'zbek. Nima dedinglar?

– To'g'ri, ota, to'g'ri!

– Bor ekansiz-ku, Qobiljon aka! – degan ovozlari yangradi.

– Qobiljon aka, – dedi Samad, – shuncha gapingiz bor ekan, keyinroq gapirsangiz bo'lar edi.

– E, bolam, esimdan chiqib qoladi, deyapman-ku! Xo'sh, qizim, qani ayt-chi, nevaram haqmi? Rostdan shunaqa uy qurasanmi?

– Hozir, hozir, ota, – dedi uning gaplarini kulib turib eshitgan Gulchehra. – Men ham siz qanday o'ylasangiz, shunday o'ylayman. Hozir javob beraman. Shunday qilib, shu uchta bino tushadigan joy qishloq markazi bo'ladi. Uning atrofida to'rt tomonga to'rtta ko'cha tushadi. Ko'chalarning atroflariga turar-joy binolari quriladi. Mana

bu yerda shu turar-joy binolarining ikkita maketi bor. Bu, albatta, taxminiy maket. Ko'ryapsizlarmi, ko'chaga qaragan to'rt oynali uy, uning orqasi hovli. Hovlining jamoa yeriga joylashgan joyi qator hujra... Mingbuloqda ko'p qavatli turar-joy binolari qurib bo'lmaydi. Hozircha mana shu uylar kifoya. Qobiljon ota, mana qarang, bu uylar shunday bo'ladi: oldi ayvon, uch xona, bir dahliz. Yo bo'lmasa, to'rt xona, bir dahliz. Ko'chaga esa, xohlang eshik, xohlang darvoza quring.

– Qobiljon akaga darvoza kerak. Tobut eshikdan chiqmasa, nima qiladi?

Zalda kulgi ko'tarildi.

– Shunday qilib, – gapini yakunladi Gulchehra, – maketda asosan qishloqning markazi ko'rsatilgan. Shuning o'zi ham ancha yilga cho'ziladigan ish.

Gulchehra joyiga borib o'tirdi. Nurmat aka, ma'qul, degandek unga qarab boshini qimirlatib qo'ydi.

– Yasha, – dedi Yusuf aka. – Gapga ham tuzuk ekansan-kul!

Gulchehra jilmaydi.

– Xo'sh, qani, kimda savol bor? – Samad stolga qalam urib zalga murojaat qildi.

– Menda bor! – dedi ikkinchi qatordan gavdali bir ayol ko'tarilib. – Yangi qishloqda yasli bo'ladimi? Nega bu haqda indamaysizlar? Yo bolani orqamizga tutib ishlayveramizmi?

– Bo'ladi! – dedi Nurmat aka joyida turib. – Birinchi navbatda oltmish kishilik yasli quramiz. Bu rejaga kirmagan. Chunki yaslining qurilishi shu yiliyoq boshlanadi.

– Ko'nglingiz to'ldimi, Karomat opa?

– Manavi boshqa gap.
– Yana qanday savol bor?
– Menda! – Alisherning yonida turgan bir bola qoʻlini koʻtardi.

– Nima deysan?
– Madaniyat saroyi bitganda, har kuni kino boʻladimi, yo hozirgidek uch-toʻrt oyda birmi?
– Kuniga ikki mahal. Yaxshimi?
Bola iljaydi.

– Yana kimda savol bor?
– Men bir narsaga tushunmayapman, – birinchi qatorda oʻtirgan moʻysafid oʻrnidan turdi. – Unday boʻladi, bunday boʻladi, deyapsizlar! Yaxshi. Boʻlsin. Idorani ham, tomosha binoni ham jamoa xoʻjaligi quradi. Bunga aqlim yetib turibdi. Lekin turar joylarni kim quradi? Kimning puliga quradi? Shuni tushuntir.

Samad Nurmat akaga «gapirasizmi?» deganday qarab qoʻydi. Nurmat aka maket yoniga keldi.

– Gapingiz toʻgʻri, Muqim aka. Jamoa xoʻjaligi hammaga tekin imorat qurib berolmaydi. Lekin biz maslahatlashib shunday bir fikrga keldik. Oʻttiz-qirq kishidan iborat qurilish brigadasi tuzsak. Shu brigada faqat uy qurish bilan shugʻullansa.

– Pulni kim beradi, pulni?
– Hozir, – Nurmat aka qoʻlini koʻtardi. – Pulni kuchi yetganning oʻzi beradi. Kuchi yetmaganga xoʻjalik. Uch-toʻrt yilda qarz uzilib ketadi. Daromadidan bosib qolinadi. Mana sizning oʻzingizni olaylik. Oʻzingiz ishlaysiz, oʻgʻlingiz, kelingiz. Ikki kishining daromadi xoʻjalikka sarf boʻlsa, bittangizniki yangi uyga ketadi. Sizniki ketadigan boʻlsa, bir yildayoq uzilasiz. Qalay, maʼqulmi?

– Ma’qul ham gapmi? – dedi mo’ysafid. – Birinchi qilib meni xatga tirkab qo’y. Uyga egilib kira-verish jonimga tegdi.

Kulgi ko’tarildi.

– Qani, kimda yana?

– Mumkinmi?

Savol-javob allamahalgacha davom etdi. Gulchehra kichkina maket shuncha gap-so’zga sabab bo’lishini kutmagan, hozir dadasi va Samadlar bilan uyiga qaytar ekan, o’zida yo’q shod edi. Yarim yo’lga kelishganda, Yusuf aka nimadir esiga tushib, orqasiga qaytdi. «Ayangga aytib qo’y, darrov kelaman», – dedi-yu Nurmat akani axtarib ketdi.

Gulchehra Samad bilan yolg’iz qoldi.

– Xursandmisan endi? – so’radi Samad.

– Juda ham, – dedi Gulchehra. – Bunday bo’ladi deb sira o’ylamagan edim.

– Men ham. Odamlar yaxshi yashashni istab qolishdi. Endi, qornim to’ysa bo’ldi, degan gap qolib ketdi. Loydan yasagan qal’amiz esingdami? – so’radi Samad, uning tirsagini ushlab. – To’rt darvozali, ikki qavatli qal’a... Lekin uni o’shanda kimdir buzib yuborgan edi. Endi hech kim buzmaydi. Sening uylaring bilan endi odamlarning o’zi qiziqib qolishdi.

– Ha, – dedi xayolchan ohangda Gulchehra.

Loy qal’a uning xotiridan sira chiqmaydi. Ancha bo’ldi bunga. Ikkinchimi, uchinchi sinfda o’qirdi o’shanda. Darsdan keyin mol boqib yurib, bolalar ariq labida «hammompish» o’ynashdi. Gulchehra ham o’ynadi. Keyin, o’zi sezmay, loydan nimadir yasay boshladi. Samad ham unga qo’shildi. Gulchehra devor ko’tardi, Samad uning

nima yasayotganini sezganday qator darcha ochdi. Keyin devorning to'rttala burchagiga minora qurishdi. Minoralarni qamish bilan bir-biriga ulab, tagiga darvoza o'rnatishdi.

– Bu sening uying, – dedi Gulchehra jiddiy ohangda qal'aga tikilib.

– Bizning uyda darvoza yo'q, – dedi Samad.

– Katta bo'lganida qurib olasan.

Bolalar qal'a ustiga yana nima qurishni o'ylab, uzoq turib qolishdi. Lekin hech narsa topisholmadi. Kech kirdi. Bolalar tarqalishdi. Gulchehra uyda ham qal'a ustiga nima o'rnatishni o'yladi. Nihoyat topdi. Ertalab u xursand bo'lib, Samadlarnikiga yugurdi. Ikkalovi shosha-pisha to'g'on boshiga kelishdi. Ammo kechagi tizza bo'yi qad ko'tarib turgan qal'a buzilib yotardi. Kimdir uni tepkilab yer bilan bitta qilgan edi. Hali yaxshi qurimagan loyda etik nag'allarining izi turardi. Gulchehra yig'lab yubordi.

– Yig'lama, – dedi Samad tishini-tishiga qo'yib.

– O'zim yangisini yasab beraman.

U shunday ham qildi. Avvalgidan katta qal'a qurdi. Lekin baribir Gulchehraning alami anchagacha bosilmadi. Gulchehra shuni eslab borar ekan, minnatdorlik bilan Samadga qarab qo'ydi. Haqiqiy do'st shunday bo'ladi. Mana, Samad hozir ham uni quvvatlab kelyapti, undan yordamini ayamayapti.

– Bilasanmi, men hali yangi uy qurmoqchiman. Shiyponlik, darvozalik...

– O', to'y yaqinmi?.. – so'radi Gulchehra.

– Agar rozi bo'lsa yaqin, rozi bo'lmasa...

– Kim ekan o'sha rozi bo'lmaydigan? Men bilanmi?

– Ha, – dedi sekingina bosh irgʻatib Samad.
– Oʻzi nima deydi? Gaplashdingmi?
– Yoʻq. Gapiraman deyman-u, tilim bormaydi...
– Shunchalik uyatchangmisan? Bilmagan ekanman.

– Gap uyatchanglikda emas.
– Nimada?
– Bilasanmi, u shunaqangi yaxshi odamki, oʻzini shu qadar menga yaqin tutadiki, bu haqda ogʻiz ochgani qoʻrqaman. Balki xafa qilib qoʻyarmen, balki yoqmasman...

– Sen yoqmaydigan qiz kim ekan? Mingbuloqdanmi?

– Ha. Mingbuloqdan. Birga oʻqiganman, birga ishlayapman...

Gulchehra qishloqdagi barcha qizlarni bir-bir koʻz oldiga keltirib chiqdi, lekin birontasini Samadga yaqinlashtira olmadi.

– Kim ekan? – dedi nihoyat uning oʻziga murojaat qilib.

– Aytaymi?

– Ha.

– Sen.

Gulchehra qizarib ketdi. U bunday javobni xayoliga ham keltirmagan edi. Bechora Samad!

– Xafa qildimmi? – soʻradi Samad xavotirlanib.

– Yoʻq, yoʻq, – Gulchehra toʻxtab qoldi. – Lekin men... sen... yoʻq, bunday boʻlishi mumkin emas.

– Bilaman, senga Abdulla yoqadi.

Gulchehra yalt etib unga qaradi.

– Qayerdan bilasan? – soʻradi shoshib Gulchehra. «Nahotki koʻrgan boʻlsa?». U shuni oʻyladi-yu, tolzor esiga tushdi va qoʻrqib ketdi.

- U kelganda juda boshqacha bo'lib ketasan.
- Shumi? – Gulchehra yengil nafas oldi.
- Shuning o'zi ham katta gap.
- To'g'ri, men uni... men uni yaxshi ko'raman.
- U-chi?
- U ham. Ko'pdan beri.

Gulchehra shunday dedi-yu, sevinib ketdi. Abdullaning bo'lgani va ular bir-birini yaxshi ko'rgani qanday yaxshi! Yaqinda uchrashishadi, oz qoldi, keyin doim birga bo'lishadi. Bundan ham katta baxt bormi! Lekin, lekin bechora Samad... Unga qiyin. O'zi juda yaxshi yigit. Balki boshqa birovni sevib qolar? Qishloqda yaxshi qizlar ko'p. Nurmat akaning qizi-chi? Biram chiroyli, biram yoqimtoy!

– Meni kechir, Samad, – dedi Gulchehra uni yupatishga intilib. – Hech narsa deymayman.

– Yo'q, sen kechir. Gapirmasam bo'lar edi. Shunday bo'lishini kutgan edim, kechir... Xo'p, mana uyingga ham yetib keldik.

Samad darvoza qarshisida to'xtadi. Gulchehra qo'lini uzatdi.

– Xayr.

– Xayr, – Samad uning qo'lini omonatgina siqib, tez orqasiga burildi.

– Samad!

– Nima?

– To'xta, – Gulchehra yugurib uning oldiga bordi. – Mendan xafa bo'ldingmi?

– Yo'q, – Samad xomush jilmaydi. – Nega xafa bo'lar ekanman? Yosh bola emasmiz. Xayr.

Lekin Gulchehra uni qo'yib yubormadi.

– Baribir o'rtoq bo'lib qolamiz-a? Men seni o'zimning eng yaqin do'stim deb bilaman.

– Men ham. Xayr. Oramizda hech qanday gap bo'lgani yo'q deb hisoblayver.

Samad ketdi. Gulchehra u qorong'ilik ichida g'oyib bo'lguncha ketidan qarab qoldi. U Samadga hozir juda achinib ketgan edi. Lekin nima qila olardi. Agar Abdulla bo'lmaganida-chi? Unda ham shunday javob berardi. Samad yaxshi yigit, yaxshi o'rtoq. Unga odam o'ziga ishongandek ishonsa bo'ladi. Lekin sevgi... sevgi bunga qararmidi?

Yana Gulchehraning xayoliga qishloqdagi qizlar keldi. U birontasini yaxshi ko'rib qolishi mumkin. Kishi muhabbat qo'ymasdan yashay olmaydi. Albatta birontaga ko'ngil qo'yadi. Gulchehra shu fikr bilan qanoatlanib, ko'ngli joyiga tushdida, uyiga kirdi. Zumrad opa uni sabrsizlik bilan kutib o'tirardi. Ko'rishi bilan yosh qizlardek dik etib o'rnidan turib, qarshisiga yurdi.

– Yaxshi o'tdimi? Nima deyishdi?

– Juda ham yaxshi o'tdi, aya, – Gulchehra uni quchoqlab, yuzidan o'pdi. – Biram qo'rqqan edim! Shunaqangi savollar yog'ilib ketdiki! Odamlarni aytmay sizmi? Zal liq to'ldi. Ovqatim o'choq boshidami?

– Men o'zim olib kelaman. Sen charchagansan!

Zumrad opa g'izillaganicha o'choq boshiga ketdi. Gulchehra buni istamasa ham, bu gal indamadi. Unga bu xotin juda yoqib qolgan edi. Albatta avval chiqishtirmadi, hatto ikkinchi marta uylangani uchun dadasidan xafa ham bo'ldi. Lekin uning Alisherga, dadasiga bo'lgan munosabatini ko'rib, o'zgardi.

Zumrad opa asli oltiariqlik bo'lib, tug'magani uchun ikki yil turmush qurishgandan so'ng, eri qo'yib yuborgan edi. Uning Nurmat akaga qandaydir tanishligi bo'lib, Mingbuloqqa onda-sonda kelib turardi. Saodat opaning yili o'tgandan so'ng, Nurmat aka uning haqida Yusuf akaga og'iz ochdi. Yusuf aka rozi bo'lmadi. Shunda rais urishib berdi.

– O'zingni o'ylamasang, bolalaringni o'ylasang-chi! Qachongacha qizing uyga qaraydi? O'qishi kerak, ishlashi kerak. Keyin, kichkina emas. Turmush qurib chiqib ketsa, nima qilasana? O'g'lingni kim tarbiyalaydi?

Bu gap Yusuf akani o'ylatib qo'ydi. Ayniqsa, ozib, rangi somon bo'lib ketgan Gulchehrani ko'rib, rahmi keldi. Bir yildan so'ng to'rt-besh og'aynisini chaqirib, osh qildi-da, Zumrad opani uyiga olib keldi. Uy birpasda to'ldi-qo'ydi. Lekin Gulchehra anchagacha uni «aya» deyolmay yurdi. Uni ko'rganda o'z ayasi esiga tushib, ko'ngli buzilar, ba'zi paytlari yig'lab ham olardi. Yusuf akaning:

– Qizim, men Zumradni seni o'ylab, ukangni o'ylab olib keldim. Yetim o'smalarining, qarovsiz qolmalarining, deb olib keldim. Agar xafa qiladigan bo'lsa, o'sha kuniyoq javobini berib yuboraman. U bunday qilmaydi. Bolasiz odam bolaning qadrini biladi. Keyin o'zining mehribonligini ko'ryapsanmi? Senlarni ko'rganda oyoqlaringga yiqilib poyandoz bo'laman deydi, – degan gaplari ham unga ta'sir qilmasdi.

Lekin bir voqea sabab bo'lib, ular bir-birlariga yaqin bo'lib ketdilar. Kelganiga bir yil bo'lganda yig'im-terim oldidan Zumrad opa bir haftaga Oltiariqqa borib, akasini ko'rib kelmoqchi bo'ldi-da, Alisher bilan yo'lga otlana boshladi. Gulchehra

ukasini yuborishni istamasa ham, otasi rozilik bergani uchun, indamadi. Bir hafta bilinmay o'tib ketdi. Qaytib kelishganda u ukasini tanimadi. Oyog'ida yangi tufli, egnida yoqasiga uqa tutilgan ko'ylak, jun matodan shim... Eng muhimi, rangi qip-qizil mag'izdek. Alisher uni ko'rishi bilan «opa!» deb quchog'iga otildi.

– Maza bo'ldi, opa! Rosa o'ynadim. Ayamlar keyin shaharga olib tushdilar. Kiyimlarimni qarang.

– Muborak bo'lsin. Muncha yaxshi! Kim olib berdi?

– Ayamlar, – dedi g'urur bilan Alisher.

– Yaxshimi? – so'radi ularga jilmayib qarab turgan Zumrad opa.

– Judayam yaxshi, aya! – deb yubordi to'lqinlanib Gulchehra va uni mahkam quchoqladi.

Zumrad opa yig'lab yubordi. U Gulchehrani bag'riga bosib sevinar, lekin ko'zidan shashqator oqayotgan yoshlarini to'xtata olmasdi. Shu-shu ularning orasidan qil o'tmaydigan bo'lib ketdi.

...Zumrad opa issiq oshni uning oldiga qo'yar ekan, so'radi:

– Dadang qanilar?

– Hozir kelib qoladilar. Nimadir eslariga tushib, Nurmat akani qidirib ketdilar.

– Yaxshi bo'ldi de-a?

– Juda ham. Nurmat aka, o'zing bosh bo'lib qurdirasan, deyaptilar. Lekin hali bunga ancha bor. Hali institutda nima deyishadi, bilmayman.

– Aytganday, – dedi o'rnidan turib Zumrad opa. – Senga telegramma keldi.

– Qani? – shoshib so'radi Gulchehra Abdul-ladan deb o'ylab.

– Mana, olib qo'yibman.

Zumrad opa derazaga qistirilgan qog'ozni olib, unga uzatdi. Gulchehra apil-tapil qo'llarini artib, telegrammani o'qiy boshladi. O'qib bo'lib, avval hayron bo'ldi. Keyin yangitdan o'qib chiqdi va birdan xaxolab kulib yubordi.

– Ha, nima ekan? – so'radi Zumrad opa.

Gulchehra o'zini kulgidan to'xtata olmay, javob o'rniga telegrammani uzatdi. Unda shunday yozilgan edi: «Hurmatli o'rtoq Saidova! «Yoshlik» kompleks binosining hay'at a'zolari sizning loyihangiz bilan tanishib chiqdi. Hay'at sizga shu loyiha uchun birinchi mukofot berilishini loyiq topdi... Tanlov shartiga muvofiq, kelgusi yilda boshlanadigan qurilishda siz ishtirok etishingiz kerak. Sizni qiziqtirgan barcha masalalar bilan quyidagi manzilga murojaat qiling: Shahar loyiha instituti».

Gulchehra quvonchining cheki yo'q edi. U endi me'mor! Uning loyihasini qabul qilishdi! Mukofot berishdi.

– Nega gapirmaysan? Menga ham ayt! – dedi Zumrad opa. Gulchehra uni quchoqlab cho'lpilatib yuzidan o'par ekan, telegrammaning mazmunini aytib berdi.

– Nima, endi ketib qolasanmi?

– Hozir emas. Chaqirishganda. Innaykeyin, tez qaytaman. Yarim yilcha-da, aya! Bu juda katta gap! Ishonmaysizmi?

– Ishonaman. Nega ishonmas ekanman. Mayli, omon bo'l ishqilib.

Gulchehra telegrammani yuziga surtib o'pa boshladi. Orzusiga endi yetdi u! Juda tez yetdi!

Samad eshitsa-chi, o'zi xursand bo'ladi. Dada-si-chi? U ham. Hamma xursand bo'ladi. Darhol Abdullaga yozishi kerak. Qanday sevinib ketar ekan eshitib?! U shunday xayol bilan ovqati ham chala qolib, o'z xonasiga yugurib kirib ketdi.

«Abdulla, – deb boshladi u xatni. – Ikki kun bo'lgani yo'q sizga xat yozganimga. Lekin yana yozgim keldi. Bugun shodligimning chegarasi yo'q. Mingbuloq maketi qabul qilindi! Shundan boshim osmonga yetib, uyga kelganimda yana bir quvonchli xabarning ustidan chiqdim. «Yoshlik» kompleks mehmonxonasi uchun yuborgan loyiham birinchi mukofot olibdi. Hozir qo'limda shu telegramma-ku, sevinchimni ichimga sig'dirolmay sizga yozayapman. Xursandmisiz? Siz yaxshi ko'rgan qiz aqlli chiqib qoldi. Lekin uning yutuqlardan boshi aylanmaydi. U sizga o'xshashga, hamma narsaga jiddiy, sokin qarashga harakat qiladi va sizni sog'inib kutadi. Siz kelganda men Toshkentda bo'larman. Chunki qurilishda mening ishtirok qilishim shart ekan. Jyuri shunday yozibdi. Shu bilan xatim tamom. Dadam kelyaptilar!.. Xatingizni intizorlik bilan kutuvchi Sizni sog'ingan Gulchehra».

Ertasiga ertalaboq u xatni jo'natdi.

XVII

Abdulla ikki o't orasiga tushib qolgan edi. Lekin shunday bo'lganidan xafa emas edi. Sayyora oddiy qiz emas. U bilan o'z hayotini bog'lagan odam ko'p narsaga yetishishi mumkin. Abdulla esa shunday bog'lanishning bo'sag'asida turibdi.

U o'zining Sayyora bilan bo'ladigan turmushini tasavvur qilar ekan, beixtiyor chehrasiga tabasum yugurardi. Uch yil aspirantura, uch yil doktorlikka tayyorgarlik, keyin bironta yirik ilmiy-tekshirish institutiga rahbarlik...

Bu hammasi bo'ladigan gaplar. Albatta, bu darajaga uning o'zi ham mustaqil ravishda erishi-shi mumkin. Lekin qachon? Necha yilda? Buning ustiga hayotda har bir narsa yuz berishi mumkin. Uning e'tibordan chetda qolib ketishi ham ehtimoldan xoli emas. Sayyora bilan bo'lganda-chi? U butunlay boshqa gap. Tursunali aka obro'li odam, u hech mahal qarab turmaydi. Qo'lidan kelganicha unga yordam beradi, yo'l ko'rsatadi. Har holda begona emas, oddiygina shogird emas, kuyov! Yakka-yu yagona qizining umr yo'ldoshi! Umr yo'ldoshi...

Qiziq, shunday bo'larmikin? Nega ham bo'lmasin? Sayyora so'nggi paytlarda unga juda boshqacha qaraydigan bo'lib qoldi. Ilgari ham u o'zi e'tiborli edi. Lekin Abdulla ikkalovi o'rtasida bunday yaqinlik yuz berishini kutmagan edi. Albatta, birinchi marta ko'rganidayoq shu fikr xayolidan o'tgan. Lekin bu faqatgina xayol, shu vajdan ichida qolib ketgan edi. Uni yuzaga chiqarishga botinolmay yurardi. Buning ustiga Gulchehra... Gulchehra... yaxshi qiz, chiroyli, unga yoqadi. Agar Sayyora bilan bunchalik bo'lib ketmagan-da, albatta, hech ikkilanmasdi. Hammasi o'sha kelishganlaridek bo'lardi.

Endi-chi? Endi hamma narsa chuvalashib ketdi. Bu yaxshi emas. Odam degan bir so'zlik bo'ladi. Ko'rnamaklik qilmaydi. Lekin nega Gulcheh-

ra bunchalik bo'shlik qildi? Qizlar o'zi shunaqa bo'larmikan? Juda ham bo'shlik qildi. Agar rozi bo'lmaganda Abdullaning jahli chiqmasdi. Albat-ta ozgina xafa bo'lardi, lekin ozgina, xolos. Ho-zir buni o'ylab o'tirmasdi. Uning o'ziga ham, Ab-dullaga ham yaxshi bo'lardi. Tippa-tinch, xuddi bir-birlarini bilmagandek bo'lib ketishardi.

Endi-chi? Endi yomon, har holda, shunday yaqinlikdan so'ng, shuncha va'dadan so'ng al-dash, xiyonat qilish yaxshi odamning ishi emas. Innaykeyin, Gulchehra uni yaxshi ko'radi. Biroq u bilan turmush qursa nima bo'ladi? Uni nima kutadi? Abdulla buni tasavvur qilishga urinib ko'rdi, lekin o'zining boloxonali uyidan boshqa hech narsani ko'z oldiga keltira olmadi. «O'zim ah-moqman, o'zim! – o'ylardi u. – Nega shoshildim? Shusiz kunim o'tmasmidi?»

Lekin u Mingbuloqda o'tkazgan kunlarini es-lab, o'zini oqlardi, bundan boshqa iloji ham yo'q edi. U chindan ham Gulchehrani sevib qolgan, usiz yashay olmasligiga qattiq ishongan edi. Mingbuloqda, albatta, yaxshi bo'lgan edi. Tun-gi sayillar, shirin orzular, Gulchehraning mayin qo'llari, qo'ng'iroqdek ovozi, ajoyib gaplari!.. Uni sevmasdan bo'larmidi? U bilan o'sha yerda bir daqiqa birga bo'lgan, uning olov ko'zlariga tikilib, ovozini eshitgan odam bir umrga o'zini baxtli hi-soblasa bo'lardi. Abdulla shu paytgacha o'zini shunday hisoblab kelardi. Uning nazarida, shu paytgacha undan shod, undan baxtli odam yo'q edi. O'qishlari yaxshi, kelajagi porloq, uni sevadi-gan odam bor. Tag'in qanday odam. Teng'i yo'q go'zal, teng'i yo'q muloyim odam!

U Gulchehraning sevib qolishini juda istagan edi. Agar shunday bo'lmaganda o'zini juda baxtsiz, ruhan ezilgan his qilardi. U bolaligidan shunga o'rgangan edi. Agar uni kimdir urishadigan bo'lsa, yomon ko'z bilan qaraydigan bo'lsa, tinchligi buzilardi, o'zini alamdand qayoqqa qo'yishini, nima qilishini bilmay qolardi. Axir maktabda o'qib yurgan paytlari Husanxon akani shuning uchun yomon ko'rib qolmaganmidi?! Bolalikda oyisi... Maktabni tamomlaganda esa Gulchehra. Shularsiz u o'z hayotini tasavvur qilolmasdi. Albatta Gulchehra bo'lmasa, u baribir boshqa bir odam topardi. Kim bo'lmasin, unga mehr qo'ygan bironta odam bo'lish kerak edi.

Afsuski, shunday odam Gulchehra bo'lib chiqdi. Endi nima qiladi? Bu mushkul ahvoldan qanday qutuladi? U Gulchehraga ham, Sayyoraga ham, hech kimga yomon ko'rinishni istamasdi. O'zi yomon odam bo'lganda boshqa gap edi. Yomon emas. Har holda, uni hurmat qilishadi, u bilan hisoblashishadi, institutning eng oldi talabalaridan biri. Hech kimga u yomonlik qilgani yo'q, yomonlik qilishni o'ylamaydi ham. Odam o'z hayotining yaxshi bo'lishini istasa, yaxshi turmush kechirgisi kelsa – buning nimasi yomon? Albatta, Gulchehra bilan o'sha voqea yuz bermaganda, ish ko'ngildagidek bo'lardi. Hech narsani o'ylamasdi. Gulchehra, kechiring, men adashgan ekanman, biz bir-birimizga to'g'ri kelmaymiz, men bilan bo'lsangiz hayotingiz buzilishi mumkin, deb xat yozardi. Shu bilan tamom. Hozir bunday xat yozib bo'lmaydi, ularning aloqalari juda chuqurlashib ketdi.

Tavba, odam ham shunchalik qiyin ahvolga tushib qoladimi?! Biroq nimasi qiyin? Bittasini

tanlash kerak. Kimni? Abdulla Gulchehra haqida qanchalik o'ylashga, uning tomoniga og'ishga harakat qilmasin, ko'z oldidan Sayyora ketmas edi. Kichkinagina, nozik, qiyiq ko'zlari doim sho'x kulib turadi. Undan voz kechish mumkinmi? Otasining qo'lida ikkalovi birga ishlashsa, bir xonada o'tirishsa, bir majlisga qatnashishsa! Voz kechsa, uning ko'ziga qanday qaraydi? Tursunali akaga qanday qaraydi? Jahl ustida uning hayotini buzib yuborishi ham mumkin. Akademik! Bir kuni Sayyora hazillashib unga otasining «Abdulla bilan aloqalarining qalay? Tuzukmi?» degan xatini ko'rsatdi.

– Javob yozdingmi? – so'radi Abdulla.

– Ha, – Sayyora unga qoshlarini chimirib tikildi.

– Nima deding?

– Urishib qoldik. Yomon yigit ekan, – deb yozdim.

Abdulla cho'chib ketdi. Bu qizdan har narsani kutsa bo'ladi. Aynib qolgan bo'lsa-ya?

– Hazil qilma.

– Nega hazil qilar ekanman? Rost. Sen yomon-san. Sen bilan yolg'iz qolib bo'lmaydi.

Abdulla uyalib ketdi. Albatta u Gulchehradan keyin o'ziga erk berishdan qo'rqardi. Lekin shunday bo'lsa ham ba'zan o'zini tiyolmasdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Sayyora keyingi paytlarda juda kamdan-kam, o'shanda ham kunduz kunlari uni o'z xonasiga kiritardi. Balki bu yaxshidir, o'ylardi shunda Gulchehrani eslab Abdulla.

– Rostdan shunday yozdingmi?

Abdullaning rangi oqara boshlaganini ko'rgan Sayyora unga rahmi kelib, kulib yubordi.

– Yo'q. Siz o'ylagandan ham yaxshi, deb yozdim. Ma'qulmi shu javob?

– Juda ham, – Abdulla ochilib ketdi.

Shundan bir hafta o'tganda u birdaniga ikkita xat oldi. Bittasi Gulchehradan, bittasi uydan edi. Abdulla avval Gulchehraning xatini qo'lga oldi-yu, keyin aynidi. Xat ochmasa ham ochilib ketadigan-dek ko'rinib, kayfini buzdi. Sekin stolga qo'yib, ustiga kitob bostirdi-da, otasining xatini ochdi. G'afurjon aka hol-ahvol so'rab, uning tinchligini, ayasining sog'ligini, o'zining ham ancha tuzukligini bayon qilgandan so'ng, shunday yozgan edi:

«Kecha kechqurun Tursunali akang keldi. Ancha gaplashib o'tirdik. U seni so'radi. Qizidan gapirdi. Bilishimcha, Sayyora juda yaxshi qiz bo'lgan emish. Bir-biring bilan ancha tuzukmishsanlar. Abdulla menga juda yoqadi. Tuzukkina olim bo'lishi mumkin, dedi. Bitirgandan so'ng, Sayyorani ham, uni ham o'z institutimga olaman, aspiranturaga kiritib qo'yaman, dedi. Ayang ikkalamiz juda xursand bo'ldik. Bechora ayang ozgina ko'z yoshi ham qilib oldi. Abdullajon, o'g'lim, ko'pdan beri biz shuni orzu qilardik. Sening katta odam bo'lishingni istardik. Anglashimcha, shu niyatimizga yetayotganga o'xshaymiz. Ishqilib sog' bo'l. Tursunali akang ketganidan keyin ayang ikkimiz kechasi bilan uxlamay seni o'ylab, gaplashib chiqdik. Agar Sayyora bilan yulduzlaring to'g'ri kelib qolsa, Tursunali akang bilan quda bo'lish biz uchun katta baxt bo'lardi. Nazarimda, Tursunali akangning ham shunga mayli bor. Iltimosim shuki, keyingi xatingda shu haqda ham ikki og'iz o'z fikringni yozib yubor. Salom bilan otang G'afurjon».

Abdulla sevinib ketdi. Demak, hamma narsa uning Sayyora bilan bo'lishiga qarab ketyapti.

Demak, u Tursunali akaga yoqadi. U o'z institutiga oladi. Bu endi aniq. Aspiranturada o'qiydi. Bu ham aniq. Ajoyib qiz, ajoyib oila. Yana nima kerak? Axir uning ham xuddi ota-onasidek orzusi shu emasmi? Abdulla shu zahotiyoyq javob yozmoqchi bo'lib qo'liga ruchka oldi. Shu payt ko'zi kitob tagidan uchi chiqib turgan qizil xatjildga tushib qoldi. Nima yozgan ekan? Yana «Sog'indim, tezroq yil o'ta qolsaydi...» bo'lsa kerak.

U erinibgina xatjildni yirtidi. Xat juda qisqa edi. Bu o'sha biz bilgan xat bo'lib, Gulchehra o'z yutuqlarini yozgan, sevinchini u bilan o'rtoqlashgan edi. Abdulla xatni o'qib bo'lib o'ylanib qoldi. U hech qachon qisqa muddat ichida Gulchehraning bunchalik katta yutuqlarga erishishini kutmagan edi. Albatta, Gulchehra g'ayratli, mehnatsevar, aqlli qiz edi. Lekin bunchalik bo'lish!.. Uning shu topda unga g'ayirligi kelib ketdi va ayni vaqtda u bilan faxrlandi. U yengiltak, oddiy bir qiz bilan yurmagan ekan. Uni yaxshi ko'rgan qiz juda talantli ekan! Gulchehra! Gulchehra!..

Nima qilish kerak? Shunday qizdan voz kechib bo'ladimi?! Abdulla qo'lidagi ruchkani uloqtirib yubordi. Yo'q, u yozmaydi, hech narsa yozmaydi. Qanday yozadi, nima deb yozadi? Tavba, bunchalik ham qiynoq bo'ladimi odamga? Nima qilish kerak? Bironta odam bilan maslahat qilsinmi? Lekin kim bilan? Keyin, nima deb maslahat so'raydi? Yo'q, bu masalada unga hech kim maslahat berolmaydi. Maslahat so'rashning o'zi uyat. Undan rosa kulishlari mumkin. Kulishsa ham mayli, uni haqorat qilishlari mumkin. Axir birovning mol-mulki, amaliga qarab muhabbat

qo'yib bo'ladimi? Bu sharmandalik-ku! U nima degan odam bo'ladi? Obro'si qoladimi o'shanda?

Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin. Kim aytuvdi unga bu gapni? Qachon eshitgan edi? Ha, bunga ancha bo'ldi. Tog'asi aytgan edi. Maktabni bitirib, Mingbuloqqa borganida shunday degan edi. Nega shunday dedi? Nahotki Abdulla o'shanda bironta noma'qul gap aytib qo'ydi? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. U hech mahal dildagini tiliga chiqarmagan. Ha, bo'ldi. Otasi haqida gapira turib, shunday degan edi. «Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin...» Yo'q, u Gulchehrani tashlamaydi. Ayniqsa, endi. Endi Gulchehra unga hammadan ham yaqin, aziz bo'lishi kerak. Uni tashlash xiyonat va u – Abdulla bunday xiyonatga qodir emas. Gulchehra bilan ham u niyatlariga yetishi mumkin. Mana, hech kimning ko'magisiz, shunday katta shaharda, murakkab institutda o'qidi. Yaxshi o'qidi. Hatto kurs ishi bosilib chiqdi. Diplom ishi ham shunday bo'lishi mumkin. Shunday qiladi, javob yozmaydi, Toshkentga qaytganda esa otasiga yotig'i bilan tushuntiradi va Gulchehraga uylanadi... U tushunadigan odam. Keyin, Gulchehra bilan u emas, Abdulla turadi. Ayasi ham qarshilik qilmaydi.

Biroq bunday xayollar ham Abdullaning ko'nglini ko'tarmadi. Ozgina tinchitdi, lekin ko'nglini yorishtirmadi. U karavotda cho'zilib, Gulchehraning xatini qaytadan o'qiy boshladi.

«Siz qaytganingizda balki Toshkentda bo'larman. Qurilishda ishtirok etishingiz kerak, deyishyapti...» «Toshkentda bo'larman...» – o'yladi Abdulla va uning shaharda yurganini ko'z oldiga

keltirdi. Mana, u Sayilgoh ko'chasida ketyapti. Egnida shohi atlas ko'ylak, oyog'ida oppoq tufli. Hammaning ko'zi unda. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas, Gulchehra juda chiroyli. Mana, u univermag yonidan o'tdi. Shu top... Sayyora bilan uni ko'rib qoldi! Yo'q, bunday bo'lmaydi. Abdulla hech kimni, na Sayyorani, na uni aldaydi.

Eshik taqilladi.

– Kim?

– Mumkinmi?

– Ha, senmisan, – dedi Abdulla yotgan joyida.

– Kel.

– Nima qilib yotibsən? – dedi Po'lat xonaga kirib.

– O'zim shunday... O'zing-chi? Bekorga o'xshaysan?

– Hozir kutubxonadan keldim. Ishim yurishmayapti nazarimda.

Po'lat Abdullaning yoniga o'tirib, tizzasiga musht urdi.

– Nega?

– Mana biz yuryapmiz. Har bir qadamimiz qandaydir bir fizik hodisa. Kaptar uchdi, olma shoxidan uzilib tushdi. Bular ham fizik hodisa. Xullas, hamma hodisa va ular asosida paydo bo'lgan nazariyalarning tafakkurga aloqasi bor. Bu tushunarli. Lekin konkret matematik masalalarni yechishda diamatning roli qanday? Bilaman, masalaning mohiyatini yechishda u so'zsiz katta yordam beradi. Lekin bu endi matematika emas, fizika olami. Kvantli mexanika va falsafa, Eynshteyn nisbat nazariyasi va falsafa... Sen bu haqda hech o'ylaganmiding?

– Ko‘p marta.

– Xo‘sh, fikring qanday?

Abdulla qiynab turgan savollardan qutulish uchun Po‘latga javob bera boshladi.

– Diamat, albatta matematik masalalarni yechish yo‘llarini ko‘rsatib berolmaydi. Lekin ilmiy qidirishlarni usiz tasavvur qilish ham qiyin. Falsafani o‘rganmasdan, ilmiy haqiqatlarga yetib bo‘lmaydi... Agar hamma narsa o‘sish, rivojlantirishga ega ekanligini Eynshteyn bilmaganda, uning nisbat nazariyasi ham paydo bo‘lmasdi.

– Sen akademik Aleksandrov nima degan bo‘lsa, shuni qaytaryapsan.

– Agar to‘g‘ri bo‘lsa, nega qaytarmas ekanman?

– Chunki diplomning kichkina bir bobiga buni sig‘dirib bo‘lmaydi. Menga bitta konkret misol kerak. Rahbarim bo‘lsa, o‘zingiz toping, deyapti.

– Bir oz bosh qotirsang topasan. Yaxshisi, menga qara, – Abdulla o‘rnidan turdi. – Ozigina ichaylik. Ul-buling bormi?

– Hech narsa. Boy bo‘lsang olib kelishing mumkin. Do‘kon shunday tagimizda.

– Mayli.

Abdulla cho‘ntaklarini titkilab, pul oldi-da, o‘rtog‘iga uzatdi.

– Yo‘q bo‘lib ketma tag‘in.

– Raketa bo‘laman, raketa, – Po‘lat chopgani-cha pastga tushib ketdi.

«Ozigina boshni shamollatish kerak, g‘ovlab ketdi, – o‘yladi Abdulla va kinoya bilan kulib qo‘ydi. – Ahvoling og‘ir, azizim, ahvoling og‘ir... Po‘latning ishi maza. Diplomdan boshqa narsani

bilmaydi, shundan boshqa g'ami yo'q. Diplomi ham o'zi tayyor bo'lishi kerak. Biroq u yengil-yelpi ish qilmaydi. Sekin qilsa ham puxta ish qiladi. Aftidan, miyasida bir fikr o'ralashib yuribdi. Hammasini biladi, ayyor. Lekin o'zini tekshirib ko'rmoqchi. Balki shunday qilgan yaxshidir? U ham sekin o'zini tilga olmasdan, maslahat qilib ko'rsinmi?»

– Mana, biz ham tayyor! – dedi hansirab Po'lat xonaga kirar ekan. – Ozgina zakuska ham oldim.

– Po'lat, – dedi Abdulla bir ryumkadan so'ng.

– Nima?

– Agar seni jarning yoqasiga olib kelib, tanla: yo hayot, yo o'lim? – deyishsa, nimani tanlar eding?

– Bema'ni savolingni qo'y.

– Yo'q, aytgin.

– Albatta hayotni tanlar edim.

– Yolg'on gapirding. Men hazil qilayotganim yo'q.

– Nimani tanlar edimmi?

– Ha.

– Qaysi biri yaxshi bo'lsa, shuni.

– Sening uchun nima yaxshi?

– Mening uchun hayot qolib, o'likdek yashaganimdan o'lib hayot bo'lishim yaxshi. Ha, bu falsafiy masalalar seni nega o'ylatib qo'ydi?

Abdulla javob bermadi. Po'latning shunday javob berishini u bilardi. Boshqalar ham shunday. Lekin u-chi? U ham shunday javob berarmidi? Albatta. Yo'q, u Gulchehrani tashlab ketmaydi! Hech qachon! Hech qachon!

– Quy!

– Tinchlikmi?

Lekin Abdulla javob berishga ulgurmedi. Eshik qattiq ochilib, har galgidek shoʻx kulgi bilan Sayyora kirib keldi.

– Bolla, meni tabriklashinglar mumkin!

– Ha?

– Diplomimni mashinkaga berdim.

– Urta! – dedi qarsak chalib Poʻlat. – Yana «As-toriya»ga borar ekanmiz-da!

– Marhamat!

– Boramizmi, Abdulla? – Poʻlat oʻrtogʻini turti.

Abdullaning borgisi yoʻq edi, lekin unga ilti-jo bilan tikilib turgan Sayyoraga koʻzi tushdi-yu, yoʻq deyolmadi.

– Mayli, – dedi va shu ondayoq «shundan ajralamanmi? Qanday yaxshi qiz!» – degan fikr xayolidan oʻtdi.

– Avval menga bir narsani aytinglar! – dedi Sayyora mamnun boʻlib. – Nima sababdan ichib oʻtiribsizlar, tagʻin mensiz?

– Manavi boʻlsa sabab topiladi, – dedi Poʻlat shishaga ishora qilib. – Oʻzimiz, shunday. Abdul-laning ortiqcha puli bor ekan.

– Yana gonorarmi?

– Yoʻq, qolgani, – dedi Abdulla. – Ozgina ichasanmi?

– Aroqdanmi? Puf! Yoʻq, – Sayyora aftini buj-maytirdi.

– Xoʻp, ketdikmi boʻlmasa? – soʻradi Poʻlat. – Qornim piyozning poʻsti boʻlib ketdi.

– Shoshma, kiyinib olay, – dedi Sayyora.

– Obbo! Yana kutarkanmiz-da!..

– Yoʻq, tez tushaman.

Sayyora shoshib chiqib ketdi va anchagacha Abdullaning qulogʻi ostida uning «taq-tuq, taq-tuq» qilgan yengil oyoq tovushlari jaranglab turdi.

– Tavba! – dedi Poʻlat shishaning ogʻzini berkitar ekan. – Qirolichamiz boʻlmaganda nima qilar edik? Men hammamizning yana bir joyda ishlashimizdan xursandman. Sen-chi, Abu?

– Men ham. Biroq shunday boʻlarmikin?

– Nega boʻlmasin?

– Atom reaktori yaqinda bitadi. Bittamiz oʻsha yoqqa ketib qolishimiz mumkin.

– Faqat men emas. Sayyora ham bormaydi. Nahotki sen?

– Bilmadim. Agar yuborishsa, nima deyishim mumkin?

– Aspirantura nima boʻladi? Niyating shu edi-ku!

– Niyat boshqa, hayot boshqa. Nahotki shuni bilmasang!

– Qiziq... – Poʻlat yelkalarini qisib qoʻydi.

Abdullaning darrov oʻzgarib qolgani uni qiziqtirsa ham, hozir bu haqda oʻylagisi va surishtirgisi kelmasdi. U tezroq «Astoriya»ga borishni istardi va koʻzini eshikdan uzmasdi. Nihoyat Sayyoraning yoʻlakda oyoq tovushlari eshitila boshladi.

– Tushyapti. Yur.

Abdulla oʻrnidan turdi. «Shunday boʻlgani yaxshi, – oʻylardi u. – Reaktorda ishlayman, bu-lardan chetda».

Ular «Astoriya»da ancha oʻtirishdi. Keyin shahar aylanishdi. Oydin kecha, goʻzal shahar, Sayyora va Poʻlatning hazil-huzul gaplari uning koʻnglini koʻtarib yubordi. Lekin yotoqxonaga

qaytib, xonasiga kirganda yana miyasini ming xil fikr qoplab oldi.

Shu tariqa kunlar o'ta boshladi. Abdulla Sayyora bilan bo'lganda, Po'lat bilan uchrashganda hamma narsani deyarli unutar, yolg'iz qolganda esa nima qilishini bilmasdi. U o'zini to'qayzor ichida adashib qolgan ovchidek his qilardi, bu to'qayning na boshi bor, na oxiri, qayoqqa yurishni bilmaysan kishi. Shuning uchun otasining savoliga javob yozmadi. Gulchehraga esa, o'zini majbur qilib, yarim qog'ozgina xat yozdi-da, yutuqlar bilan tabriklagan bo'ldi. Xatida Toshkentga uning nihoyat keladigan bo'lganidan xursandligini ham bildirdi.

Bir kuni u kechqurun yotoqqa qaytganida (u endi ko'p vaqtini kutubxonada o'tkazardi) vaxt-yor kampir unga xat uzatdi. Xat Gulchehradan edi. Yana sog'inganini yozgan bo'lsa kerak, yo biron ishi yana yaxshi chiqqandir, deb o'ylab, Abdulla shoshmasdan xonasiga ko'tarildi. Yechinib, karavotga yonboshladi-da, xatni ochdi. Ammo uni o'qib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Xatda shunday deyilgan edi:

«Salom, Abdulla! Yana yozyapman. Lekin bu gal xatim sizni quvontirmaydi, chunki juda katta qo'rquv va qayg'u bilan yozyapman. Boshimga katta tashvish tushdi. Bu tashvishni hech kimga aytolmayman. Sizga aytishga ham uyalaman. Shuning uchun ham bir oydan beri sizga xat yozganim yo'q edi. Endi yozmasdan ilojim yo'q. Sizdan boshqa mening endi kimim bor? Abdulla, so'nggi uchrashuvimizdan keyin bir oy o'tgach, menda o'zgarish yuz berdi. Tushunyapsizmi?

Boshqacha yozolmayman. Avval, hechqisi yo'q, bir kun avval, bir kun keyin, deb o'zimni tinchitdim. Ikkinchi oyda ham shunday bo'ldi. Mana hozir uchinchi oy ketyapti. Taxminim to'g'ri chiqqanga o'xshaydi. Nima qilishimni bilmayman. Agar uchinchi oy ham shunday bo'lsa, bunga esa bir hafta qoldi, unda hech qanday shubha qolmaydi. Tushundingizmi, Abdulla? Biz katta gunoh qilib qo'yganga o'xshaymiz. Qishloqda endi boshimni qanday ko'tarib yuraman? Siz yonimda bo'lganinigizda ham, boshqa gap edi, bunchalik qiynalmas edim. Biror yo'lini qidirib topardik. Vrachga murojaat qilgim kelmayapti. Uyalaman. Keyin, bu yerda, Qo'qonda dadamni bilishadi. Boshim qotdi. Hech narsa dilimga sig'may qoldi. Nima qilamiz endi? Javobingizni kutib Gulchehra».

Bu xat Abdullani esankiratib qo'ydi. Nahotki, Gulchehra homilador bo'lsa? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. U yig'lamoqdan beri bo'lib, xatni yana o'qib chiqdi. Yo tavba! Endi shu yetishmay turgan edi o'zi. Nima bo'ladi endi? Nima qiladi? Abdulla xonaning u boshidan-bu boshiga yurar ekan, ko'z oldidan bu dahshatning manzaralari birma-bir o'ta boshladi. Mana onasi... U bu xabarni eshitib, ko'zlari g'azabga to'ldi. Boshini salmoqlab tebratar ekan: «O'g'lim, sizdan buni kutmagan edim. Yuzimizni yerga qaratdingiz», – dedi.

Mana, otasi. Uning rangi so'lg'in, qarib, qovoqlari osilib ketdi. U hech narsa demadi, u demaydi. U kechirishi mumkin. Mana, buvisi... Yo'q, bu kampir kechirmaydi. Uning qahri qattiq. U kechirmaydi. Obid aka-chi? U ham mayli. Undan bir-ikki gap eshitadi. Lekin Tursunali aka?..

Mana bu dahshat. U Abdullani har narsa qilishi mumkin. Uning bir og'iz gapi, tamom, Abdullani yer bilan yakson qiladi. Sayyora-chi? Mana, u bu shum xabarni eshitdi. Abdulla endi u bilan bo'lishi mutlaqo mumkin emas. Keldi, xonaga kirdi. Ko'zlarida yosh... Yo'q, u yig'lamaydi. U keladi-da, uning basharasiga tupurib, bir shapaloq tortadi. Shunday qilishi aniq.

Keyin nima bo'ladi? Yo'q, yo'q! Bunday bo'lishi mumkin emas. Balki Gulchehra vahima qilayotgandir? Hech gap yo'qdir? Koshki endi shunday bo'lsa! Balki shunday bo'lar? Hech mahal uning boshidan bunday voqea o'tgan emas, bilmasdan taxmin qilayotgandir? Boshqa biron kasalga chalingandir? Ayollarda nima ko'p, kasal ko'p. Shunday bo'lishi kerak. Agar shunday bo'lmasa, tamom, sharmandalik!..

Keyin... keyin u qanday qilib bolalik xotinni uyiga olib kiradi? Yo'q, yo'q, Gulchehra vahima qilyapti. U o'zi shunaqa, tez xursand bo'ladi, tez xafa bo'ladi. Adashgan, boshqa biror kasalga yo'liqqan-u, shunday deb gumon qilyapti. Innaykeyin, o'zi ham aniq yozmagan, gumon qil-yapman, degan...

Abdulla shunday o'ylab, bir oz tinchidi, lekin bu tinchlik vaqtinchalik tinchlik edi.

XVIII

Gulchehra toshoynadan ko'z uzmay o'tirardi. Ayasiga «Hozir kiyinib chiqaman», deb o'z xonasiga kirib ketganicha qaytib chiqmadi. Burchakdagi bo'yi shiftga tegib turgan oynaga tikildi-yu,

joyida turib qoldi. Nazarida rangi soʻngan, koʻz ostilari bilinar-bilinmas qoraygan edi. Buning nimadanligini u bilardi, uyqusizlik, yigʻi, turli xil koʻngilni gʻash qiluvchi oʻylar...

Ammo lablari nega muncha qalinlashib ketdi? Bu nimadan? Nahotki homiladorlik belgisi boʻlsa? Gulchehra shuni oʻyladi-yu, choʻchib ketdi. Agar shunday boʻlsa, ayasi ham sezgandir? U beixtiyor qornini ushladi. Ammo hech narsa payqamadi. Koʻylagini sidirib orqasiga tortdi-da, oynaga qaradi. Toʻlishgan koʻkraklari ham, kichkina qorni ham avvalgidek oʻzgarishsiz edi. Bundan koʻngli bir oz taskin topgan boʻlsa ham, gʻashligi tarqamadi. Boʻshashib kursiga oʻtirdi-da, yana oynaga tikildi. Biroq oynada u soʻlgʻin yuzlarini ham, quyuq, chimirilgan qoshlarini ham, hech narsani koʻrmasdi. Xayoli bir narsa bilan band edi. Nima qilish kerak? Nima qilsa, bu falokatdan qutuladi?

Oʻz ahvoli faqat oʻzi uchun emas, otasi uchun ham, butun qishloq uchun ham katta falokat boʻlib borayotganiga u allaqachon ishongan edi. Undan qutulish endi faqat oʻziga bogʻliq, oʻzining qoʻlida. Abdulladan darak yoʻq. Yigirma kundan oshdi xat yozganiga, javob kelmadi. Nima boʻldiykin? Yo yoʻqmikin? Yoʻq boʻlsa xati qaytib kelardi. Yigirma kun ichida yigirma marta pochtaga bordi, oxiri uyalib, Alisherni yuboradigan boʻldi. Daragi yoʻq. Endi ortiq kutib boʻlmaydi. Buni Gulchehra yaxshi bilardi. Ammo nima qilish kerakligini, kimga murojaat qilishi kerakligini tasavvur qilolmasdi.

– Opa!

Gulchehra choʻchib tushdi.

Derazadan Alisherning boshi koʻrindi.

- Choyingiz sovub qoldi!
- Hozir, – Gulchehra o'rnidan turdi. – Dadamlar shu yerdamilar?
- Kettila.
- Hozir chiqaman, – Gulchehra yengil tortib xo'rsindi.

Alisher ketgach, nima kiyishini bilmay, shifoner oldida turib qoldi. Ilgarilar yaxshi ko'radigan tor ko'ylaklaridan kiyishga uyalib, Zumrad opa tikib bergan, lekin hali hech kiymagan xonatlas ko'ylagini tanladi. Apil-tapil kiyib, oynaga qaradi. Ko'ylak unga juda yarashgan edi. Oynada o'z aksini ko'rdiyu, quvonib ketdi. Nazarida ko'zlaridan so'lg'inlik yo'qolgan, rangi ham toza, hech qanday ko'kargan, qoraygan joyi yo'q edi. «Vahima qilibmanmi?» – o'yladi u, keyin tilini chiqarib aksini mazax qilgan bo'ldi-da, shoshib hovliga tushdi.

– Muncha hayallading? – so'radi ayvonda o'tirgan Zumrad opa.

– Nima kiyishimni bilmadim, keyin shuni kiydim, – dedi ko'ylagiga ishora qilib ayvonga ko'tarilar ekan.

– Buyursin, yarashibdi. – Zumrad opa havas bilan unga tikildi. – To'lishibsan-da, bir oz kengroq edi, endi yaxshi.

Gulchehra labini tishladi. «Nahotki bilsa?!» – yashin tezligida xayolidan o'tdi. Hozirgina chehrasini yoritib turgan vaqtinchalik shodlik zumda yo'qoldi. Bo'shashibgina ayasining ro'parasiga o'tirdi.

– Qaydam, – dedi ko'ylak etaklarini tizzasi ustiga tortar ekan.

– Qiz bolaning husni ham tilida, ham dilida, deyishadi, – dedi Zumrad opa unga choy uzata turib. – Men, etida ham deyman. Quruq suyakka kiyim yarasharmidi?!

Gulchehra yengil tortdi. O'zicha minnatdorlik bilan yer ostidan ayasiga qaradi.

– Siz ham tuzuksiz, aya.

– Mening tuzukligim qayoqqa borardi, ayan-giz... ayangizni juda ko'hlik ayol edi, deyishadi.

Gulchehra nima deyishini bilmay qodi. U sira bu haqda o'ylamagan, dadasi yangi uylanganida ham dilida noroziligiga qaramay, ayasi bilan Zumrad opani taqqoslashtirmagan edi. Zotan, unga buni keragi ham yo'q edi. Zumrad opa-ning yaxshi ayolligi uni xursand qilgan, uni o'z ayasidek yaxshi ko'rib qolgan edi. Nahotki, marhumaga rashk qilayotgan bo'lsa? Yo dadasi biron narsa dedimikin? Qarindoshlar xafa qildimikin? Har holda, keyingisi to'g'riroq bo'lsa kerak, rashk-dan nima foyda? Gulchehra shunday o'ylab, uni yupatmoqchi bo'ldi.

– Ayamlar chiroyli edilar. Lekin o'zlari buni bilmasdilar. Men ham bilmasdim. Men uchun ular aya edilar. Siz ham shunday. Men uchun ham, Alisher uchun ham ayasiz.

– Rahmat.

– Birov bir narsa dedimi, aya?

– Yo'q, – Zumrad opa yangi choy quyib uzatdi.

– Ol. Yo'q, hech kim hech narsa demadi.

– Bo'lmasa, qo'ying, xafa bo'lmang.

– Xafa bo'lmayman. Endi butun umrim sizlar bilan. Ishqilib, omon bo'linglar.

Gulchehra yana nima deb uni yupatishni bilmay, o'rnidan turdi.

– Tushlikka kelasanmi? – so'radi Zumrad opa u hovliga tushganda. – Achchiqqina sho'rva qilib turaman. Kelgin.

– Kelaman, aya! Xafa bo'lmang, xo'pmi?

Zumrad opa jilmaygan bo'lib, unga qaradi. Gulchehra ko'cha eshikka yetganda, Zumrad opani nima ezganini tushundi. Eshik oldida devorga suyoqliq o'ymakor oq panjara bilan katta qora marmar tosh turardi. Toshga: «Saodat Saidova, 1924 – 1960» deb yozib qo'yilgan edi. Bu yodgorliklarni ko'rib Gulchehraning o'zi ezilib ketdi. Unutgan ekanmi, yo o'ylamagan ekanmi, onasi juda yosh ekan. Endigina o'ttiz oltiga kirgan ekan!

Nimadir tomog'ini bo'g'di. «Aya! Ayajon!» – deb qichqirgisi keldi, ammo tishini-tishiga qo'yib o'zini bosdi. O'zi-ku, mayli, lekin uyda yolg'iz qolayotgan bechora ayolning dardiga dard qo'shib nima qiladi? Yuragidan quyilib kelayotgan yig'isini to'xtatishga intilib u ko'chaga otildi. Lekin ko'chada o'zini tutib turolmadi, onasining o'limiga o'z dardi qo'shilib, yosh o'zidan-o'zi quyilib ketdi. Kim biladi, agar u tirik bo'lganda, bunchalik ezilmasmidi? Oy sayin, kun sayin yaqinlashib kelayotgan falokatning oldini olgan bo'larmidi, u bilan dardlasharmidi?

Gulchehra shularni o'ylar ekan, qanday qilib pochtaga borib qolganini payqamadi. Pochtada pul olayotgan bir mo'ysafiddan boshqa hech kim yo'q edi. Gulchehra u pulini sanab bo'lguncha bir chekkada turdi. Mo'ysafid shoshmasdan, hafsala

bilan barmoqlariga tuflab sanardi. Nihoyat, hisobga yetdi shekilli:

– Bo‘ldimi? – deb darchadan pochtachi qizga egildi.

– Ha, ota, shu.

– Rahmat, qizim.

Chol eshikka yo‘l oldi.

– Menga emas, o‘g‘lingizga rahmat deng, ota, – qichqirdi orqasidan pochtachi qiz.

– O‘g‘lim baraka topsin. Unga rahmat, senga ham.

Chol yana nimalarnidir g‘o‘ldirab chiqib ketdi, Gulchehrani ko‘rmadi.

– Keling, opa! – pochtachi qiz o‘rnidan turdi.
– Xatmi?

Gulchehra «ha» deganday iltijo bilan unga qarab boshini qimirlatdi.

– Yo‘q, opa. Sizga hech narsa yo‘q.

Gulchehra bo‘shashganicha darcha taxtasiga suyanib qoldi.

– Xavotir olmang, opa, – pochtachi qiz uni yupatgan bo‘ldi. – Tinch bo‘lsalar kerak-da.

– Ishqilib shunday bo‘lsin, – sir boy bermay dedi Gulchehra.

– Shunday bo‘lsa kerak. Kelib qolar. Juda xavotir olayotgan bo‘lsangiz, telegramma bering. Telegrammaning javobi tez keladi.

– Rost-a! – Gulchehra sevinib ketdi. Nega ilgariroq shuni o‘ylamagan ekan? – Blanka bering.

– Mana, opa.

Gulchehra stol yoniga borib o‘tirdi. Bugun telegramma bersa, ertagayoq javobi keladi. Oxirgi

xatni olmagan bo'lsa kerak. Olsa, shu paytgacha javob bermasmidi?! Olmagan, xat yo'qolgan. Bu-naqa voqealar kammi? Yo bo'lmasa boshqa manzilga tushib qolgan. Kim biladi, hozir birovning uyida yotgandir balki? Hammasini telegramma hal qiladi, ertagayoq hammasi ma'lum bo'ladi.

Gulchehra shoshib Abdullaning manzilini yozdi, keyin, o'ylanib qoldi. Xatni olgan bo'lsa-chi? Axir shu paytgacha olib yurardi, hech xato bo'lmasdi. Nega jim bo'lmasa? Nahotki u... nahotki undan voz kechgan bo'lsa?! Gulchehraning butun vujudi muz bo'lib ketdi. Yo'q, yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas! Bunday bo'lmaydi! Abdulla uni tashlamaydi, xat keladi, bugun-erta keladi. Shunda butun tashvishlari unut bo'ladi!

Gulchehra o'rnidan turib ketdi, manzil yozilgan blankani g'ijimlaganicha eshikka yo'l oldi.

– Ha, opa, yozmaysizmi? – so'radi pochta-chi qiz. Gulchehra to'xtadi.

– Keyin... balki xat kelib qolar...

U shunday deb eshikka chiqdi. Ha, keladi, kelishi kerak... Lekin ertasiga ham kelmadi. Gulchehra endi o'z kulfati bilan yolg'iz qolganiga aniq ishondi. Bunday paytlarda odam tinchroq, xoli-roq joy qidirib qoladi. Yolg'iz bo'lgisi keladi. Gulchehra yolg'izlikka yolg'iz edi-yu, lekin xoli joyga muhtoj emas edi. Abdulla har kelganida unga shunday joylarni ko'rsatardiki, tug'ilib-o'sgan o'z qishlog'ida shunday joylar borligini xayoliga ham keltirmas edi. Gulchehra idorada ishlari bo'lsa ham tolzor tomon yo'l oldi. Ko'priikka yaqinlashganda, ro'parasidan «GAZ-69» mashinasi chiqib

qoldi. Rulda Nurmat aka, yonida Samad. Rais Gulchehrani ko'rib, mashinani to'xtatdi.

– Ha, yo'l bo'lsin?

– Shu yoqqa o'tib kelay... – Gulchehra o'zini qanchalik sokin tutishga intilmasin, ovozi qaltirab ketdi. Rais buni sezdi shekilli, mashinadan tushib, uning yoniga keldi.

– Tinchlikmi? Xomush ko'rinasan?

Gulchehra bosh qimirlatdi, lekin xo'rliги kelib yig'lab yubordi. Nurmat aka uning yig'isini o'zi-cha tushunib, qo'lini yelkasiga qo'ydi:

– Bilaman. Senlarga qiyin bo'ldi. Onang rahmatli yaxshi odam edi. Lekin nima qilardik, o'lim har kimning boshida bor. Qalay, yangi ayang yaxshimi? Dadang yaxshi deydi. Rostdan yaxshimi? Yo xafa qilyaptimi?

– Yo'q, – dedi bo'g'ilib Gulchehra, – yaxshi, xuddi ayamlarga o'xshaydi.

– Ana! – rais o'zicha xursand bo'lib qo'ydi. – yomon odamni uyingga olib kelarmidik? Erta-indin ayang qabrini tuzatib qo'yamiz. Rigadan tosh buyurtirib keldik. Ko'rdingmi?

Gulchehra «ha» deya bosh qimirlatdi. Uning xayoli hozir mutlaqo boshqa narsada bo'lsa ham, o'z dardi bilan ovora bo'lsa ham raisning gaplari unga yoqqan, uni ovutgandek edi.

– Dadang sendan juda xursand. Men ham xursandman, o'zimizdan ajoyib me'mor chiqib qoldi. Sen endi ishingni o'yla. Bahorda qurilishni boshlab yuboramiz. Planing hammasi ma'qul. Shunday ishlarni qilib qo'yibsan-u, yosh boladek yig'laysan-a! Qani, menga qara-chi?

Gulchehra zo'raki jilmayib Nurmat akaga qaradi.

– Barakalla! Yigʻi qaritadi, yigʻlama. Kelishdikmi?
Gulchehra boshini qimirlatdi.

– Gap bunday boʻpti!

Rais mashinaga oʻtirib, Samadga nimadir dedi. Ikkalovi kulishdi. Nima deganini Gulchehra eshitmadi, lekin yaxshi gapligini sezdi. Mashina koʻzdan gʻoyib boʻlguncha joyidan qimirlamadi, keyin bita-bitta qadam tashlab, kanal yoqalab ketdi.

XIX

Abdullaning ahvoli ham Gulchehranikidan yaxshi emas edi. Ammo ichini it tirnasa ham, sirtidan ancha tinch koʻrinardi. Shu vaqtinchalik tinchlik taʼsirida u diplomini yoqladi. Uning ishini yaxshi qabul qilishdi. Kafedra mudiri – professor Markov, hatto, davlat imtihonlarini topshirgandan soʻng institutda kafedra qoshida qolishni taklif etdi. Albatta bular Abdullani cheksiz xursand qilar, orzulari ushalayotganiga ishonchini oshirardi. Lekin kech kirib, oʻz xonasida yolgʻiz qoldimi, u butunlay oʻzgarardi-qoʻyardi. Shu kungacha erishgan yutuqlari tushdek, oʻzi esa dahshatli bir spektaklda rol oʻynayotgandek koʻrinardi. Xayolida allaqachonlar aniq tasavvur qilib qoʻygan kelajak uni xursand qilmas, aksincha, choʻchitardi.

Shu choʻchish, hamon davom etib kelayotgan ikkilanish bilan bir oy oʻtib ketdi, Gulchehraning xatiga u hali ham javob qaytarmadi. Javob qaytarish zarurligini, Gulchehra uning har bir soʻziga muntazir boʻlib turganini yaxshi bilardi. Lekin nima deb yozishini bilmaydi. Buning ustiga, vaqt

o'tgan sari, o'zining Gulchehraga bo'lgan muhabbatini o'ylagan sari Sayyoraga havasi ortib borardi. Qanday ajoyib qiz! U bilan gaplashib, gapiga to'ymaysan. Sho'x, erkin, chehrasidan kulgi arimaydi. U bilan yonma-yon yurish, u bilan bo'lish qanday baxt! Innaykeyin, ularning birga bo'lishlarini ota-onasi ham istayapti, Tursunali aka ham. Tursunali akaga, shunday katta olimga kuyov bo'lish hazil gap emas!

Lekin Gulchehra bilan bo'lsa nima bo'ladi? Axir uni yaxshi ko'rardi-ku! U bilan nima, hayoti buziladimi? Yo'q, buzilmaydi. Aksincha, Gulchehra undan umrbod minnatdor bo'lib yashaydi. Keyin, u aqlli. Yaxshigina me'mor bo'lishi mumkin. Lekin, albatta, Toshkentda yashasholmaydi. Sayyora bilan aloqalari buzilgandan keyin Toshkentda u biron narsaga erisha olarmidi?! Tursunali aka shuncha gap-so'zdan keyin uni tinch qo'ymaydi. Tursunali aka oldida esa u bir xas. Puf desa uchib ketadi. Shu yerda yashashadi. Kafedrada ish taklif qilishyapti-ku unga. Shu yerda ishlaydi, shu yerda dissertatsiyasini yoqlaydi. Gulchehraga ham bironta ish topilib qoladi. Me'mor hamma yerda kerak. Ammo ota-onasi bunga nima deydi? Shuncha umid bilan o'qitib odam qilganda, endi rohatini ko'ramiz deganda, ularni tashlab ketadimi? Ular shunga ko'nadimi?

Bir kuni kechqurun u juda qiynalib ketdi, yotog'ida o'tirolmadi. Sharillab yomg'ir quyayotganiga qaramay, plashini kiyib, pastga tushdi. Ko'chada odam siyrak edi. Qayoqqa borishini bilmay, Moyka tomon yo'l oldi. Iliq yoz yomg'iri hash-pash deguncha yuz-ko'zini ho'l qildi. Sochlari orasidan sizib bo'yniga tushdi. Abdulla

plashining yoqalarini ko'tarib kanal yoqalab yurib ketdi. Doimo qora baxmaldek yaltirab turadigan kanal suvi hozir loyqa edi. Shu yerlarda u Sayyora bilan ko'p sayr qilgan, suvga tikilib o'z aksini tomosha qilgan...

Sira esidan chiqmaydi. Bir kuni yalang'och otliqlar haykali yonida panjaraga suyanib turishganda Sayyora qo'lida o'ynab turgan pomadasini suvga tushirib yubordi. Abdulla suvdagi o'z akslariga tikilib turgan edi. Ular bir-ikki tebranib ajraldi, keyin anchagacha qo'shilib turdi-da, suv tingach, o'z holatiga kirdi.

– O'xshar ekanmizmi? – dedi Sayyora unga g'alati qarab.

– Hamma shunday deyapti.

– O'zing-chi?

– Men allaqachon buni sezganman, – Abdulla shunday deb uning qo'llarini ushladi.

– Demak, biz aka-uka ekanmiz-da!

Sayyora ko'zlarini ayyorona suzib Abdullaning aksiga tikildi.

– Men undan ham qalinroq bo'lishni istardim.

Sayyora indamadi. Cho'ntagidan bir nechta tanga olib, suvga otdi.

– Ana! – dedi yosh boladek chapak chalib. – Yana qo'shilib ketishdi.

– Doim shunday bo'lsa-chi? – Abdulla hazil-lashgan bo'lib dilidagi gapni aytdi.

– Yoqmay ketsin! – Sayyora shunday deb Abdullaning burnini chertdi, lekin uning sho'x chehrasidan roziligi, shunday bo'lishini istayotganligi sezilib turardi. Abdulla shuni eslab, dili yorishgandek bo'ldi. Ha, ular birga bo'lishlari kerak. Uning kelajagini faqat Sayyora ta'minlay-

di. Nima bo'lsa ham shunga intiladi, shunga erishishi lozim.

U Nevskiy ko'chasiga chiqqanda, birdan qaynoq hayot ichiga kirib qolgandek bo'ldi. Yomg'ir hamon chelaklab quyayotganiga qaramay, yo'lka odamlar bilan to'la edi. Qayoqqa qarama, zont. Katta, kichik, oq, sariq, qora zont. Kichik yelkanlardek bu zontlar Abdullaning atrofida suzib yurardi. Onda-sonda ular orasidan kimlarningdir shalabbo boshlari ko'rinib qolar va shu ondayoq g'oyib bo'lardi. Faqat Abdulla shoshmasdi. Qayoqqa ham shoshardi? U hozir vaqt o'tkazishi kerak, bironta aniq fikrga kelmaguncha shoshmasligi kerak. Shuning uchun ham u sekin qadam tashlardi, qo'llari cho'ntagida, quloqlari esa atrofda ming xil oyoq tovushlarida, zontlarda.

Qiziq, nega zontlar har xil tovush chiqaradi? Yomg'ir hammasiga bir xil urilyapti-ku! Birovniki xuddi entikkan yurak urishidek dukillaydi, birovniki esa qizitilmagan chirmandadek takillaydi... Hammasi har xil. Bu qanday qonunga kirar ekan? Buning qonuni bormikin o'zi? Abdullaning tirsagiga tegib, katta qora zont vazmin suzib o'tdi.

– Natasha! Qayerdasan? – qichqirdi orqadan jarangdor ayol ovozi.

– Shu yerdaman! – javob qildi chinqiroq qora zont va to'xtadi.

– Shu yering qayer?

– Trotuar!

– Trotuarligini bilaman. O'zing qayerdasan?

Qora zont ko'tarildi, uning tagidan dumaloqqina qizchaning javdiragan ko'zlari ko'rindi. Qizcha u yoq bu yoqqa alanglab qarar, ammo qayoqqa

yurishini bilmasdi. Abdulla ko'maklashmoqchi bo'lib yoniga endi keluvdiki, qizcha oldinga qarab yugurib ketdi. Abdulla uning orqasidan qarab qoldi. Zont tagidan qizchaning kichkina oyoqlari chalp-chalp qilib pildirab borardi. Bu tovushning qanday qonuni bor? Hamma qonunlarning asosi bor – hayot. Hayotdan yuksak qonun yo'q. Kim shunday degan edi? Lomonosov bo'lsa kerak?..

Ha, hayotdan yuksak qonun yo'q. Hayot esa murakkab, unda hech narsa bir-biriga o'xshamaydi. Hatto odam ham. Har bir odamning o'z hayoti bor. Birov xursand, birov xafa. Birov bor istaklariga erishgan, birov endi erishyapti. Birov esa... birov esa hech narsaga yetisholmay o'tib ketyapti. Shuning uchun ham, balki zontlarning tovushlari har xildir, oyoq tovushlari har xildir? Kiyimiga qarab odamlarni bilish mumkin, deyishadi-ku!

«Neva» kinoteatriga yetganda Abdulla zontlar kamayganini payqadi. Sochini ro'molchasi bilan sidirib, osmonga qaradi: yomg'ir tingan, nursiz yulduzlar birin-ketin ko'rina boshlagan edi. Shu payt kimdir Abdullani turtdi. Abdulla cho'chib tushdi. Ro'parasida setka ko'tarib olgan kursdoshi Viktor turardi.

– Ha, Abusha, yulduz sanayapsanmi? – so'radi kulib u.

Abdulla jilmaydi.

– Salom. O'zing-chi?

– Xotinimning oldidan kelyapman, – dedi Viktor setkaga ishora qilib. – Kasalxonada yotibdi.

– Tinchlikmi? – xavotirlanib so'radi Abdulla.

– Ahmoq, bolasini oldirib tashlabdi, – dedi kuyunib Viktor. – Rosa urishdim.

– Nega?

– Svetkaning o'zi hozir yetarmish. Sveta – qizim, uch yoshga to'ldi. Ajoyib qiz. Menga o'xshaydi. Yuz-ko'zlari ham, qiliqlari ham. Kechagacha tinch yuruvdi, hech qanday gap-so'z yo'q edi. Kechqurun kelsam, uyda yo'q. Ancha poyladim, yo'q. Keyin qornim ochib oshxonaga kirdim. Choy qo'ymoqchi bo'lib choynakni olsam, tagida xat. «Kechir, Vitenka! Men kasalxonadaman. Uch kunda chiqaman...»

– Uch kunda? – nimadandir jonlanib so'radi Abdulla.

– Ha! «Uch kunda chiqaman. Agar istasang, kelib ketishing mumkin». Kelib ketishim mumkinmish! – Viktor istehzo bilan kulib qo'ydi. – Yurgurdim. Borsam, shu ahvol. Kechikibman.

– Tuzukmi o'zi? Qachon chiqadi?

– Ikki kundan keyin chiqadi.

– Ikki kundan keyin? – hovliqib so'radi Abdulla.

– Ha. Nima edi?

– Yo'q-yo'q, hech nima! – Abdulla o'zini bosishga harakat qilib dedi: – Endi nima qilasan?

– Nima qilardim? Bo'lar ish bo'ldi, – Viktor xo'rsindi. – Xo'p, xayr. Svetik uyda yolg'iz.

– Xayr.

Viktor shoshib yo'lga tushdi. Abdulla o'zida yo'q shod edi. Yo'li topildi! Hoziroq Gulchehraga xat yozadi, yo'q, telegramma beradi. Qiyin emas ekan-ku, nihoyatda uch kun! Boring, bir hafta bo'lsin. Nahotki Gulchehra shuning uddasidan chiqolmasa?! Kichkina emas axir.

Yon-atrofda pochta ko'rinmadi. Ko'ringani ham berk edi. Abdulla mehmonxona tomon jadal

yurib ketdi. Shu yerda pochta tun bo'yi ishlardi. Telegrammani u juda qisqa va faqat Gulchehragina tushunadigan qilib yozdi. «Agar kerakli idoraga murojaat qilsangiz, hammasi joyida bo'ladi. Salom bilan Abdulla». U telegrammani topshirdi va og'ir ishdan qutulgan odamdek ancha yengillashdi, ko'ngli joyiga tushdi. «Gulchehra endi mendan xafa bo'lmasa bo'ladi, – xayolidan o'tkazdi u. – Bundan ortiq nima qilish mumkin? Eng yaxshi yo'l hozir shu».

Abdulla shunday o'yladi-yu, birdan Gulchehra unga anchagina begona bo'lib qolganini payqadi. Uylanish haqida gap bo'lishi mumkin emas endi. Innaykeyin, uylanaman deb va'da bermagan. Yaxshi ko'rish – birga bo'lish degan gap emas-ku! Birga bo'lamiz deb hamma sevishganlar gapiradi. Lekin har doim birga bo'lavermaydi. Albatta, Gulchehra ozgina qiynaladi. Nachora? Yoshlik – sho'xlik, yengiltaklik. Adashganlar kammi? O'n yil-o'n bir yil turmush qurganlar ajralib ketishyapti-ku! Ularga hali nima bo'libdi?

Sevgini bo'g'ib bo'lmaydi. Sayyorani sevib qolgan ekan, bunga u aybdor emas, ko'ngil... Ko'ngilni cheklab bo'lmaydi. Buning ustiga Gulchehraga bir necha bor, birga ketaylik, birga o'qiylik, dedi. O'zi ko'nmadi. Birga o'qishganda, kim biladi, balki birga bo'lisharmidi?! Bir oz qiynaladi, keyin unutilib yuboradi, baxt faqat birinchi sevgida emas.

Abdulla o'sha kuni o'z mulohazalaridan o'zi xursand bo'lib, ikkinchi telegrammani ham yozdi. Bu telegramma uyiga, onasiga edi. «Men rozi. Ixtiyor o'zlaringda. Salom bilan o'g'lingiz Abdulla».

XX

Gulchehra bir haftadan beri Toshkentda edi. Abdulladan hech qanday darak bo'lmay, qo'rquv va iztirob ichida yurganida institutdan xat kelib qoldi. Rektorat uni jyuri mukofotini olish va qurilish ishlari boshlanishi oldidan loyiha haqida quruvchilarning ba'zi mulohazalari bilan tanishish uchun Toshkentga kelib-ketishini so'ragan edi. Gulchehra butun tashvishlariga najot topol-gandek, darhol yo'lga otlandi.

Vokzalga uni Yusuf aka bilan Samad kuza-tib qo'yishdi. Toshkentda Gulchehra kursdosh o'rtoqlarining birontasi bilan maslahatlashib, uyda qabul qiladigan vrachga murojaat qilishni mo'ljallagan edi. Shuning uchun ham Toshkentga kelishi bilan, Sanobar ismli bir ayol bor edi, shuni-kiga qarab yo'l oldi. Sanobar o'rtog'i bilan obodon-chilik-loyihalash institutida ishlardi. Kamgap, sermulohaza ayol edi u. Gulchehra imtihon top-shirgani kelganida, ko'pincha u bilan birga dars tayyorlar edi. Bir qiz, bir o'g'li bor edi Sanobarning.

Poyezdda bor tanishlarini bir-bir sanab chiqar ekan, shu juvon bilan dardlashishni negadir lozim topdi. Sanobar Chilonzorning qaysi bir da-hasida turardi. Aniq manzilni Gulchehra eslol-madi. Uyining ro'parasida katta bir gastronom borligini bilardi. Taksiga o'tirib ancha aylangan-dan so'ng, nihoyat topdi. Ammo uyda hech kim yo'q edi. Gulchehraning birdan oyoq-qo'li muz bo'lib, bo'shashib ketdi. Yana qo'ng'iroq tugma-sini bosdi. Javob bo'lmadi. Eshik tagida nima qilishini bilmay, ancha turib qoldi. Bir mahal

qo'shni eshik ochildi. Bo'yniga aeroflot sumkasini osib olgan styuardessa kiyimidagi bir qiz chiqdi.

– Sizga kim kerak edi? – so'radi u Gulchehraga boshdan-oyoq razm solib.

– Sanobar opa... Sanobar Qodirovna, – dedi shoshib Gulchehra.

– Shunday deng?

– Ha.

– Siz ularning kimi bo'lasiz? – styuardessa qiz yana Gulchehraga tikildi.

– Tanishi bo'laman, birga o'qiymiz. Qo'qondan keldim. Uydami u kishi?

– E, konkursda g'olib chiqqan me'mor siz bo'lasizmi? – uning savolini eshitmay so'radi styuardessa qiz.

– Ha.

– Sanobar opam sizni ko'p gapirardilar. Buni qarang, men sizni hech ko'rmagan ekanman. Men ham institutga kirib, me'mor bo'lmoqchi-man. Yaxshi uylarni biram yaxshi ko'ramanki, sira ketolmay qolaman. Akademik Sagdullayevni taniysizmi?

Gulchehra «yo'q» deya boshini qimirlatdi.

– Shularning uyida bir-ikki marta bo'lganman, – gapida davom etdi styuardessa qiz. – Biram ajoyib! Ikki etajli. Birinchi etajida zal, kuxnya, stolovaya. Ikkinchi etajda spalnya, shunday yonida katta vanna, biram yaxshi!.. Kirsang, ketging kelmay qoladi. Tanishaylik, Zara. Hozircha aeroflotda ishlayman. Moskva marshrutida.

Qiz sabrsizlik bilan uni eshitib turgan Gulchehraga samimiy ravishda qo'lini uzatdi. Gulchehra omonatgina uning qo'lini ushladi-da, so'radi:

– Aytmadingiz, Sanobar opa qayerda?

– Ha, ularmi? – hafsalasizlik bilan dedi qiz. – Ular ketishgan. Issiqko'lga. Hammalari ketishgan.

– Ancha bo'ldimi?

– Ha. O'n kunlarda qaytib kelishadi. Ular juda kerakmidi?

Gulchehra javob bermadi, bo'shashganicha egilib, jomadoniga qo'l uzatdi.

– Voy, turadigan joyingiz yo'qmi? Biznikida tura qoling? – qiz unga mehribonlik bilan gapirdi. – Men bir o'zim yashayman. Ular qaytguncha turing.

– Rahmat, – Gulchehra pastga tusha boshladi. Uning birdan o'zgarib qolganini ko'rgan qiz taklif qildi:

– Mazangiz yo'qqa o'xshaydi. Juda bo'lmasa bir oz biznikida dam oling.

Gulchehra uni eshitmadi. Qiz ko'chagacha u bilan birga chiqdi.

– Boradigan joyingiz bormi?

Gulchehra «ha» deya boshini qimirlatdi. Shu payt ularning ro'parasiga bo'm-bo'sh avtobus kelib to'xtadi.

– Mening avtobusim. Olib borib qo'yaymi?

– Rahmat, o'zim, – dedi Gulchehra unga minnatdorlik bilan jilmayishga harakat qilib.

Qiz «lip» etib avtobusga chiqdi. Shofyor gaz berdi.

– Joyingiz bo'lmasa, keling! – qichqirdi qiz avtobus derazasidan boshini chiqarib. – Kechqurun qaytaman!

Gulchehra unga qo'l silkidi-da, avtobus uzoqlashgach, jomadoni ustiga og'ir o'tirdi. Qayoqqa boradi endi u? Institutga kech bo'lib qoldi. Biron-

ta o'rtog'inikiga jomadon bilan kirib borishi yaxshi emas. Odatdagidek, Abstutaynikiga boradi-da. Toshkentga birinchi yili kelganida sinfdoshi Qosimjon uni shu kampirnikiga joylashtirib qo'ygani edi. Uning nabirasi Qosimjon bilan birga o'qirdi. «Mehmonxona qilib yurasanmi? – dedi Qosimjon o'shanda. – Mening o'rnimda tur, men yotoqqa o'tdim». Gulchehra ham mehmonxonada yolg'iz turishni ep ko'rmay, uning taklifini qabul qildi.

Abstutay Labzakda turardi. Kattagina hovli. Bir necha xona. Ilgari o'g'li bilan turar ekan. O'g'li xotini bilan Buxoro – Ural gaz magistrali qurilishiga ketib, endilikda kampir nabirasi bilan yolg'iz qolibdi. U Gulchehrani juda yaxshi qabul qildi. Keyinchalik Gulchehra, institut joy bersa ham bormay, shu quvnoq, mehmondo'st kampirnikida turadigan bo'ldi.

Bo'sh taksi ko'rindi. Gulchehra uni to'xtatdi. Oqshom tushganda u Abstutaynikiga kirib bordi. Kampir hovlining o'rtasidan o'tgan ariq labidagi so'rida ko'rpa qavib o'tirardi. Gulchehrani ko'rdiyu, xuddi yosh ayoldek sakrab o'rnidan turdi:

– Voy, aylanayin, voy, o'rgilayin! Bor ekan-siz-ku! Opoq qizim, momiq qizim!

Gulchehra o'zini uning bag'riga tashladi.

– Yaxshi yuribsizmi, Abstutay? Tinchmisiz?

– Menga nima qilardi, qizim. Otdekman. Faqat har doimgidek yolg'izman. Zubayda ham ketdi. O'tir, qizim, o'tir. Men hozir choy damlayman.

– Qayoqqa ketdi Zubayda?

– Praktikaga. Qosimjon ikkalovi ketdi. O'tir, qizim. Men hozir.

Abstutay o'choq boshiga pildirab ketdi. Gulchehra Qosimjonning Toshkentdamasligidan

ichida xursand bo'lib qo'ydi. U hech kimning Toshkentga kelishdan ko'zlagan asl maqsadini sezib qolishlarini istamasdi. Sezishsa, tamom, Mingbuloqqa qaytib borolmaydi, otasining yuziga qarolmaydi. Kampir darrov choy damlab keldi.

– Anchaga keldingmi?

Gulchehra nima deyishini bilmadi. Chindan ham u qanchaga keldi o'zi? Buni faqat shifokor bilardi.

– Ishim bitguncha turaman. Bir haftami, ikki hafta.

– Yaxshi, yaxshi. Ungacha Zubayda ham kelib qoladi. Endi bunday. Sen choy ichib o'tir. Men darrov paramach qilib kelaman. Yangi go'shtim bor.

Gulchehra qo'ymaganiga qaramay, kampir bir piyola choyni apil-tapil ichdi-da, o'rnidan turdi. O'sha kuni ular allamahalgacha gaplashib yotishdi. O'z dardi bilan yolg'iz qolganligidanmi, yo Abstutayning onasi kabi unga ko'rsatgan mehribonligidanmi, Gulchehra bo'shashib, yorildi, dilidagi borini aytib berdi. Abstutay uni bag'riga bosib yupatdi, ko'nglini ko'tardi. Keyin bunday voqealarni ko'rgan-bilgan ayol sifatida yaxshi maslahat berdi.

– Sofiya degan shifokor tug'ishganim bor. Ertaga shunga borib kelaman. Sen tinch bo'l. Dunyoda chorasiz ish yo'q. Chorasi topiladi. Bo'ldi, yig'lama. Sen o'z ishingni bitir. Bu ishni menga qo'yib ber.

Abstutayning bu ishonch bilan aytgan gaplari Gulchehrani ancha ovutdi. Bir necha kungi uyqusizlikdan so'ng birinchi marta tinch uxladi. Ertalab nonushtadan so'ng Abstutay vrachga, Gulchehra esa institutga ketdi.

– U yaramas yigitni endi o‘ylama, – dedi kam-pir uni kuzatayotib. – Odam emas u. Odam bo‘lsa seni tashlab qo‘ymasdi. O‘ylama.

Gulchehra va‘da berdi. Lekin o‘ylamay tura olarmidi? «Abdulla, Abdulla... Nahotki shunchalik toshbag‘ir bo‘lsang?! Senga ishongan edim, senga hayotimni bag‘ishlamoqchi edim!.. Javob ber! Nega jimsan?» Gulchehra ichdan qalqib kelayotgan yig‘ini to‘xtatishga qancha urinmasin, yosh baribir ko‘zlaridan quyulib borardi, lekin buni o‘zi sezmasdi. Tramvay to‘xtash joyida kimdir tirsagidan ushladi.

– Nima bo‘ldi, qizim? Nega yig‘layapsiz?

Gulchehra boshini ko‘tardi. Ro‘parasida nuroniy bir mo‘ysafid unga dardli tikilib turardi.

– Birov xafa qildimi?

– Yo‘q, – dedi Gulchehra va uyalganidan qizarib ketdi.

– Dadil bo‘ling, – dedi mo‘ysafid. – Yig‘i hech mahal odamga yordam bergan emas. Qancha sovuqqonlik qilsangiz, shuncha yutasiz. Asab, yig‘i ojizlarning udumi.

Tramvay keldi. Gulchehra mo‘ysafidga nima deb javob qilishini bilmay, o‘zini tramvayga otdi. Institutda uni rektorning o‘zi qabul qildi.

– Keling, keling! – dedi u Gulchehraning qarshisiga yurib. – Biz esa telegrammangizni kutib yotibmiz! Qayerga joylashdingiz?

– Tanishimiznikiga, – Gulchehra rektor ko‘rsatgan kresloga o‘tirdi.

– Olis emasmi?

– Yo‘q, shunday Labzakda.

– Ha, yaxshi ekan. Istasangiz, mehmonxonadan joy olib beramiz!

– Yo‘q, rahmat. Joyim yaxshi. Toshkentga kelganimda doim shu yerga tushaman.

– Unday bo‘lsa, yaxshi. Gulchehraxon, avvalo sizni mukofot bilan tabriklayman. Ishingiz ham-mamizga ma‘qul bo‘ldi. Albatta kamchiliklardan ham xoli emas. Masalan, siz qahvaxonaning Toshkentda qurilishini yaxshi o‘ylamagansiz. Yerni iqtisod qilish hozir muhim masalalardan biri. Keyin, ichki hashamga doir ba‘zi bir juz‘iy kamchiliklar bor. Umuman, ishingiz yaxshi. Ixcham, sodda, original. Quruvchilar qahvaxonani mehmonxona bilan birga qurishni taklif qilishyapti. Bu degan so‘z, qahvaxona yilning oxirigacha bitadi. Borib ko‘rasizmi?

– Yaxshi bo‘lardi.

– Bo‘pti. Men o‘zim olib boraman.

Rektor stoli burchagidagi tugmachani bosdi. Xonaga kotiba kirdi.

– Indinga, soat o‘n ikkida majlis. Tanlov g‘olibi-ga mukofot topshiriladi.

Kotiba «xo‘p» deb chiqib ketdi.

– Turdik bo‘lmasa.

Gulchehra bunday bo‘ladi deb sira kutmagan edi. Rektor bilan yonma-yon o‘tirib mashinada borar ekan, sevinchi ichiga sig‘mas, boyagina yuragini ezib turgan tashvishlarini unutgan edi. Yarim soat o‘tar-o‘tmas ular talabalar shaharchasiga kirib borishdi. Bu yerda qurilish keskin sur‘atda olib borilmoqda edi. Qayoqqa qaramang, ko‘tarma kranlar, yuk mashinalari... Terak bo‘yi keladigan imoratlarning ba‘zilari bitgan, ba‘zilari suvalmoqda, ba‘zilariga endi poydevor qurilmoqda edi.

– Qarang, – dedi rektor g‘urur bilan. – Ikki-uch yil ichida bu yer katta shaharga aylanadi, yoshlik kabi go‘zal bo‘ladi! Bunda sizning ham hissangiz bor. Faxrlansangiz arziydi. Ko‘p binolarning loyihalarini yoshlarning o‘zi ijdod qilishgan. Ana, qarang, anavi bino yoshlarning madaniyat saroyi. Uning loyihasini bir yigit tuzgan. Yaxshimi?

– Juda ham! – Gulchehra havas bilan rektor ko‘rsatgan binoga qaradi.

– Manavi esa «Yoshlik» mehmonxonasi. Keldik.

Mashina to‘xtadi. Rektor tushib, Gulchehraga qo‘lini uzatdi.

– Bitib qolibdi-ku! – dedi Gulchehra besh qavatli binoga tikilib.

– Hali ishi ko‘p. Lekin yilning oxirigacha bitkazamiz.

Ular binoni aylanib o‘tib, keng qurilish maydoniga chiqishdi. Bir chol rektorning qarshisiga yurdi.

– Salom alaykum, Sulaymon ota! – rektor u bilan quyuq ko‘rishdi. – Ahvollar yaxshimi? Mana shu yerga tushadigan imoratning ustasini olib keldim.

– Juda yaxshi, juda yaxshi! – dedi chol Gulchehraga boshdan-oyoq qarab chiqib. – Me‘mor deng?

– Xuddi shunday! – dedi rektor kulib.

Gulchehra uyalinqirab boshini egdi.

– Qizlardan ham me‘mor chiqar ekan-da!

– Chiqqanda qandoq! Qani, ota, ko‘rsating xo‘jaligingizni!

– Yuring!

Rektor Gulchehraning tirsagidan ushlab yo‘l boshladi. Kechqurun Gulchehra hamma yog‘i

chang, charchab kelganda, Abstutay sevinchiga sevinch qo'shdi:

– Kelgusi haftaning boshida boramiz. Hammasi joyida bo'ladi, qizim. Sofiya va'da berdi. Tinch bo'lsin, dedi.

Gulchehra Abstutayni mahkam quchoqdab, yuz-ko'zidan o'pdi.

– Bo'ldi-bo'ldi, qizim, belimni sindirasan!

Shunday deb Abstutay ham uni bag'riga bosdi.

Mukofot topshiriladigan kuni institutning majlislar zali odamga liq to'ldi. Ancha-muncha gaplar bo'ldi. Hay'at raisi uni tabriklab, mukofotni topshirdi. Keyin rektor gapirdi:

– Tanlovda bizning talabamiz g'olib chiqqanidan men nihoyatda xursandman, – dedi u. – Lekin Gulchehraga aytadigan bir-ikkita gapim bor. Iste'dodsiz ijodkor bo'lish qiyin. Buni hamma biladi. Ammo mehnat, bilim, g'ayrat kabi qator komponentlar borki, bularsiz ijodni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shularning hammasi Gulchehrada bor. Unga yangidan-yangi muvaffaqiyatlar tilaymiz...

Gulchehra institutdan boshi gangib chiqdi. U cheksiz shod edi. Ajab emas, yangi Mingbuloq loyihasi ham shunday muvaffaqiyatli o'tsa? Albatta ularga ko'rsatadi, ularning maslahatini oladi. Diplom ishim shu deb, yana ikki yil kutib o'tiradimi?!

– Mukofotni yuvsak bo'lardi! – dedi kimdir orqadan. Gulchehra to'xtab o'girildi.

Bir guruh yigit-qiz uni o'rab oldi.

– Tabriklaymiz! Tabriklaymiz!

– Rahmat! – Gulchehra hammaga qo‘l berib minnatdorchilik bildirdi. – Men tayyorman. Hozir ham yuvishimiz mumkin.

– Bo‘pti! «Bahor»ga ketdik! – qichqirdi kimdir.

– Yo‘q, yo‘q! – uni bo‘ldi bir qiz: – Kafe bitsin, shunda Gulchehra opam yaxshilab ziyofat beradilar.

– Bo‘pti! – dedi Gulchehra kulib. – Albatta shunday qilamiz.

Yoshlar xayrlashib ketishdi. Gulchehra, uyga borishga hali erta deb, O‘rda tomon yurdi. Darvoqe, mukofotini nima qiladi? U beixtiyor sumkasini ochib, pulli xatjildni ushlab ko‘rdi. Ancha. Uyga, dadasiga jo‘natsinmi? Yo sovg‘a olsinmi? Shu ikkinchi fikr unga ma‘qul tushdi. O‘sha kuni ham, ertasiga ham magazinma-magazin yurib, otasi, ayasi, ukasi, hamma tanish-bilishlariga sovg‘a oldi. Hatto Abstutay ham chetda qolmadi. Unga bir kiyimlik havo rang sherst mato oldi. Kampirning boshi osmonga yetdi, ko‘z yoshi qildi, duo qildi. Ammo Gulchehra o‘ziga hech narsa ololmadi. Uning hamma narsasi bor edi. Shunday bo‘lsa ham, ayol kishi molga o‘ch bo‘ladi, nimalarnidir qidirdi. Ba‘zilari yoqmadi, ba‘zi narsalarni topolmadi. U anchadan beri hind shippagini orzu qilardi, topolmadi. Univermagdagi poyabzal sotuvchi qiz, ikki kundan keyin keling, chex shippaklari savdoga chiqadi, hindchadan qolishmaydi, dedi. Gulchehra albatta kelishini aytdi.

Hamma ishlaridan ko‘ngli to‘q bo‘lganidan ikki kun ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketdi. Gulchehra ikki-uch marta talabalar shaharchasiga bordi. Qorovul chol uni yaxshi ko‘rib qolib, shaharni

ko'rsatdi, bog'iga olib bordi. Bog'i shunday shaharchaga tutash ekan. Qovun polizga olib kirib, handalak so'yib berdi. Oxirgi borganida Gulchehra mehmonxonaning beshinchi qavatiga ko'tarildi.

– Ehtiyot bo'l, bolam! – ogohlantirdi pastdan Sulaymon ota. – Bitmagan imoratga chiqish xavfli!

Gulchehra quloq solmadi. Hali panjarasi o'rnatilmagan boloxonaga chiqib, atrofnı tomosha qildi. Bu yerdan shahar ko'm-ko'k o'rmon ichiga yashiringandek ko'rinardi. Katta-katta daraxtlar ostidan faqat uylarning oq, qizil tomlarigina ko'zga tashlanardi. Olisda tog'. Ko'kka bo'y cho'zgan, cho'qqilari kumushdek oppoq tog'... G'ir-g'ir shabada esadi, sochlarini taraydi, yuz-ko'zini silaydi...

Gulchehra shu yerda turib, yangi bir narsani o'ylab qoldi. Qahvaxonaning ustini ochiq ayvon qilsa yaxshi bo'lmaydimi? Buning hech qiyinchiligi yo'q. Tomi baribir betondan qilinadi. Qiyinchiligi yo'q. Ha, shunday qilish kerak. Ertagay-oq taklif qiladi, loyihani o'zgartiradi. Nega ilgari shu fikr xayoliga kelmadi ekan?

U pastga tushdi.

– Qalay? Yaxshimi? – so'radi Sulaymon ota.

– Nimasini aytasiz! Havosi juda ham yaxshi.

– E, jannat, bolam, jannat, – dedi g'urur bilan Sulaymon ota. – Uyim buzilsa ham, shuning uchun bu yerdan ketmayapman-da. Shahar bitsin, juda allambalo joy bo'lib ketadi...

Gulchehra yo'lga tushdi. Xadraga kelganda univermagga borish esiga kelib qoldi. Shu tramvayning o'zidayoq o'quvchilar saroyigacha keldi.

Sotuvchi qiz aldamagan ekan. Uni ko'rishi bilan chaqirdi.

– Mana, kiyib ko'ring.

Gulchehra shippakni olib, peshtaxta yonidagi stulga o'tirdi. Shippak chiroyli edi. Oppoq, belidan ingichka oltindek zanjir o'tkazilgan, poshnasi ham baland emas, yurishga oson. Gulchehra kiyib ko'rdi. Yaxshi keldi.

– Rahmat, shuni olaman, – dedi sotuvchiga.

Sotuvchi qiz shippakni o'rab berdi. Shu payt kimdir Gulchehrani orqasidan quchoqladi.

– Voy, kim? – hayratlanib dedi Gulchehra.

Ayol kishining qah-qah kulgisi eshitildi. Gulchehra o'girildi.

– Voy, opoqi, sizmisiz, – Gulchehra shunday dedi-yu butun vujudi bo'shashib ketdi. Bu ayol Shahodat opa edi.

– Boyatdan beri qarab turibman, Gulchehra-mi, boshqami deb. Yaxshimisan, omonmisan? Uydagilar tinchmi? Qachon kelding?

– Bir haftacha bo'ldi, – dedi zo'rg'a ovozi chiqib Gulchehra. – Institutga chaqirishgan edi.

– Voy, qizi tushmagur! Shuncha bo'libdi-yu, bunday biznikiga kirmaysanmi?

– Kirarman! O'zingiz tinchmisiz? – Gulchehra shunday dedi-yu, «Xuddi Abdullaning o'zi-ya! Qoshi ham, ko'zi ham!» – degan fikr xayolidan yashindek chaqib o'tdi. – Amakim qalaylar?

– Xudoga shukur. Ancha yaxshi hozir. To'y taraddudidamiz chol-kampir.

– To'y?!

– Abdullani uylantiradigan bo'lib qoldik.

Gulchehra yalt etib Shahodat opaga qaradi, Qaradi-yu, «Kimga?» degan savol og'zidan qanday chiqib ketganini bilmay qoldi.

– O'zi bilan o'qiydi. Juda yaxshi qiz.

Gulchehra gandraklab ketdi. Bir-ikki qadam tisarilib peshtaxtaga suyanib qoldi. Shahodat opa buni payqamadi. Atrofga alanglab, gapida davom etdi:

– Biram aqlli, biram aqlli, xuddi otasining o'zi! Otasi akademik Qurbonov-da! Eshitganmisan? Shu yozda to'y bo'ladi.

– Tabrik... tabriklayman, – dedi o'zini tutib olib sekin Gulchehra. – Baxtli bo'lishsin. – Bor kuchini to'plab u qaddini rostladi. – Baxtli bo'lishsin.

Shundan keyin u yana nima deganini, qanday qilib magazindan chiqqanini, qanday qilib uyga yetib kelganini bilmaydi. Oqshom payti Abstutay uning xonasiga kirganda, Gulchehra hamma narsaga befarq holda ko'zlarini shiftga tikib yotardi.

– Nima bo'ldi, qizim? – kampir uning peshanasiga qo'lini qo'ydi.

Gulchehra indamadi. Shu alfozda u kechgacha yotdi. Kechqurun esa o'rindan turdi. Oyna oldiga kelib, sochini taragan bo'ldi. Quloqlarining orqasiga, bo'yniga atir sepdi. Keyin boyagina olgan oq tufllisini kiyib, hovliga tushdi.

– Shu topda qayoqqa, qizim? – so'radi xavotirlanib Abstutay.

– Bir aylanib kelaman, boshim og'riyapti, – dedi Gulchehra, keyin eshik tomon yurdi.

– Hayallab qolma bemahalda, – qichqirdi orqasidan Abstutay.

Gulchehra O'rdagacha piyoda keldi. «Yaxshi tuffi olibman, – dedi muyilishda havas bilan oyoqlariga qarab. – Yumshoq, yengil. O'zi ham menga yarashibdi». Tramvay o'tdi. U bo'm-bo'sh edi.

«Qayoqqa borsam ekan? – o‘yladi Gulchehra. – Tramvayga o‘tirib shahar aylanaymi? Toshkentga birinchi marta o‘zim kelganimda shunday qilgan edim. Yaxshi bo‘ladi, ko‘rmagan joylarim ko‘p hali». U shunday qildi. Yangi shahar tomon ketayotgan tramvayga o‘tirdi. Vagon bo‘sh, hatto konduktor ham yo‘q edi. Gulchehra deraza yoniga o‘tirib, ko‘chaga qaradi. Turli-tuman chiroqlar, ming xil reklama chiroqlaridan keng ko‘cha xuddi xonatlasdek lov-lov yonib turardi.

Gulchehra ancha aylandi. Tramvay ikki marta shaharning u boshidan bu boshiga borib keldi. Shahar tinch edi. Faqat Gulchehraning ostidagi g‘ildiraklarga bu tinchlikni buzib turardi. Ammo Gulchehra bunga ko‘nikib qolgan edi. Uning o‘zi ham tinch edi... Dzin, dzin!.. Tramvay to‘xtadi. Gulchehra ko‘zlarini derazadan uzmay o‘tiraverdi.

– Qizim, qayerda tushasiz?

Gulchehra boshini ko‘tardi. Tepasida shop mo‘ylov vagon haydovchi turardi.

– Adashib qolmadingizmi?

– Qayerga keldik?

– Talabalar shaharchasiga.

– Shu yerda tushaman. – Gulchehra shoshib o‘rnidan turdi.

– Tavba, – dedi haydovchi u tushib ketgach. – G‘alati odamlar bo‘ladi-ya dunyoda.

Gulchehra to‘ppa-to‘g‘ri «Yoshlik» mehmonxonasiga bordi. Bir oz unga qarab turdi, keyin maydonga o‘tdi. Shu payt qorovul uychasidan Sulaymon ota chiqdi.

– Assalomu alaykum, ota! – dedi Gulchehra.

– Kimsan? – qorong‘ilik ichida uni tanimay so‘radi qorovul chol.

– Men, men – Gulchehraman, – dedi Gulchehra cholga yaqinlashib.

– Bemahalda nima qilib yuribsan, qizim?

– Uyda o'tirib zerikdim. Birpas ko'chalarni aylandim. Keyin shu yoqqa keldim. Ko'rgim keldi. Qanday bo'lar ekan? Odamlarga yoqarmikan?

– Yoqmay-chi, bolam! Shahardagi eng ko'hlik bino bo'ladi bu.

– Rahmat, ota.

– Ha, menga ishonaver, – dedi chol g'ururlanib... – Sulaymon ota yolg'on gapirmagan. Rohatijon joy bo'ladi bu yer. Hammaning savobiga qolasan hali.

– Aytganingiz kelsin, ota, – dedi jilmayib Gulchehra. U shunday deb o'ylanib qoldi. Uning ikkala ko'zi qorong'ilikni yorib, bahaybat qushdek uchishga hozirlanib qanotlarini yozgan bino da edi. Uniki ham shundan qolishmaydi. Qushdek yengil, go'zal bo'ladi. Qorovul cholga ham shunday tuyuldi shekilli, faxr bilan dedi:

– Uchaman deb turibdi!

Gulchehra indamadi. Keyin bitta-bitta yurib, mehmonxona binosi ichiga kirib ketdi. Yangitdan choy qo'yish uchun ichkariga kirgan Sulaymon ota uning qayoqqa ketganini ko'rmay qoldi. Bir-ikkiki «Gulchehra!» deb chaqirdi, javob bo'lmadi.

– Ishqilib, umri uzoq bo'lsin, – dedi Sulaymon ota.

Gulchehra bino devorlarini paypaslab, hali tarashlanmagan zinadan beshinchi qavatga ko'tarildi. Ertalab chiqqan balkoniga ehtiyotlik bilan o'tdi. Kecha sutdek oydin edi. Uzoq-yaqinda qorayib turgan teraklar yengil shabadadan ohista tebranib, og'irligini bir oyog'idan ikkinchi oyog'iga olib turgan pahlavon soqchilarga o'xshardi. Olishda televizion stansiya minorasining qizil chiroqlari ko'rindi.

«Nima ketayotgan ekan hozir? – o‘yladi Gulchehra. – Botir kuylayotganmikin? «Maro bibo’s»mikan?» U shu qo‘shiqni yaxshi ko‘rardi. Ayniqsa, Botir Zokirov aytganida. Qo‘qonda kimdir aytdi, o‘xshata olmadi. Gulchehrra Botirning ovozidan ko‘ra, shu qo‘shiqni aytayotgandagi kayfiyati yoqardi. Qo‘shiq go‘yo uning uchungina yaratilgandek, u bilan tirikdek tuyulardi. Gulchehra shunday o‘ylar ekan, qulog‘i ostida shu qo‘shiq yangrayotgandek, chiroqlar ichidan esa ashulachi unga qarab turgandek, hozir faqat uning uchun kuylayotgandek bo‘ldi. Beixtiyor quloq soldi. Tramvay chinqirib burila boshladi. Shu zahoti aspirantlar yotoqxonasi oldida nimadir chirsillab yondi-yu, darhol so‘ndi. Gulchehra kafтини yuziga tutdi, ammo anchagacha kamalak tus olov yallig‘i ko‘z oldidan ketmadi.

Tramvay uzoqlashib, yana hamma yoq jimjit bo‘lib qoldi. Gulchehra ko‘zlarini ochib atrofga qaradi. U hech mahal tungi Toshkentni tomosha qilmagan edi. To‘g‘ri, bir marta samolyot kech uchib, qorong‘i tushganda Toshkentga kelgan edi. O‘shanda, samolyot pastlayotganda, darchadan shaharga qarab hayron qolgan edi. Hamma yoq chiroq... xuddi shaxmat taxtasiga o‘xshaydi. Faqat bu taxta oq-qora emas, ming xil bo‘yoqda tovlanaadi. Hozir ham tungi Toshkent shunday go‘zal edi, odamning suqi kelardi. Gulchehra simirib nafas oldi, muzdek havo tomog‘ini qitiqlab o‘tdi.

Yana ancha vaqt baland-past imoratlar orasidagi sho‘x chiroqlarga termilib turdi-da, boshini ko‘tardi. Osmon to‘la yulduz. Oyning nim rang gardishi adashib paydo bo‘lib qolgan bir quloch bulut pardasi orqasiga o‘tib, tunni qoraytirdi-da, ko‘p o‘tmay mo‘ralab chiqdi. Daraxtlarning barg-

lari kumushdek yaltirab ketdi. Gulchehra oyga termilib, xuddi u bilan suzib ketayotgandek bo'ldi. Darhol balkondaligini esladi-da, devorni ushlamoqchi bo'lib qo'lini orqaga cho'zdi va tisarildi. Ammo orqasida hech narsa yo'q edi. Gulchehra osmonga tikilib devorga yoni bilan turib qolgani ni unutgan edi.

«Ota!» – dedi u yuragi shuvillab, ammo ovozi tomog'ida qoldi. Qo'llarini yoyganicha pastga sho'ng'idi. «Qushga o'xshayman-a» – xayolidan o'tdi uning. Keyin hushini yo'qotdi.

XXI

Sulaymon ota ertalab, g'ira-shirada qurilish maydonini kuzatib kelar ekan, standart beton plita ustida yotgan bir ayolni ko'rib qoldi. Ayolning oyoq-qo'llari yoyilgan, oppoq ko'ylagi beligacha ko'tarilgan edi. Sulaymon ota uning bu qiyofasini ko'rib, jahli chiqdi, «Ayol boshingga ichib nima qilarding?!» dedi ichida, keyin yomon fikr xayolidan o'tib, shoshib ayolga yaqinlashdi. Yaqinlashdi-yu, dahshat ichida qotib qoldi. Ayolning kallasi yo'q edi, to'g'rirog'i, majaqlanib, yelkalariga yopishib yotardi.

Sulaymon ota nimadir deb o'zicha g'o'drandi, qo'rqa-pisa ayolga yana bir marta ko'z qirini tashladi-da, keyin orqaga tisarildi, uch-to'rt qadam bosgach, o'zini tutib oldi shekilli, qorovulxona tomon jon holatda yugurib ketdi. Ko'p o'tmay militsiya xodimlari yetib kelishdi. Sulaymon ota ularni o'sha ayol yotgan joyga boshlab borar ekan:

– Xotin!.. Bir xotin... o'lik!.. – derdi, boshqa hech narsa gapirolmadi. Telefonda ham shu uch so'zdan boshqa hech narsani aytoilmagan edi.

Militsiya xodimlari ketidan qoqilib-suqilib borar ekan, ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, sho'r tomchilar qalin mo'ylovi orasidan og'ziga tushayotganini, necha yillardan beri o'qlanmay, o'qdoni zanglab ketgan eski miltig'ining qo'ndog'i toshdan-toshga tegib sudralib kelayotganini sezmasdi. Uning ikkala nam ko'zi ayol yotgan tomonda, butun xayoli hozirgina yakka o'zi guvoh bo'lgan fojiada edi. Beton plita yoniga yetib kelishganda, Sulaymon ota besh qadamcha narida tuproqqa qorishib yotgan bir poy tufliga ko'zi tushdi. Yurgurib borib uni oldi. Oltin rang tasmali, oppoq bu tufla ayolning oyog'idan tushib qolgan edi. Sulaymon ota beixtiyor o'likka yaqinlashib, tuflini kiygazib qo'yish uchun engashdi. Shu payt kimdir:

– Qayerdan oldingiz? Joyiga olib borib qo'ying!
– dedi.

Sulaymon ota yosh boladek chopib borib, buyruqni bajardi. Militsiya xodimlari o'likning atrofini aylanib chiqishdi-da, uning ro'parasida to'xtashdi. Ammo Sulaymon ota ularga parvo qilmasdi. Uning ko'zi o'likning shalvirab yotgan qo'lidagi soatda edi. Soat unga tanishdek tuyulgan, shuning uchun unga tikilib qolgan edi. Bir mahal u titrab ketdi, nimadir deb shivirladi, keyin:

– Gulchehra! Bolaginam! – deb qichqirib yubordi.

Militsiya xodimlari nima bo'lganiga tushunib yetgunlaricha, chol hushidan ketib, o'likning oyoq tomoniga gurs etib yiqildi. O'ziga kelib ko'zini ochganda, militsiya xodimlari bilan birga tepasida bir nechta oq xalat kiygan kishilar turishardi.

– Uni... uni taniyman, – dedi Sulaymon ota turishga harakat qilib. – Taniyman... Shu bi-

noning qog'ozini chizgan. Gulchehra, bolaginam. Nima qilib qo'yding o'zi, qari, devona chol?!

– Ota, tuzukroq gapiring, nima bo'ldi o'zi? – so'radi kimdir. – O'likni qachon ko'rdingiz?

Sulaymon ota plita burchagiga omonatgina o'tirdi.

– Ertalab ko'rdim o'likni... Lekin uni kecha ko'rganman. Kecha shu yerga kelgan edi...

– Qay payt?

– Kechqurun. Kechqurun kelgan edi, ancha kech bo'lib qoluvdi. Soat necha bo'ldi, deb so'ragan edim undan. Chorak kam o'n ikki edi, ha, chorak kam o'n ikki degan edi...

– Ota, o'zingizni bosing, bir chekkadan gapiring, – dedi militsiya xodimlaridan biri. – Yozib olishimiz kerak.

Sulaymon ota «xo'p» deya boshini og'ir silkitdi. Keyin, bilganlarini aytib berdi. Lekin Gulchehra o'shandayoq bino tepasiga ko'tarilganmi, yo keyin kelganmi – qorovul chol bilmasdi. Qizning o'limiga uni aybdor hisoblashlari mumkinligidan cho'chib va unga achinib: «Nega tepaga chiqmadim? Nega o'shanda uni qidirmadim? Ahmoq chol!» – deb o'z-o'zini so'kardi.

Oradan bir soat o'tar-o'tmas o'lik ekspertizaga olib borildi. Tekshirildi. Uning beshinchi qavatdan tushib ketgani aniq edi. Hech kim unga suiqasd qilmagan. Marhumning badanida ham, binoda ham buni isbotlaydigan dalil topilmadi. Lekin militsiyaga bir narsa qorong'i edi: u tasodifan tushib ketganmi yo o'zini tashlaganmi?! Shuning uchun binoni yana sinchiklab tekshirishdi, o'likni ham rentgenga solib ko'rishni lozim topishdi. O'sha zahotiyoyq marhuma idorasiga – politexnika institutiga xabar qilindi.

Kechga yaqin militsiyada marhuma haqida aniq ma'lumot to'plandi, tekshirishlar yakunlandi. Lekin marhuma o'zini tashlaganmi, yo tasodifan tushib ketganmi – bu savol yechilmadi. Kim biladi, balki chindan ham tushib ketgandir? Hamma yoq qorong'i bo'lsa, balkonning panjara-lari hali qoqilmagan bo'lsa?! Ortiqcha qadam qo'yib yuborgan. Militsiya xodimlari shunday qarorga kelib, odamlarga ruxsat berishdi.

XXII

Qosimjon bilan Zubayda praktikadan qaytib kelishganda Gulchehraning o'lganiga uch kun bo'lgan edi. Abstutay ularni ko'rishi bilan yig'lab yubordi.

– Qosimjon, o'g'lim, Gulchehradan ayrilib qoldik!.. Gulchehra o'lib qoldi.

– Nima?! – Qosimjon qotib qoldi.

– Onasi chaqirdi uni, onasi!.. Xudo ko'p ko'rdi uni bizga!

Kampir yig'i aralash bo'lgan voqeani zo'rg'a-zo'rg'a gapirib berdi.

– Hammasiga o'sha yigit aybdor! Oti qurg'ur Abdulla! O'tgan kuni samolyotda olib ketishdi. Qarindoshlari, institutdagilar olib ketishdi. Bechora qiz... Onasining yoshiga kirsam ham mayli edi.

Qosimjon shu zahotiyoq yo'lga tushdi. Qosh qorayganda Mingbuloqqa kirib bordi. Gulchehraning uyi atrofida tumonat odam. Ichkaridan ayollarning yig'isi eshitilardi. Qosimjon odamlar orasida boshini xam qilib turgan Samadni ko'rib, uning yoniga bordi.

– Qachon ko'ndilaring?

– Kecha.

– Yusuf aka qalay?

– Uni so‘rama, – Samad xo‘rsindi. – Kechadan beri tildan qolgan. Hech narsani bilmaydi. Raisning uyiga yotqizib qo‘ydik. Tepasida doktor.

– Ablah! Men uni sog‘ qo‘ymayman!

– O‘zingni bos, – dedi Samad. – Falokat ustiga falokat qo‘shilmasin. U bilan keyin gaplashamiz.

– Xabari bormi?

– Men xabar bermoqchi emasdim. Mamlakat telegramma berib qo‘yibdi.

– Kim u?

– Pochtachi qiz.

– Adresini bilar ekanmi?

– Gulchehra pochtaga borib xat olardi. Bu yoqqa yur.

Ular odamlar orasidan chiqib, kanal labiga o‘tirishdi.

– Manavini Gulchehra ko‘rmay ketdi. – Samad Abdullaning so‘nggi telegrammasini o‘rtog‘iga uzatdi.

– Kimdan?

– Kimdan bo‘lardi...

Qosimjon telegrammani o‘qib chiqdi. Qo‘llari musht bo‘lib tugildi.

– Ablah!

Ikki o‘rtoq jim qolishdi. Samad boshini tizzalari orasiga olib, xayolga cho‘mdi.

– Qosim, – dedi u bir mahal chidolmay.

– Labbay?

– Men... men uni yaxshi ko‘rardim!.. Esimni taniganimdan beri yaxshi ko‘rardim!..

Samad titrab yig‘lab yubordi. Qosimjon uning orqasiga qo‘lini qo‘ydi, bir narsa deb ovutmoqchi bo‘ldi, ammo tiliga hech narsa kelmadi.

...Xuddi shu paytda Abdulla samolyotdan tushib Toshkent – Qo‘qon poyezdiga o‘tirgan edi.

Telegrammani olganida, avval u ishonmadi. Bir necha marta o'qib chiqdi. Keyin, birdan sodir bo'lgan dahshatga tushunib, dodlab yubordi. U bunday bo'lishini sira kutmagan edi. Shoshib kiyindi. Shkaf ustida chang bosib yotgan jomadonini olib, nimalarnidir soldi, keyin jahl bilan uloqtirib tashladi-da, pastga otildi.

«Endi nima bo'ladi? Endi nima qilaman?» – derdi u nuqul samolyotda ham, poyezdda ham. Gulchehra nima qilib qo'rganini u bilmasdi. Lekin nima qilib qo'rgan bo'lsa ham, bunga o'zi aybdor ekanini bilardi. Nima degan odam bo'ldi u endi? Odamlarning yuziga qanday qaraydi? Qanday yashaydi? U shunday o'ylar ekan, ko'z oldidan Gulchehraning siymosi ketmasdi, qayoqqa qaramasin, uning kulib turgan ko'zlariga to'qnash kelardi. Bu ko'zlar ta'na qilmasdi, yo'q, ular unga mehr bilan boqardi, ular sevinchga, sevgiga limmo-lim edi.

Abdulla Mingbuloqqa kirguncha ularning ta'qibidan qutulolmadi. Mingbuloqqa kirganda esa, xayoli bo'lindi. Olisda bir guruh odamlar ko'ringdi. Ular Gulchehralar uyining oldida turishardi. Abdullani qo'rquv bosdi. Odamlarning hammasi unga yov nazari bilan qarab turgandek tuyulardi. Ularga ko'rinmaslik uchun devor yoqalab yura boshladi. Uning rangida rang qolmagan, tizzalari qaltirardi. Bir amallab buvisining uyiga yetib keldi. Hovliga kirdi-yu, xuddi birov quvlayotgandek, eshikni orqasidan shoshib tanballadi. Hovlida hech kim yo'q edi. Abdulla ayvonga ko'tarildi.

– Buvi! – chaqirdi u sekin. Hech kim javob bermadi.

– Tog'a!

Yana jimlik.

– Kelinoyi!

Shu payt bog‘ tomondan bedana «tak-tarak»lab yubordi. Abdulla seskanib ketdi. Bu – o‘sha, Gulchehra avaylab tarbiya qilgan, qanoti siniq bedana edi.

– Gulchehra! – qichqirib yubordi Abdulla o‘zidan-o‘zi.

– Tog‘a, – ko‘zlarini ishqalab ichkari xonadan jiyan Tursun chiqdi.

– Ha, jiyan, – dedi o‘zini bosishga intilib Abdulla. – Uydagilar qani?

– Hammalari Yusuf amakimlarnikida. Eshitmadingizmi, Gulchehra opam o‘lib qoldilar.

– Eshitdim. Nima bo‘libdi?

– Toshkentda imoratdan yiqilib tushibdilar. Tog‘a!

– Nima?

– Buvim sizni qarg‘adilar, – dedi Tursun sirli ohangda. – Adam ham so‘kdilar. Buvim unaqa nevaram yo‘q, dedilar. Nima qiluvdingiz, tog‘a?

Abdulla javob bermadi. U yig‘lardi. Bir tomchi yosh jiyanining bo‘yniga tushdi. Tursun boshini ko‘tarib tog‘asiga qaradi.

– Siz ham yig‘layapsizmi?

Abdulla boshini qimirlatdi.

– Men... men Gulchehra opangni yaxshi ko‘rardim. Keyin... keyin ketib qoldim...

Abdulla jiyanining boshini siladi-da, hovliga tushdi. Bitta-bitta yurib ko‘chaga chiqdi. Odamlar fotihaga kelishardi. Abdulla hech kimga parvo qilmay, kanal yoqalab ketdi. Qulog‘i ostidan esa qanoti singan bedananing bir ohangdagi «tak-taragi» ketmasdi. Ko‘p o‘tmay qabristonga yetib keldi. Hamma yoq suv quygandek jimjit, faqat allaqayerda chumchuq chirqillardi. Abdulla

atrofiga qaradi. Olisda kimningdir qorasi ko'ringdi. Abdulla birpas o'ylanib turdi-da, keyin shu tomonga yurdi. Uzun qora marmar tosh yonidagi yangi qabr tepasida kimdir turardi. Abdulla yaqinlashib, tanidi. Bu Samad edi. Yoniga bordi. Samad unga qaramadi. Ikkalovi anchagacha yonma-yon turishdi. Abdullaning ko'zi qabrda. Hali undan shunday tuproq isi kelib turardi.

– Bo'ldi, ket! – dedi bir mahal Samad vazminlik bilan. – Tirigida xo'rlading, o'lganida tinch qo'y. Ket.

Abdulla indamadi. Yana bir oz turdi-da, orqasiga qaytdi. U mast odamdek gandiraklab qadam tashlar ekan, hech kim, hech nima xayoliga kirmasdi. Hech narsani ko'rmasdi. Chumchuq esa hamon tinmasdan chirqillardi.

XXIII

Andijon – Toshkent passajir poyezdi oqshom payti poytaxtga kirib keldi. Perron bir damda odamga to'ldi va xuddi shunday bir zumbada bo'shadi. Poyezddan eng oxiri Abdulla tushdi. U talmovsirab atrofga qaradi, keyin sudralib vokzaldan chiqdi. U nima qilishni, qayoqqa borishini bilmasdi. Shuning uchun shoshmasdi. Ancha vaqt vokzal oldida qaqqayib turdi. Keyin Temiryo'lchilar saroyi tomon yurdi. Saroyi bir oz aylangach, qandaydir xiyobondan chiqib qoldi. Qosh qorayib, quyoshning nim rang gardishi daraxtlar orqasidan mo'ralab turardi.

Xiyobonda odam siyrak, faqat hali suv qo'yilmagan ko'saksurat favvora yonidagi o'rindiqda ikkita mo'ysafid gaplashib o'tirardi. Abdullaga ularning qiyofasi shu darajada sokin va tantanali

ko'rindiki, u ham shu topda hech narsani o'ylamasdan shunday osoyishta o'tirgisi kelib ketdi. Beixtiyor panaroq joy qidira boshladi. Xiyobonning orqa tomonidagi katta yo'lga tutash panjara yonida ola-chipor bir o'rindiq ko'rindi. Abdulla shu tomonga yurdi. O'rindiq oldida besh-oltita chumchuq va ikkita musicha non ushoqlarini cho'qilab yurardi. Ular kech kirganiga, inlariga shoshilgan boshqa qushlarning chirqillaganiga parvo qilmas, o'z ishlari bilan ovora edi. Hatto odam kelganini ham payqashmadi.

Abdulla bir depsinib ularni haydadi-da, o'zini o'rindiqqa tashladi. Nima bo'ldi o'zi? Nega o'ldi? Nega o'ladi? Abdulla qancha o'ylamasin, o'yining oxiriga yetolmadi. Bu esa uni battar qiynoqqa soldi. Ko'zlari tinib, hamma narsa jimirlab ko'rina boshladi. Shalviragan qo'llarini zo'rg'a ko'tarib, ishqaladi. Baribir foyda bermadi. Sekin yumdi. Endi ko'zlarining ichida nimalardir jimirlay boshladi. «Hozir ketadi, hozir yo'qoladi», o'yladi o'zicha Abdulla va boshini o'rindiq suyanchig'iga qo'ydi. Ammo jimirlash yo'qolmadi. Aksincha, ko'paydi, keyin ingichka halqachalarga aylandi. Halqalar birining ichidan ikkinchisi chiqib, patefon plastinkasidek chirillab aylanib, qorachiqqa yaqinlashganda yoyilib ketdi. Shu zahoti ikkita halqacha paydo bo'lib, avvalgisidan ham tez aylana boshladi. Uning o'rnini uchinchisi, keyin to'rtinchisi egalladi. Lekin eng yomoni halqachalarning plastinkadek aylanishi edi. Qorachiqqa yaqinlashganda plastinka g'adir-budur chiziqlar hosil qilib, shunday tez chirillab aylanardiki, go'yo badaniga igna sanchilayotgandek bo'lardi.

Abdulla shu alfozda qancha o'tirdi, bilmaydi, nihoyat chiday olmay boshini ko'tardi. Lekin

boshi tegirmon toshi yurg'izgandek og'rirdi. Yana ko'zlarini ishqalab, yumdi. Bu gal halqachalar ko'rinmadi. Abdulla xo'rsinib, boshini yana suyanchiqqa qo'ydi. Shu mahal olisda soqqadek kichkina qora bir narsa paydo bo'ldi. Ko'zlarining to'g'risiga kelib to'xtab turdi-da, keyin Abdulla tomon yumalay boshladi. Birpasdan so'ng u ikkita bo'ldi. Keyin to'rttaga aylandi. Abdulla «nima bo'larkin?» deb ko'zlarini yumganicha o'tiraverdi. To'g'rirog'i, ochishga majoli yo'q edi. To'rtta soqqa bu paytda o'n oltitaga aylanib yumalay kelardi. Lekin yaqinlashmasdi. Soqqalar hisoblab bo'lmaydigan darajaga yetganda, Abdulla ko'zlarini bir-ikki qisib qo'ydi. Shunda hamma soqqalar birlashib, katta bir temir sharga aylandi. Shar ovoz chiqarib dumalay boshladi. «Hozir meni bosib ketadi, – xayolidan o'tkazdi Abdulla. – Qochish kerak». Lekin joyidan qo'zg'alolmadi. Sharining unga yetib kelishiga besh-olti qadamcha qoldi. «Hozir keladi, hozir!..» Abdulla yuragi qinidan chiqay deb hansiray boshladi. Shar kengaydi, ko'z davrasidan chiqib ketdi. Ammo hamon dumalardi. «Yetdi! Yetdi!» – dedi Abdulla va birdan ingrab yubordi.

– Nima bo'ldi, yigit? – so'radi kimdir mehribonlik bilan.

Abdulla yoniga o'girilib, boyagi mo'ysafidlardan biri tepasida turganini ko'rdi.

– Uxlayotgan ekansiz, tush ko'rib, cho'chidingiz shekilli?

– Ha, – dedi Abdulla uyalib, keyin sekin o'rnidan turdi.

– Muzdek suv ichib oling, yaxshi bo'ladi, – maslahat berdi mo'ysafid.

– Rahmat.

Abdulla roʻmolchasi bilan ter qoplagan boʻyni artib, yoʻlga tushdi. U gandraklardi, oyoqlari omonatgina ilib qoʻyilgan tayoqchalardek sudralar, tizzalari zoʻrgʻa bukilardi. Shu ahvolda u xiyobondan chiqib, markaziy koʻchaga oʻtdi. Bu koʻcha kech kirishi bilan gavjum boʻlardi. Mashina qatnovi toʻxtab, butun koʻcha piyodalar ixtiyoriga oʻtardi. Piyodalar esa turli kiyimda, turli yoshda boʻlib, shu koʻchaga kelganda oʻzlarini beixtiyor, hech qanday gʻami, tashvishi yoʻqdek his qilishardi.

Bu yerda umrida birinchi marta anchagina urish-toʻpolon bilan sayilga chiqqan, hali baland poshnali tufliga oʻrganmagan qizlarni, yarim kechagacha oʻyin-kulgi qilib, butun shahar oʻzini-ki boʻlib qolgan talaba-yoshlarni, bir-biridan hali boʻsa olib ulgurmagani, bor mehrlarini qoʻl ushlash bilangina ifodalab yurgan sevishtanlarni, umri tugab borayotganini sezib, hammaga, hamma narsaga suq va havas bilan qarovchi munkillagan kampir, chollarni, qoʻying-chi, shaharning deyarli hamma toifa kishilarini koʻrish mumkin edi. Bir soat chamasi shoshilmasdan shu koʻchani aylangan kishi, uzoq uchratmagan tanish-bilishlarini koʻpincha shu yerdan topishi ehtimoldan xoli emas. Koʻpchilik, ayniqsa, yoshlar shunday qilishardi ham. Bu koʻcha umuman, dam olish, uchrashuvlar, kelgusi rejalar joyi edi.

Abdulla bitta-bitta qadam tashlab trotuar chetidan borar ekan, odamlarga qaramaslikka intilardi. Uning hech kim bilan uchrashgisi, hatto salomlashgisi ham kelmasdi. U universal magazin roʻparasiga yetganda toʻxtadi. Shu yerda sayilgohni tor bir koʻcha kesib oʻtgan edi. Shu yoqqa yurdi. Koʻcha jimjit, na bironta mashina, na bironta odam koʻrinardi. Abdullaning kayfi battar

buzilib ketdi. O'zini iflos, katta bir gunoh qilib qo'ygandek his qilardi. «Rasvo bo'ldim, – o'yladi u. – Hamma narsa rasvo bo'ldi». Shunday o'yladi-da, yana yo'lga tushdi.

Trolleybus to'xtaydigan joyga kelganda, kimningdir simyog'ochga suyanib turganini ko'rdi. Uning shu odam bilan gaplashgisi, ozgina bo'lsa ham ko'nglini bo'shatgisi kelib ketdi. Simyog'ochga yaqinlashib yo'taldi. Lekin begona kishi unga qaramadi. Simyog'ochga suyanganicha turaverdi.

– Kechirasiz, soat necha bo'ldi? – so'radi Abdulla uning qarshisiga o'tib.

– Soatim yo'q, – dedi begona kishi. – Ammo taxminan aytishim mumkin. O'n ikkidan oshdi.

– Nahotki? – hayron bo'ldi Abdulla.

– Ha, trolleybus endi yurmaydi. Chekishingiz bormi?

– Bor.

Abdulla shoshib sigareta olib begona kishiga uzatdi, o'zi ham tutatdi. Begona kishi og'ir xo'rsinib tutun chiqarar ekan, dedi:

– Xotinimni kutib turibman.

– Shunaqa kech keladilarmi?

– Endi kelmasa kerak, – dedi begona kishi yo'lga qarab.

– Nega?

– Urishib qoluvdik, ketib qoldi. Ancha bo'ldi ketganiga, hali qorong'i tushmagan edi.

– Xafa bo'lmang, kelib qolarlar, – yupatdi Abdulla.

– Yo'q, kelmaydi. Ketib qolsa qayerda bo'lishini bilardim. Yo anhorning labida o'tirardi, yo bo'lmasa katta ko'chada yurardi. Darrov topib kelardim. Bugun topolmadim. – Begona kishining ko'zlari yaltirab ketdi. – Endi kelmaydi...

– Xafa bo'lmang, er-xotinning urishi qayoqqa borardi? – dedi Abdulla yana uni ovutmoqchi bo'lib. – Qaytib keladilar.

– Ayb o'zimda, – dedi begona kishi ko'zlarini artib. – Uni ko'p xafa qilardim. Bugun ham qattiq xafa qildim. Bilmadim, nimadan janjal chiqardim. Tuppa-tuzuk ovqatlanib o'tirgan edik bo'lmasa. Bir gapga ikkinchisi ulandi, uchinchisi... Keyin u ham chiday olmadi, shekilli: olim bo'lish oson ekan-u, odam bo'lish qiyin ekan, dedi. Bu gap u yoq bu yog'imdan o'tib ketdi. Yomon so'kib berdim. Chiqib ketdi, yig'lab-yig'lab chiqib ketdi. Bunaqa odamni topish qiyin. Yomon bo'lsa, ikkita bolamni o'z bolasidek ko'rmas edi. Men ham uni yaxshi ko'raman. Ertaga tug'ilgan kuni edi. Sovg'a ham olib qo'yuvdim... – Begona kishi xo'rsindi. – Mana, ko'ring.

U qo'yin cho'ntagidan kichkina qutichani olib Abdullaga uzatdi. Bu – kichkina brilliant ko'zli uzuk edi.

– Yaxshimi?

– Juda ham, – dedi Abdulla qutichani yopib, qaytarar ekan.

– Zo'rg'a topuvdim. Endi keragi yo'q... Nima qiladi endi buni?..

Begona kishi birdan o'zini o'ngladi. Sigaretni oyog'i tagiga tashlab ezdi, keyin yosh boladek katta ko'cha tomon yugurib ketdi.

– Saida! Saida!!!

Abdulla uning orqasidan hayron bo'lib qarab qoldi. Bir ozdan so'ng trolleybus kelmasligiga ishonch hosil qilib, o'sha tomonga yurdi. Mui-lishga yetganda begona kishi ko'chani boshiga ko'tarib kulganicha, bir narsani opichlab kelar edi. Abdullani ko'rib, u sevinch bilan qichqirdi:

– Topdim! Topdim!..

Abdulla shunda uni bo'ynidan quchoqlab olgan nimjon ayolni ko'rdi. Uning oy nuri yoritib turgan ko'zlari namdanmi, yo sevinchdanmi xuddi boyagi uzukning brilliant ko'zlaridek yaltirardi. Shu payt:

– Yigit! – dedi begona kishi to'xtab. – Ertaga biznikiga keling. Otamlashamiz. Simyog'och qarshisidagi uy. Albatta keling!

– Rahmat, – dedi Abdulla.

Bu tasodifiy uchrashuv uni battar ezib yubordi va u yoshi anchaga borib qolgan, ammo qonida yigitlik zavqi, muhabbati jo'sh urib turgan, osoyishta tun qo'ynidagi bo'm-bo'sh ko'chani to'ldirib borayotgan bu odamga cheksiz havas, ayni vaqtda hali uzoq yillar, balki umrbod qalbini timdalaydigan gunoh azobi bilan qarab qoldi.

1969

HIKOYALAR

GAROV

Obidjon akaning oltmish yilligiga atab berilgan ziyofat kutilgandan ham yaxshi o'tdi. Avvalo aytilgan odamlarning hammasi keldi. Buyurilgan ovqatlar hammaga manzur bo'ldi. Mashshoqlarning ikkala to'pi ham kecha oxirigacha xizmat qildi. Maqtovlar-chi! Obidjon akaning o'zi sha'niga aytilgan gaplardan quvonib, g'ururlanib o'tirdi. Ziyofatga ajoyib joy tanlanganini aytmaysizmi? Anhor labiga tushgan peshayvonli choyxona oromijon joy ekan. Buning ustiga sovg'a-salomlar ham ziyofatga yarasha bo'ldi. Ko'pchilik xatjild tutqazdi. So'ng Obidjon aka xotini Zaynabxon bilan yarim kechagacha shu xatjildlarni ochib, ko'rishdi. O'n ming so'mlik xatjild chiqmadi, hisob. Ko'pchilik qirq-ellik mingdan solibdi. Hammasi tag'in taxi buzilmagan besh ming, o'n minglik qog'ozlar.

Zaynabxon olishning bermog'i ham bor, degan mulohaza bilan erinmasdan bir daftar tutib, hammasini yozib chiqdi. Ikki yarim millionga yaqin pul yig'ilibdi. Gap pulda emas, sovg'alarda emas, odamlarning ularga bo'lgan munosabati, hurmatida edi. Er-xotin boshlari tog'dek ko'tarildi, turli o'ylarga borib, ikkilanib bergan ziyofatlaridan xursand bo'lishdi. Obidjon aka kuyovlarini ham maqtadi!

– Baraka topishsin kuyovlarim! Hammasi chopib-chopib xizmat qilishdi, – dedi u gap orasida yirik qo'llari bilan ko'ragini silab, – Sodiqjon ham, Hafiz ham tinim bilishmadi.

– Ilgaridan ular shunaqa, – Zaynabxon eriga boshqacha mehr bilan qarab qo'ydi. – Innaykeyin, siz har kuni oltmishga kirarmidingiz?

– Baribir baraka topishsin. O'zimga kelib olay, bir ikkalovini qizlaring bilan chaqiraman, o'tirishamiz. Nima deding?

– Nima desangiz shu.

Zaynabxon pullarni qiyiqqa o'rab, erining yostig'i tagiga qo'ydi.

– Nima qilyapsan?

– Menda tursa, ishlatib qo'yaman, – kuldi Zaynabxon.

– Ishlataver. Seniki shu pul, – Obidjon aka tuginni qaytarib, xotinining yuzidan o'pib qo'ydi. – Aytganday, o'g'ling, Sanjar ko'rinmay qoldimi?

– Voy, uyam rosa xizmat qildi. E'tibor bermagansiz-da. – Zaynabxon shunday dedi-yu, xavotirga tushib o'rnidan turdi.

– Qayoqqa?

– Qarab qo'yay. Yotgan bo'lsa kerak, hoynahoy!

– Uyg'otib yuborma tag'in!

Zaynabxon yotoqxonadan chiqib, zalga o'tdi, undan o'g'lining xonasiga kirdi. Qorong'u bo'lganidan o'g'lining bor-yo'g'ligini bilolmadi. Timirskilab yurishga botinmay, chiroqni yoqdi. Karavot bo'm-bo'sh edi. Zaynabxon ezilib ketdi. Avvalo, eriga hozir u yolg'on gapirdi. Qolaversa, shunday muborak kunda Sanjar nomigagina xizmat qilib, keyin g'oyib bo'lib qoldi. Nega bu bola bunaqa chiqdi?

Undan qo'rqmaydi, va'dasida turmaydi. Aytsam-
mikan otasiga? Yo'g'-e, shunday kunda-ya?

Obidjon aka uyg'oq edi.

– Yotibdi ekanmi? – so'radi u.

Nima desin?

– Yotibdi. Siz ham uxlang, – Zaynabxon eri to-
monga qarashga uyalib, o'rniga cho'zila qoldi.

– Endi uyqu kelarmidi? Hali zamon tong ham
otib qoladi. Kunduzi uxlarman. Ertaga ishga bor-
masam ham bo'lar! Har holda, yubilyarman-ku.

Obidjon aka kuldi. Zaynabxon ham jilmaydi.
Ammo xayoli yana o'g'liga qochdi: «Qayoqda yur-
ganiykin?» U ham eriga o'xshab endi uxlolmasli-
gini bilardi. Hozirgina undan baxtli, undan tinch
odam yo'q edi. O'g'lining qaytmaganini ko'rib,
halovati yo'qoldi. «Yolg'iz o'g'il – erka o'g'il». Zay-
nabxon kim shunday deganligini eslashga urindi,
ammo topolmadi. Kim aytgan bo'lsa ham to'g'ri
aytgan ekan. Zaynabxon o'ttiz besh yoshida San-
jarni ko'rdi. Shunga o'n to'qqiz yil bo'pti. Ikkala
qiz institutni bitirishdi, turmush qurib, ota-ona
qanotlari ostidan uchib chiqib ketishdi. Zaynab-
xon ikkalovidan ko'ngli to'q. Ikkalovining yaxshi
uyi, ikkitadan bolasi bor. Katta kuyovining tagida
mashina. Kichigi ham undan qolishmaydi. Bu-
ning ustiga ikkalovi ham Obidjon aka aytgandek,
mehr-oqibatli chiqishdi. Tez-tez xabar olib turi-
shadi. Shundan bo'lsa kerak, o'g'ilni arzanda qila
boshlashdi. Ayb o'zlarida. Nima eyman, nima ki-
yaman desa, muhayyo. Yolg'ondan yo'talsa ham
doktor chaqirishadi, kechasi bilan tepasida mijja
qoqmay o'tirib chiqishadi. Aftidan, Sanjar uyda
kimligini juda tez anglab oldi. Zaynabxon u otasi

bilan gaplashayotganida, o'g'lining ko'zlarida kinoya, aniqroq qilib aytganda, behurmatlik paydo bo'lganini sezib qoldi. Birinchi marta payqaganida yuragi bir «shuv» etib ketdi. Keyin yaxshiroq qaradi. Kuzatishlari to'g'ri chiqdi. Ota-ona orzusi, niyatlari uni mutlaqo qiziqtirmay qo'ygan, zarurat, odob nuqtayi nazaridangina bularga quloq solar edi, shekilli.

Eri ranjimasligi uchun Zaynabxon bu kuzatishlarini unga aytmadi, ichiga soldi. Keyin o'zini ovutdi, o'g'lidagi o'zgarishni yoshlikning o'tkinchi alomatlari, deb hisobladi. Ammo kech kelib, birovlarinikida yotib qola boshlagach, qattiq tergashga o'tdi. Sanjar va'da berdi-yu, ammo va'dasi-ning ustidan chiqmadi. Endi jiddiyroq gaplashish kerak, shekilli. U shularni diliga tugib, ko'zlarini yumdi. Ammo qani uyqu kelsa. Shunday bo'lsa ham o'zini zo'rlab, anchagacha ko'zlarini ochmadi. Boshini ko'targanda, tong ota boshlagan, yonida eri shirin uxlab yotardi.

Zaynabxon oyoq uchida zalga o'tib, yana o'g'lining xonasiga kirdi. O'g'lining ko'rpa-yostig'i kecha qanday taxlangan bo'lsa, shunday turardi. Zaynabxon tutoqib ketdi. «Shundog' kunda ko'chada yuradimi odam?» Hozir agar Sanjar oldida bo'lganida, yuz-ko'zi aralash shapaloq tortib yuborardi. «Yo opalarinikidamikan?» Zaynabxon zalga chiqib, osma soatga qaradi. Endi olti bo'layotgan edi. Qizlari hali yotishgan bo'lishsa kerak, hozir bezovta qilmagani ma'qul. «Tentak bola! Erka bo'lmay ketgur! Qayoqlarda yuradi?» Zaynabxon erini uyg'otib yubormaslik uchun yotoqxonaga qaytib kirmadi. Hovliga tushib,

o'choqboshiga bordi. Gaz plita ustiga tunuka choynakni qo'yib olov yoqdi. Ziyofatdan ortgan narsalar ikkita tog'orada turardi. Ochib ko'rdi. Kichik kuyovi qayerdandir yoptirib kelgan tandir somsaga kecha dili ketgan, lekin yeyolmagan edi. Shundan bittasini olib tishladi, ammo chaynolmadi. Sanjar esiga tushib, ishtahasi ham bo'g'ildi. Zalga ko'tarilib, qizlariga telefon qila boshladi.

– Sharifa? – Bu kichkina qizi edi. – Uyg'otvordimmi? Yaxshi yetib bordinglarmi? Bolalar tinch ekanmi? Sodiqjon rosa charchagandir? Tinchlik. Ha, adang yotiptila. – Zaynabxon qizining savoliga javob berarkan, beixtiyor, yotoqxonaga qarab qo'ydi. – Ukang mabodo senikidamasmi? Yo'q? Zaripanikidadir-da? Mayli, yot. Kelganda tilpon qilarman.

Katta qizi Zarifa ham onasini eshitib, yupatishga o'tdi:

– Ko'p ezilavermang. Sanjar katta yigit. O'rtoqlari birin-ketin uylanishvotti, bitta-yarimtasinikida yotib qolgandir? Hafiz akamlarga ayta-man, hali turganlarida surishtirib beradilar.

Zaynabxon e'tiroz bildirdi.

– Qo'y, hozircha keraymas. Kechgacha kelmasa, unda tilpon qilarman.

U yana o'choqboshiga o'tdi. Kunduzi mahalladagi erkaklar chiqib qolishi, institutdan bitta-yarimta kelib qolishi mumkin. Hamma narsa bo'lsa ham issiq ovqat qilib qo'ygani yaxshi. Zaynabxon shunday o'y bilan muzxonadan uchto'rt bo'lak sersuyak go'sht ajratib olib, qozonga soldi. To'ldirib suv quydi-da, qaynab chiqishini kuta boshladi. Beixtiyor xayoli yana o'g'liga qoch-

di. O'zini chalg'itish niyatida kechagi ziyofatni, sovg'a-salomlarni eslashga urindi, ammo dilidan baribir o'g'li ko'tarilmadi. Biron mashina urib yuborib, zim-ziyo ko'chada qonga belanib yotgan, bir yomon odamlar bilan yoqalashib, militsiyaga tushgan bo'lsa-chi? Militsiyaga tushsayam ish-qilib omon bo'lsin.

Suv biqirlab qaynab, qozondan toshib chiqdi. Zaynabxon olovni pasaytirib, tuxumdek ikkita piyozni to'g'rab qozonga soldi-da, tuvoqni yopdi. Oshxonadan chiqqanda, kimdir ko'cha eshikni qoqqandek bo'ldi. Zaynabxon beixtiyor «hozir» deb yubordi va yugurib borib eshikni ochdi. Tavba, hech kim yo'q edi. Eshikni qiya yopdi-da, uyga ko'tarildi. Zalga kirganida, yotoqxonadan erining xurragi eshitilib, ko'ngli biroz yozildi. Yaxshi ham eri bor. Bo'lmasa yuragi tars yorilib ketmarmidi. Ishqilib, umri uzoq bo'lsin, tog'dek bo'lib uni su-yab, hech narsada qiyinchilik sezdirmay kelyap-ti. Ba'zi-ba'zida yuragim deb qolsa, Zaynabxon o'zining yuragini hovuchlaydi, xavotirga tushib ketadi. Koshkiydi eri turguncha Sanjar ham kelib qolsa! Kechqurun uyda, yotibdi, deb aldadi. Endi so'rasa nima deydi? O'qishga ketdi, deydimi? Yosh bola yig'laydi, katta bola tig'laydi, deb bekor-ga aytishmagan ekan. Yig'lasa, yupatasan, mana bunday yuragingni tig'lab tursa, nima qilasan?

Zaynabxon oyoq uchida yotoqxona oldiga borib, ichkariga qaradi, eri chalqancha yotib tinch uxlardi. Eshikni ohista yopdi-da, nima qili-shini o'ylab, yana hovliga tushdi. Ozgina sab-zi to'g'raydi. Hech qanday suyuq ovqat oshning o'rnini bosmaydi.

Zaynabxon oshxona oldidagi o'radan bir to'g'oracha sabzi oldi, keyin shoshmasdan archib, to'g'ray boshladi. Yaxshi ham shunday qilgan ekan, erining mahalladagi oshnalari birin-ketin kirib kelishdi. Hammalari uy kiyimida, birov kalish sudragan, birov turklarning latta kovushini ilgan... Birrovga chiqqan odamlar kechgacha o'tirishdi. Zaynabxon ularning chiqqanidan xursand bo'ldi. Eri ular ketguncha o'g'lini so'ramadi. Hamma tarqaganda o'zi o'g'lining xonasiga borib keldi-yu, ammo gap ochmadi. Zaynabxon yuragi g'urmishlab, katta qiziga telefon qila boshladi. Zarifaning eri hali ham qaytmabdi.

Zaynabxon uyning ichida qiladigan ishi yo'q edi, noiloj hovliga tushdi. Erining o'zi uni tinchita boshladi.

– Xunob bo'laverma. Kap-katta yigit. O'rtoqlari bilan yurgandir!

Zaynabxon xavotir olayotganini endi yashirmadi:

– Keyingi paytlar sal o'yinqaroq bo'b ketdi.

– Hechqisi yo'q, yoshlik – sho'xlik. O'zini tiyib oladi. Faqat hadeb tergayverish kerak emas, uydan bezdirib qo'yamiz.

Zaynabxon bugun o'g'lining uyda tunamaganini aytmqochi bo'ldi-yu, o'zini tiyib qoldi. Bo'lar ish bo'ldi, yuraklarini qisib nima qildim, dedi.

Salqin tushdi. Er-xotin ko'tarilib, televizor qo'yishdi. «Tvin Piks» amerika filmining navbatdagi seriyasini ko'ra boshlashdi. Film yarmiga borgan-da, erini uyqu bosa boshladi. Zaynabxon qistadi:

– Kep qolar... siz yota qoling.

Ammo Sanjar kelmadi. Yarim kechada telefon jiringladi. Erini ayab, uxlayotgandek bo'lib yot-

gan Zaynabxon shoshib o'rnidan turdi. Obidjon aka ham uyg'oq ekan, boshini ko'tardi.

– Man olaman! – Zaynabxon yugurib zalga chiqdi.

U katta kuyovi Hafiz bo'lsa kerak, deb o'yladi. Kechqurun telefon qilmadi, balki hozir biron gap topgandir? Zaynabxonning yuragi birdan o'ynab ketdi. Yaxshi xabar bo'lsa, yarim kechada telefon qilmasdi. Zaynabxon beixtiyor osma soatga qaradi. Ikkidan qirq daqiqa o'tibdi. Ishqilib, tinchlik bo'lsin.

Telefonda begona odamning ovozi eshitildi:

– Bemahalda telpon qilganim uchun uzr...

– Kim bu? Qayoqqa tilpon qilyapsiz? – shoshib so'radi Zaynabxon.

– Obid akani chaqirvoring.

– Nima ishingiz bor edi? Kimsiz? – yana so'radi bo'shashib Zaynabxon.

– Kimligimni ahamiyati yo'q. Eringizni chaqiring!

Bu gal notanish odam dag'alroq gapirdi. Zaynabxon noxush voqea yuz berganini va bu voqea o'g'liga taalluqli ekanini darrov payqadi. «O'zi omon bo'lsin ishqilib!» dilidan o'tkazdi va erini chaqirdi.

– Obid aka! Sizni so'rashyapti!

Eri allaqachon uning yoniga kelgan, nima gapligini sabrsizlik bilan kutib turgan edi. Shoshib go'shakni oldi.

– Eshitaman! Kim?

– Bizni tanimaysiz. Biz o'g'lingizni tanishlarmiz, – bo'g'i ovoz bilan gapirayotgan odam xirillab kulgandek tuyuldi. – Mo'ltirab eshikka tikilib o'tiribsizlarmi er-xotin?..

Obidjon aka bo'shashib ketdi.

– Sanjar?! Nima bo'ldi unga?!

– O'g'lingiz otday. Mana, ro'paramda o'tiribdi.

– U yana xirillab kulgandek bo'ldi. Obidjon aka go'shakni qulog'iga mahkamroq bosdi. – Faqat... Bir oyog'iga zanjir solib, stolga bog'lab qo'yibmiz. Qochib ketmasin deb.

– Nega? Nega bog'lab qo'yibsizlar? Nima qildi u? Telefonni unga bering. Talab qilaman!

– O'zingizni bosing, aka. Talab qiladigan hozir biz! Ovoz birdan tinib qoldi.

– Gapiring! Nega jimib qoldingiz? Sanjar! O'g'lim!

– Nima gap o'zi, Obid aka? – erining qo'liga yopishib so'radi Zaynabxon.

Eri javob bermadi.

– Gapiring! Nega jimsiz? – qichqirdi u go'shakka va butun vujudi quloq bo'lib unga yopishdi. Bir necha daqiqa o'tgach, nimadir taraqladi-da, xirildoq ovoz paydo bo'ldi.

– Kechirasiz. Gapirasanmi, desam, o'g'lingizni gaplashgisi yo'q sizlar bilan.

– Nega? – hayron bo'ldi Obidjon aka.

– Gap bundog', aka! – xirildoq ovoz chuqur nafas oldi. – O'g'lingiz yutqazib qo'ydi. Agar u sizga kerak bo'lsa, sakkiz milyon opkelib berasiz. Bo'lmasa o'ligini Bo'zdan topasiz.

– Nima?! – Obidjon aka beixtiyor shunday deb yubordi. Aslida xirildoq ovoz egasining nima deganini yaxshi eshitdi, tushundi. Ammo og'zidan shu savoldan bo'lak hech narsa chiqmadi.

– Tushundingizmi? – qaytardi xirildoq ovoz. – Qaytaraymi?

– Yo‘q, yo‘q, tushundim, – dedi Obidjon aka, o‘g‘lini nima qilishlari mumkinligini yana bir bor eshitishdan qo‘rqib. Ovoz egasining qanday odamligini bilmasa ham gap ohangidan dangalchiligiga ishondi. – Qachon?

– Kechasi o‘nda.

– Bugunmi?

– Shundog‘. Bugun kechasi o‘nda.

– Buncha pulni shu vaqtda...

Xirildoq ovoz uni bo‘ldi.

– Oka! Boshqa shaharlardan kelgan birodarlarni bor, shoshib turishibdi. Shuyam pul bo‘ldimi hozir? Yo‘q bo‘lsa, qarz-qurz qiling. Qayerga keli-shingizni eshitvoling. Eshitvotsizmi?

– Eshitaman.

Obidjon aka telefon yonida turgan qalamni qo‘liga olib, xotiniga ishora qildi. Zaynabxon darrov daftar olib kelib uzatdi.

– Mirobod bozorini bilasiz, – tushuntira boshladi xirildoq ovoz. – Vokzalga qaragan darvozani yonida suvratxona bor. Shuni orqasi yalanglik. Sho‘tta turasiz. Ropa-rosa o‘nda. O‘zimiz oldiyizga kelamiz. Okajon, tag‘in melisa-pelisa qilib o‘tirmang. Organga aytadigan bo‘lsangiz, yo bi-ronta odamni boshlab kelsangiz, puldanam ajriy-siz, o‘g‘lizdanam. Kelishdikmi?

Obidjon aka boshini qimirlatdi.

– Yaxshi.

– Yashang!

Obidjon aka bir narsa demoqchi bo‘lib og‘iz juftlagan edi, ulgurmadi, xirildoq ovoz egasi go‘shakni qo‘yib qo‘ydi.

Zaynabxon devorga suyanib dag‘-dag‘ titrardi. U chala-chulpa bo‘lsa ham qanday falokat yuz berganini anglagan edi.

– Eshitding-a? – dedi Obidjon aka.

Zaynabxon bo‘shashganicha boshini egdi. Shuncha pul albatta ularda yo‘q edi. Nari borsa uch million chiqishi mumkin. Qolganini qayerdan topishadi? Obidjon akaning esiga mashinalari keldi. Bir-ikki joyi urilgan bo‘lsa ham besh yil burun olgan «Moskvich»lari bor. Motori soatdek ishlaydi, ballonlari ham o‘ziniki, hech qayeridan yog‘, suv oqmaydi. Bozordagi pattachi o‘rtog‘i bir-ikki og‘iz solgan edi. O‘shandan qarz olsinmikin? Mashinani, mayli, istagan payti olib ketsin. Erining xayoli nimalarga ketganini sezib, Zaynabxon taklif qildi:

– Qizlarni chaqiraymi?

– Aytamizmi?

– Voy, aytmay bo‘ladimi? Hafiz, Sodiqjonlar qidirib yurishibdi-ku Sanjarni. Keyin ikkalovlaridan shuncha pul chiqib qolar?

– Mayli.

Zaynabxon telefonga yopishdi.

– Yo‘q, to‘xta, – Obidjon aka uning qo‘lidan ushladi. – Tong otsin. O‘g‘ling tirik. Shundan xursand bo‘lishimiz kerak. Bu bir. Ikkilamchi, ketini o‘ylab ish qilishimiz kerak. Pul masalasiga kelsak... kechagi xatjildlar ikki yarim millionmidi? Demak, cho‘ntaklarni qoqishtirsak, uch million o‘zimizdan chiqadi. Yana besh million topish kerak. Buncha kuyovlarda yo‘qdir, so‘rab uyaltirmaylik. Raufxo‘jaga mashinani sotamiz. Nima deding?

– O‘zingiz bilasiz. Ishqilib, aldashmasmikini?

Obidjon aka gapni tushundi.

– Ularga pul kerak. O'g'lingni nima qilishadi? Ziyofat payti ko'rinmay qoluvdi, qimor o'ynagani ketgan ekan-da kasofat... Qimor ham ko'knoridek gap. Vaqtida o'ynamasa xumori tutadi.

Zaynabxon kecha erini aldaganidan, bugun esa o'g'li emas, o'zi garov tushgandek uyalib, boshini egganicha o'tirardi. Tong yorishguncha u shunday o'tirdi. Eri ham o'rnidan turmadi. Ikkalasi-ni-da noxush o'ylar o'z girdobiga tortib ketgan edi.

...Peshingacha pulning hammasi jamlandi. O'zlarida bori taxmin qilganlaridek, uch million chiqdi. Qolganini ikkala kuyov kechgacha topib kelamiz, desa ham Obidjon aka ko'nmedi. Raufxo'janiki naqd, dedi. Chindan ham o'ylagandek chiqdi. Raufxo'ja u og'iz ochishi bilan ichkari uyga kirib ketib, birpasda qiyiqqa besh million o'rab chiqdi. Faqat, hammasi mayda, yog' bosgan, g'ijim pul edi. Uyda qizlari militsiyaga xabar berish haqida bir-ikki og'iz ochib ko'rishdi, lekin Obidjon aka rozilik bermadi. Gap o'g'lining hayoti ustida ketyapti, qimorbozlardan har narsa kutsa bo'ladi. Militsiya borligini bilib qolishsa, Sanjarni sog' qo'yishmaydi! Kichkina kuyovi birga borishni, yo borib bir chekkada turishni taklif qildi. Obidjon aka bunga ham ko'nmedi. U ancha tinchigan, ertalabkiga qaraganda xotirjam ko'rinardi. Katta qizi osh qildi. Obidjon aka hech narsa bo'lmagandek, ishtaha bilan yedi.

– Har holda, ada, birga boray? – yana iltimos qildi ovqatdan so'ng Sodiqjon.

– Sizga dalda bo'lardi, – qo'shildi kuyoviga Zaynabxon.

– Tushunsalaring-chi. Ular bilan o'ynashib bo'lmaydi. Yonimda bironta odam borligini

sezishsa, Xudo ko'rsatmasin, o'ldirib qo'yishlari mumkin.

Hech kim boshqa bu haqda og'iz ochmadi.

Soat to'qqizdan chorak o'tganda, Obidjon aka hammani yig'di, xotiniga tilovat qildirib, o'rnidan turdi. To'g'ri xonasiga borib, yozuv stoli tortmasida yotgan chust pichog'ini qini bilan olib, shi-mining cho'ntagiga solib qo'ydi. Har holda, yaxshi odamlar oldiga ketayotgani yo'q. Keyin hovliga tushdi.

Katta kuyovi «Moskvich»ni ko'chaga olib chiqdi.

– Mashinani darvoza oldiga qo'ying, ko'rinib turadi, – maslahat berdi Zaynabxon.

Obidjon aka indamay rulga o'tirdi. Sumkani orqa o'rindiqqa tashladi. Har ehtimolga qarshi Zaynabxon erining to'nini sumka ustiga yopdi, shu bilan go'yo pulni berkitgan bo'ldi.

...Bozor oldi qorong'i, jimjit edi. Obidjon aka katta yo'ldan tushib, suvratxona eshigi og'zida mashinasini to'xtatdi. Bu yer ham qorong'i, faqat yuz qadamcha naridagi oziq-ovqat do'koni ichida chiroq miltillab turardi.

Obidjon aka mashina soatiga qaradi. O'n daqiqa kam o'n bo'libdi. Tushsa, belgilangan joyga borsa bo'ladi. Eshikni ochib, bir oyog'ini yerga qo'yganda, o'ylanib qoldi. Pulni olib boradimi, yo ko'rishganlaridan keyin mashinada beradimi? Avval ko'rishish kerak, Sanjarni surishtirish kerak, keyin nima deyishsa, shunday qiladi.

Shu qaror bilan mashinadan tushib, eshikni qulfladi. Suvratxonani aylanib o'tib, yalanglikka chiqdi. Ro'parada, eski uylar o'rnida qad ko'tarayotgan ko'p qavatli bino qorayib turardi.

Atrof jimjit. «Sanaymiz, deyishsa-ya?» – xayolidan o'tkazdi u yon-veriga bir-bir qarab chiqib... Unda mashinaga borishadi, chirog'i bor, sanash oson. Yo'q, sanashmaydi, shunday sumkani olishadi-yu, juftakni rostlashadi. Qo'rqishadi bu yerda sanashga...

Obidjon aka soatiga qaradi, ammo qancha tikilmasin, necha bo'lganini ko'rolmadi. Ko'rgan-da nima foyda edi? Vaqtida keldi. Bu yog'i endi tonggacha bo'lsa ham kutadi. Boshqa iloji yo'q: «Sanjar, Sanjar. Nima qilib qo'yding, o'g'lim?»

Obidjon aka bugungacha o'g'lidan o'pkalamagan edi. Uning o'yinqaroq, ko'cha odami bo'lib ketayotganini payqagan, ammo bunday qaltis ishlar bilan shug'ullanadi, deb o'ylamagan edi. Qachon yo'ldan toydi ekan? Nega ota bo'lib u bilolmay qoldi?

Kimdir orqasida yengil yo'taldi.

– Keldingizmi?

O'girildi. O'zidan kichikroq, qotmadan kelgan odam bir qadam narida qorayib turardi. Yuz-ko'zi ko'rinmadi.

– Opkeldingizmi? – so'radi u. Telefonda boshqa odam gaplashgan edi.

– Mashinada, – dedi Obidjon aka.

– Opkeling!

– Sanjar qani?

– Uyga qaytishingiz bilan izingizdan kirib boradi.

Obidjon akaga javob yoqmadi. U shu yerning o'zida o'g'lini berishlarini kutgan edi. Demak, undan cho'chishdi, pulni olib kelmaydi, deb o'ylashdi. Nima qilish kerak? Beraveradimi? Aldash-

sa-chi? Sanjar omonmikan o'zi? O'ldirib yuborgan bo'lishsa-chi?

– Sanjarni olib kelasizlar. Qani u? – dedi u.

Yigit boshini o'girib mashina tomonga qaradi. Obidjon aka shunda payqadi, u yuziga xotinlarning paypog'ini tortib olgan edi.

– Mashinada kim bor? – javob bermay so'radi yigit.

Ovozi tanishdek tuyuldi. Obidjon aka uni qayerdadir eshitgandek bo'ldi. Balki talabadir? Hozir hech narsaga ajablanmasa bo'ladi.

– Mashinada hech kim yo'q. Yolg'iz kelganman. Sizlar ham va'dalaringda turinglar-da!

– Pulni opkeling. Sanjar ketingizdan boradi.

Obidjon aka pulni olib kelishdan boshqa iloji yo'q edi. Shunday qildi.

– Mana. Sakkiz million.

Yigit sumkani olib, indamay yangi tushayotgan imorat tomon yura boshladi.

Shu tob uning kallasida sanchiq turdi.

– To'xtang! – u yigitning qo'lidagi sumkaga mahkam yopishib oldi.

Yigit to'xtadi.

– Nima?

– Ishonmayman sizlarga! Men bilan borasan! Shu pul sizlarniki! Lekin o'g'lim uyga kelgandan keyin beraman!

Bilak ingichka, tesha sopidek edi. Obidjon aka hayron qolib, qattiqroq qisdi. Sumka yerga to'p etib tushdi. Yigit kuch bilan siltanib qo'lini bo'shatdi. Engashib sumkani ko'tardi-da, bir sakrab o'zini chetga oldi. Obidjon aka uning qochmoqchi ekanini tushundi. Qochsa, yetib

ololmaydi. Shu fikr xayolidan o'tib, «To'xta!» – deb qichqirdi, ammo yigit quloq solmadi, yangi tushayotgan imorat tomon qocha boshladi. Obidjon aka shundan cho'chigan edi. Qochib ketsa, Sanjarni sog' qo'yishmaydi. U yigitning ketidan yugurdi, yigirma qadamcha bosib, yetgandek bo'ldi, yelkasiga yopishib, to'xtatishga urindi. Yigit unga qaraganda ancha epchil edi, faqat tez chopishga sumka xalaqit berardi. U siltanib yelkasini bo'shatmoqchi bo'lganida, nimadir chap biqiniga sanchildi, nafasi tiqilib bo'shashganicha, cho'kkalay boshladi.

Obidjon aka qo'lida paydo bo'lib qolgan pichoqni oyog'i ostiga tashlab, yigitga yopishdi. Uning pichoq urish xayolida yo'q edi, yigitning qochayotgani sabab bo'ldimi, tutolmayman, deb cho'chidimi, qanday pichoqni olib, biqiniga bizdek sanchdi – bilmaydi.

– To'xta! – beixtiyor qichqirdi u yana, shundagina yigitning cho'kkalayotganini ko'rди, shoshib qo'ltig'idan oldi.

– Ada! – dedi kutilmaganda yigit. – Ular o'zimni yuborishgan edi, yolg'iz kelmaysiz, deb...

– Sanjar?! Senmisan, Sanjar?! – qichqirib yubordi Obidjon aka uni bag'riga bosgancha.

– Ada... Kechiring...

– Sanjar! O'g'lim! Nima qilib qo'ydim o'zi?! – Obidjon aka ehtiyotlik bilan o'g'lini yotqizib, yoniga cho'kkaladi. – Sanjar!..

– Ada! Kechiring.

Uning oxirgi iltijosi shu bo'ldi.

Fonarlarni yoqib, bir guruh militsiya xodimlari bilan Sodiqjon yetib kelganda, u o'g'lining qonga belangan jasadida o'tirardi.

– Sanjardan ajrab qoldik, – dedi u sekin ovozda... – O‘zim, o‘z qo‘lim bilan o‘ldirib qo‘ydim!..

Shunday dedi-yu, yuz bergan fojiani endi tushunib yetdi shekilli, dodlab yubordi:

– Sanjar! O‘g‘lim! O‘g‘ilginam!

Uning faryodidan tun larzaga keldi.

1994

OQSOQOL

Ularni soqov o‘tinchi ko‘rib qoldi. Ko‘rdi-yu, taqqa to‘xtadi. Ular yonma-yon, qo‘llarini bir-birlarining yelkalariga tashlab, buloq boshida o‘tirishardi. O‘tinchi yigitni tanidi. Qabila boshlig‘ining yolg‘iz o‘g‘li Mardon edi. U xuddi o‘lja-sini poylagan qoplondak ulardan ko‘z uzmay bir muddat qotib turdi. Keyin buloq boshiga borishi mumkin emasligini tushungach, tomiri tortisha boshlagan oyoqlarini zo‘rg‘a sudrab, o‘zini pastak tog‘olcha panasiga oldi.

Qancha ehtiyot bo‘lmasin, oyoqlari ostida nima dir do‘qirlab dumaladi. Uning nazarida momaqaldiroq gumburlagandek bo‘ldi. Ingichka bo‘ynini yelkalari orasiga olib, ko‘zlarini yumdi. Mushtumdek tosh dumalab-dumalab, ko‘m-ko‘k archa tanasiga urilib to‘xtadi. O‘tinchi ko‘zlarini ochib, qaddini rostladi. Yigit bilan qiz hech narsa sezmagani eshitmagandek, oldilaridagi buloqqa termulganlaricha o‘tirishardi. O‘tinchi sevinib ketdi. Ko‘pdan beri bunday tomoshani, yigit va qizning bir-birlariga yopishib o‘tirishlarini ko‘rmagan edi. Tamshanib, nimalarnidir o‘zicha shivirladi. Yigit qo‘lini qizning yelkasidan

olib, ingichka, havorang bog'ich bilan bog'langan, beliga tushib turgan qalin qora sochlarini silay boshlaganda, butun vujudi bilan to'lg'onib, ingrab yubordi, shoshib qatirma boshmaldog'ini tishladi. So'ng bu ham yetmay, cho'kkalab oldi, yag'ir kaftlari bilan yoshlangan ko'zlarini ishqaladi. Qabilaning yagona tegirmonchisi kabobga atab buyurgan xushbo'y archa o'tin xayolidan ko'tarilib ham ketdi. To'y bo'lar ekan, o'zicha xulosa qildi u. Yigitlar bilan qizlar shunday, bir-birlarini silab o'tirishganidan keyin ko'pincha to'y bo'ladi. Oqsoqolning o'g'li Mardon uylanar ekan demak. Rosa o'tin kerak bo'ladi o'shanda. Archa topib kelishni ham buyurishadi. Archa o'tinsiz kabob qilib bo'larmidi?! Mesh-mesh buloq suvi ham tashiladi. To'yda u maza qiladi. Issiq non yeydi, qolgan-qutgan ovqatlarni, chala tozalangan ustixonlarni berishadi. Katta gulxan yoqiladi, tong otguncha o'yin-kulgi bo'ladi...

To'y yaxshi. Ammo uning uchun to'ydan ham manavi, kutilmagan oyoq ostidan chiqib qolgan tekin tomosha yaxshi edi. «Maza qilishyapti» – tamshandi o'tinchi ulardan ko'zlarini uzolmay.

Yigit qizning sochlarini g'ijim qilib qo'liga o'radi, yuziga olib borib surtdi-da, qo'yib yubordi. Qiz xaxolab kuldi, boshini silkitgan edi, sochlari orqasi bilan bitta bo'lib yoyilib ketdi.

O'tinchi ovoz chiqarmay g'o'ldiradi, ko'zlari namlandi, qirra dahani osilib ketdi. Uning uchun hozir Mardondan baxtli odam yo'q edi. Mardonga bolaligidan havasi keladi. Oqsoqolning o'g'li. Kiymim-boshi doim but. Qorni to'q. Biqinida ba'zan tilla, ba'zan kumush xanjar. Tagida qabilaning

eng zotli, uchqur oti... Mana endi xotin ham olyapti. Zulukdek sochlari orqasi bilan bitta bo'lib turgan qizni xotin qilyapti... Unda bo'lsa, hech vaqo yo'q. Eng yomoni – soqov u. Bolaligida nimadandir qattiq qo'rqib tildan qolgan. Ota-onasi tirikligida ko'p tabiblarga olib borishdi. Bolani qo'rqitib, baland daraxtning ustidan suvga tashlab ko'rishdi. Yolg'iz o'zini bir-ikki kun tog'ga tashlab kelishdi. Foyda bermadi, soqovligicha qoldi. Hamma gapni eshitadi, tushunadi, ammo gapirolmaydi, tili og'zida yong'oqdek g'oldirab aylanadi, gapga kelmaydi. O'n yil burun yer-joyidan ko'chganda ota-onasidan ajrab qoldi. Ertalab hovlida, tok tagida uchalovi nonushta qilib o'tirishgan edi, yer bir aylandi-yu, ularni tortib ketdi. O'sha kuni ko'p odam nobud bo'ldi, ko'p uylar buzildi. O'tinchi, yetti yoshli bola, nima bo'lganini tushunib ham yetmadi. Hali ham tushungani yo'q. Faqat bir narsa og'izdan-og'izga o'tib, uning diliga o'rnashib qoldi. Gunohga botganlarni yer yutar ekan. Lekin ota-onasi qanday gunoh qilishgan – o'tinchi bilmaydi. O'shandan beri ulardan qolgan bir uy, bir ayvonda yolg'iz o'zi yashaydi. To'g'rirog'i, uyga tunagani keladi. Qolgan vaqt dalada, tog'da, odamlar xizmatida. Ularning himmati, sadaqasi bilan kuni o'tadi. Bir necha bor Mardonning qo'lidan ham suv ichgan, lekin ich-ichidan zil ketgan. Nega tengqur bo'laturing, ikkalovi ikki xil yashaydi? Nega uning ota-onasini yer yutdi-yu, Mardonning ota-onasi hayot? Tag'in qabilaning eng badavlat odamlari. Nega u oyoqyalang, Mardonda charm kovush? Nega u uyqudan turishi bilan qornini o'ylaydi, Mardonga

bo'lsa yalinib ovqat yedirishadi? Mana, hozir ham u yolg'iz, Mardon bo'lsa chiroyli bir qizni quchoqlab o'tiribdi. Qiz kim bo'ldi ekan? Qaysi baxtli ota-onaning farzandi?

O'tinchi ularni qancha o'ylamasin, qancha tikilmasin, orqa o'girib o'tirishganidan qizning kimligini bilolmadi. Yovvoyi olma, tog'olchalar panasidan aylanib o'tib qarashga cho'chidi. Uyoqdan, tog' tomondan qarab, uning kimligini bilib olish mumkin edi, lekin Mardon ko'rib qolsa, tomoshasi burnidan buloq bo'lib chiqadi. Mushti bilan urib novvosni ag'darganini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

Shu tob qizning o'zi o'rnidan turib, buloqning narigi betiga o'tdi. O'tinchining yuragi orqasiga tortib ketdi. Qiz ularning qabilasidan emas edi! Bo'ynidagi oynusxa qizil tumordan u o'g'uz edi. O'g'uzlar o'sha, mash'um fojiaga, yer ko'chgani-ga qadar saklar bilan qo'shni edi, mol berib mol, qiz berib qiz olar edi. Yer ko'chganda Qurama gumburlab ketdi, tep-tekis joydan yangi tog' o'sib chiqdi. Ikkala qabila bir-biridan bir zumda ajral-di-qoldi. Qirda yurgan qoramolning hammasi o'g'uzlarga o'tib ketdi, Qoradaryo sug'orib turgan mevazor, ekinzorlar saklarga buyurdi.

Shu dahshatli fojiadan keyin ikkala qabila bir-biri bilan yuzko'rmas bo'lib ketdi. O'g'uzlar sut-qatig'ini qizg'ana boshladi. Saklar don-duni-ni bo'lishgisi kelmadi. O'zboshimchalik qilganlar, tog' oshib mol alishganlar ikkala tomonda ham qoralanib, jazolanadigan bo'ldi. Uch yil burun sak qizini yetaklab kelgan yigitni o'g'uzlar qiz bilan birga toshbo'ron qilib o'ldirib yubordilar.

O'tinchi shularni bilardi. Hayajon ichida bir narsalar dedi o'zicha g'oldirab va qiz ketidan yo'l olgan Mardonni kuzata boshladi. Mardon buloqni aylanib o'tib, qizning qo'lidani oldi. Ikkalovlari bir-birlarini quchib, tog'ga ko'tarila boshlashdi. O'tinchi butun vujudi bilan titrab ketdi. Ular xuddi o'ynoqlab ketayotgan ikkita jayronga o'xshardilar. Bulodan ikki terak bo'yi balandlikda ajdahodek og'iz ochib turgan g'or bor edi. Yigit bilan qiz shu tomonga yurishdi. O'tinchi ichini timdalay boshlagan qarama-qarshi hislar qurshovida ularga birpas qarab turdi, keyin birdan qo'llarini musht qilib, bir-biriga urdi-da, pastga otildi. Yo'lni qisqartish maqsadida daryo ustidagi ingichka osma ko'prikdan o'tdi-yu, olmazor ichiga sho'ng'idi, undan o'tib qovunpoliz yoqalab ketdi. Yo'l-yo'lakay tekin tomosha ishqibozlari chiqib unga ergashishdi. Nima bo'lganini bilishmasa ham o'tinchining avzoyidan jiddiy bir narsa sodir bo'lganini sezishgan edi.

O'tinchi qo'rg'onga kirib borganda, oqsoqollar qarorgohi oldidagi maydon odamga to'lib ketgan edi. Ko'p o'tmay qarorgoh ichidan Oqsoqol, qabila ulug'lari chiqishdi.

– Tinchlikmi? – so'radi Oqsoqol.

O'tinchi bor aqli, hayajonini jamlab, cho'zib ingradi, kaftlari bilan chekkalarini qisib, boshini sarak-sarak qildi.

– Noxush hodisa yuz berganga o'xshaydi. Shundaymi, o'g'lim?

Oqsoqol o'tinchiga yaqinlashdi. O'tinchi yana ingrab yubordi, yonida turgan o'spirinni tirsagidan tortib, Oqsoqolning oldiga olib bordi.

– Tog‘da bir xotin bilan bir erkakni ko‘ribdi. Buloq boshida quchoqlashib o‘tirishganmish, – tushuntirdi o‘spirin.

Soqov o‘tinchi boshini qimirlatdi.

Hamma kulib yubordi. Oqsoqol ham jilmaydi.

– Shumi?

– Yo‘q. Ayol o‘g‘uz emish.

O‘tinchi o‘spirinning gaplarini eshitishi bilan chapak chalib yubordi. Qarorgoh oldida turganlar birdan jimib qolishdi.

– Yana nima demoqchi? – so‘radi Oqsoqol jiddiylashib.

O‘tinchi boshini o‘ynatib, qo‘llari bilan havoda doira chizdi.

– G‘orga kirib ketishibdi...

O‘tinchi tilmochning gapini tasdiqlab, bosh iring‘adi.

– Nima deysizlar? – so‘radi Oqsoqol.

Ro‘parasida turgan cho‘qqi soqol mo‘ysafid javob qildi:

– Nima derdik? Ularni olib kelish kerak. Soqov haq gapni aytayotgan bo‘lsa, ikkalovi jazoga mahkum...

O‘tinchi yonida turganlar orasida: «To‘g‘ri! Ularni tutib kelish kerak!» degan ovozlari yangradi. Oqsoqol ko‘kragiga tushib turgan qalin moshkichiri soqolini silab, qabila ulug‘lariga yana bir qarab chiqdi. Hech kim boshqa gap aytmadi.

– Bo‘pti. Olib kelinglar!

Oqsoqolning xotirjamlik bilan bergan qaroridan o‘tinchi sevinib ketib, chapak chalib yubordi. Shu zahoti o‘n chog‘liq odam uni oldiga solib yo‘lga tushdi.

Yigit va qiz o'tinchining qilmishlaridan bexabar salqin g'or ichida o'zlarining ko'pdan beri azob berib kelayotgan noxush o'ylariga g'arq bo'lib o'tirishardi. Albatta ikkalovi ham uchrashganlaridan, diydor ko'rishganlaridan shod edilar, ammo xufyona uchrashuvlar bir kun emas, bir kun tugab, uning o'rnini cheksiz, o'lim damlarigacha cho'zilib boradigan ayriliq egallashini ham bilishardi. Birdan-bir chora o'z yurtlaridan bosh olib ketish edi. Ammo qayerda ularni ochiq chehra bilan kutib olishlari mumkin? Qayerda ular tinch bo'lishadi? Buni ikkalovi ham bilmas edi. Ularga birovlarining himmati kerak emas, tegishmasa, o'z ixtiyorlariga qo'yib berishsa bo'ldi edi, ammo qayerda, qaysi xalq shunday qiladi? Mardon ularni tutib, o'z qabilalariga qaytarib berishlaridan qo'rqadi. Shunday qilishsa, ikkalovi ham omon qolmaydi. U o'limdan, ayniqsa, sevgilisi, Parvina uchun jon berishdan cho'chimasdi, faqat Parvinaga achinardi. Uni omon qoldirishsin-u, o'zini nima qilishsa qilaverishsin – rozi. Ammo undan so'rab o'tirisharmidi...

Parvina yana onasi bilan gaplashib ko'rmoqchi bo'ldi. Onasi aqlli xotin, tushunar axir. Nahotki yolg'iz qizining baxtiga befarq qarasa? Mardon qochib ketishdan bo'lak chora yo'qligini aytdi. Besh panja barobar emas, tinch, bir-birlari bilan ahil, izzat-hurmatda yashab kelayotgan ellar ham bor-dir bu dunyoda? Parvina rozi bo'ldi, faqat keyingi uchrashuvgacha sabr qilishni so'radi. U onasi bilan gaplashib ko'radi. Mardon minnatdorlik bilan uni quchib, o'ziga tortdi.

Shu payt g'orning og'zida shovqin bo'lib ketdi. Odamlarning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushlari, toshlarning gumburlab dumalagani eshitildi. Parvina titrab, Mardonga yaqinroq surildi. Mardon uni bag'riga bosar ekan, nayza nur tushib turgan g'or og'ziga tikildi.

– Hoy, oshiq-ma'shuqlar! Qani, darrov chiqinglar! Bo'lmasa o'zimiz olib chiqamiz!

Har bir so'z g'or ichida aks sado berib, gulduradi. G'or og'zida qattiq kulgi ko'tarildi, yana ovozlar yangradi. Kimdir g'azab bilan bo'kirdi. Mardon tanidi. Soqov o'tinchi edi. Bu tomonlarga faqat u kelishi mumkin. Hamma narsa ravshan: odamlarni u yetaklab kelgan. Demak, g'or oldida o'zining qabiladoshlari.

– Nima, karmisanlar? – o'shqirdi yo'g'on ovozli odam. – Tezroq chiqlaring!

Soqov o'tinchi yana bo'kirdi. Mardon Parvinani qo'yib, o'rnidan turdi.

– Qayoqqa? – qo'rqib so'radi qiz.

– Qo'rqma. Bular o'zimiznikilar. Sen joyingda o'tiraver.

Parvina boshini silkidi.

G'or og'zidagilar toqatsizlik bilan qichqira boshladilar. Kimdir tosh otdi. Tosh shaqirlab Mardonning oyog'i ostigacha dumalab keldi. Kimdir so'kinib, gur-r kulgi ko'tarildi.

Mardon g'ordan chiqib bordi-yu, ular birdan jimib qolishdi.

– Iye, senmisan, Mardon?! – dedi hayrat ichida yo'g'on ovozli odam.

Mardon uni tanidi. Qabila yigitboshilaridan Almonzarda edi. Uning biron marta birovga kulib

boqmagani, ogʻzidan yaxshi gap chiqmaganidan ayollar uni ismi bilan atamay, «zarda» deb chaqirishardi.

– Nima shovqin, nima toʻpolon? – dedi Mardon Zardaning qarshisiga kelib.

– Soqov bir xotin bilan erkak shu yoqda yurganini aytdi. Otang yubordi bizni, – javob qildi Zarda.

Mardon yer ostidan oʻtinchiga qaradi.

– Ertalabdan beri shu yerdaman, men hech kimni koʻrganim yoʻq-ku. Balki tushida koʻrgandir bu?

Mardon jilmaydi. Kimdir unga xushomad tariqasida hiringlab kulib qoʻydi. Koʻpchilik indamay boshini quyi soldi.

– Qaytaveringlar, ularni koʻrib qolsam, oʻzim olib boraman.

Baʼzilar quloq solib, orqalariga burilishdi. Shu tob oʻtinchi qattiq qichqirib yubordi. Mardon oʻgirilib qaraguncha, qoplondak sakrab, gʻor ichiga shoʻngʻidi. Hamma joy-joyida toʻxtab qoldi. Mardon falokat yuz berganini tushundi. Hozir Parvina chiqadi. Soqov olib chiqadi uni. Biron narsa qilish kerak. Shuni oʻylab, gʻor ogʻziga yaqinlashdi. Ammo Zarda uzun, saksovuidek qoʻllari bilan uning tirsagidan ushladi.

– Soqovning vajohati yomon, avval chiqsin, – dedi u sovuqqonlik bilan. Nima boʻlganiga uning aqli yetgan edi. – Birov bormi deyman?

Ammo u javob oʻrniga burni aralash tushgan musht zarbidan koʻzlari chaqnab, gʻandiraklab ketdi.

– Ushla uni! – baqirdi u oʻzini rostlab olar-olmas.

Mardon shunday boʻlishini bilib yonidan xanjarini sugʻurdi, ammo ishlatib ulgurmadi. Kim-

dir orqasidan kelib, quchoqlab oldi. Yana kimdir qo'liga tashlandi. Shu tob boshiga qattiq musht tushdi. Urgan Zarda edi. Mardon bukchayib qoldi. Ammo shu turishida bor kuchini yig'ib, Zarda-ning ko'kragiga kalla qo'ydi. G'or og'zida o'tinchi ko'rindi, u Parvinani sudrab chiqmoqda edi.

– Mardon! – jonholatda chaqirardi uni Parvina.

Ammo Mardon u tomonga yugurib ulgurmadi. Kimdir otgan tosh ko'kragiga kelib tegdi-yu, ko'z oldi jimillab ketdi. Shu payt kimdir ustiga to'r tashladi. Turmoqchi bo'lgan edi, gardaniga musht tushdi.

– Bog'langlar! – buyurdi Zarda. – Zambarda olib ketamiz.

– Anavi qanjiqni-chi? – so'radi kimdir.

– Bo'yniga arqon solib, soqovga ber. O'zi sudrab borsin.

Odamlar birpasda u aytgandek qilishdi. Zarda qon tupurib, qo'l-oyog'i chandib tashlangan Mardonning tepasiga keldi:

– Olishmaganingda shunday qilmasdik. O'zingdan ko'r.

Mardon indamadi. Atrofga alanglab, Parvinani izladi. Uning ko'zlari jiqqa yosh edi.

– Yig'lama, – Mardon butun vujudi og'riqdan qaqshab turgan bo'lsa ham jilmayishga harakat qildi. – Eshitdingmi, yig'lama...

Parvina yoshlarini kaftlari bilan artib, boshini qimirlatdi. Bo'ynidagi arqon silkinib ketdi. O'tinchi xavotirlanib, bir-ikki tortib qo'ydi.

– Soqov! – chaqirdi g'azab bilan Mardon. – Ichiqora ekanligingni bilardim. Ammo sotqinlik qilishingni kutmagan edim. Nomard!

O'tinchi g'ijining g'oladiradi. Qo'lini paxsa qilib, Zardaga nimalarnidir tushuntirdi, archadan zambar yasab, Mardonni unga yotqizgunlaricha tinmay o'zicha valdiradi. Ammo hech kim unga e'tibor bermadi.

Quyosh qizarib baland chinorlar ortiga o'tganda, qo'rg'onga yetib borishdi. Oqsoqollar qarorgohi oldidagi maydon odamga to'la, hamma betoqatlik bilan ularni kutardi. Qabila oqsoqoli zambarni yerga qo'yishlari bilan yigitni tanidi. Tanidi-yu, bo'shashib ketdi. Ohista qadam bosib, uning yoniga keldi:

– Nima qilib qo'yding?

Ko'pchilik uning gapini eshitdi va nafasini yutib, nima bo'lishini kuta boshladi.

– Meni kechiring, ota, – dedi eshitilar-eshtilmas Mardon.

Oqsoqol o'zi sezmagan holda uning boshiga qo'lini qo'yib, silay boshladi.

– Qizning oti nima?

– Parvina...

Oqsoqol o'g'li bu so'zga bor mehrini qo'shib aytganini payqadi.

– Ota!.. – Mardon boshini orqaga tashlab, ko'zlarini unga tikdi.

Oqsoqol o'g'lining tipratikan ignalaridek qattiq va qalin sochlari isitib turgan qo'lini ko'tarib, dimog'iga tutdi. Chaqaloqligidan tanish bo'lgan bu yoqimli hid vujudini titratib yubordi. Achchiq ter hidini sezib tursa ham uning uchun o'g'lining hidi go'dakligidan beri o'zgarmagandek edi. Nahotki so'nggi marta shu hidni tuyayapti u? Shuni o'ylab, cho'kkalagisi, o'g'lini bag'riga bosib quchgisi kelib ketdi. Ammo bunday qilolmasligini bilardi.

– Labbay? – u boshini egib, o‘g‘lining ko‘zlariga qaradi.

– Uni qo‘yib yuboringlar...

Oqsoqol javob bermadi. Demak, o‘g‘li ularni qanday jazo kutishini biladi. Shuning uchun ham o‘ziga emas, unga rahm-shafqat qilishlarini so‘rayapti. Sodda bola!.. Nahotki olomon rahm-shafqatni bilsa?

Oqsoqol o‘g‘lining ortida turgan qizga yaqinlashdi. Ohudek ekan. O‘g‘li chiroyli qiz tanlabdi. Kimning farzandi ekan? U o‘g‘uz kattalarining ko‘pini bilardi. O‘zini tutishidan boobro‘xonadon farzandiga o‘xshaydi.

– Otang kim?

– Farasmon qo‘ychi, – boshini ko‘tarmay javob qildi qiz.

Oqsoqol esladi. O‘g‘uzlar qabilasining katta boylaridan edi Farasmon. Yilqisining sanog‘i yo‘q. Agar qabilalar avvalgidek ahil yashashganda, u jon-jon deb shu qizni kelin qilardi.

– Otang tirikmi?

– Yo‘q, olamdan o‘tganlar.

– Qachon?

– Yer ko‘chgan yili.

– Aka, ukang bormi?

– Akam, ikkita singlim bor.

Oqsoqol tasalli topgandek bo‘ldi. Yolg‘iz farzand emas ekan haytovur. Uning bo‘lsa, Mardon dan bo‘lak farzandi yo‘q. Bir o‘g‘il, bir qizi yoshiga to‘lmay bu dunyoni tark etib ketishdi. Yolg‘iz merosxo‘ri Mardon. Usiz chol-kampir qanday yashashadi endi? Oqsoqol yashindek miyasini yorib o‘tgan savolni darhol boshidan haydadi, o‘zi ters

burilib orqasiga qaytdi. Qarorgoh tosh zinasida turgan qabila ulugʻlari oʻrtani ochib, unga joy berishdi.

– Nima qilamiz? – soʻradi qariyalardan biri.

Oqsoqol gap nima haqda ketayotganini tushundi. Hozir oʻgʻli yoki oʻgʻuz qizining himoyasiga aytilgan bir ogʻiz soʻz butun maydonni algʻovdalgʻov qilib yuborishi va qabilani ikkiga ajratib tashlashi mumkin. Bu ikki yosh oʻgʻuzlar bilan munosabatlarni toʻxtatib qoʻygan ahdning qurboni boʻlishi lozim. Ulugʻlar va oldingi marhum oqsoqolning bir ogʻiz gapi bilan koʻpchilik qadimdan qoʻshnichilik odatlari boʻyicha yashaganlari va shunday turmushdan manfaat koʻrib kelganlariga qaramay, yer koʻchib, boshlariga tushgan qiyinchiliklardan soʻng, topgan-tutganlarini faqat oʻzlari, hech kim bilan boʻlishmay baham koʻrishni qoʻshnichilikdan afzal biladigan boʻlib qolgan edilar. Garchi bunday yashash yengil boʻlmasa ham, yil oʻtgan sari bu ahd odat tusiga kira boshladi. Oʻgʻuzlar ularning qizlarini, mayli, garchi oʻgʻuz yigiti bilan qochib ketib gunoh qilgan boʻlsa ham, toshboʻron qilib oʻldirib yuborganlaridan keyin esa, oʻrtaga tushgan sovuqchilik dushmanlikka aylandi, yer tagidan koʻtarilib chiqqan Quramaning yangi qanoti chegara boʻlib qoldi. Kim shu chegarani buzsa, jazoga tortildi. Ikki yosh chegarani buzdigina emas, qabilalarning ahdlarini oyoqosti qildi. Buning ustiga saklar hali oʻz farzandlarining qasolarini olishgani yoʻq. Oqsoqol dilida xalq bularni ham toshboʻronga hukm qiladi, biroq gunohkorlardan biri uning, qabila boshligʻining farzandi ekanini nazarga olib, hukmni yumshatar, oʻlimga bormas deb umid qilardi. Shuning uchun ota emas, oqsoqollik mavqeyidan turib javob berdi:

– Nima qilardik? El nima desa shu.

Bu bilan u men qabilaning xolis xizmatkori-man, o'g'lim yolg'iz farzandligini e'tiborga olib, o'zlaring insof bilan hal qilinglar, degandek bo'ldi. Ulug'lar uni tushunishdi, ammo o'zlarini tushunmaganga solishdi. Ulardan biri Almonga imo qildi.

– Oqsoqol haq! – qichqirdi olomonga o'girilib Almonzarda. – Qonun hammaga bir! Ikkalovining jazosi o'lim!

– O'lim! – ikki-uch ovoz olomon ichidan otilib chiqdi.

– Toshbo'ron! – qichqirdi yana kimdir Oqsoqolning orqasida.

– Toshbo'ron! – quvvatladi olomon orasida kimdir.

Oqsoqol bunday bo'lishini kutmagan edi. Ayashmadi o'g'lini ham, uning o'zini ham! U bo'lsa hammaga faqat yaxshilik qilib kelgan edi. Hech kimning iltimosini hech qachon qaytar-magan edi. Har doim hammaning holidan xabar olib, birini yaxshi so'z bilan, birini don-dun bilan ko'nglini olib kelgan edi...

Oqsoqol atrofiga qaradi. Majlislarda uning ko'ziga tikilib, niyati, qarorini bilishga, uning hurmatini qozonishga intilgan qabila ulug'lari undan nazarlarini olib qochishdi. Mardon esa jim, hamma uning oxirgi so'zini kutardi. Odat bo'yicha Oqsoqol hukmni tasdiqlashi kerak edi. Nihoyat, u o'zini tutib qo'lini ko'tardi:

– Hukm ertaga ijro etiladi.

U alam va o'kinchdan past ovozda gapirgan bo'lsa ham hamma uni eshitdi.

– Oqsoqolga uzoq umr! Oqsoqolga sharaf boʻlsin! – degan maqtovlar olomon ustida aks sado berib yangradi.

Odamlar tarqalib, maydon boʻshaganida, Oqsoqol oʻgʻlining tepasiga keldi:

– Boshqa ilojim yoʻq edi...

Mardon javob bermadi.

Oqsoqol uyga kelib, xotining avzoyidan u fojidan xabardorligini sezdi. Shuning uchun hech narsa demadi. Rohila qoʻliga suv tutdi, sochiq uzatdi. Oqsoqol artinib, uzun ravon toʻriga yozilgan dasturxon yoniga borib oʻtirdi. Shunda zinapoya yonida turgan tugunga koʻzi tushdi. Xotining qayoqqa bormoqchiligini darhol bildi.

– Oʻgʻuz qiz... Parvina... koʻhlikkina ekan. Oʻgʻlingning didi chakki emas... – Oqsoqol labining miyigʻida jilmaydi. – Otasini tanirdim. Farasmon qoʻychi... Kelin qilganingda qizim derding.

Rohila sezilar-sezilmas bosh qimirlatib qoʻydi. Yuz bergan fojia oldida oʻgʻlining oʻzboshimchalik qilgani uning xayolidan koʻtarilgan edi. Albatta u qiz bilan ham koʻrishadi, bagʻriga bosadi uni.

– Buncha qahrlaring qattiq boʻlmasa? U hali juda yosh-ku! – Rohila bu savolni faqat eriga emas, butun qabilaga qaratib berdi. Ammo savoli javobsiz qoldi.

Oqsoqol hech narsa totmadi, yumshoq bolishni qoʻltigʻi ostiga olib, yonboshladi-da, koʻzlarini yumdi:

– Uzoq qolib ketma. Men ham boraman.

Rohila tugunni olib, ravondan tushdi. Oqsoqol uning oyoq tovushlari tinguncha quloq solib turdi. Tinishi bilan koʻzlarini ochib, oʻrnidan turdi.

Nima qilish kerak? Qanday qilib ularni qutqarishi mumkin? Nahotki yagona o'g'lidani tong otishi bilan ajraydi? O'z o'g'lini o'z hukmi bilan o'ldirgan odam qanday ota bo'ldi? Hukmni u chiqargani yo'q, lekin uning ishtiroki, sukuti bilan shu hukm chiqdi. Kimni o'ylab u shunday qildi? O'zinimi? Yo'q. U hech qachon o'zini o'ylamagan. Shuning uchun ham xalq unga ishondi. Bugun u shu ishonchni yo'qotgisi kelmadi, shu ishonch uchun o'g'lining o'limiga rozilik berdi. Ammo endi o'n sakkizga qadam qo'ygani yigit nima uchun bir vaqtlar paydo bo'lgan zarurat sabab o'ldirilishi kerak? Ikki el yuzko'rmas bo'lib nima yutdi? Gap elda emas. El dilida qo'shnichilik tarafdori. Ammo ulug'lar qabul qilgan qarorga qarshi chiqishni istamaydi. Boshiga qiyinchilik tushib qolsa, qabila ombori uning uchun berkiladi, noni butunlar, o'ziga to'qlar undan yuz o'giradi. Shuning uchun indamaydi, ulug'lar aytganini qiladi.

Oqsoqol o'z eli haqida, uning yetti qul ostidagi fikr-o'ylari haqida shunday mulohazada edi. Hali har bitta odam g'oz turib, dilidagini aytadigan davr kelmagan, hali yemoq-ichmoq taqchilligi tufayli, borning so'zi so'z edi. Borlar esa nima uchun orttirganini, orttirmoqchi bo'lganini birov bilan bo'lishishi kerak? Oqsoqol bu toifa xalq bilan ham chiqishib yashash kerakligini biladi. Bir kun keladi, el dardi, yurt dardi hamma manfaatlardan oldinga o'tadi, hamma bir-biriga hurmat bilan qaraydigan bo'ladi. Faqat shu davrni sun'iy yaqinlashtirish, xuddi o'g'lining topgani, Parvina edi shekilli ismi, o'sha bechora qizni bo'yniga sirtmoq solib, zo'rlab keltirishgandek keltirmas-

lik kerak. Agar shunday qilinsa, o'g'li bilan uning qaylig'i emas, juda ko'p odam nobud bo'lib ketadi.

Oqsoqol xotini qaytguncha qorong'i hovlida yurib, qancha o'ylamasin, o'g'lini qutqarib qolish, juda bo'lmaganda iltimosini ado etish – qizini ozod qilish yo'lini topolmadi, hukm to'g'riligiga, hozir boshqa iloj yo'qligiga ishona boshladi.

Rohila qaytib kelib, qo'lidagi dasturxonni ravonga uloqtirdi-da, o'zini erining ko'ksiga tashladi.

– Bolam! Yolg'iz bolamdan ajrab qanday yashayman endi? Undan ko'ra meni toshbo'ron qilishsin! Qonga to'ymaganlar meni qiynab-qiynab o'ldirishsin, roziman! Ularni qo'yib yuborishsin, ayting! Qabila kattasimisiz o'zi, kimsiz? Nahotki, o'z elingizga so'zingiz o'tmasa? Ayting! Bir balo qiling!

U erining ko'kragiga mushtlab, o'zini to'xtatolmay yig'lardi.

Oqsoqol indamay uni eshitdi. Yelkalarini silab ovutgan bo'ldi. «Bir balo qiling!» Nima qilishi mumkin? U ohista xotinini o'zidan nari itarib, ko'chaga yo'l oldi. U qancha o'ylamasin, bir to'xtamga kelolmasdi. Faqat bir fikr o'ziga ozgina tasalli berardi. Hozir Mardonni ko'rishi kerak. Tonggacha vaqt ko'p emas, uning diydoriga to'yib olishi kerak. Keyin nima bo'lsa bo'ladi...

O'g'li bilan qizning soqchilari almashibdi. Lekin uchala soqchi ham uni tanidi. O'rinlaridan turib, o'zlarini chetga olishdi. Ammo Oqsoqol ular oldiga bordi:

– Yigit – o'g'lim, bilasizlarmi?

Soqchilar boshlarini egishdi.

Oqsoqol belidagi charm hamyonini yechib ularga tutdi.

– Meni birpas xoli qoldiringlar. Xayrlashib olay. O‘zim chaqiraman.

Soqchilar bir-birlariga qarab olishdi. Oqsoqolning iltimosini rad etib bo‘lmas edi. Hamyonni olib, uchalovi ravonning orqa tomoniga o‘tib ketishdi.

Oqsoqol avval o‘g‘lini yechdi. Keyin qizni bo‘shatdi.

– Nima qilyapsiz, ota? – hech narsaga tushunmay so‘radi Mardon.

– Otalik burchimni ado etyapman. Uyga kirma. Darhol Qoradaryodan o‘tib, qipchoqlar yurtiga yo‘l ol. Ishonaman, el kechiradi. O‘shanda qaytasizlar.

Oqsoqol shoshib shu gaplarni aytdi-da, o‘g‘lini bag‘riga bosdi.

– Qani, ketlaring endi!

– Ota!.. – bir narsa demoqchi bo‘ldi Mardon.

– Ket! – o‘shqirdi Oqsoqol...

Tong payti qo‘rg‘onning bosh maydoniga kelganlar kechagi «oshiq-ma’shuqlar» o‘rnida Oqsoqolni ko‘rib, nima bo‘lganini tushunishdi. Hech kim hech narsa demadi. Hamma narsa so‘zsiz ham ayon edi.

Jimlikni soqov o‘tinchining birdan uvvos solib yig‘lab yuborgani buzdi. U qayoqdandir Oqsoqol oldida paydo bo‘lib, o‘zini uning oyoqlari ostiga tashladi. Butun vujudi qaltirab yig‘lar ekan, boshini yerga urib, nimalardir deb g‘o‘ldirardi.

Oqsoqol to‘lqinlanib ketdi. Uni tushunishgan edi. Hatto aqli kalta soqov o‘tinchi ham qilmishiga pushaymon edi. Oqsoqol uni turg‘azmoqchi bo‘lib engashdi, qo‘llarini oriq yelkalariga qo‘ydi. Shu top nimadir zarb bilan chekkasiga kelib urildi. Boshi yorilib bamisoli bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ket-

di. Kimdir ravon tomondan otdi shekilli? Oqsoqol o'sha tomonga beixtiyor ko'z tashlab ulgurdi. Almonzarda unga g'azab bilan tikilib turardi. «Tentak» – dedi ichida Oqsoqol va o'tinchining ustiga yiqilmaslik uchun turgan joyida ohista cho'kkaladi. Bir necha kishi «gur» etib ravonga otildi. Ular nima qilmoqchi ekanini Oqsoqol sezdi. «Qo'yinglar!» – demoqchi ham bo'ldi, ammo ovozi chiqmadi. Kimdir uning qo'ltig'idan oldi. Boshqa hech narsa sezmad. Qulog'iga chalingan so'nggi ovoz ayol kishining chinqirig'i bo'ldi. Tanidi. Rohilasi edi. Negadir uning ikki qo'lida ikkita tosh borday edi.

1994

BO'RIBOSAR

1

Uni amakisining parkentlik qo'ychivon amakisi tashlab ketdi. U kichkina ayiq bolasiga o'xshardi. Kulrang, qalin junlari orasidan yapaloq tumshug'ini ham, yaqindagina ochilgan munchoqdek qora ko'zlarini ham ko'rib bo'lmasdi. Dumaloq koptokdek boshi tanasidan katta bo'lganidan to'g'ri yurolmas, tumshug'i bilan yerni sidi-rib, yo'lida uchragan narsani bosib, ag'darib, o'zi ham yumalab yurardi. Keksa cho'ponning gapiga qaraganda, u juda zotli bo'ribosarlar avlodidan ekan. Onasi, yettita bo'rini o'ldirgan, butun Parkentga dong'i ketgan Olapar bu yil atigi ikkita tug'ibdi. Bittasi shu ekan. Ikkinchisini keksa cho'pon, talabgorlar nihoyatda ko'p bo'lsa ham, hech kimga bermay, o'ziga qoldiribdi. Otasi

ham mashhur itlardan bo'lib, jambullik qahramon qo'ychivon Sarsonboy Sakenovning otarini qo'riqlar ekan. Amakining shu itga havasi kelib, uch yildan beri har bahor Olaparni Jambulga hamkasb do'stining otariga olib borar ekan. Ikki yil burun Olapar uchta tug'ibdi. Har bittasi hozir g'unajindek-g'unajindek bo'lib ketgan emish, Parkentda ham, uning atroflarida ham bunday itlarni havas qilmagan cho'pon yo'q emish...

Kozim kuchuk bolani yaxshi ko'rib qoldi. Xilma-xil o'yinchoqlarni unutdi. Velosipedini ham minmay qo'ydi. O'yini – kuchuk bola. It ham unga o'rganib qoldi, unga ergashadigan bo'ldi. «Ko'ktoy!» – desa, pildirab oldiga keladi, nam tumshug'ini oyoqlariga, qo'llariga surkab, erkananadi, atrofida dumalaydi. Kozim bog'chaga ketganida kuchukcha uzoq angillaydi, eshikka yopishib timdalaydi, kelganida esa, xursandlikdan sakrab uyni boshiga ko'taradi.

Kozimning onasi uzoq qarindoshlarining sovg'asiga avval parvo qilmadi. Ammo kuchuk bola o'sgan sayin, u esa kun emas, soat sayin o'sardi, uning kayfiyati buzilib, ensasi qotadigan bo'lib qoldi. Idish-tovoq singani, kitob-daftarlar yirtilgani mayli, uydan it hidi keladigan bo'lib qolganini u birinchi sezdi. Ilgari u kun ora pol yuvadigan bo'lsa, endi har kuni yuvib, eshik-derazalarni ochib, uyni shamollatadi, ovqat stolini bir necha martadan artadi, Ko'ktoy oyog'ining tagida o'ralashadigan bo'lsa, zarda bilan tepib yuboradi. Kuchuk bola akillab, o'zini karavotning tagiga oladi yo Kozimning stuli tagiga kelib yotadi-da, oldingi oyoqlari bilan tumshug'ini berkitadi.

Bir kuni Kozimning onasi ishdan kelgani-da, eshik tagida tungi ko'ylagi yotganini ko'rdi. Hayron bo'lib ko'tardi va zarb bilan silkitgan edi, yuz-ko'ziga qandaydir tomchilar sachradi. Nima bo'lganini tushunib, zardasi qaynab ketdi, nam ko'ylakni polga uloqtirib, kuchuk bolani qidira boshladi. Ammo uzoq qidirmadi. Ko'ktoyning o'zi yugurib oldiga keldi. Kozimning onasi: «Ha, yer yutkur!» – deb qarg'adi-da, uni tepdi. Ammo Ko'ktoy joyidan qimirlamadi. Yo'g'on orqa oyoqlari bilan polga tiralib, boshini ko'tardi va oppoq aradek tishlarini ko'rsatib irilladi. Kozimning onasi hang-mang bo'lib qoldi, aftidan, qo'rqib ham ketdi. Qo'lini musht qilib urgani ko'targan edi, Ko'ktoy battar irilladi va birinchi marta vovullab yubordi. Uning chiroyli, qo'ng'iroqdek ovozi bor edi. Kozimning onasi buni payqamadi, payqasa ham parvo qilmadi. Ammo urgani botinmadi, mushtini yozib, ters burildi-da, o'z xonasiga kirib ketdi.

Kechqurun Kozimning dadasiga shikoyat qildi:

– Sovg'a opkemay ketsin amakingiz! Ikkita qurt ham bo'lardi bolaga. Boya menga bir tashlandi, yuragim chiqib ketay dedi. Hozir shundoq. Meni aytdi, dersiz. Kattaroq bo'lsa bitta-yarimtaning boshini eydi, baloga qolamiz.

– O'rgatish kerak, – dedi Kozimning dadasi. – Innaykeyin, katta bo'lganda quyilib qoladi. Bu ham hali bola-da!..

– Bolamas, balo! Tishlari arraning o'zi! – e'tiroz bildirdi Kozimning onasi. – Yaxshisi, amakingizga qaytarib berib keling. O'g'limizga yo'qolib qoldi, deb qo'ya qolamiz. Bo'lmasa, o'zim it yashikka berib yuboraman.

– O'rgatib ko'raylik-chi, avval, – dedi Kozimning dadasi.

Kozimning karavoti ostida yotgan Ko'ktoy ularning gaplarini tushunganday g'ingshib qo'ydi.

U shu tuni tush ko'rdi. Ko'm-ko'k adir. Qo'y-qo'zilar o'tlab yurganmish. U yangi o'rilgan xushbo'y pichan ustida xuddi o'zidek, ammo ola-bula kuchuk bola bilan onasini emib yotganmish...

2

Kozimning dadasi aytganini qildi. Ovchilar magaziniga borib, yaxshi charmbog', zanjir olib keldi. Kimningdir, itni bir qo'lda kaltak, bir qo'lda qand bilan o'rgatish kerak, degan maslahatiga kirib, tutdan xivich yo'ndi. Ammo qancha urinmasin, barcha harakatlari zoye ketdi. Ko'ktoy tiniq qora ko'zlarini unga tikib, quloq osar, lekin biron-ta gapiga kirmasdi. Ikki oy deganda zo'rg'a o'tirib, oldingi oyoqlarini ko'tarishnigina o'rgandi, xolos.

– It bo'lmay o'lsin, – dedi Kozimning oyisi. – Hamma aqli gavdasiga, qorniga ketgan buni! Hali ham gapimga kiring, bu odam bo'lmaydi, oborib bering amakingizga!

Chindan ham yarim yil ichida Ko'ktoy buzoqdek bo'lib ketdi. Sakramasdan, cho'zilmasdan stol ustidagi narsalarga bo'yi yetadigan bo'ldi. Buni ko'rib, Kozimning onasi battar xunob bo'lib ketdi. Stol ustida endi hech narsa qoldirmay, shkaflarga yashiradi, dasturxonni yig'ishtirib qo'yadi. Ko'ktoy xivichni chaynab, zanjirni uzib yuborganidan keyin Kozimning dadasining ham hafsalasi pir bo'ldi. Noiloj, yangi zanjir olib kelib, o'g'lining oldiga tashladi:

– Ma, o'zing o'rgat.

U shunday dedi-yu, it qo'ldan chiqib ketayotganiga ko'nglida achindi. Xotini, katta bo'lsa birontaning boshiga yetadi, degan gaplari xayolidan o'tdi. Ko'ktoyning yana katta bo'lishi, o'sishi esa shunday turqiga yozib qo'yilgandek edi. O'qlog'idek-o'qlog'idek oyoqlari hali yumshoq, qalin junlari mayin, nazari sho'x edi. Qishgacha turib tursin-chi, o'zicha qaror qildi Kozimning dadasi, keyin bir gap bo'lar...

Ammo u o'ylaganicha bo'lib chiqmadi.

Kuz kelib, oyoq ostida xazon shitirlab qolgan kunlarning birida u ishdan kelsa, Kozim yig'lab o'tiribdi, xotini yotoqxonada yotibdi. Chap qo'li tirsagigacha bint bilan bog'langan.

– Nima bo'ldi? – xavotirlanib so'radi Kozimning dadasi.

– Ko'ktoy... Ko'ktoy oyimlarni tishlab oldi, – ko'zlarini mushti bilan artib javob qildi Kozim.

– Qattiq tishladimi? – Kozimning dadasi xotini oyog'iga o'tirdi.

– Suyakkacha bordi shekilli... – istar-istamas dedi Kozimning oyisi. – Yer yutkur tishlashga tishladi, qo'yvor desam ham qo'yvormaydi! Qisqichday tishlarini botirgancha, ko'zlarini lo'q qilib baqrayib turibdi!.. Kozim kelib qolmaganida, qo'lsiz qolarmidim?! Sovg'asi boshida qolsin amakizzi. Tishlaydigan narsaniyam sovg'a qiladimi?! Man sizga aytdim birovning boshiga yetadi, deb, quloq solmadingiz. Mana, mandan boshladi!..

– Nima qiluvdingiz? – so'radi Kozimning dadasi.

– Voy, man nima qilardim?! – tutoqib ketdi xotini. – Non to'g'rab bir kosa sho'rva berdim. Ochoapat o'sha zahoti yutib bo'ldi. Idishni ag'darib, uyni

boshiga ko'tardi. Ikkinchi kosani solayotganimda chidamay kosaga yopishdi. Qoch, deb sekin kosa bilan boshiga turtganimni bilaman, yashshamagur «g'ap-p!» – deb yopishdi qo'linga! Dod soldim, qani qo'yib yuborsa! Kozim kelib qoldi-yu, qo'yib yubordi. Poliklinikada itga spravka olib keling, deyishdi. Spravka bo'lmasa qirqta ukol qilamiz, deyishdi. Shu yetmay turuvdi manga.

– O'zi qani! – so'radi Kozimning dadasi.

Xotini indamadi. Kozim karavotning tagiga ishora qildi. Kozimning dadasi egilib qaradi. Ko'ktoy aybini sezgandek, boshini oyoqlari orasiga berkitib yotardi.

– It quturmagan, sog', – dedi Kozimning dadasi.

– Spravka kerakmas demoqchimisiz? – kinoya qildi xotini. – Mayli, men o'lib ketavuray. Sizlarga it bo'lsa bo'ldi!..

Kozim yig'lab yubordi. Dadasi ensasi qotib, o'rnidan turdi. O'g'lining oldiga kelib, boshini siladi. Itning sog'ligiga shubhasi bo'lmasa ham, ertasiga veterinariya doktorini olib keldi. Ko'ktoy o'z joyida, Kozimning karavoti tagida yotardi.

Kozimning dadasi uni chaqirdi. It chiqmadi. Bo'yinbog'idan tortmoqchi bo'lib, qo'lini uzatgan edi, u tishlarining oqini ko'rsatib irilladi.

– Karavotni surishga to'g'ri keladi, – dedi Kozimning dadasi.

– Qani, nari turing-chi, – doktor shunday deb, o'zi karavotning tagiga egilib qaradi. – Itingiz sog'. Baribir tekshirish kerak. So'lagidan bir amallab olmasak bo'lmaydi.

Ko'ktoy ko'zlarini unga qadab, shalpang quloqlarini ko'targanicha joyidan qimirlamay yotardi.

Doktor uzun yo'nilgan cho'pga paxta o'rab, yana egildi.

– Ko'ktoy! Ko'ktoy! Polvon it, aqlli it... Hozir o'zi chiqadi, so'lagidan beradi... – doktor mayin ohangda gapirib qo'llarini it tomon cho'zdi. – Seni xafa qilishdimi? Keyin tishlab oldingmi? Bunday itni xafa qilib bo'lar ekanmi? Bunday itga doim bir xil gapirish kerak. Bir vaqtda ovqat, bir vaqtda suv berish kerak. Bu vistavkaga qo'yiladigan it ekan-ku! Polvon it! Zotli it!.. Ko'ktoy, Ko'ktoy! Chiqaqol bu yoqqa. Ha, barakalla, barakalla!..

Ko'ktoy karavot ostidan ingrab, inqillab chiqdi-da, doktor oldida o'rnidan turdi. Tumshug'ini cho'zib, qo'llarini yalay boshladi. Doktor bilintirmasdan paxtalik cho'pini namlab oldi:

– Barakalla! Barakalla! Seni quturgan deyishdimi? Bo'lmagan gap. Soppa-sog'san. Esing ham joyida. Bekordan-bekorga hech kimni tishlamaysan. O'zingni ham xafa qildirib qo'ymaysan. Bor, joyingga bor endi.

Ko'ktoy shu gapni eshitib turgandek, bukilib yana karavot tagiga kirib ketdi.

– Kelin qiynalmasinlar ukolga borib, – dedi doktor. – Hoziroq spravka yozib beraman. Zo'ritingiz bor ekan. Odamlar bunaqasini qidirib topolmaydi.

U ketgach, Kozimning dadasi karavot oldida cho'kkaladi.

– Ko'ktoy, Ko'ktoyjon! Bu yoqqa chiq, chiqaqol, jonivor.

Ammo Ko'ktoy joyidan qimirlamadi. Kozimning dadasi bir burda nonning ustiga go'sht qo'yib uzatdi. Ikkinchi qo'li bilan bo'yinbog'idan tortdi.

– Chiq, Ko'ktoy! It bo'lmay ketgur, chiq!

Ko'ktoy irillay boshladi. Kozimning dadasi nonni uning oldiga zarda bilan tashladi. It vovulladi. Kozimning dadasi achchiqlandi. O'rnidan turib, itning biqinini mo'ljallab tepdi-da, boshqa xonaga chiqib ketdi. Nimadir esiga tushib, yotoqxonaga qaytib kirdi. Xonaning o'rtasida oyoqlarini kerib, dumini tayoqdek tik qilgancha, Ko'ktoy unga tikilib turardi. Kozimning dadasi beixtiyor to'xtab qoldi. It xuddi shuni kutib turgandek unga tashlandi.

Kozimning dadasi: «Ko'ktoy! Ko'ktoy, yo'qoll!» – deganini biladi, nimadir «shar» etib yirtildi. Ko'ktoy shimining tizzasidan pochasi-gacha katta bir bo'lagini uzib olgan edi. Kozimning dadasi o'zini yo'qotib qo'ydi, ammo ko'nglida it tasodifan oyog'ini tishlab olmaganidan, shim xalaqit berib qolganidan xursand bo'ldi. Shunday bo'lsa ham, «Haromil!» – dedi-yu, it tomon chopdi. Ko'ktoy qo'rqdimi yo hafsalasi pir bo'ldimi, og'zidagi shim parchasini tishlaganicha yana egilib karavot tagiga kirib ketdi. Uning uchun karavotning tagi eng bexavotir joy bo'lib qolgan edi.

Kozimning dadasi badjahl odam emas edi. Hayvonlarni yomon ko'radi, deb ham bo'lmas edi uni. Ammo shu yoshga kirib, biron marta mahalladagi ko'pchilik bolalar qatori it bilan o'ynamagan, qo'lida chumchuqmi, kaptarmi ushlamagan edi. Shuning uchun Ko'ktoy singari odamlarning ko'zidan ularning munosabatini bilib oladigan itlar bo'lishini u bilmas edi. Ko'ktoy uni allaqachon bilib olgan va xush ko'rmay qolgan edi.

Kechqurun Kozimning oyisi spravkani ko'rib tinchidi. Dadasi bo'lgan voqea haqida hech narsa

demadi. Faqat oyisi bilan birga bog'chadan kelib, iti bilan o'ynay boshlagan o'g'liga:

– Yotayotganingda zanjirini taqib, karavotga bog'lab qo'y, tag'in biron narsani sindirib qo'ymas, – dedi va ko'chaga chiqib ketdi.

Yarim kechada, hamma uxlagani yotgan payti u o'rnidan turdi. Eski kiyimlarini topib kiydi. Qo'liga charm qo'lqopini taqdi, oyoq uchida yurib o'g'lining karavotiga yaqinlashdi. Kozim dadasi aytgandek qilib qo'ygan ekan. Zanjirni karavotning oyog'idan yechib, sekin, ammo kuch bilan torta boshladi. Hech narsaga tushunmagan va shirin uyquda yotgan Ko'ktoy g'ingshiganicha sudralib karavot ostidan chiqdi.

– Yur, jonivor, yur, Ko'ktoy. Aylanib kelamiz, – dedi shivirlab Kozimning dadasi. Ko'ktoy surgalib uning ketidan ko'chaga chiqdi. Muzdek havo dimog'iga urildi. Oyog'i ostida to'kilgan barglar shitirladi. Chuqur nafas olib «vov!» demoqchi edi, Kozimning dadasi zanjirni silkitib qo'ydi, ovozi og'zida qoldi.

– Yur, jonivor, yur!..

Kechasi hech sayrga chiqmagan Ko'ktoy egasining ortidan bitta-bitta yurib ketdi.

Ular ko'p o'tmay zarqog'ozdek yaltirab oqayotgan daryo labiga chiqishdi. Bu daryo shaharning o'rtasidan o'tgan bo'lib, qishin-yozin muzlamas edi. Shahardan chiqaverishda temir yo'l ko'pri-giga yetganda ikkiga bo'linib, bir qismi shaharga burilar, ikkinchi qismi esa ellik metrlik jarlikka otilib tushardi. Uzoq-uzoq joylardan odamlar vishillab ko'pirib tushadigan shu sharsharani ko'pincha tomosha qilgani, muzdek shabbodasi-da dam olgani kelishardi.

Kozim katta bolalarga qo'shilib bir-ikki marta daryo labiga kelgan edi Ko'ktoy bilan. Bolalar qancha urinishmasin, uni suvga tushirisholmagan edi.

Ko'ktoy shu joylarni taniydi. Salqin havo, suvning bir maromdagi shovqini yoqdi, erkalani egasining oyog'iga suykandi.

Kozimning dadasi olazarak bo'lib nimanidir axtarardi. Nihoyat topdi shekilli, daryo yoqalab yura boshladi. It unga ergashdi. Baland bir chinorga yetishganida to'xtashdi. Kozimning dadasi engashib do'ng bo'lib turgan bir narsa ustiga o'tirdi. Ko'ktoy hidladi. Do'ng katta xarsang tosh solingan qop edi. Ko'ktoy ham egasining yoniga o'tirdi. Kozimning dadasi epchillik bilan zanjir qisqichini qop bog'langan arqonga ildi. Shu top xursand bo'lganidan ko'zlari chaqnab ketdi, beixtiyor Ko'ktoyning boshini silab qo'ydi.

Uzun tilini dam osiltirib, dam tamshanib, o'qtin-o'qtin nafas olayotgan itning yoqimli iliq hidi dimog'ini qitiqladi, o'g'lining yig'idan burushgan basharasi ko'z oldiga keldi, ammo niyatidan qaytmadi.

Shu alpozda birpas o'tirib, o'rnidan turadi. It ham turdi.

– Ma, ol, – Kozimning dadasi ehtiyot shart cho'ntagiga solib qo'yan bir chaqmoq qandni tashladi uning oldiga. It egilib, qandni hidlay boshladi. Shu payt Kozimning dadasi bor kuchini to'plab, qopni baland ko'tardi, zarb bilan daryoga otdi. Boshini yerdan ko'tarmagan Ko'ktoy siltanib ketdi. Endi og'ziga olmoqchi bo'lgan qantni yutarkan, bo'g'ilib bir «vang!» – dedi-yu, qop ortidan oyoqlari chalishib dumalab ketdi va ko'p o'tmay «shalop» etib suvga ag'darildi.

Toshning zarbidan chayqalib, shovqini ko'tarilgan, cho'kayotgan itning tanasi, oyoqlari urilib shaloplagan daryo bir zumda tinchib, yana avvalgidek bir maromda oqa boshladi.

3

Ertasi kuni ertalab, Kozim itini topolmay, rosa yig'ladi, bog'chaga bormayman, deb uydagilarni qo'rqitdi. Dadasining, bilmay qolibmiz, kechasi eshik ochiq qolib, chiqib ketibdi, deganiga ham quloq solmadi, hech qanday o'yinchoqqa rozi bo'lmadi. Nihoyat oyisi, yangi koptokdek kichkina kuchukning bolasini olib kelib berishni va'da qildi. Shundagina Kozim yig'idan tindi.

4

Ko'ktoy suv tagida bo'kib, battar og'irlashgan qopdagi tosh bilan oldinma-ketin dumalab borardi. Goh tosh oldin ketib qolib, uni bo'ynidan tortar, daryoning notekis tubiga ilinib qolganda, goh Ko'ktoy uni sudrardi. Quloqlari suvga to'lganiga qaramay, boshini sarak-sarak qilib, oyoqlarini shapillatib, o'zi sezmagan holda tepaga, suv betiga chiqishga talpinar, ammo toshning og'irligi, daryoning chuqurligi bunga yo'l qo'ymas, u horib yana suv tagiga ag'darilardi. Buning ustiga u nima bo'lganini, nima uchun issiq uydan chiqib, badanini qaqshata boshlagan, nafas oldirmay, ko'z ochirmay qo'yan suvga tushib qolganini, nima uchun Kozimning dadasi uning boshini silab, yumshoq gapirib turib, suvga otganligini

bilmasdi. Agar uyda ko'pincha bo'lib turganidek, egasining nima demoqchi ekanini oldindan sezganda, o'zini bu ahvolga solib qo'ymas edi, g'aflatda qolmas edi, zanjirni uzib, qochib ketardi.

...Uning o'pkasi to'lib, yo'tal tutdi. Ammo og'zini ocholmadi. Ichida nimadir g'ivirlab, qornini, ko'kragini, toshdek og'ir va karaxt bo'lib qolgan boshini yorib yuborgudek bo'lib ketdi. U chidolmay jon-jahdi bilan oyoqlarini cho'zib suvni shapillata boshladi. Bir mahal iliq havo burniga urildi. U qalqib ketdi. Og'zi-burnidan suv tushib, nafas ola boshladi. Ko'zlari nam bo'lsa ham ochildi. Birinchi ko'rgan narsasi: shunday daryoning tepasida unga tikilib turgan nursiz oy edi. Keyin daryo qirg'og'idagi yalang'och daraxtlar qorayib ko'rindi.

Ko'ktoy suvdan boshi chiqib tursa, ko'zi ochiq bo'lsa, nafas olish mumkinligini tushundi, bo'ynini toshga bog'langan zanjiri uzib yuborayotgan bo'lsa ham, endi egilmas, egilsa, oyoqlari suvni shapillatishdan to'xtasa, cho'kib ketishini, shundan keyin balki mutlaqo qalqib chiqolmasligini bilib qoldi va tumshug'ini suv yuzida tik tutib oqim ixtiyorida yumronqoziqdek oqa boshladi. Ba'zi-ba'zida oldingi oyoqlari suvda chiqib qolar, u cho'chib zarb bilan suvni urardi, suv shaloplab, yuz-ko'zlariga sachrar, entikib ketib qalqir, muvozanatni yo'qotib qo'yardi. Ammo ko'p o'tmay, u boshini silkitsa, tomchilar tushib ketishini, yana erkin nafas olish mumkinligini bilib oldi. Oyoqlari suv tagida qancha ko'p qimirlasa, u shuncha ko'proq suv betiga chiqa boshlayotganini ham payqadi. Ilgari quloqlarigacha suv usti-

da bo'lsa, endi bo'ynigacha ko'tariladigan bo'ldi. Yana u qaysi oyog'ini suvga ursa, shu tomonga siljishini ham sezdi va to'g'ri, daryoning o'rtasida oqim bilan baravar suzadigan bo'ldi. Ko'p o'tmay hatto dam olishni ham o'rganib oldi. Charchaganda u birpas oyoqlarini cho'zardi, shunda suv o'zi uni cho'ktirmay ko'tarib borardi. Faqat tosh, bo'ynida osilib yotgan zildek tosh uni o'z holiga qo'ymas, nimalargadir urilib, o'qtin-o'qtin uni o'z yoniga, suv tubiga tortardi. Ammo Ko'ktoy bunga ham ko'nikib qoldi. Tosh uni pastga tortganda, to'rtala oyog'i bilan suvga yopishadi. Uning harakatlarini tushungandek, daryo toshni ko'tarib, oldinga itaradi, u yana goh oldinda, goh orqada yumalay boshlaydi.

Shu alpozda bir-biriga bog'langan Ko'ktoy bilan xarsang tosh ancha oqishdi. Tong yorisha boshladi.

Yulduzlar so'ndi. Daryoning ikkala qirg'og'idagi daraxtlarning egri-bugri shoxlarida qushlar ko'rindi. Ko'ktoy ularning chug'urini, ko'chalarda paydo bo'lgan mashinalarning ovozlari eshita boshladi va beixtiyor qirg'oq tomon suzib ketdi. Tosh uncha xalaqit bermadi, u bilan oldinma-keyin yumalay boshladi. Ammo qirg'oqqa yaqinlashganda to'xtab qoldi. Ko'ktoy qancha urinmasin, tosh joyidan siljimadi. Bir-ikki siltanib ham ko'rdi, foydasi bo'lmadi. Birpas dam olib, yana qirg'oq tomon talpindi, lekin joyidan qimirlay olmadi, alamidani ingrab yubordi-da, oyoqlarini cho'zdi. Oqim uni ham, toshni ham yana oldinga surib ketdi.

Oftob chiqib, suv beti ko'karganda, temir yo'l ko'prigining g'isht ustunlari ko'rindi. Suv oqimi sekinlashdi. Ko'ktoy toshning og'irligini sezmay

qoldi. Oyoqlarini choʻzib ogʻir xoʻrsindi-da, atrofiga qaradi. Qushlar ham u shoxdan bu shoxga oʻtib chugʻurlashar, mashinalarning ovozi koʻpaygan sari odamlarning baqiriq-chaqiriqlari paydo boʻlib, kun oʻz hukmiga kirgan, shaharda hayot boshlangan edi.

Koʻktoy chuqur nafas oldi-da, oyoqlarini bir-ikki shapillatib qoʻydi. Shu tob birdan suv ostidagi tosh uni siltab tortdi. Koʻktoy beixtiyor tisarilmoqchi boʻldi, oyoqlari bilan suvni tepdi. Ammo tosh bu gal zoʻrlilik qilib, uni pastga tortdi.

U ayrilishga kelganini, koʻprik oldida daryo ikkiga boʻlinib, bir qismi keskin burilib shaharga qaytib kirishini, ikkinchi qismi esa jarlikka tushib, shahardan chiqib ketishini bilmas edi. Tosh uni suv tagidan jarlik, sharshara tomon tortgan edi.

Koʻp oʻtmay toshgina emas, daryoning oqimi ham uni sharshara tomon tortdi. Koʻktoy qancha urinmasin, oʻzini oʻnglolmay jarlikka shoʻngʻidi. Sharsharadan tosh bilan yonma-yon oyoqlari osmonga koʻtarilib, qushdek pastga tusharkan, gumburlagan sharshara shovqini orasida kimningdir: «Koʻktoy! Koʻktoy!» degan qichqirigʻi qulogʻiga kirgandek boʻldi. Koʻktoy koʻprik yonida sharsharani tomosha qilib turgan bir toʻda odamlarga qarab ulgurdi, ammo kim qichqirganini bilmadi. Tosh bilan barobar «shalop» etib suvga tushdi. Sharshara osti ularning zarbidan toʻlqinlanib ketdi va birozdan soʻng yana eski holiga qaytdi.

Koʻktoy qanchagacha suv ostida dumaladi, bilmaydi, hushiga kelib, tumshugʻi daryoni yorib chiqqanda, toshning boʻynidan tortmayotganini, zanjir ilingan charm boʻyinbogʻi ham yoʻqligini payqadi, namdan xiralashgan koʻzlarini pirpi-

ratib, sharsharadan chetroqqa, suv oqimi tomon suzib ketdi. Uning har bir harakati endi sezilarli edi, hech narsa uni suv tubiga tortmasdi. Xursand bo'lganidan bir-ikki marta suv ostida bo'lsa ham dumini likillatib qo'ydi. Hamma a'zosi endi unga quloq solar, yaqindagina uni qo'rqitgan suv ham uning izmiga tushadigan bo'lib qolgan edi.

5

Shahar ancha ortda qolib ketdi. Suvning beti g'adir-budirlashib, oqish tezlashdi, ikkala qirg'oq pasaydi. Ko'ktoy bir-ikki marta orqa oyoqlari bilan suv tubiga tegib ketdi. Avval nima bo'lganini tushunmadi. To'rtala oyog'ini uzatganda, daryo bu yerlarda chuqurmasligini angladi va suvni shaloplatib qirg'oq tomon yurib ketdi. Uni qiyayotgan narsa endi bitta, u ham bo'lsa suvning sovuqligi edi. Tishi-tishiga tegmay qaltirar, qalin tuklari yopishib qolgan badani hech narsa sezmay qolgan, oyoqlarining tomirlari tortishib, zo'rg'a-zo'rg'a ko'tarilar edi.

Bu gal qirg'oqda u sirg'anmadi, suvga o'xshab tebranib yotgan o'tlarning patak ildizlariga mahkam yopishib daryodan chiqdi. Hamma yog'idan sharillab suv oqa boshladi. U silkingan edi, gandaraklab ketib, yumshoq o't ustiga yiqildi. Turmadi. Turishga majoli yo'q edi. Yonboshiga ag'darilib, oyoqlarini cho'zdi-da, boshini ham chim ustiga qo'yib ko'zlarini yumdi. Shu zahoti uxlab qoldi. Tikkaga kelgan quyosh anchagacha uni isitib, uni quritganini ham, shunday qirg'oq yonidan o'tgan yolg'izoyoq yo'lda bir otliq uni ko'rib qolib, yarimta kulcha tashlab ketganini ham bilmadi.

Quyosh ham u singari yonboshlab, daraxtlar panasiga o'zini olganda, tumshug'i ustida notanish hid sezib, ko'zini ochdi.

Oldida bahaybat, mo'ylovlari tikandek qattiq bir qora it ko'zlarini baqraytirib unga qarab turardi. Ko'ktoy uning sovuq ikkita ko'zlariga, yo'g'on oyoqlari, keng, serjun ko'kragiga qarab, o'zicha hushyor tortib qo'ydi, ammo boshini ko'tarmadi.

Qora it u ko'zini ochganini ko'rib, bir qadam tisarildi-da, osmonga qarab bir-ikki vovullab qo'ydi. Shu payt uning yonida yana besh-oltita it paydo bo'ldi. Ular ham qora itdek bahaybat, tumshuqlari uzun, junlari qalin edi.

Ko'ktoy yotaverishini ham, turishini ham bilmasdi. Qochish xayoliga ham kelgani yo'q, lekin ular ko'pchilik edi. Buning ustiga u hali o'ziga kelmagan, boshi og'ir, oyoqlari ancha madorsiz edi. Kozim uni ko'chaga olib chiqqanda, mahallaning itlari – laychasidan tortib, beso'naqay dogigacha tegajog'lik qilishardi. Ayniqsa, Kozim bolalarga qo'shilib futbol o'ynayotgan payti, u ariq labida ko'kragini oftobga solib yotganda, bildirmasdan kelib oyog'idan, dumidan tishlashardi. U parvo qilmasdi. Laychaning tishlagani nima bo'lardi, burga chaqqandek gap. G'ashi kelib o'rnidan turganda hammasi tiraqaylab qochardi. Bir marta qarimsiq qora laycha dumidan tishlaganda, u tutib oldi. Ikki oyog'i bilan biqinlarini ezib, og'ziga yaqin olib keldi. Tishlash niyati yo'q edi, shunday bo'lsa ham og'zini ochganda, laycha ovozi boricha chinqirib yubordi. Ko'ktoy hayron bo'lib, oyoqlarini oldi. Laycha xuddi o'ldirib qo'yishayotgandek akkillaganicha uyiga qochib ketdi.

Shularni eslab, Ko'ktoy ohista boshini ko'tardi. Qora it irilladi. Buni ko'rib, olisroqda turgan bitta it vovullab yubordi. Ko'ktoyning ular bilan urishishga sira xohishi yo'q edi. Shunday bo'lsa ham o'zicha bir reja tuzib qo'ydi. Agar itlar unga tashlansa, birinchi bo'lib qora itga yopishadi. Uni bossa qolganlari o'zi tarqalib ketadi. Qora it sezib qoldi, shekilli, hurpaydi, irillaganicha bir qadam oldinga yurdi. Ko'ktoy shuni kutib turgandek, sapchib o'rnidan turdi. Atrofini yarim halqa qilib o'rab olgan itlar tiraqaylab qochishdi. Qora it ham irillashdan to'xtab, yoni bilan uch-to'rt qadam chekindi. Uning boshi egilib, bo'yniga kirib ketgan edi. Dumini qisib, bir-ikki vovullab qo'ydi-da, sekin sheriklari ketgan tomonga yura boshladi. Uning ham, sheriklarining ham bunday katta itni birinchi ko'rishlari edi.

Ko'ktoy ularni quvlamadi. Ammo orqalaridan qarab turdi. Itlar paxtasi terib olingan g'o'zapoya ichida g'oyib bo'lishdi. U tinchib yana yotmoqchi bo'lgan edi, nonga ko'zi tushdi. Ikki tishlashdayoq uni yeb, so'laklari oqib ketgan og'zini oyoqlariga artdi va yonboshladi. Qorni nihoyatda ochganligini shunda sezdi. Yarimta kulcha unga urvoq ham bo'lmadi. Beixtiyor itlar kirib ketgan g'o'zapoya tomon qaradi. O'sha yoqdan sigirlarning mo'rashi, tovuqlarning qaqag'i qulog'iga chalindi. Ularning ovozlariga itlarning vovullashlari qo'shilib ketdi. Ba'zilarini tanidi. Hozirgina uni talamoqchi bo'lgan edi ular. Odamlarning tovushlari ham eshitildi. Ko'ktoy quloqlarini dik-kaytirdi. Yo'q, tovushlar yaqinlashmadi, o'sha yoqlarning o'zida dam paydo bo'lib, dam yo'qolar-

di. U yer, bu yerdan tutun ko'tarila boshladi. Shu tutun hidi bilan bir mahal dimog'iga piyozdog', qovurilgan go'sht hidi kelib urildi. Ko'ktoy o'rni-dan turib ketdi. Yana kuchga kirib, og'riqlari qaytgan oyoqlari bilan depsinib, ingrab yubordi, so'laklari oqib ketdi. Boshini ko'tarib itlar ketgan tomonga qaradi. G'o'zapoya ortida bir qatordagi baland-past uylarning tomlari qorayib ko'rindi.

Ko'ktoy birpas nima qilishini bilmay turdi, yo-qimli hid yana dimog'ini qitiqladi. U chidolmay, g'o'zapoya tomon yurdi.

Uylarga yaqinlashganida ekinzor tugadi. Ko'ktoy to'xtadi. Qandaydir xavf ro'parasidagi, ochiq vodoprovodidan sharillab suv oqib yotgan uyning hovlisiga o'tishga yo'l qo'ymadi. U egil-di-da, chiroq yongan derazaga qaradi.

Shu yorug' xonadan lagan ko'targan bir ayol chiqib, hovlida birpas turdi-da, o'choq boshi-ga o'tdi. U yerda nimalardir taraqladi, gup etib Ko'ktoyning dimog'iga Kozimlarning uyidan tanish bo'lib qolgan hid, dam yeb yetilgan palovning hidi urildi. U entikib ketib, lablarini yaladi, og'zi so'lak-ka to'lib ketganidan bir-ikki yutinib, tilini osiltirdi.

Ayol lagan to'la oshni ko'tarib chiqdi, Ko'ktoy tamshanib, lablarini ko'kragiga arttdi. Ayol ayvon-ga ko'tarilguncha qarab turdi. U ko'zdan yo'qol-gach, o'choqboshi tomon yurdi. Hovlining o'rtasi-da bir to'xtab, joyiga qaytdi, g'ingshib o'tirdi. Shu alpozda anchagina vaqt o'tdi. Ko'ktoy ayolningmi, ishqilib, uydan ovqatdan keyin kimningdir chiqi-shini kutdi. Kozimlarning uyida Kozimning oyisi uni ko'p urishsa ham, o'zlari ovqatga o'tirish-laridan oldin unga ovqat berishardi. Ovqatlanib

bo'lib, divanga o'tganlarida yana bir narsa, o'zlaridan nima qolsa shuni berishardi. Deyarli doim Kozimning onasi uni boqardi. O'shanda u uni tishlamoqchi emas edi, rostini aytganda tishlagani ham yo'q, shunday, tishlari bilan semiz bilagini birpas ezib turdi. Tishlagisi kelsa Kozimning dadasini tishlar edi. Bir marta ham u to'g'ri qaragani yo'q, gapirmasa ham, xotiniga o'xshab vaysamasa ham, ichida uni xotinidan ko'proq yomon ko'rardi, undan jirkanardi. Ko'ktoy buni juda tez payqab oldi. Kozim bilan, Kozimning oyisi bilan o'ynagisi, erkalangisi kelsa, undan iloji boricha o'zini olib qochardi, undan qo'rqardi. Muloyim gaplari, yumshoq harakatlari, eng muhimi, saxiy ko'zlari bilan uni ko'rgani kelgan doktor egasiga munosabatini o'zgartirib yubordi. Ko'ktoy doktor kelib ketganidan keyingi egasining gaplariga ishonmasa ham unga quloq solishga endi harakat qila boshlagan edi. O'shanda egasi biroz chidaganda, og'irroq bo'lib uni nafrat bilan tepmaganda Ko'ktoy unga ko'nikib ketardi. Tishlamoqchi bo'lib shimini tortganda ham u rostakam tishlamoqchi emas edi, jahlini bir oz bosmoqchi edi, xolos. Hech kimga o'zini urdirib, teptirib qo'ymasligini ko'rsatmoqchi edi. Shuning uchun kechasi egasi chaqirishi bilan xafagarchilikni unutilib, darhol karavot ostidan chiqqan edi. O'sha kuni Kozimning oyisi palov qilgan edi. Ovqatdan oldin unga bir tog'oracha non to'g'ralgan yog'liq sho'rvani berishdi. Ovqatdan keyin esa Kozim uni alahsitib turdi, oyisi laganni sidi-rib, idishiga soldi. Katta-katta yumshoq suyaklar ham bor edi oshning ichida...

... Bir mahal ayol hovliga tushdi, ammo uning qo'llari bo'sh edi. Vodoprovod oldiga kelib suvni to'xtatdi va yana uyga kirib ketdi.

Ko'ktoy ortiq chidolmadi. Bitta-bitta yurib hovlining o'rtasiga bordi, u yoq bu yog'iga qarab qo'ydi-da, o'choqboshi tomon yurdi. Qorong'ida hech narsa ko'rinmadi. Birpas turgach, hid qayoqdan chiqayotganini aniqladi. Taxta tuvog'ining ustiga g'isht bostirilgan qozonda bir narsa bor edi. Ko'ktoy o'choqqa yaqin borib, tuvoqni hidlay boshladi. Ammo uni qanday ochishni bilmadi. Oldingi oyoqlarini qozon zixiga qo'yib, tumshug'i bilan g'ishtga tiraldi. Tuvoq qozonga qattiqroq yopishdi. Ko'ktoy alam qilganidan boshini burib yeyishga boshqa biron narsa qidirmoqchi edi, tumshug'i g'ishtga tegib ketdi. G'isht surilib qozon ichiga ag'darildi, tuvoqning bir tomoni ko'tarildi. Qozon tagida tunuka tog'oracha to'la ustiga katta suyak qo'yilgan osh turardi. Ko'ktoy tumshug'ini tog'arachaga botirgancha suyak aralash shopillatib yeyishga tushib ketdi. Shu paytgacha u bunday shirin ovqat yemagan edi.

Tog'oracha birpasda bo'shadi. Bir dona guruch ham qolmadi. Ko'ktoy idishni itarib, qozonga tushgan mayda suyaklarni olmoqchi bo'lganida, u g'ishtga tegib taraqqlab ketdi. Ko'ktoy bir sakrab hovliga tushdi-da, o'zini g'o'zapoya ichiga oldi.

Uydan ayol chiqdi. Atrofiga alanglab qarab, o'choqboshiga kirdi.

– Yer yutkur nima taraqladi? – dedi o'zicha va chirog'ini yoqdi, qozon tepasiga kelib, tikilib qoldi. – Halima! Hoy Halima! – qichqirdi u. – Bu yoqqa kell!

Ayvondan bir qiz tushdi.

– Nima, oyi?

– Qozonga sen tegmovdingmi? – so‘radi ayol.

– Yo‘q, nima edi? – Qiz oyisining oldiga bordi.

– Dadangning ovqati yo‘q! Qozon ochilib qolibdi. Tog‘orachaga solib qozonning ichiga qo‘yib qo‘yuvdim.

– Berkitganmidingiz tuvog‘ini?

– Voy, ustidan g‘isht ham bostirib qo‘yuvdim. Qara, g‘isht qozonning ichida yotibdi. Tog‘oracha bo‘m-bo‘sh!..

Ayol tog‘orachani olib negadir hidlab ko‘rdi.

– Balki boshqa idishga solib uyga olib kirib ketgandirsiz?

– Yo‘q, – dedi ishonqiramay o‘z javobiga ayol. – Shu tog‘orachaga soluvdim. Shundoq ko‘z oldimda turibdi. To‘latib osh soldim. Bilasan, dadang oshig‘lik suyakni yaxshi ko‘radi. Ustiga bostirib, ketdim, Qaydam tag‘in? Qarab kel-chi!

Qizcha chopib uyga kirib ketdi. Zum o‘tmay qaytib keldi.

– Yo‘q, ayvonda faqat bo‘sh idishlar... Nima qilamiz endi? – xavotirlanib so‘radi qiz. – O‘g‘ri bo‘lsa-ya?

– Biz tomonda o‘g‘ri nima qilardi? – uni tinchitdi ayol. – Osh yeb o‘tirganimizda devdek bir narsa lip etib o‘tuvdi-ya, e‘tibor qilmadim.

– Itmi? – so‘radi qiz.

– Esing joyidami? – jerkib berdi ayol. – It qozonni ocholadimi? Qo‘li bo‘lmasa!.. Anavi quruvchilardan birontasi bo‘lsa kerak. Yaqin yo‘l qidirib o‘tib turishadi-ku hovlimizdan. Ishdan keyin

o'lgudek ichishadi. Keyin hovlima-hovli zakuska qidirib yurishadi. O'shalardan bittasi tayyor oshni ko'rib olgan-ketgan.

Qiz tusmoliga ishonsa ham oyisiga e'tiroz bildirmadi.

– Dadamlar nima yeydilar endi?

– Shunga boshim qotib turibdi, – dedi ayol. – Ertalab osh qilgin deb ketuvdilar.

– Qilaqolaylik, – taklif qildi qiz.

– Pishguncha sabri chidamaydi. Yaxshisi, jaz-juz qilib go'sht bilan kartoshka qovurib beraqolaman. Bor, to'rtta kartoshka olib tozala! – ayol shunday deb, bo'sh tog'orachani ko'targanicha vodoprovod oldiga keldi va suvni ochib yuva boshladi. – Ha juvonmarg bo'lgurlar ichmay! Ertalabdan kechgacha laqillab o'tirishadi, kech-qurun birovning qozonini titkilashadi. Teshib chiqsin hammangni. Uylaringga yetolmay ariqda dumalab qollaring!..

Ko'ktoy qimir etmay jo'yak ichida yotardi. Ba'zan ayolning gaplariga quloq solib, tamshanib qo'yardi.

Ko'p o'tmay o'choqboshida nimadir chars-churs qildi. Ko'ktoy dimog'iga qovurilgan go'sht hidi urildi. U yana ikki-uch tog'oracha ovqat bo'lsa ham tap tortmay yeb tashlardi. Shuning uchun ko'zini o'choqboshidan uzmad.

Uyning orqa tomonida mashina ovozi eshitildi. Uning chiroqlari hovlini yoritib, g'ozapoyaga o'tdi. Ko'ktoy ko'zlarini oldi.

Mashina hovlining beligacha kelib, to'xtadi. Chiroqlari o'chdi. Kozimning dadasiga ikkita keladigan erkak kishi undan chiqib, vodoprovod oldida yuvina boshladi. Ayol sochiq olib keldi.

– Kutdik sizni, – dedi ayol. – Kelavermaganingizdan keyin o‘zimiz ovqatlanib qo‘yaqoldik.

– Ish ko‘payib ketdi, – erkak kishi sochiqni olib artina boshladi. – Qirga borib keldim. Sovuq erta tushadiganga o‘xshaydi. Nima ovqat?

– Aytganingizdek osh qiluvdim... Bir tog‘oracha bosib olib qo‘yuvdim, yo‘q, qovurdoq qilib qo‘ydim.

– Kim oladi? – hayron bo‘ldi erkak kishi.

– Bilmasam... – dedi ayol. – Anavi piyanista quruvchilarmi deyman? Tag‘in tuvoqning ustiga g‘isht bostirib qo‘yuvdim. Yer yutkurlar g‘ishtni bir chekkaga ham olib qo‘ymabdi, bo‘sh tog‘oracha bilan qozonning ichida yotibdi.

– Halima! Hoy, Halima! – baqirib yubordi birdan erkak kishi. – Miltiqni olib chiq! Qo‘shotarni!

– Voy, nima deyapsiz! Miltig‘ingiz yo‘q-ku! – so‘radi ayol.

– Ovozini o‘chir. O‘g‘ri bo‘lsa hayiqadi-da, miltiqdan, – dedi shivirlab erkak kishi va yana ayvonga qarab qichqirdi. – Olib kel tezroq!

Er-xotin birpas turishdi hovlining o‘rtasida. Hamma yoq suv quygandek jimjit edi. Halima ham ichkaridan chiqmadi.

Ular ayvonga kirib ketishganda, yerga yopishib yotgan Ko‘ktoy boshini ko‘tardi. Uning xayoli yana o‘choqboshida edi. Ammo darrov borishga botinmadi. Uyning hamma chiroqlari o‘chgandan keyin o‘rnidan turib, hovliga chiqdi va bitta-bit-ta qadam bosib o‘choqboshiga ko‘tarildi. Ammo qozon bo‘m-bo‘sh edi. Tumshug‘i bilan tuvoqni itarib, qozonning ichini iskab chiqdi. Keyin tokchalardagi har xil idishlarni bir-bir qaradi, hech narsa yo‘q edi yeyishga. Ko‘ktoy hafsalasi

pir bo'lib, o'choqboshidan chiqdi. Tumshug'ini osmonga ko'tarib hid qidirdi. Lekin hech qayoqdan hech narsaning hidi kelmadi. Ilgari u deyarli ovqat g'amini yemasdi. Uch mahal ovqat har doim idishida bo'lardi. Endi esa o'zi ovqat izlashi, hid olishi kerak edi. Har kuni, har soat xayoli endi qorin to'ydirish bilan band edi. U g'o'zapoya orasiga kirib o'z joyiga yotdi. Bundan yaxshi joy uning uchun endi yo'q edi.

Ertalab – g'ira-shirada uni kimdir iskayotgani-ni sezib ko'zlarini ochdi. Yonida kechagi itlardan biri, chap ko'ziga ot qashqasidek tamg'a tushgan oq it dumini gajak qilib unga tikilib turardi.

Ko'ktoy boshini ko'tarib, tumshug'ini cho'zdi. Oq it jilpanglab oldingi oyoqlariga cho'kkaladi va erkalanib, dumini likillata boshladi.

Ko'ktoyga kechagi osh bu itning jilpanglashi-dan ma'qulroq edi. Bir bonka achigan sut bo'lsa ham yomon bo'lmas edi, lekin kim beradi unga sutni? Kim osh olib keladi?

Hovliga kechagi qiz tushdi. Qo'lidagi sopol tovoqni u baland ko'tarib: «Ma! Ma! To'rtko'z! Bar-bos!» – deb qichqirdi. Ammo hech kim uning oldi-ga bormadi. Qiz birpas kutib turdi-da, g'o'zapoya-ga yaqinlashib, tovoqni ag'dardi. Ko'ktoy ag'daril-gan narsa non to'g'ralgan sutligini ko'rdi. Dumini bir-ikki yerga urib qo'yib, tamshandi, ammo borib yegani botinmadi. Oq it ham bormadi. Uning ko'zlari Ko'ktoyda edi.

Qiz yana hovliga tushdi. Vodoprovod oldida turgan ketmonni olib, uy orqasiga o'tib ketdi. Hovlida hech kim qolmadi. Kechagi mashina ham yo'q edi.

Ko'ktoy o'rnidan turib, hovliga yaqinlashdi. Sutga bo'kkan nonni sidirib edi. Oq it orqasidan kelib dumidan tishladi. Ko'ktoy uning o'yinga taklif qilayotganini tushundi.

Nega ham o'ynamasin? Qorni to'q, yaxshi dam oldi. Birpas o'ynasa bo'ladi. U loy yopishgan tumshug'ini oyoqlariga artdi-da, oq it tomon o'girildi. Oq it sho'x irillab yerga yotdi. Oyoqlarini osmonga ko'tarib tilini osiltirdi. Ko'ktoy ustiga kelib, iskay boshladi. Oq it birpas qimirlamay yotdi-da, sapchib o'rnidan turib, g'o'zapoya ichiga kirib ketdi. Ko'ktoy orqasidan yugurdi.

Ular qorong'i tushguncha bir-birlarini quvlab, dumalatib o'ynashdi. Suv yoqalarida bo'lishdi, qishloq orqasidagi tepaliklarga chiqishdi. Qishloqqa qaytishganda qora itga duch kelishdi. U qishloqqa kiraverishdagi birinchi uyning darvozasi oldida yotardi. Ularni ko'rib o'rnidan turdi, Ko'ktoyga o'qrayib qarab qo'ydi.

Oq it unga parvo qilmay, jilpanglab Ko'ktoyni qishloq ichiga boshladi. Ammo Ko'ktoy bormadi. Uni odamlar bilan uchrashishga xohishi yo'q edi. Oq it qancha erkalansa ham, u yurmadi, orqasiga qaytdi. Daryoga yetganda to'xtadi va tumshug'ini cho'zdi. Ovqat hidi dimog'iga urildi.

Bu gal tanish o'choqboshida hech narsa yo'q edi. Kechagi osh turgan qozon to'ntarig'lik edi.

Ko'ktoy o'choqboshini ancha titkiladi. Joyiga borib yotib, u uzoq kutdi. Ammo uyda chiroq yonmadi. Mashina ham kelmadi. Yarim kechada u chidolmay g'o'zapoya yoqalab qo'shni hovliga o'tdi. O'tdi-yu, shoshib o'zini ekinzor ichiga oldi. Bir laycha it uni sezib qolib, hovlini boshiga ko'tarib yubordi.

Ko'ktoy yana ikkita hovlini aylandi. Ammo o'choqboshiga o'tolmadi. Itlar vovullab egalarini uyg'otib yuborishdi.

G'ira-shirada uyg'ondi. To'g'risi, u uxlagani yo'q. U yog'idan bu yog'iga ag'darilib, nimaligini bilmasa ham shunday tepasida barkashdek sarg'ayib turgan oyga, son-sanoqsiz yulduzlarga tikildi. Tiq etsa boshini ko'tarib, hovlilarga qaradi. Ammo hech qayerdan ovqatning ishi kelmadi. Mudroq bosib, ko'zlari yumilganda, Kozimlarning uyi ko'z oldidan o'tdi. Issiq xonalar... Istasa-istamasa oldiga tashlab ketilgan ovqatlar... O'choq boshidan ertalabdan kechgacha kelib turadigan turli-tuman hidlar... U shularni eslashi bilan majbur qilib ko'zlarini ochar-di, serjun oyoqlari yoki biqiniga tumshug'ini tiqib, hech narsani xayoliga keltirmaslikka intilardi. Ba'zan ingrab, ko'z oldida paydo bo'layotgan narsalarni haydash uchun oyog'i bilan yotgan joyida shapillatib ko'zlarini urib qo'yardi.

Tong yorisha boshlaganda, uylardan odamlar chiqib, qayoqqadir keta boshlashdi. U osh yegan hovlidagi mashina ham guvillab, uyning orqasiga o'tib ketdi.

O'rtadagi hovliga allanarsa ko'tarib bir kampir tushdi. Qo'lidagi narsani tap etib yerga tashladi-da, ichkari xonadan tayoq olib chiqdi. Yerga tashlagan narsasidan teri hidi keldi. Bu supra edi. Kampir suprani yozib, o'rtasida qo'ppayib turgan oppoq bir qubbani mushtlari bilan yoyib kengaytirdi. Tayoqni uning ustiga qo'ydi-da, yana ichkariga kirib ketdi.

Ko'ktoy boshini ko'tarib yoyilgan qubbaga qaradi. Yeydigan narsa emas edi. Yana oldingi oyoqlarini jo'yak ichiga uzatib, kampirning chiqishini poyladi.

Ko'p o'tmay kampir chiqdi. U bir tog'ora qo'y qovurg'asini ko'tarib olgan edi. Shu ko'targanicha o'choqboshiga o'tib ketdi. Zum o'tmay, o'sha tomondan chars-churs yongan o'tin ovozlari eshitildi. «Shar» etib nimadir ag'darildi. Ko'ktoy o'rnidan turdi. G'o'zapoyalarni shitirlatmaslikka harakat qilib, o'choqboshining ro'parasiga bordi. Kampir tog'oradagi uzun-uzun eti shilingan qovurg'alarni qozonga solardi. Olov ko'tarilib, qozonning atroflaridan qizil yallug' otilib chiqar, kampir esa etagini lippasiga tortganicha hech narsaga e'tibor bermay, tog'orani bo'shata boshladi. Tog'oraning tagida uch-to'rtta bo'lak yog'lik go'sht ham bo'lsa kerak, shularni ham qozonga soldi-da, tog'orani ko'tarib hovliga tushdi.

Ko'ktoyning so'laklari oqib, ko'zlari o'ynab ketdi.

Lekin darhol o'choqboshiga yugurishdan o'zini tiydi. Qani, kampir nima qilar ekan? U vodoprovod oldiga kelib, tog'orani bir-ikki chaydi, keyin supra yoniga borib, uni qo'ydi-da, o'qlog'i bilan xamir yoyishga tushib ketdi. «Meni sezib qoldimikin», deb biroz cho'chigan Ko'ktoy, tayoqning nimaga kerakligini tushunib, tinchidi.

O'choq tomondan yoqimli go'sht hidi kela boshladi. Qozon Ko'ktoyga shunday ko'rinib turardi. Uzun-uzun qovurg'a suyaklar biqir-biqir qaynayotgan suvda bir ko'rinib, bir ko'rinmay qaynar, qozon devorlari bo'ylab aylanardi.

Ko'ktoy sabrsizlik bilan kampirga qaradi. Kampir oftobga orqasini o'girib nimalarnidir xirgoyi qilib xamir yoyardi. Xamiri ham o'qlog'i bilan ish-qalayverganidan supradek bo'lib ketdi, ba'zi to-

monlari yerga ham tushib ketdi. U shu tomonni tortib kafti bilan sidirar, supraga yetmay qolgan tomonini aylantirib, yana ustiga o'qlog'i solardi.

Ko'ktoy ohista g'o'zapoya ichidan chiqdi va hatlab-hatlab o'choqboshiga kirdi. Bir sakrab qozonning orqa tomoniga o'tib oldi. Bu tomonda olov yo'q edi. G'o'zapoya ichidan mo'ljallagan suyak ko'tarilib qozonning chetiga chiqdi. Ko'ktoy beixtiyor oldingi bir oyog'i bilan unga tekkan edi, suyak ichiga cho'kib ketdi. Uning ikkinchi tomoni yo'g'on umurtqa suyagi edi. Ammo u bir ko'tarildi-yu, yana suv ichida g'oyib bo'ldi. Ko'p o'tmay ikkinchi yakka qovurg'a tomoni ko'tarildi.

Ko'ktoy tishlab tortishni mo'ljal qilib qo'ydi. Oyoqlarini aralashtirishning foydasi yo'q edi. Suyak qozonning cheti bilan sekin aylanib, uning ro'parasiga kelganda, Ko'ktoy oldingi tishlari bilan uni iskanjaga olgandek tishlab oldi. Suyungani-dan butun badaniga issiq yugurdi. U tumshug'ini ko'tardi. Suyak qozondagi suvni bir shaloplatib, mayda suyaklar orasidan katta umurtqa suyagi bilan ko'tarilib chiqdi. Umurtqaning iliklaridan suv aralash ilik yog'i silqib tusha boshladi.

Avvalgi kunlaridagidek suyakni qozon tepasida yeyish mumkin emas edi. Kampir ko'rib qolishi mumkin edi. Ko'ktoy ehtiyotlik bilan tumshug'ini baland ko'targanicha o'choqboshidan tushdi. Yon tomoni bilan eshikka yaqinlashib, kampirga qaradi. Keksa ayol hamon o'z ishi bilan band edi.

Ko'ktoy o'choqboshiga qanday kirgan bo'lsa, shunday yengil hatlab hovlidan o'tdi-da, g'o'zapoya ichiga o'zini urdi.

– Hoy, kisht! – dedi kampir.

Itni u ko'rdimi, yo g'o'zapoya shitirlaganiga shunday dedimi, ma'lum emas edi.

7

Ko'ktoy suyakni mahkam tishlaganicha qartaning oxiriga chiqdi. Suv bo'yidagi majnuntolning sap-sariq to'shakdek bo'lib yotgan tagiga kelib, omonatgina qo'ydi. Gir aylanib, qayog'idan g'ajishni aniqladi-da, cho'kkaladi. Odam uchun hali pishib yetilmagan, qirqib olingan yoki taram-taram bo'lib yopishib yotgan suyak uning uchun eng ko'ngilli ovqat edi. U yoq bu yoqqa bir qarab olib, hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, shoshmasdan g'ajiy boshladi. Og'ziga har tushgan suyak birpasda uning arradek o'tkir tishlari orasida kukundek bo'lib ketar, Ko'ktoy shu kukunni miriqib yutardi. Qorni juda ham och bo'lmagani va suyakning kattaligidan bir soatcha chamasi o'tgach, u o'yin qilib yeya boshladi. Katta-katta suyakni sindiradi. Kichkina bo'lagini olib osmonga otadi, va shu zahoti og'zini katta ochib tutib oladi, g'archillatib yeydi, yo bo'lmasa suyak bo'lagini tepaga otadi-da, ag'darilib, oldingi oyoqlari bilan suyakni tutadi va og'ziga soladi. Tushga yaqin kimdir tepasida turgandek tuyuldi. Qornini oftobga tutib, chalqancha yotganicha, sekin yoniga ko'z tashladi.

Ikki-uch qadam narida bir laycha it tilini osiltirib, unga zavq bilan qarab turardi. Ko'ktoy erinibgina ag'darildi. O'zidan sal yiroqdagi kichkina bir umurtqa halqasini oldingi chap oyog'i bilan yaqinroq surdi va irillab qo'ydi. Laycha vangil-laganicha tiraqaylab qochdi. Shu qochganicha

u qishloqqa yetib bordi va barcha itlarni oyoqqa turg'azdi. Baland-past, qo'rquv va do'q aralash ovozlari, akillab vovullashlar butun qishloqni, ariqqacha cho'zilib kelgan g'o'zapoyani tutib ketdi. Lekin na bir odam, na bir it Ko'ktoyni oldiga keldi.

Yarim kechaga yaqin Ko'ktoy tanish bo'lib qolgan g'o'zapoya ichidagi jo'yakdan qishloqqa bitta-bitta yurib bordi. Uning qorni to'q edi. Olib kelgan suyagidan hatto bitta ushoq ham qolgani yo'q.

Qator cho'zilgan, oralari devorsiz hovlilardan uch-to'rt ariq berida to'xtab qayoqqa borishini, nima qilishini o'ylay boshladi. Tun uzoq, ertalabki yegan ovqati bilan yurish mumkin. Keyin nima qiladi?

U shu xayol bilan tumshug'ini osmonga cho'zib chuqur iskandi. Hech narsa yo'q. Go'yo bugun hech kim qozon osmagandek edi.

Shu payt ro'paradagi hovlining namat bilan berkitilgan eshigidan to'rt-beshta erkak, uch-to'rtta ayol chiqishdi. Namat eshik tagida besh-oltita tanish itlar yotganini ko'rdi. Ular egalari chiqishi bilan o'rinlaridan turishdi. Ular orasida qora qiyshiq oyoq it ham, boyagi laycha ham, taqa ko'z oq it ham bor edi.

– Albatta bu endi o'g'ri emas, opa, – dedi novcha, shopmo'ylov bir kishi. – Quruvchilarni bilaman, arag'ingiz bo'lsa o'g'irlashi mumkin, lekin... ovqatingizga tegmaydi. Nazarimda, qishlog'imizda katta yovvoyi mushuk, siyom mushugi deyishadi, ana o'sha o'ralashib qolgan. Kimdir aytuvdi hayvonot bog'idan uch-to'rtta hayvon qochibdi, deb. Ajab emas bittasi shu bo'lsa. Bitta ko'zoynakli ilon, kattasimas, bolasi.

– Vahima gaplarni topib yurasiz-da, Hakim polvon! – zarda qildi «Moskvich» mashinasining

egasi. – Hayvonot bog'i qayoqda-yu, bizning O'rta-ovul qayoqda?

– Iya! Nima deyapsiz o'zi? – gap qaytardi Hakim polvon, – Rosa yuraman desa, ilon bir soatda to'rt chaqirim yo'l bosar ekan. Mushuk undan sekin yuradi deysizmi? Shu gapni men uch kun burun eshitgan bo'lsam, yetmish ikki soat. Olti chaqirimdan mushuk yo'l yursa, yetmish ikki soatda ellik ikki chaqirim yo'l bosar ekan. Bizning qishloqqa Toshkentdan qancha – yigirma ikki chaqirim. Hoynahoy, ikkalovining tili bir bo'lsa, ilon ham yetib keladi-yov!

– Muncha sovuq gaplarni gapirasan, Hakim! – gapga aralashdi xamir yoygan kampir. – Bu ilonmas, haligi sen aytgan siyom mushuk hammas. Rosmana adashib qolgan qo'lbola it. Har baloni biladi, odamga chap berib, qornini to'yg'izib yuribdi. Hech narsani ochiq-sochiq qo'ymasak o'zi ketib qoladi.

– Yo'q, xola, bu it emas, – rozi bo'lmadi chekkada turgan o'rta bo'y semiz bir odam. – It bo'lsa bizzitlar tinch qo'yib qo'yarmidi? Mana, bit-ta Qoratoyni o'zi. Tumshug'idan tishlab yirib tashlar. Nechta urishqoq itni gumdon qilgan! Qoratoy, Qayoqdasan? Bu yoqqa kel!

Qora, egasiga o'xshagan semiz, qiyshiq oyoq it egasining oldiga borib erkalandi.

– Meni aytti, deysizlar, bu tulki! – dedi semiz odam. – Birinchidan, kuz. Yig'im-terim tugadi. Chorva ko'chyapti. Tulki in qidirib, bu yoqqa kelib qolgan adashib. Poylaylik bir-ikki kecha. O'zim qo'shotarim bilan otib beraman. Kelishdikmi shunga?

Ko'pchilikka uning gapi ma'qul bo'lgandek edi. Lekin hech kim dadillik bilan rozilik bermadi.

– Nima desalaring delaring-u, bu itning ishi. Qachondan beri tulki osh yeydigan bo'lib qoldi? Hech eshitmaganman. Suyak o'g'irlasa mayli, tushunarli. Lekin osh yesa, moshxo'rda ichsa. Shu ham tulki bo'ldimi? Uch kecha uxlamay, poylab chiqishga roziman. Lekin bu tulki emas! Tulki bo'lsa Qoratoyni omon qo'ymasdi.

– Be! – gapga aralashdi kulib Hoshim aka, – sizning o'zingizga o'xshab semirib ketgan Qoratoyni boshqa yoqda hozir.

– Qayoqda? – so'radi kampir.

– Anavi oq qanjiqda. Erta-yu kech ketida tilini osiltirib yurgani-yurgan.

– Hoy, ayollar bor demaysizlar-a! – dedi ayollardan biri. Aftidan, o'sha taqako'z oq itning egasi bo'lsa kerak, qo'shib qo'ydi: – Biznikiga hali o'g'ri tushgani yo'q. Hamma narsamiz joyida.

– Katta ketmang, singlim, – dedi Hakim polvon. – Itingizni yaxshi bilaman, o'sha hayvonot bog'idan qochgan mushukni ko'rsa ham, tulkin ko'rsa ham uy-puyingizni tashlab qochadi. It kerak bo'lsa bitta bo'ribosarmi, nemis ovcharkasidanmi olish kerak. Hamidullaga ayting, itingizning bolalarini tarqatadigan bizning uyda ahmoq yo'q. Qaysi o'g'lim shu ishga aralasharkan, qo'lini sindiraman.

– Bo'ldi! Talashmanglar! – xulosa qildi Hoshim aka. – Uch kun poylaymiz. Qo'shotarimni moylab olib chiqaman. Zumrat opoy! Qozonni bir chayib tashlab, yangitdan shilpildoq qilib berasiz-da bugun. Siznikida yotamiz bugun. Ertaga Halima-ni onasi osh qiladi. Nima dedingiz, usta?

«Moskvich» mashinasining egasi roziman, degandek bosh irg'adi.

– Keyiniga xudo poshsho! Balki Nortoji opam yangi qazi solib norin qilib berarlarning indinga.

– Norin sizlardan aylansin, – dedi Taqako'z itning egasi. – Lekin aytdim-qo'ydim. Oqbo'riga ishonaman. Biznikiga o'g'ri tushadigan bo'lsa butun qishloqni oyoqqa turg'azadi.

– Aytganingiz kelsin, – dedi kimdir.

– Har holda meni aytdi deysizlar, bu hayvonot bog'idan qochgan mushuk!.. – Uloq birovda ketmasligi uchun qo'shib qo'ydi Hoshim polvon.

Odamlar yana nimalarnidir gaplashib, tarqala boshladi.

Hoshim aka yonida qora iti bilan negadir hovlining etagi tomon yurdi.

Ko'ktoy g'o'zapoya ichida oldingi oyoqlarini cho'zib, orqa oyoqlarini qorni tagiga bukdi-da, hamlaga tayyor holda Hoshim akaga tikildi. Qora itdan uning sira cho'chiydigan yeri yo'q edi. Yelkasi bilan bir turtsa, dumalab o'rnidan turolmay qolishi aniq.

– G'o'zapoya qavjirab ketdi. Traktor yuborsam ag'darib berar ekan-da yeringizni!..

– Koshkiydi, bolam, – minnatdorchilik bildirdi xamir yoygan kampir.

Hoshim aka boshqa hech narsa demay, orqasiga qaytdi.

Turish xavfli edi. Ko'ktoy oyoqlarini bo'shash-tirib yonboshladi, lekin ko'zini odamlar sharpasi ko'ringan tomondan uzmad.

Kech kuz bo'lishiga qaramay havo ancha iliq edi. Iliq shamol esardi. Ko'ktoy oldingi chap

oyog'ini uzatib unga cho'zilgancha boshini qo'ydi-da, ko'zlarini yumdi. Aftidan, uni endi hech kim tonggacha bezovta qilmas edi.

Ko'zi ilindi. Ko'm-ko'k qir paydo bo'ldi ko'z oldida. Keyin sariq o'tov. O'tov yonida pichan g'arami. Kimdir uni issiq yumshoq tili bilan belini yalardi. Ko'ktoy bu yalashning yoqib qolganidan erkalanib g'ingshib qo'ydi. Keyin nimadandir xavotirlanib, boshini ko'tardi. Yonida Taqako'z. Belini, dumi aralash biqinini yalayotgan u edi.

Ko'ktoy orqasiga ag'darilib, Taqako'zning tumshug'iga oppoq qornini tutdi. Taqako'z bo'ynigacha uni hidlab, bir-ikki yalagan bo'ldi-da, orqasiga tisarilib boshini ko'tardi.

Ko'ktoy uni tushundi. O'rnidan turib, uning tumshug'ini hidladi. Ular shunday birpas bir-birlarining hidlariga to'yib turishdi. Keyin Taqako'z ariq tomon yugurib ketdi. Ko'ktoy uning ketidan lo'killab yura boshladi.

O'sha tun ular shaldirab oqayotgan ariq labida uzoq o'ynashdi. Bir-birlarini qurigan yumshoq o't ustida dumalatishdi, oyoqlari, dumlaridan tishlashdi. Taqako'z ko'pincha uning yumshoq, yo'g'on dumini tishlab buraydi, og'ritmasdan yerga tortadi, ag'daradi-da, biqinlarini, kindigini yalaydi. Ko'ktoy uning uzun quloqlarini tishlaydi...

Taqako'z birdan o'rnidan turib, katta ko'cha tomon yugurib ketdi. Ko'ktoy ham ikkilanmasdan uning ketidan yugurdi.

Katta ko'chaga chiqishganda, u bo'm-bo'sh edi. Ko'ktoy ehtiyotkorlikni unutib, Taqako'zning ortidan ketaverdi. Shu o'yin ichida ular qishloqning markaziy tomoniga yetib borishdi. Bu yer

ham jimjit edi. U yer bu yerdagi magazinlar tepasidagi yonib turgan chiroqlarning tagida ham hech kim yo‘q, na odam, na it...

Taqako‘z Ko‘ktoyni o‘z hovlisiga boshladi. Hovlini tanishi bilan Ko‘ktoy hushyor tortib, bir oyog‘ini ko‘targanicha turgan joyida qotib qoldi. Buni Taqako‘z sezib, devor tagida turgan tog‘oracha oldiga bordi-da, shopillatib, yuvindi yeya boshladi. Bu uning o‘zicha taklifi edi. Ko‘ktoy unga yaqinlashdi va qo‘shilishib non to‘g‘ralgan quyuq, seryog‘ yuvindini yeya boshladi. Og‘ziga go‘sht parchasi ham chiqdi. Bu go‘sht shu kungacha yegan go‘shtlarga o‘xshamasdi, sho‘rtang, xushbo‘y. Og‘zingga solsang erib ketadi. Ko‘ktoy beixtiyor shu go‘shtning hidi boshqa yoqdan ham kelayotganini sezdi. Boshini ko‘tardi. Uy bilan devor orasiga terilgan temir simga qator qilib, besh juft qazi osib qo‘yilgan edi. Xushbo‘y hid shu qaziniki edi.

Ko‘ktoy qorni och bo‘lmasa ham ishtaha bilan qazilarga tikildi. Keyin ko‘p o‘ylab o‘tirmay bir sakradi-da, ikkita qazini tishlab tortdi. Sim uzilib, hamma qazilar sim bilan birga yerga «to‘p» etib tushdi. Xamir yoygan xotinnikidan qars-qurs etgan o‘q ovozlari eshitildi. Itlar vovullab ketdi.

– Voy-dod! O‘g‘ri tushdi!

– Kim bor?! Chiqinglar! Kasofatlarni tutinglar!

– degan ovozlari qishloqni, ayniqsa Taqako‘zning hovlisini tutib ketdi.

Taqako‘z Ko‘ktoygacha qarab birinchi vovulladi. Hovlida bir-ikkita it ko‘rinishi bilan, qora qiyshiq oyoq it ikkalovi qishloqdan chiqib ketishdi.

Ko‘ktoy ikkita qazini tishlab olganicha, Taqako‘z boshlagan yo‘ldan qocha boshladi.

Ko'cha odamga, birpasda qayoqdandir paydo bo'lib qolgan katta-kichik itlarga to'lib ketgan edi. Hamma nimalardir deb qichqirar, itlar baravariga vovullardi. Ko'ktoy qay ko'z bilan ko'rsinki, Taqako'z ham biroz undan orqada qolib, boshqa itlar singari unga qarab vovullardi. Qazilar yumshoq va uzun bo'lganidan Ko'ktoy boshini qanchalik baland ko'tarmasin, ko'kragiga, ikki oyog'i orasiga urilib, yaxshi chopishga xalaqit berardi. Semiz bo'lishiga qaramay, Qora qiyshiq oyoq it unga ancha yaqinlashib qolgan edi. Uning yonida uzun tayoq ko'targan novcha kishi – Hakim polvon yugurib kelardi.

Bir mahal Taqako'z Ko'ktoyning yonida kelaturib, birdan undan orqada qoldi va jon-jahdi bilan uning dumg'azasiga yopishdi. Ko'ktoyning g'azabdan ko'zlari yonib ketdi. Taqako'z sag'rini kengligidan dumg'azani tishlolmasligini ko'rib, bor kuchini to'pladi-da, Ko'ktoyning dumiga yopishdi.

– Ol! Bos! – qichqirdi Hakim polvon.

Shu zahoti Ko'ktoy boshi aralash umurtqalarigacha qarsillab ketganini sezdi, og'zidagi qazini tashlab yubordi, gandaraklab oyog'i tagida ivirsib kelayotgan itlarga turtilib ketdi. Hamma itlar yiqildi. Ammo orqadan quvib kelayotganlar ko'p edi.

Ko'ktoy ulardan qochib qutulolmasligini sezdi va zarb bilan oldingi oyoqlarini yerga tiradi-da, taqqa to'xtadi. Tanasi boshi ustidan aylanib tushdi. Bir nechta it unga turtilib, angillaganicha dumalab ketdi. Ularning orasida u Taqako'zni ham ko'rdi. O'rnidan turib boshini ko'targanida, ro'parasida Qora it turardi. Ko'ktoyning vajo-hatidan Hakim polvon ham to'xtab qoldi.

– Qoravoy! Ol! Ol, Qoravoy! – dedi u qoʻrquv aralash va qoʻlidagi tayoqni sekin boshi uzra koʻtara boshladi.

Koʻktoy buni oʻzicha tushunib, yaqinida turgan qora besoʻnaqay it qolib ketdi-da, dahshat bilan irillaganicha oʻzini shu tayoqqa otdi. It ham, uning zarbi aralash Hakim polvon ham yiqilishdi. Koʻktoy bir koʻcha boʻlib kelayotgan odamlarni koʻrdi. Hali ularning yetib kelishiga besh-olti qadam bor edi. U chalqancha yotgan Hakim polvonning ustidan hatlab oʻtdi-da, oʻzini chap tomonda koʻringan tor koʻcha tomon urdi. Endi uni hech kim quvmayotgan edi. Bir-ikki marta oldida, orqasida tosh dumalab tushdi, xolos. U toʻxtamay, loʻkillab tor koʻchaning boshiga chiqdi, roʻpara yangi haydalgan yer yoqasi bir mashinalik asfalt yoʻl edi. Shu asfalt yoʻl boʻylab u avval loʻkillab, keyin bitta-bitta yurib ketdi.

Hech umrida koʻrmagan boyagi shovqun-suron, badburush qiyshiq it, tayoq koʻtargan novcha odam, Taqakoʻz ortda qoldi.

Katta yongʻoqning tagiga kelganida u toʻxtadi. Hech qayerida, tayoq tushgan boshida ham, umurtqa suyaklarida ham ogʻriq sezmad. Taqakoʻz bir parcha yungini uzib olgan dumida ogʻriq bor edi va yuragi gupillab urardi. U birpas choʻzilib olishga qaror qildi.

8

Koʻktoy oʻsha yili Sirdaryoga yaqin boʻlgan Olmazor, Yallama qishloqlari atrofida yurib qishni oʻtkazdi. Qish oʻzi oʻsha yili deyarli boʻlmadi.

Mavsumning yarmigacha qor yoqqani yo‘q. Tog‘ tomondan doim iliq shamol esib turdi. Kunduzlari beixtiyor ba‘zi tepaliklarga chiqib qolsa, u tog‘ni ko‘rardi. U yer bu yergina oqargan ko‘k tog‘ tizmalari uning nafasini qitiqlar, bilsa-bilmasa tug‘ilgan joylariga uni tortardi. Lekin tug‘ilgan joyi qayerda – buni u bilmasdi. Bundan qattiq ezilmasdi ham. Lekin qon uni tog‘li joylarga tortadi.

U shu payt ichida ancha o‘sdi, suyaklari kengayib, qotdi. Tanasi kengaygani uchun boshi endi avvalgidek beso‘naqay ko‘rinmas, sal cho‘ziqroq bo‘lib, juda yengil engashar, biror xavfni sezsa, darhol, yashin tezligida uzun bo‘yni aralash ko‘tarib olardi.

Taqako‘z xiyonat qilganidan keyin u qayoqqa bormasin, bironta itga, odamga duch kelib qolishdan o‘zini ehtiyot qilardi.

O‘shanda yaxshigina dam olib, Taqako‘z tishlari botib qonagan dumini yalab, og‘rig‘i bosilganidan so‘ng, ingichka asfalt yo‘l bilan katta yalanglikka chiqib qoldi. Yalanglikning o‘rtasidan hozirgina kelgan asfalt yo‘liga to‘rtta keladigan keng, tekis ikki yo‘l o‘tgan edi. Bir yo‘ldan yurgan mashinalar ikkinchisidan yurishmasdi.

Ko‘ktoy shu keng yo‘llarning yoqasida turib, qayoqqa borishi ma‘qulroq ekanini darhol payqab oldi. O‘ng tomon – odamlar, itlar ko‘p tomon, chap tomon – tog‘ga olib boradigan, qir-adirlar ko‘p tomon edi. Sezgi, kichik bir xohish bilan u shu tomonga yurdi.

Qish deyarli qishligini qilmagani uchunmi, bahor erta kelgani uchunmi, Ko‘ktoy tez tulladi.

To'shak qaviganda bo'lak-bo'lak bo'lib tushadigan bir-biriga patakdek yopishib ketgan yunglari avval orqa sonlaridan boshlab tusha boshladi. Keyin sag'riniga o'tdi. Quruq yerlarga duch kelib qolganda Ko'ktoy dumalab o'zi tullashini, eski burda-burda bo'lib yotgan ko'kimtir yunglarini tushishini tezlatdi. Aprelning o'rtalariga kelib, tullab bo'lib qoraydi-yu, biroz, lekin kumushdek yaltirab ketdi. Agar uning qovurg'alari, kuraklari ozg'inlikdan turtinib chiqib turganini e'tiborga olinmasa juda chiroyli it bo'lib yetilgan edi.

Shu paytgacha kelib, aniqrog'i, katta ikki yoqlama yo'lga chiqib olganidan beri qishloqlarga kirib o'g'irlik qilmasdan qorin to'ydirish yo'llarini ham o'rganib oldi.

Yo'l ustida tez-tez kabobxona, somsaxona, palovxonalar uchrab turardi.

Ko'ktoy ularning yaqiniga bormasdi. Kabobxonani yoki somsaxonani bir-ikki olisroqdan, lekin odamlar ko'radigan masofada aylanib chiqardi-da, sabr-toqat bilan ariq labidami, yo uzun tog'dek keladigan mashina soyasidami o'ltirardi.

Odamlar, u shunday aylanmasa ham, uni darrov ko'rishardi. Ba'zilarning havasi kelardi, ba'zilar undan qo'rqishardi. Lekin ko'pchilik albatta unga biron narsa tashlab ketardi. Stolni yig'ishtiradiganlar ham qo'rqa-pisa uni chaqirishar, ammo joyidan qimirlamagach, yaqinrog'iga kelib, dasturxonni qoqib ketishardi. Bu qoqilgan dasturxonda, eh-ha, nimalar bo'lmasdi. Chala chaynalgan go'sht parchasi, ustixon, ba'zan iligi bilan, ancha-muncha non, keyin sho'rballiq. Sho'rballiqning po'stidan ko'ra Ko'ktoyga kallasi

yoqardi. Ikki oldingi oyoqlari bilan og'zining yarmiga tiqib avval shimardi, keyin g'archillatib bitta ham qulog'ining pufaklari, ko'zlarining halqalari-gacha, qoldirmay yerdi.

Shunday choyxonalar oldida u ba'zan haftalab, oylab qolib ketardi. Ammo yaxshi choyxonalardan ketib qolib, adashgan vaqtlari ham bo'lardi. Bir kabobxonada kabobpazlar er-xotin ekan. Ko'mirxonaning oldiga itlarini ham olib kelib bog'lab qo'yishgan edi. Ko'ktoy yaqinlashishi bilan uni, o'zidek katta, qora ola itni ko'rdi, ammo parvo qilmadi. Juda hafsalasini pir qilsa, bitta beliga urib haydab yubormoqchi bo'ldi. Zanjirga bog'liq ekanini keyin bilib qoldi. Kabobpazning xotini qolgan-qutgan kabob, nonlarni unga tashlaganda bildi.

Zanjirband it yuvindi chelakni bir-ikki hidladida, nariroqqa borib yotdi.

Ko'ktoy shuni kutib turgan edi. Bitta-bitta yurib itning oldiga bordi. Uni hidladi, it bog'log'liq turaverib zerikkanidan g'ingshidi, yosh boladek ingillab o'rnidan turdi, o'z navbatida Ko'ktoyni hidlay boshladi. Ko'ktoy uni allaqachon unutgan, nima qilayotganidan beparvo bo'lib, tumshug'ini chelakdan ko'tarmay, apil-tapil ovqat yeyish bilan ovora edi. Shu payt tog'orachada suv ko'tarib, kabobpazning xotini kelib qoldi.

– Voy! Voy! Shotursun aka! Bu yoqqa qarang, itingizning ovqatini yeb qo'yayapti.

Zanjirband it bir-ikki nomiga vovullab qo'ydi.

– Kim yeb qo'yayapti? – ichkaridan erkak kishining ovozi keldi.

– Chiqing! Devdek bir narsa! – qichqirdi xotini.

Kabobpaz keldi. Birpas qarab turib, qoshlari chimirildi.

– Zab it ekan-da! Oyoqlarini, yelkalarini qara! Tog‘angga olib borib bersam naq ming so‘m bera-di. Bitta otga yengilmaydi. Chop, arqon olib chiq! Xotin ichkariga yugurdi.

Ko‘ktoy birpasda chelakni chip-chinniday qildi. Lablarini, tumshug‘ini yalab, boshini ko‘tar-ganda, kabobpaz uni erkalab chaqirdi.

– Kel, jonivor, kel. Ketma, bir amallab bog‘lab olsam bo‘ldi seni. Zap kelishgan it ekansan-da!

Xotini kelib qo‘rqa-pisa yon tomonidan eriga arqonni uzatdi.

– Jonivor, jonivor, ketma.

Kabobpaz yana nimalar deb turib, arqonni katta sirtmoq qildi-da, poylab turib, Ko‘ktoyning bo‘yniga tashladi. Shundan keyin nima bo‘lgani-ni u ham, xotini ham bilmaydi. Ko‘ktoy ko‘zining qiri bilan kabobpazning qo‘lidagi arqonni ko‘rib turgan edi. Tashlashi bilan o‘zini chap oldi-da, bir «g‘appl» deganicha kabobpazning ko‘kragini ikkala oldingi oyoqlari bilan urdi. Kabobpaz xotiniga o‘zini tashladi, xotini yerga ag‘darildi va dod solib yubordi. Kabobxonadagilar nima bo‘lganini chiqib aniqlagunlaricha Ko‘ktoy katta yo‘lga o‘tib olib, lo‘killaganicha tog‘ tomon ketdi.

Kabobpaz belini ushlab o‘rnidan turar ekan, dumini likillatib atrofida jilpanglayotgan itining boshiga alam bilan qo‘lidagi arqonni otdi.

– It bo‘lmay o‘! Ahmoq... Tayyor ovqatini yedirib o‘tirgan it ham it bo‘ldimi?! – Keyin u kiyim-larini qoqib, inqillab o‘rnidan turayotgan xotiniga o‘shqirdi. – Tog‘angning ham padariga la‘nat! Shu itni it deb olib berib o‘tiribdi-ya, uch yuz so‘mga. Qo‘y bu, it emas. Allaqachon sovunga berib yuborish kerak!

9

Yettisoyga yetguncha bunday choyxonalar oz emas edi. Ammo kunlar sovib, yog'ingarchilik boshlanishi bilan ularga qulf solina boshlandi. Kamdan-kam kabobxona ochiq bo'lar, ular ham ikki-uch soatgina kun isigan tushlik payti ishlar va tezda yopilardi.

Shunday bo'lsa ham Ko'ktoy och qolgani yo'q. Albatta avvallargidek endi to'yib ovqatlana olmas, qog'ozlarga chala-chulpa o'rab ketilgan narsalar bilan amal-taqal qiladi.

Bir kuni u Yettisoyga kiraverishdagi choyxonaga yetay deb qolganda ikkita pritsepli mashina turganini ko'rdi. Qadamini sekinlatib, tumshug'ini choyxona tomiga tutdi. Hech qanday is kelmadi. Ko'p o'tmay mashinalar jo'nadi.

Ko'ktoy hovuz yonidagi temir karavot ustida ochiq-sochiq yotgan non qoldiqlari, besh-oltita sho'rba liq kallasi va qiltanoqlarni ko'rdi. Atrofda hech kim yo'q edi. Choyxona berk. Ko'ktoy haligi qoldiqlarni ushog'ini ham qoldirmay yedi. Keyin suv ichgisi keldi. Hovuzga engashib tumshug'ini tutgan edi, suv tagidan tumshug'ini unga tutib turgan oyog'idek yo'g'on qora baliq ko'rindi.

Ko'ktoy birpas tomosha qilib turdi. Keyin sekin o'ng oyog'ini ko'tarib, baliqning tumshug'iga tepdi. Oyog'i tizzasigacha suvga tushib, hovuzni chayqatib yubordi. Baliq ko'rinmay ketdi. Ko'ktoy uni axtarib anchagacha hovuzga qarab qoldi. Bir mahal baliq suzib chiqdi. U suv ustida oppoq qorniga ag'darilib yotardi, bilinar-bilinmas dumi likillar, ammo avvalgi holiga qaytolmasdi.

Ko'ktoy osonlikcha oyog'ini uzatib, baliqni o'ziga tortdi. Baliq qarshilik bildirmadi. Tumshug'i tagiga kelganida «g'ap» etib qoq belidan tishlab oldi-da, boshini ko'tardi. Uning tutib olgan balig'i hozirgina yegan sho'r baliqlarning kallasidek kelardi.

Shu yo'sinda Ko'ktoy qorin to'ydirishning yangi bir usulini topdi va birinchi qor yog'uncha shu yerda qolib ketdi. Hovuzdagi baliqlar uning uchun hozircha yetarli edi.

Baliqlar kunduz payti, ayniqsa, oftob chiqqanda ko'proq suv betida ko'rinishardi. Ko'ktoy ovini ko'pincha shu paytida qilardi. Buning ustiga kunda bo'lmasa ham, ikki-uch kun deganda yo'lovchi mashinalar shu yerda to'xtar, odamlar temir karavot ustiga qog'oz yozib shosha-pisha ovqatlanishar va yana mashinalariga o'tirib ketishardi.

Ko'ktoy iloji boricha ularga ko'rinmaslikka harakat qilardi. Ko'rinsa, albatta bironta to'polon bo'lishi turgan gap edi.

Kechalariga ham u chidasa bo'ladigan joy topgan edi. Choyxonachining esidan chiqqanmi, yo jo'rttaga ochiq qoldirib ketganmi, choyxona ortidagi ingichka, fanerdan ishlangan ko'mirxona ochiq edi.

Ko'ktoy shu yerga kirib yotardi. Albatta issiq emas, lekin shamol yo'q, ko'zini bemalol yopib, boshini biqiniga, yo oyoqlari orasiga olib tinch uxlashi mumkin edi.

Qorni ham u birinchi marta shu yerda ko'rdi. Hamma yoqni oq bulut bosib, uchqunlayotganda temir karavot ostida yotib, yo'lni, o'tgan-ketgan mashinalarni tomosha qilayotuvdi, tumshug'iga

oppoq bir narsa qo'ndi. Keyin ikkinchisi kelib qo'ndi. Ko'ktoy epchillik bilan uni yalab ulgurdi. Muzdek bir narsa, suv desa suv emas, tuz desa tuz emas. Birpasda burnining uchi oppoq bo'lib qoldi, karavotning atrofi ham oq choyshab yopgandek, birpasda oq bo'ldi-qoldi. Keyin tez qorong'i tushdi. Yettisoyga burilishdagi simyog'och ustidagi chiroqning yorug'ida osmondan betinim tushayotgan bu oq yulduzchalar, kapalakdek simyog'och atrofida aylanib, goh qizil, goh sariq rangda tovlanar va ohista yerga cho'kardi. Ular behisob edi. Yerga qo'ngandan keyin hammasi bir rangda oppoq bo'lib kumushdek yaltirardi.

Ko'ktoy mudroq bosganda karavot ostidan chiqdi-da, ko'mirxona tomon yurdi. G'arch-g'urch qilgan yirik panjalarining izi qor ustida qoldi. U ko'mirxonaga kirib olib, izlariga biroz qarab turdi, lekin izlar qor ko'p yog'a boshlaganidan tezda yo'qoldi.

Yarim kechaga borib, qor tindi. Sovuq boshlandi. Taxta devorlar orasidan kira boshlagan izg'irin shamol Ko'ktoyning etini junjitdi. Ammo u e'tibor bermadi. Boshini ko'proq uzun tanasi orasiga olib kulcha bo'lib oldi-da, yana uyquga ketdi.

Qorni ochib uyg'onganda, tong yorishgan edi. U shoshib o'rnidan turdi-da, hovuz tomon yo'rg'alab ketdi. Ammo qalin qor uni bosganini, suv muzlaganini u xayoliga ham keltirmagan edi.

Qalin, o'tkir tirnoqlari bilan hovuz burchagidagi qorni surib, suvni ochgandek bo'ldi. Ammo bu suv emas, qalin, qop-qora muz edi. U sekin ikkala oldingi oyoqlarini muz ustiga qo'ydi. Muz yorilmadi. Butunlay hovuzga tushdi. O'zgarish

bo'lgani yo'q, qayerdadir, muz bo'lsa kerak, uning og'irligidan qirsilladi. Lekin boshqa hech qanday o'zgarish bo'lgani yo'q.

Ko'ktoy tizzalarigacha oppoq qorga botib, nima qilishini bilmay, hovuz o'rtasida qaqqayib turib qoldi. U bugun och qolganini, bu yerdan ketishi lozimligini bildi.

Katta yo'lga chiqqanda mashinalar qatnovi endi boshlangan edi. Mashinalarning ko'pi shahar tomonga yurishardi. Biri kechki karam ortgan, biri baland simto'r yashik ichida paxta, buzilgan traktor. Onda-sonda ichi g'ij-g'ij odamga to'lgan beso'naqay avtobuslar o'tib qolardi. Shunday avtobus o'tganda, ko'pincha uning derazalaridan qiyqirishib bolalar Ko'ktoyga biron narsa tashlashar, «Ma! Ma!» deb chaqirishardi.

Ko'ktoy ularga o'rganib qolgan edi. Juda ochiqqan paytlari o'zi katta ko'chaning chetiga chiqib o'tirar va shunday avtobuslarni kutardi.

Hozir endi qattiq sovuq. Deyarli hamma mashinalarning, shu jumladan, odam tashiydigan avtobuslarning ham derazalari berk edi.

Ko'ktoy yo'l yoqasidagi qor ustida yurib charchadi. Yo'lning o'rtasiga tushib oldi. Bu yerda ham yurish oson emas edi. Tirnoqlari o'tkir bo'lsa ham, son-sanoqsiz mashinalar o'taverib qotib yaxmalak bo'lib ketgan qorga botmas, sirg'alar, dumalab ketay-ketay derdi.

Baland ko'prikdan o'tayotganida bir yengil qora mashina uni turtib yuborishiga oz qoldi. Haydovchi signal ham berdi, eshikni ochib so'kindi ham. Ko'ktoy yo'l chetiga chiqqach, qog'ozga o'ralgan allanarsani oldiga tashladi.

Ko'ktoy shosha-pisha qog'ozni titkilab ochdi. Yarim kilocha keladigan yaxna go'sht bilan bitta katta tandir non edi. Hech kim bunday yeyilmagan narsani unga hech mahal tashlamagan edi. Ko'ktoy xirillab, ovozlari chiqarib shu narsalarni yeb qo'ydi. Ruhi ancha tetiklashdi, badani qizidi.

Uch-to'rt kilometr yurib pastlikka tushganda boyagi qora «Volga» yo'l chetida to'xtab turardi. Sportchilar kiyimidagi ikki kishi mashinadan chiqib uni poylab turishardi.

Ko'ktoy ulardan beriroqda to'xtadi.

– Kelaver, jonivor! Kelaver! Biz seni urmaymiz! – dedi yigitlardan biri. – Boqamiz. O'rgatamiz. Ma!

U Ko'ktoyning oldiga bir narsa tashladi. Bu yarim buxanka non edi. Ko'ktoy hididan bildi. Nima qilish kerak? Borsinmi? U oyoqlarini bitta-bitta ko'tarib, nonga yaqinlashdi. Lekin egalari qarab turishgani uchun hidladi-yu, boshini ko'tardi.

– Senga! Yeyaver, senga! – qichqirdi non otgan yigit. – Ol! Yo'lbars! Polkan! Ol!

– Oti boshqachadir? – e'tiroz bildirdi ikkinchi yigit.

– Mayli-da, o'rgansa bo'ldi. Rosa uy poylaydigan it ekan-da! – dedi non tashlagan yigit. – Ozingina semirsa bormi, har qanday o'g'ri ko'rishi bilan qochadi. Darvozadan uygacha garajning oldi bilan sim tortib bog'lab qo'yardim. Ana undan keyin bir oyga bo'lsa ketaver. Uy qimirlamaydi joyidan. Bo'riboy! Ol! Uka! Qoratoy! Ol!

U shu gapni aytganini biladi, Ko'ktoy «Qoratoy!» degan so'zni eshitishi bilan bir irilladi. Yigitlarning unga Hakim polvondek tikilib turganini ko'rdi-da, non esidan chiqib, vovullaganicha ularga tash-

landi, ikkala yigit epchillik qilib mashinaga kirib olishdi. Ko'ktoy tumshug'ini mashina derazasiga tiqib vovullashdan tinmadi. Mashina bir silkinib yurib ketdi. Ko'ktoy bir-ikki qadam chopdi orqasidan, keyin orqasiga qaytdi. Nonning oldiga kelib, yana hidladi, mashina ketgan tomonga qarab bir-ikki endi shunday nomiga, ichki bir dard bilib vovullab qo'ydi-da, ikki tishlashda nonni tamom qildi.

Kechga yaqin oldinda yana bir ko'prik ko'rindi. Undan yo'l ikki tomonga – chapga va to'g'riga, tepaliklarning ichiga kirib ketgan edi.

Ko'prikning tepasiga chiqqanda, Ko'ktoy o'ng tomonning olis-olis etaklarida, botayotgan quyoshning qizg'ish nurlari oldida imoratlarni ko'rdi. Chap tomon qir, qirning teppasida, besh kilometrcha keladigan masofada bir narsa qorayib ko'rindi. Uning orqasi tog'ga tutashib ketgan. Buni Ko'ktoy quyosh nurlarida yilt-yilt qilayotgan baland-past cho'qqilardan bildi. Hech ikkilanmasdan qir tomonga oyoq bosdi.

Ikki tepalikdan oshib uchinchisiga, qorayib turgan narsaga yetgunicha suv bo'lib ketdi. Qu-loqlarining uchlari, tumshug'idagi uzun qalin junlar sumalakdek qotib qoldi.

Tepalik tepasida qorayib turgan narsa qabr edi. Ko'ktoy muzdek qabrga yopishib yotdi-da, oyoqlarini cho'zdi. Panjalaridagi qayrilma yo'g'on tirnoqlari muz parchalari ichida qolib ketib, ingichka ipdek qorayib turardi.

Shu yerda yotgancha o'ziga kelgach, boshini ko'tarib, tepalikning narigi tomoniga qaradi. Pastda, ikki-uch kilometrlik joyda ilondek yaltirab jilg'a oqardi. Shu payt qay ko'z bilan ko'rsin-

ki, shu jilg'a yoniga besh-o'nta qo'y kelib suv icha boshladi. Bir-ikkitalari ichib bo'lib boshlarini ko'tardi, «be-be-e!» deb ma'radi. Jilg'a bo'yini birpasda ola-bula qo'ylar podasi bosib ketdi. Bir-ikki marta itlarning bo'g'iq vovullagan tovushlari ham eshitildi.

Ko'ktoy tizzalariga ko'tarilib, pastlikka tikilib qoldi.

Bir ozdan so'ng jilg'aning narigi betida eshak mingan bir odam ko'rindi. Aftidan, qo'ychivon bo'lsa kerak, birpas qo'ylarning suv ichishiga qarab turib, «qurre-qurre!» – deb qichqirdi va boshi ustida uzun tayog'ini aylantira boshladi. Suv ichib bo'lgan qo'ylar orqaga qayta boshlashdi. Bir-ikkita-si suvning ustidan bu tomonga sakrab o'tgan edi, Ko'ktoydek bir sariq it vovullab orqaga qaytardi.

Ko'ktoy bu manzarani ko'rib, entikib ketdi, bir-ikki qalqib yo'taldi va o'zini pastga tashladi.

Poda ketayotgan tomonga ma'lum masofa saqlab, itlarga ham (ular katta edi, bittasi haligi sariq it, ikkinchi ola edi. Uning ham bo'yi sariq it-dan qolishmasdi), qo'ylarga ham ko'rinmay orqama-orqa boraverdi.

Poda yana bir tepalikka chiqib, g'oyib bo'ldi.

Ko'ktoy ohista shu tepalikka ko'tarilganda ko'ziga tanish manzara ko'rindi. Keng yalanglik nariroqdagi tepalikka yo tog'ning etagiga borib taqalgan edi. Yalanglikning o'rtasida baland pichan g'arami turardi, g'aramning yonida o'tov. Pastroqda esa uch yog'ochlik butun poda sig'adigan qo'ra ko'tarilgan edi.

Qo'y-qo'zi ma'rab-ma'rab itlarning hurishi, cho'pon «qur-r, qur-e»si bilan qo'raga kira boshladi.

Ko'ktoy yana pastroq tushdi. Qo'rani cho'pon berkitgach, itlarni ergashtirib o'tovga kirib ketdi. Ko'ktoy qo'raning burchagiga borib, yog'och qoziqlarga ko'ndalang bog'langan xodalar panasida pichan g'aramiga o'tib oldi va yer bilan bitta bo'lib yotgan pichan ustiga o'zini madorsiz tashladi.

Ancha vaqt o'tdi. Qo'ra ichidan itlar bilan cho'pon chiqdi. Uning ag'darma po'stini hididan Ko'ktoy tanish, es-es anglab oladigan bolaligidagi yoqimli hidni sezdi.

Cho'pon itlarni qo'ra darvozasi yaqiniga chaqirib, etagidan bir narsa to'kdi. Ikkala it qir qilgan kalta dumlarini likillatib va shunday kalta qir qilgan quloqlarini tushirib ovqat yeyishga tushib ketishdi.

Cho'pon qaytib yana o'tovga kirib ketdi.

Ko'ktoyning so'lagi oqib ketdi, tamshandi, lekin itlar yoniga borishga botinmadi. Ular to'yib, o'sha joydan ketganlaridan so'ng, har doimgidek qolgan-qutgan narsalarni yeyishni kuta boshladi.

Shu payt o'tovdan cho'pon chiqdi, itlari tomon bir qarab qo'yib, g'aramga, Ko'ktoy yotgan tomonga kela boshladi. Ko'ktoy nima qilishini bilmay, bo'ynini cho'zib, boshini yerga qo'ydi.

– Shattamiding? – so'radi yaqinroq kelib cho'pon. – Shattasan deb o'ylovdim o'zim ham. Tepalikda turganingni ko'ruvdim. Tushmaganingdan eslik ekansan, deb qo'yuvdim. Ko'ktoy! Azamat it! Ma! Manavi senga.

Kimdir uni shunday deb chaqirgan edi. Hozir eslolmaydi. Onasining bag'ridan olib, shaharlik jiyaniga sovg'a qilgan kekxa cho'ponmi, yo Kozimning onasimi? Cho'ponning shunday deb chaqirgani yoqdi.

Cho'pon ikki-uch qadamcha narida cho'kkalab Ko'ktoyning oldiga yaxna go'sht dumalatdi.

Ko'ktoy hidladi, qorong'i tushgan bo'lsa ham, cho'ponning muloyim ko'zlarini ko'rdi va apil-tapil go'shtni yeya boshladi.

– Barakalla! Manavi nonni ham ye!

Cho'pon it oldiga uch-to'rt burda non tashladi.

– Senlarni endi qanday o'rgataman bir-biringa? Bo'rikalla ham o'jar, Olabuqa ham undan qolishmaydi. Hay, mayli, sen shu yerda yotaver. Ertaga bir gap bo'lar. Balki kechasi topishib ketar-sanlar, a? Lekin, ayt-chi, jonivor, qaysi nonko'r seni sarson qilib qo'ydi? Cho'pon bo'lmasa kerak, cho'pon sendaqalarni kaftida olib yuradi.

Cho'pon ketdi.

Ko'ktoy u oldiga tashlagan narsalarning uvog'ini ham qoldirmadi va issiq pichan orasida uyquga ketdi.

Cho'ponning itlari qo'ra atrofiga tunni o'tkazib, begona itning yaqinlarida uxlab yotganini sezmadilar.

Ko'ktoy g'ira-shirada uyg'ondi. U endi o'ziga kelgan, charchoqlari unutilgan, qorni ham uncha och emas edi, kechgacha chidasa bo'lardi. Ko'zlarini uqalab, to'yib esnadi, bo'ynini cho'zib, cho'pon itlarining qayerdaligini iskab ko'rdi. Qo'raning orqasida bo'lishsa kerak, hidlari kelmadi. O'rnidan turib bir silkindi-da, g'aramning orqasiga o'tib g'oyib bo'ldi.

Cho'pon ertalab ayri bilan g'aram yoqasiga kulganda Ko'ktoy yo'q edi.

– Ha ayyor it!.. Qochdingmi? – dedi u kulib. – Yo'q, qochganing yo'q. Bizdan qo'rqding. Qo'rqib nima qilasan, tentak it? Bizdan qo'rqma. Bizning

dushmanimiz bitta – bo‘ri. La’nati keyingi paytda ko‘payib qoldi biz tomonda. Menga – sir, hali kelib, tishining oqini ko‘rsatgani yo‘q, itlar ham sezmad. Lekin ko‘payib qoldi. Ehtiyot bo‘lmasak, besh-o‘nta qo‘ydan bir kunda ayrilib qolamiz. Voy-bayov! Lekin itmisan it ekansan. Oyog‘ing bilagimga ikkita keladi-ya! Hay, mayli, bilaman, hali aylanib kelasan, qoning tortadi. Qorning ham tortadi. Bu atrofdan boshqa qo‘ra yo‘q...

Cho‘pon chol yana allanarsalarni o‘zicha gapirib qo‘radagi qo‘ylarga pichan tashiy boshladi. Keyin o‘tov ichidan qop orqalab chiqib yem berdi. Shu bilan kun peshindan og‘di. Otda kimdir kelib unga nimalarnidir uqtirib ketdi. Aftidan, obi havoni aytgan bo‘lsa kerak, u ketishi bilan qor uchqunlay boshladi. Keyin oppoq qordan bo‘lak hech narsani ko‘rib bo‘lmay qoldi. Cho‘pon bugun podani pastga sug‘organi olib bormadi. Motorni qo‘yib, quduqdan sug‘ordi.

Qorong‘i tushib, qo‘radagi qo‘y-qo‘zilar tinchigach, itlar ovqatlarini yeb, qo‘raning orqa tomoniga ketishgach, Ko‘ktoy g‘aram ichidagi joyiga qaytdi. Shunday pichan ustida kechagicha go‘sh, ikkita sho‘r suyak yotardi.

Miriqib yedi. Suyaklarni ham ovoz chiqarmay avval shimdi, keyin ohista sindirib maydalab-maydalab og‘zi to‘la ko‘pik aralash yutdi.

Bu gal kechagidek uyquasi kelmadi. Qo‘ra atrofida yurgan qo‘ychivon itlarining o‘yinlari, shar-palarini eshitdi. Bir oldilariga bormoqchi, ular bilan o‘ynamoqchi bo‘ldi, lekin o‘zini tiydi. Nojo‘ya ish qilib qo‘ysa, yana quvishsa! Yo‘q, endi u bunday yashagisi kelmasdi.

Bir mahal qo'ra chetidan bitta qo'yning hurkib, g'o'ldiragani eshitildi. Bo'rikalla osmonga qarab bir uvladi-da, qayoqqadir chopib ketdi. Shu payt uning «vag'-g'» degani va ingragani eshitildi.

Ko'ktoy o'sha yoqqa bor kuchini to'plab yugurdi. Qo'raning orqasida beshtami, oltita bo'ri Olabuqani o'rab olishgan va sekin-sekin unga yaqinlashmoqda edi. Olabuqa irillab tisarila boshladi. Tisarilib, beixtiyor orqasidan bosib kelayotgan bo'rini ko'rmay qoldi. Hammasini yaxshi ko'rib borayotgan Ko'ktoy bir sakradi-da, Olabuqaning orqasidagi bo'rining ustiga tushdi, uning ustidan o'zini o'rtaga otdi. Bo'rilar Olabuqani tashlab, o'zlarini Ko'ktoygga otdilar. Jang uzoq davom etmadi, Ko'ktoy birin-ketin uchta bo'rini qulog'i aralash jag'idan tishlab yiqitdi. So'ng, gir aylandi-da, Olabuqaga yopishayotgan bo'rining bo'g'zidan oldi.

Beliga tishlarini botirgan bo'ri qochdi. Ko'ktoy uni quvmoqchi bo'lganida, miltiq ovozi eshitildi. Umrida u ikkinchi marta o'q ovozi eshitishi edi. Nima qilishini bilmay, to'xtab qoldi. Shu tob tepasidan bir bo'ri otilib tushdi-da, ikkala ko'zi aralash boshini g'ajiy boshladi. Ko'ktoy qancha tirishmasin, bo'ri uni qo'yib yubormas, o'tkir tishlari battar ko'zlariga botar edi. Ko'ktoy og'rig'iga chidolmay, boshini bir silkitdi-da, ustidagi bo'rini ag'darib tashladi. Shu payt bo'rining bo'g'ziga Olabuqa tashlanganini ko'rdi.

Ko'p o'tmay hamma narsa tinchidi. Faqat ba'zi qo'ylar hamon qo'rquv aralash ma'rashar, olisdan cho'ponning so'kingan ovozlari kelardi.

Ko'ktoy gandiraklab-gandiraklab g'arb tomonga yo'l oldi. Bitta-bitta yurib borar ekan, qornidan ni-

madir tushib sudralib kelayotganini, ko'zlari hech narsani ko'rmay lo'qillab og'riyotganini sezdi.

G'aramga yetganda o'z joyini topib, yotdi.

Qo'ra tomonda esa cho'pon cholning bo'g'ilib:

– Bo'rikalla! Ko'ktoy! – deb qichqirganini eshitdi.

U ko'zini ochib, boshini ko'tarmoqchi bo'lgan edi, zim-ziyo qorong'ilikdan boshqa hech narsani ko'rmadi, allaqanday sho'r suyuqlik og'ziga oqib tushdi. Sekin egilib qornini yaladi, qorniga ham nima bo'lganini bilmadi.

U ohista boshini ko'tarib, oldingi oyoqlarini uzatdi-da, ikkala lovullab yonayotgan ko'zlarini shu oyoqlari orasiga oldi.

– Ko'ktoy! Bo'rikalla! – yana cho'ponning ovozi eshitildi.

Ko'ktoyning qimirlashga majoli yo'q edi.

Ertalab g'ira-shirada Cho'pon qo'raning orqa tomonida beshta bo'rining o'ligini ko'rdi. Ulardan nariroqda qorni bo'g'izigacha yorib tashlangan Bo'rikalla yotardi. Ko'ktoy hech qayerda yo'q edi. Bo'rilarni cho'pon bitta-bitta qarar ekan, Bo'rikalla birinchi bo'lib halok bo'lganini bildi. To'rtta bo'ri bir xil, quloqlari, bo'g'zi aralash tishlab o'ldirilgan edi. Cho'pon hech shubhasiz bu Ko'ktoyning ishi ekanini tushundi. Ustiga sakrab Ko'ktoy chala o'lik qilib qo'ygan beshinchi bo'rini Olabuqa tugatgan edi.

«Esiz it! – xayolidan o'tkazdi cho'pon. – Jang bilmaganda hali. Lekin o'zi qani?»

– Ko'ktoy! Polvon it! Azamat it! Ma! Bu yoqqa kel!

Ko'ktoy hech qayoqda yo'q edi. Shu payt cho'ponning oldiga dumg'azasi qonga belangan Olabuqa ingrab keldi.

– Senga ham qoyilman. Yarang tuzalib ketadi, – dedi cho‘pon uning boshini silab. – Lekin yangi oshnang qani, Ko‘ktoy qani? Bolapaqir qani?

U shunday deb, qorga tomgan va qo‘ra yonidan ipdek chizilib ketgan qon tomchilarini ko‘rdi. U shu tomonga yurdi. Tomchilar uni pichan g‘aramiga olib keldi.

Ko‘ktoy kechagi yotgan joyida, yer bilan bitta bo‘lib yoyilib ketgan pichan ustida yotardi.

– Voy azamat! Shatta ekansan-ku! Indamay-san-a?

Ko‘ktoy sal qimirlagandek bo‘ldi.

– Hozir men dori olib chiqaman, seni davolaymiz. Attang, attang!

Cho‘pon o‘tovga yugurib ketdi.

Ko‘ktoy deyarli uni eshitgani yo‘q. Boshi g‘uvillar, kimdir uni, kichkina kuchukchani bo‘ynidan ko‘tarib, qopga solmoqchi bo‘lar, u esa bir kuchini to‘plab kichkina yapaloq oyoqchalari bilan qopni itarardi.

Cho‘pon doka, bint, dorilar ko‘tarib keldi-da, yana chaqirdi.

– Ko‘ktoy! Azamatim, Ko‘ktoy!

Ko‘ktoy ingrab ham javob qilmadi.

Cho‘pon ko‘kragiga qo‘lini qo‘yib, sekin qimirlatdi. Ammo buzoqdek cho‘zilib yotgan it qimirlamadi.

– Attang, attang! Uvol ketding, jonivor! Hali qanaqa it bo‘larding?! Cho‘ponlarning havasi, bo‘rilarning kushandasi bo‘larding! O‘zim o‘rgatardim. Eh-ha, biz bo‘lgan joyda bo‘rining soyasi ham bo‘lmasdi!..

O‘sha kuni kekxa noma‘lum cho‘pon Ko‘ktoyni qo‘raning yoniga chuqur qazib ko‘mdi. Yoni-

ga Bo'rikallani qo'ydi. Qabrlar ustiga katta tosh topib kelib bostirdi-da, uzun tayoq qoqib qo'ydi.

Etaklarini qoqib o'rnidan turar ekan, yana alam bilan dedi:

– Attang! Yosh ketdi! Bola ekan-a, bola!.. Olabuqa! Bu yerni hech tita ko'rma. Na yozda, na qishda...

10

Ikki yarim yil ichida Kozim juda o'zgarib ketdi. Ilgarigi o'yinqaroqligi yo'q. Ota-onasi bilan ham muomalasi sovuq.

Bir kuni onasi ishdan qaytayotganda bozorning oldida bir laycha it unga ergashdi. Suyunib o'zi bilan birga uyga olib keldi. Kozim xursand bo'ldi.

Ona-bola unga temir tog'orachada ovqat berishar ekan, it bir-ikki timirskilandi-da, yemadi.

– Ko'ktoy boshqacha it edi, – deb yubordi beixtiyor Kozimning onasi. – Nima bersang, hammasini yerdi, hech qayoqni iflos ham qilmas edi!..

– Hali ham olib kelib beraqolsaylar nima qiladi? – zarda bilan xunob bo'lib so'radi Kozim.

Onasi javob bermadi.

1986

MUNDARIJA

Odam bo'lish qiyin (roman)	3
Garov	262
Oqsoqol	278
Bo'ribosar	296

Adabiy-badiiy nashr

O'LMAS UMARBEOV

ODAM BO'LIQ QIYIN

(Roman va hikoyalar)

Muharrirlar
Usmon QO'CHQOR,
Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Musahhih
Sadoqat QARSHIBOYEVA

Kompyuterda sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktyabrda berilgan.

Bosishga 2015-yil 28-martda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 11,0. Shartli bosma tobog'i 18,48.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozi.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 75.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-36-89;

Marketing bo'limi – 128-78-43. faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru